

# О'ЗВЕК ТИЛИ МЕ'ЙОРЛАРИ ПУНКТУАЦИЯ




ЎЗБЕК ТИЛИ  
МЕЪЁРЛАРИ  
пунктуация


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

**O'ZBEK TILI  
ME'YORLARI  
(PUNKTUATSIYA)**



36934



Тошкент  
“Zamin nashr”  
2021

**УЎК 811.512.133:003.086**

**КБК 81.2-2(5Ўзб)**

O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr,  
2021. – 232 b.

**Tuzuvchilar:**

**Nizomiddin Mahmudov**, filologiya fanlari doktori, professor  
**Abduvahob Madvaliyev**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Ne’mat Mahkamov**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**Dilrabo Andaniyozova**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori

**Mas’ul muharrir:**

**Yorqinjon Odilov,**

filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek  
tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashining 2020-yil  
2-dekabrdagi 8-yig‘ilish qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi Respublika ta’lim markazi  
ilmiy-metodik kengashining 2015-yil 15-iyundagi qarori bilan  
ma’qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9943-6888-4-1**

**© Zamin nashr, 2021**

## ME'YOR TILNING YASHASH SHAKLIDIR

Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan shakli sifatida aniq me'yor hamda qoidalar asosida ish ko'radi. Milliy adabiy tilni, uning og'zaki va yozma shakllarini puxta egallahda me'yorlarning o'rni muhimdir. Tilshunoslikda **me'yor** tushunchasi mutaxassislar tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va til egalariga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatini anglatadi. Har qanday tilning muayyan qolipga solingan, belgilangan me'yorlarining borligi o'sha til qoidalarining qat'iyligi, o'rganilishi qulayligini ta'minlovchi muhim omillardandir. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda tilning milliy xususiyatlarini ham hisobga olish zarur.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida adabiy til me'yorlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, kitoblar nashr etilgan. Masalan, "Adabiy norma va nutq madaniyati" kitobida o'zbek adabiy tili quyidagi me'yorlar asosida ish ko'rishi qayd etilgan:

1. Fonetik me'yorlar.
2. Leksik-semantik me'yorlar (so'z qo'llash).
3. Talaffuz (orfoepik) me'yorlari.
4. Aksentologik (urg'uning to'g'riligi) me'yorlar.
5. Grammatik me'yorlar.
6. So'z yasalish me'yorlari.
7. Imloviy me'yorlar.
8. Grafik (yozuv) me'yorlar.
9. Punktuatsion me'yorlar.
10. Uslubiy me'yorlar<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent, 1983. – B. 75.

Bu o‘rinda biz diqqat qiladigan jihat o‘zbek tili punktuatsiyasi me’yorlaridir. Savodxonlikni oshirishda orfografiya – to‘g‘ri yozishning o‘rni qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash ham shunchalik muhimdir. Zero, yozuvda tinish belgilarining o‘rinli ishlatalishi nafaqat yozuv egasining, balki millatning saviyasini, yozuv madaniyatini ko‘rsatib turadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining punktuatsion me’yorlari ancha avval o‘rganilgan va mavjud qoidalar ancha barqarorlashgan bo‘lsa ham takomillashtirilishi zarur jihatlar bor edi. Tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog‘liq asosiy qoidalar 2015-yilda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va chop etilgan edi<sup>2</sup>.

Mazkur kitobda zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi me’yorlari, tinish belgilarining qo‘llanishi kabi turli masalalar haqida fikr yuritiladi.

Ushbu kitobning birinchi qismini yozishda punktuatsiya bo‘yicha izlanish olib borgan K.Nazarov, Sh.Shoabdurahmonov, H.G‘oziyev, H.Jamolxonov, B.Bahriiddinova kabi tilshunoslarning ishlariga lozim o‘rinlarda murojaat qilindi.

---

<sup>2</sup> Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий коидалари. – Тошкент, 2015.

## PUNKTUATSIYANING MAQSADI VA NAZARIY ASOSLARI

Yozuv tarixiga nazar solinsa, insoniyat hozirgi tinish belgilarini qo'llamasdan oldin ham o'z fikrini yozuvda turli vositalar orqali to'g'ri anglatishga intilgani ayonlashadi. Shunday intilish yoki izlanishlar natijasida yozuvlarning o'tmishida har xil belgilar paydo bo'lgan. Bu belgilar turli xalqlar yozuvlarida ko'p hollarda shaklan bir xil yoki qisman o'zgacha bo'lgan va, asosan, bir xil vazifada qo'llangan.

Hozirgi davr yozuvini tinish belgilarisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki yozma nutqning har tomonlama rivojlanishi, matbuot va nashriyot ishlarining keng taraqqiy etishi, fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ko'plab kitoblarning nashr etilishi yozuvning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaga bo'lgan hayotiy talab va ehtiyojni kuchaytirdi. O'zbek tilshunosligida ham punktuatsyaning vazifalari va qo'llanish doirasi kengaydi, bu borada muayyan izlanishlar olib borildi, o'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari ishlab chiqildi.

Tilshunoslikda punktuatsiya termini tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalalar majmui va tinish belgilarining o'ziga nisbatan ishlatiladi. Punktuatsiya (lotincha *punktum* – nuqta) – tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida tinish belgilari tizimi va ularning qo'llanish qonun-qoidalalarini o'rGANADI. Punktuatsiya qoidalari va me'yorlarini bilish esa yozma fikrni aniq va to'g'ri, mantiqli va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda muhimdir.

Tinish belgilarining asosiy vazifasi yozuvda ifodalanadigan nutqning fikriy bo'linishini, gapning qanday qismlarga ajralishini va u

bo‘laklarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Bundan tashqari, tinish belgilari qo‘sishimcha ma’no bo‘yoqlarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunda ular nutqning biror bo‘lagi yoki gap qanday mazmun anglatganini ifodalash uchun ishlatiladi.

Shunday holatlar bo‘ladiki, tinish belgilari o‘rnining o‘zgarishi yoki o‘z o‘rnida ishlatilmasligi gap mazmunini butunlay o‘zgartiradi. Masalan:

*Afandi podshoga qarab: “Siz ahmoq odam emassiz”, – dedi.* (Latifadan) Mazkur gapda *ahmoq* so‘zidan keyin vergul qo‘yilsa hamda og‘zaki nutqda qisqa to‘xtam bilan aytilda, gapdan podshoning aqliligi emas, balki ahmoq va yomon odamligi anglashiladi. Aksincha, yozuvda vergul qo‘yilmasa, og‘zaki nutqda qisqa to‘xtam bo‘lmasa, podshoning ahmoq emasligi tushuniladi.

Zamonaviy rus punktuatsiyasi bilan shug‘ullangan N.S.Valginaning shunday gapi bor: “Tinish belgilarini o‘rganish mumkin emas, balki ularni qo‘llashni o‘rganish kerak”.<sup>3</sup> Olima bu fikri zamirida tinish belgilarini keng vazifalarga, imkoniyatlarga egaligini ham nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki tinish belgilari dastlab faqat grafik belgi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, hozir ularning vazifalari bir qadar kengaygan. Olima fikrida davom etib yozadi: “Zamonaviy tinish belgilari o‘zida ulkan imkoniyatlarni mujassam etadi, ular yozuvchiga nafaqat fikrlarini, balki his-tuyg‘ularini ham yetkazishda yordam beradi”.

Darhaqiqat, punktuatsiya, bir tomonidan, ijodkorga o‘z yozma nutqini aniq, to‘g‘ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomonidan, o‘quvchiga muayyan matndagi fikrni muallif bayon etganidek, u ko‘zda tutgandek tushunishini ta’minlaydi.

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Валгина Н. С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С. 12.

Umuman, savodxonlikni oshirishda orfografiya (imlo) qoidalarini egallash qanchalik zarur bo‘lsa, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llay bilish malakasini hosil qilish ham shunchalik ahamiyatlidir.

Punktuatsiya ijtimoiy hodisa sifatida davr o‘tishi, yozuvning taraqqiy etishi bilan o‘zgarib, takomillashib kelgan. Tabiiyki, yozuvda dastlab qo‘llanilgan tinish belgilarining qo‘yilish o‘rni hozirgi holatidan boshqacha bo‘lgan, qolaversa, vazifalari hozirgidek aniq va murakkab ham bo‘lmagan. Masalan, o‘zbek punktuatsiyasi masalalari bilan shug‘ullangan tilshunos K.Nazarov dastlab yulduzcha va romb ko‘rinishidagi o‘ndan ortiq ishoralarining nuqta vazifasida ishlatilgani haqida ma’lumot bergen<sup>4</sup>.

Tinish belgilari ichida eng qadimiysi nuqta bo‘lib, bu belgi nomi keyinroq tinish belgilarini o‘rganadigan soha nomining kelib chiqishiga asos bo‘lgan. Dastlab nuqta vazifasida turli shakldagi ishoralar (romb, aylana, yulduzcha, to‘rtburchak va b.) qo‘llangan. Jumladan, qadimgi lotin, yunon, got yozuvlarida so‘zlar ba’zan bo‘sh joy (interval), ba’zan nuqta yordamida bir-biridan ajratilgan. Yozuvda so‘zlarni nuqta bilan ajratish O‘rta Osiyo xalqlarining oromiy, runik yozuv namunalarida ham qisman uchraydi.

XIX asrning oxiriga kelib nuqtaning hozirgi qo‘llanish o‘rni qat’iy lashgan. Bundan ko‘rinadiki, davr talabiga bog‘liq holda punktuatsion tizim ham o‘zgarib boradi, mukammallahadi, qat’iy lashadi. Shuningdek, tinish belgilari soni, ularni qo‘llash me’yorlari tillararo har xildir. Punktuatsiya ayrim xalqlar yozuvida oldin, ayrimlarida esa nisbatan keyin paydo bo‘lgan.

Bugungi kunda tinish belgilari nafaqat gapning sintaktik qurilishi, intonatsiyasiga, balki semantik strukturasiga, ifoda maqsadiga ham ta’sir etadigan muhim vositaga aylangan.

<sup>4</sup> Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 7.

Punktuatsiya yozuv singari millatning madaniy boyligi hisoblanadi. Undan fan, ta’lim, matbuot, nashriyot, maorif va madaniyat xodimlari, umuman, jamiyat hayotining barcha jabhasida keng foydalaniladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiy tili va uning vazifaviy uslublari taraqqiyoti, yozuv madaniyatining o‘sishi, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi punktuatsiyaning ijtimoiy-amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shulardan kelib chiqib, tinish belgilarining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Yozuv orqali ijodkor (muallif) va o‘quvchi o‘rtasida amalga oshadigan ijtimoiy aloqa-aratashuvning to‘g‘ri borishiga yordam berish. Agar muayyan gap yakunida ijodkor undov yoki so‘roq belgisini qo‘ysa, o‘quvchi shu belgilar yordamida gapda so‘roq yoki undov, his-hayajon mazmuni borligini anglaydi va muallif maqsadini aniq tushunadi.

2. Yozma nutqdagi maqsad, mazmun va so‘zlearning ma’no qirralarini aniqlashtirishda ishtirot etadi. Masalan, gap oxiriga qo‘yilgan nuqta, so‘roq va undov belgisi yoki ko‘pnuqta shu gapda qanday mazmun, so‘zlovchining nutqiy maqsadi ifodalanganligini bildiradi, ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydi.

3. Gap qurilishini aniq belgilashga yordam beradi. Bunda gap bo‘laklari, gapning tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda yoki qo‘shma), uyushiq va ajratilgan bo‘laklar, undalma, kiritmalar orasidagi chegarani, bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari hamda muallif va ko‘chirma gap o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi.

4. Yozma nutqning ixcham va ravon ifodalishini ta’minlaydi. Qiyoslang: *Toshkentdan Buxoroga qatnaydigan poyezd / “Toshkent – Buxoro” poyezdi*. Keyingi misolda tirening qo‘llanishi gapni ancha ixchamlashtirgan.

5. Yozma nutqda murakkab fikriy munosabatlarni ifodalashda qo‘llanadi. Masalan, badiiy asarlarda qahramon ruhiyati va his-tuyg‘ularini berishda ijodkorlar tinish belgilardan unumli foydalanadilar. Masalan:

– *Umid... bormi, tabib?.. – Tursunboy jontalashning ovozi titrab chiqdi.* (U.Hamdam. Isyon va itoat)

– *Yomonlik qilmagan bo‘lsangiz muncha qo‘rqasiz, Rahimboy aka?! O‘g‘ri emassiz, buzuqi emassiz – to‘g‘rimi?! – Rahimqul Bozorning o‘ziga tikilib turgan ko‘zlariga tik boqolmay tarrakdek qotdi.* (X.Do‘stmuhammad. So‘roq)

Gaplarning birinchisida ko‘pnuqta orqali qahramonning ichki qo‘rquvi, gapirishga botina olmayotgani ifodalangan bo‘lsa, so‘roq belgisi va ko‘pnuqtaning birga qo‘llanishi savol beruvchining kuchli hayajonini yoritishga xizmat qilgan. Ikkinchi gapda so‘roq va taajjub munosabatlari ifodalangan.

Ma’lumki, qadimgi yozuvsular, piktografik (rasmga asoslangan yozuv) yoki logografik (alohida belgi, shakllar orqali fikr ifodalash) shaklda bo‘lganligi sababli tinish belgilari ehtiyoj sezilmagan. Ijtimoiy ongning o‘sishi va shunga bog‘liq holda yozuvning taraqqiy etishi bilan tinish belgilari vazifasini bajaruvchi turli ishoralar, keyinchalik tinish belgilari ishlatila boshlangan.

Punktuatsiyaning paydo bo‘lish davri turli tillarda har xil bo‘lib, ularning xususiyatlari ham bir-biridan farqli bo‘lgan. Masalan, an’anaviy punktuatsion tizimning shakllanishi Yevropa yozuvida XV asrdan, rus yozuvida XVIII asrdan, o‘zbek yozuvida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Shu sababli punktuatsiya tarixi har bir xalqning yozuv tarixi, madaniyati asosida o‘rganiladi.

Ilmiy manbalarda punktuatsiyaning paydo bo‘lish asoslari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi<sup>5</sup>:

1. Yozuv tizimining murakkablashuvi – sintetik usuldan analitik usulga o‘tilishi.

2. Yozuvning takomillashuvi natijasida tinish belgilarini qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj, zaruratning tug‘ilishi.

3. Til va tafakkurning dialektik taraqqiyoti tufayli turli holat va emotsiyal-ekspressiv munosabatlarni ifodalash zaruriyatining paydo bo‘lishi, shuningdek, tilning nafaqat aloqa vositasi, balki estetik hodisa sifatidagi mohiyatining takomillashuvi natijasida punktuatsiya va boshqa yondosh hodisalar integratsiyasining yuzaga kelishi.

4. Turli yozuvlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Masalan, G‘arbiy Yevropa yozuvining rus punktuatsiyasi taraqqiyotiga, kirill alifbosiga o‘tilishi bilan rus yozushi va punktuatsiyasining o‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotiga ta’sir etishi va hokazo.

### **Tinish belgilarining o‘ziga xos xususiyatlari**

Tinish belgisiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri – ularning maxsus shaklga ega bo‘lishidir. Shu jihatni bilan tinish belgilari yozuvdagi boshqa vositalar (belgilar)dan farqlanadi. Va, albatta, yozuvda ishlatilgan har qanday ishora (belgi)ni tinish belgilari sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Masalan, yozuvdagi ayrim so‘zlar yoki jumlalarni ajratib ko‘rsatish jihatidan kursiv (qiyalama, so‘zlarni bir tomoniga egib yozish)ning vazifasi qo‘shtirnoqning ba’zi vazifasiga o‘xshaydi, lekin kursiv tinish belgisi emas.

<sup>5</sup> Bu haqda qarang: Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 28–29; Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 7.

Rus tilshunosligida abzasni punktuatsion vositalar tizimi ichida qarash an'anasi mavjud. Masalan, A.N.Gvozdev tinish belgilarini sharhlar ekan, shunday yozadi: “Vazifasiga ko‘ra abzas tinish belgilari sirasiga kiradi... Abzas yangi fikrlar qatorining ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi; abzas ichida mustaqil gaplar bilan ifodalangan fikrlar, baribir, mazmunan birlashgan bo‘ladi va muayyan kichik mavzuni rivojlantiradi... Bir necha gap yoki hatto bitta gapni alohida abzas sifatida ajratish bu gaplarga muayyan salmoq baxsh etadi, bunday ajratish muallif tomonidan o‘z maqsadiga bog‘liq tarzda amalga oshiriladi”<sup>6</sup>.

Ta’kidlash lozimki, abzasni tinish belgilari qatoriga kiritish uchun grammatik asos yo‘q va u o‘z grafik shakliga ham ega emas. Shu sababli abzas ham tinish belgisi hisoblanmaydi.


Biz tinish belgilarining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ko‘rsatamiz:

1. Tinish belgilarining har biri o‘z grafik shakli va qo‘llanish tizimiga ega. Tinish belgilarining ayni jihatini ba’zi belgilarga qiyoslash orqali aniq tasavvurga kelish mumkin. Masalan, oraliq belgisi (probel) yozuvda so‘zni boshqa so‘zdan ajratadi, lekin tinish belgisi bo‘lish uchun ajratish xususiyatining o‘zi yetarli emas. Aytilganidek, umumme’yor asosidagi o‘z grafik shakliga ega bo‘lishi kerak.

2. Tinish belgilarining qo‘llanishi nutqning ifoda maqsadi, semantik-grammatik tuzilishi bilan bog‘liq. Masalan, darak gap oxirida qo‘yiladigan nuqta shu gapdan darak, xabar mazmuni ifodalanayotganini bildiradi va gapning tugallanganligini ko‘rsatadi.

<sup>6</sup>Bu haqda qarang: Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019. – Б. 70.

3. Har bir tinish belgisi muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Tinish belgilari milliy yozuvning tarkibiy qismi bo‘lib, umumiy me’yorlar asosida qo‘llanadi. Nutqning shaklidan qat’i nazar, aniq bir ma’noni ifodalaydi, birdek tushuniladi va tasavvur qilinadi. Demak, tinish belgilari kishilar o‘rtasida yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabat – fikrlashuvni ta’minlash uchun xizmat qiladi.



## O'ZBEK PUNKTUATSIYASI TARIXI

Ilmiy manbalarda o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanish davri sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi ko'rsatiladi<sup>7</sup>.

Tarixda o'zbekcha matnlarda hozirgidek shakl va mazmundagi tinish belgilari qo'llanmagan, ammo qadimgi qo'lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo'laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlataligan.<sup>8</sup> Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari qo'lyozmasida (Istanbuldagi Millat kutubxonasi, arabcha asarlar bo'limi, inv. №4189) turkiy so'z va unga berilgan turkiy misollarni matnda ajratish uchun tepasiga qizil chiziq tortilgan. Bob nomlari, misollar, izoh uchun keltirilgan harflar qizil siyohda berilgan. Asardagi har bir so'z-maqola bargsimon belgi bilan ajratilgan<sup>9</sup>.

Shuningdek, professor Q.Sodiqov ham tinish belgilarining qo'llanish tarixiga diqqat qaratib, quyidagilarni keltiradi: "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Namangan (TDSHI qoshidagi Sharq qo'lyozmalari markazi, inv. №1809) hamda Qohira (Misr milliy kutubxonasi, inv. №168) nusxalarida bob nomlari alohida qatordan berilgan. Namangan nusxasida bob nomlari almashtirilib, qora va qizil siyohda bitilgan. Qohira nusxasida asar ichidagi bob nomlari asosiy matndan katta harflar va qalinqroq siyoh bilan ajratilgan. Asarning Hirot nusxasida (Vena milliy kutubxonasi) matndagi so'zlar

<sup>7</sup> Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 31.

<sup>8</sup> Фозиев Х. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент, 1979. – Б. 5.

<sup>9</sup> Bu haqda qarang: Алимухаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни anglash учун ishlatalgan ishoralar haқida // Xorijий филология. 1-сон. – Тошкент, 2016. – Б. 49.

va ba'zi harflarni to‘g‘ri tushunish uchun, o‘rni bilan, arab yozuvidagi harflardan foydalanilgan”<sup>10</sup>.

Umuman, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, taraqqiyot yo‘llari hamda ilmiy nazariy asoslari masalasi ancha murakkab. Mutaxassislar bu murakkablikning sabablarini quyidagi omillar bilan bog‘liq deb hisoblaydi:

- 1) o‘zbek punktuatsiyasi tarixining keng va chuqr tekshirilmaganligi va ilmiy asosda yetarlicha o‘rganilmaganligi;
- 2) qadimgi o‘zbek tili yodgorliklarining arab alifbosida bo‘lganligi, ulardan ma’lum qismining umumturkiy tillarga mansubligi;
- 3) o‘zbek tili yodgorliklarining yakka shaxslar – xattotlar tomonidan ko‘chirilganligi;
- 4) O‘zbekistonda matbaachilikning paydo bo‘lishi, matbuot va nashriyot ishlarining rivojlanishi<sup>11</sup>.

Punktuatsiya tarixini belgilashda xalqning yozuv tarixi muhim o‘rin tutadi, chunki yozuv tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar punktuatsiya tarixini davrlashtirishda asosli ma’lumotlar beradi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida so‘g‘d, o‘rxun-enasoy, uyg‘ur, arab, lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan va ularda ham muayyan belgilar, ishoralar qo‘llanganki, bularning barini hozirgi o‘zbek tili punktuatsiyasining asoslari deyish mumkin. Masalan, V – VIII asrlarda O‘rta Osiyoda keng ishlatilgan runik yozuvlarda “ajratuvchi belgilar”dan foydalanilgan.

Qadimgi manbalar tadqiqi bo‘yicha izlanish olib borgan olimlarning ma’lumot berishicha, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari orasida “Irq bitigi” turli ishoralarga boyligi bilan ajralib turgan. Undagi ishoralar haqida quyidagi fikr aytildi: “Asardagi bo‘limlar

<sup>10</sup> Содиков К. “Кутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. – Тошкент. 2010. – Б. 16–18.

<sup>11</sup> Назаров К. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 30.

bir-biridan qora siyohli qo'shaloq kelgan bir, ikki, uch hamda to'rtta kichik dumaloqlar tizimi bilan ajratilgan. Dumaloqlarning ichi qizil siyoh bilan bo'yalgan. Bu tartibga asarning boshidan oxirigacha amal qilingan. Asarning har bir bo'limi yangi qatordan boshlangan”<sup>12</sup>.

Shuningdek, bu davr yodgorliklarida ikki nuqta (:) bilan bir qatorda, bir nuqta (•) ham qo'llangan bo'lib, ushbu belgilar (qizil siyohda) so'z va jumlalarni bir-biridan hamda qo'shimchalarni so'zlardan ajratishga xizmat qilgan.

VIII asrga kelib arab yozuvi qo'llana boshlangach, “ajratuvchi belgilar” bilan bog'liq an'ana buzilgan va ularning o'rniga arab yozuviga xos boshqa ishoralardan foydalanilgan.

Manbalarda arab yozuvida “yordamchi vositalar” sifatida quyidagi ishoralar qo'llangani haqida ma'lumotlar uchraydi:

- a) “ta'kid belgilari” – tik to'g'ri chiziq, qizil va quyuq qora ranglar;
- b) “ma'no belgilari” – Qur'ondagи turush va determinativlar;
- d) “bezak belgilari” – bular XIV – XIX asrlarda yozuvda keng qo'llangan bo'lib, bu davrda arab yozuvini isloh qilish, shuningdek, so'zlarni ajratib yozish an'anasi yuzaga kelgan;
- e) tinish belgilari. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, arab grafikasi asosidagi o'zbek yozuvida maxsus tinish belgilari qo'llana boshlagan<sup>13</sup>.

O'zbek tili punktuatsiyaga doir tadqiqotlardagi fikrlarga tayanib, o'zbek punktuatsiyasi tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin<sup>14</sup>:

<sup>12</sup> Алимуҳаммедов Р. Қадимги туркӣ битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида // Хорижий филология. 1-сон. – Тошкент, 2016. – Б. 51.

<sup>13</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 31; Фозиев X. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тарақкиёти. – Тошкент. 1979.

<sup>14</sup> Bu haqda qarang: Назаров К. Ко'rsatilgan asar. – Б. 30–33; Bahriiddinova B. Zamonaeviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – Б. 8–9.

1. I – VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuvdagi manbalarda ishlatilgan tinish belgisi xarakteridagi vositalarning dastlabki vazifasi ajratish bo‘lgan, ya’ni gap qismlari ma’lum oraliq masofa – intervallar vositasida ajratilgan. Bu belgilar hech qanday ma’no ifodalamagan, shunchaki so‘zlarning o‘zaro qo‘silib qolmasligiga xizmat qilgan.

2. IX – XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyotidagi bu davrda arab grafikasiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi amalda bo‘lgan va ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so‘roq, buyruq kabi qo‘sishimcha vazifalarni bajara boshlagan. Ma’nolarni yoki gap mazmunini farqlash uchun nuqtaning turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr. Bu vaqtga kelib tinish belgilari tizimi va ularning vazifalari aniqlashtirilgan va til egalarida tinish belgilarini qo‘llash malakasi shakllangan. Bosmaxonalar, nashriyotlar paydo bo‘lib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etilgan. Tabiiyki, bunda nashr etilgan ishlardagi har bir fikrni o‘quvchiga aniq va to‘g‘ri yetkazish zaruriyati tug‘ilgan. O‘zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871-yilning 28-apreldidan boshlab, 1917-yilning boshlarigacha (deyarli 50 yil mobaynida) muntazam ravishda nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazeti” muhim o‘rin tutgan. Bu davrda tarjimachilik ham juda rivojlangan va ayni jarayonda asliyatdagi tinish belgilari ham o‘zbekcha nusxaga o‘tgan.

4. XX asrning oxiridan hozirgacha bo‘lgan davr. Sohada izlanishlar olib borgan tilshunoslar tomonidan punktuatsiyaning nazariy va amaliy masalalari o‘rganilgan, tinish belgilarini qo‘llash bo‘yicha qoidalar takomillashtirilgan.

O‘zbek punktuatsiyasi tarixi haqida so‘z borar ekan, bevosita Alisher Navoiyning tinish belgilari vazifasida qo‘llagan turli ishoralari qiziqtirishi tabiiy. Ilmiy manbalarda shoir asarlarida turli maqsadlarda bir necha ishoralar qo‘llangani haqida ma’lumotlar bor.

Masalan, R.Alimuhammedov quyidagilarni yozadi: “Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo‘limida (inv. №4056) saqlanayotgan Alisher Navoiyning kulliyotida jamlangan barcha asarlarida qora va qizil siyohdan keng foydalanilgan. Jumladan, “Majolis-un-nafois” qo‘lyozmasida har bir majlis va unda keltirilgan shoirlar nomi qizil siyohda bitilgan. Misol tariqasida keltirilgan she’riy parchalar oldidan yozilgan *she'r* so‘zi qizilda berilgan. Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, “Munshaot” ichida berilgan nazmiy parchalar asosiy matndan joy tashlab bitilgan. Matnga ko‘z tashlagan o‘quvchining diqqatini matnning mana shu yeridagi bo‘sh joy o‘ziga tortadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchiga matnni tushunishga yordam beradi”<sup>15</sup>.

Umuman, qadimgi turkiy matnlarda hozirgi davrdagidek punktuatsion belgilar qo‘llanmagan bo‘lsa-da, ularda o‘quvchi uchun matnni anglash va undagi fikrni tushunish uchun turli ishoralardan foydalanilgan. Bularga matnning turli ranglarda berilishi, matnosti va matnusti belgilari, matn orasida joy qoldirish, so‘zlar orasida turli belgilarning ishlatalishi va boshqalarni keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotida o‘zbek vaqtli matbuotining birinchi qaldirg‘ochi bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti” salmoqli o‘rin tutadi. Bu gazeta o‘sha davr o‘zbek madaniyati, o‘zbek adabiy tili va o‘zbek grafikasining namunasi sifatida ham muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, gazeta o‘zbek yozuv madaniyatining yanada rivojlanishi va takomillashuvida, o‘zbek adabiy tili me’yorlarining shakllanishi va takomilida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, uning shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot qonunlarini o‘rganishda tadqiqotchilar mazkur manbaga asoslanadilar. Jumladan,

<sup>15</sup> Алимуҳаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳакида. **Хорижий филология.** 1-сон. Тошкент, 2016. – Б. 50.

K.Nazarov o‘z tadqiqotida “Turkiston viloyatining gazeti”ga ko‘p murojaat qilgan<sup>16</sup>.

Olimning yozishicha, “o‘sha davr yozuvida qo‘llanuvchi barcha yozuv belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da ham ishlatilganini ko‘ramiz. Bularni shunday guruhlab o‘rganish mumkin:

- a) harflar;
- b) raqamlar;
- d) turli fanlarga oid ilmiy belgilar;
- e) tinish belgilari (punktuatsiya);
- f) transkripsion va diakritik belgilar;
- g) turli shakldagi “bezak” belgilar”<sup>17</sup>.

Tinish belgilarining ayni gazetadagi qo‘llanish holatlariga tayanib, o‘zbek punktuatsiyasi tarixi, tinish belgilarining o‘zbek matbuotida ishlatilish davri yuzasidan quyidagilarni aytish mumkin:

Tinish belgilari “Turkiston viloyatining gazeti”da 1870-yildan, ya’ni gazeta nashr etilgan yildanoq qo‘llana boshlangan, rus tili punktuatsiyasining tajribalaridan ijodiy foydalanilgan. Biroq hozirgi kunda amaldagi yozuvimizda qo‘llanayotgan tinish belgilarining hammasi ham gazeta sahifalarida bir vaqtan boshlab ishlatilgan emas, ya’ni ular quyidagicha birin-ketin qo‘llana boshlangan:

1. “Turkiston viloyatining gazeti”da nisbatan oldin ishlatilgan tinish belgisi tire bo‘lgan. U gazetaning 1871-yildagi 20-sonidan qo‘llangan bo‘lib, undan dastlab ish qog‘ozlari va e’lonlarda foydalanilgan.

2. Ko‘pnuqta “Turkiston viloyatining gazeti”da 1872-yilgi 18-sonidan boshlab qo‘llangan. Dastlab rasmiy qog‘ozlarda (turli hujatlar, hisob-kitob, pochta qog‘ozlari va e’lonlarda) ishlatilgan. 1901-yildan esa so‘roq va undov belgilari bilan birgalikda qo‘llangan.

3. Qavs “Turkiston viloyatining gazeti”da eng ko‘p

<sup>16</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 17–22.

<sup>17</sup> Назаров К. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 17–22.

foydalaniłgan tinish belgisi bo'lib, u 1873-yilning 6-sonidan boshlab qo'llanilgan. Shuningdek, qavsning o'sha davrdagi shakli, vazifasi, qo'llanish o'rni hozirigidan farqlangan. Manbalarda qavsning besh xil shaklda ishlatilgani haqida ma'lumot berilgan, ya'ni odatdagи qavs, katta qavs, o'rta qavs, gulli qavs, "bezak" qavs (bunda "bezak" belgisi qavs vazifasida ishlatilgan).

4. Nuqta vazifasini dastlab, bo'sh joy – jumlalar orasidagi probel bajargan. 1875-yildan boshlab, turli xil "bezak" belgilardan nuqta vazifasida foydalaniłgan. Nuqtaning hozirgi shakli gazetada 1881-yildan qo'llangan.

5. Tinish belgilarining o'zbek vaqtli matbuotida dastlabki qo'llanish usuli va shakli hozirigidan farqlangan. Masalan, so'roq, vergul, nuqtali vergul kabi tinish belgilari arab yozuviga mos ravishda o'ngdan chapga tomon yo'naltirilgan. Qo'shtirnoqning uch xil shaklda bo'lgani haqida ma'lumotlar keltirilgan: odatdagи qo'shtirnoq (" "); burchak shaklidagi qo'shtirnoq (« »); "yarimoy" yoki qo'shqavs shaklidagi qo'shtirnoq.

6. Hozirgi o'zbek tilidagi yozuvlarda amalda qo'llanayotgan tinish belgilarining hammasi "Turkiston viloyatining gazeti"da 1901-yildan qo'llana boshlangach, ularning vazifalari, qo'llanish o'rni qat'iyashgan. Yozuvda ishlatish odat tusiga kirgan<sup>18</sup>.

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilidagi aksar tinish belgilarining ishlatilishi "Turkiston viloyatining gazeti" bilan bog'liq bo'lsa, ayrim tinish belgilarining o'zbekcha matnlarda qo'llanishi bu gazetadan ancha avvalroq boshlangan.

Tinish belgilari haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlar Ashurali Zohiriyy va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydi. Jumladan, Fitrat tinish belgilarini **turush belgilari** nomi ostida o'rganib, "Nahv" asarida 12 ta tinish belgisini keltiradi hamda quyidagicha nomlaydi: "Nuqta

<sup>18</sup> Bu haqda qarang: Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 20–22.

(.), bir tinish (;), yarim tinish (,), so‘rash belgisi (?), undash belgisi (!), qo‘sh nuqta (:), tirnoqlar (“ ” ), yoyslar ( ), to‘rtqo‘l yoyslar [ ], ulkan yoyslar { }, chiziq (–), nuqtalar (...)”<sup>19</sup>.

Fitrat “Nahv” asarida tinish belgilari haqida shunday deydi: “Turush belgilari – so‘zlarni to‘plab, bir-biriga boylab gap tuzishda o‘y qulay anglansin deb turli belgililar ishlaymiz. Bularning hammasi bordan turush belgilari yoki soddacha turushlar deyiladi”<sup>20</sup>.

Demak, har bir tinish belgisi o‘zining hozirgi aniq shakli va vazifasiga ega bo‘lguncha ma’lum muddat va tajriba jarayonidan o‘tgan.

Hozirgi o‘zbek tilida 10 ta tinish belgisi mavjud bo‘lib, ularning o‘z tarixi, grafik shakli va qo‘llanishining ilmiy asoslari mavjud.

|    |                      |     |                             |
|----|----------------------|-----|-----------------------------|
| 1. | Nuqta ( . )          | 6.  | So‘roq belgisi ( ? )        |
| 2. | Vergul ( , )         | 7.  | Undov belgisi ( ! )         |
| 3. | Nuqtali vergul ( ; ) | 8.  | Ko‘pnuqta ( ... )           |
| 4. | Ikki nuqta ( : )     | 9.  | Qavs ( ), [ ]               |
| 5. | Tire (–)             | 10. | Qo‘shtirnoq – ( “ ” , « » ) |

Mavjud ilmiy manbalarda tinish belgilaringin o‘zbek yozuvida qo‘llanish tarixi quyidagicha ko‘rsatilgan:

**Nuqta** eng qadimiy tinish belgilariidan biri bo‘lib, u yozuv belgisi sifatida qadimgi arab manbalarida Abdul Malik xalifaligi (hijriy I asr) davridan qo‘llana boshlagan. Ammo qadimgi matnlarda nuqta tom ma’nodagi tinish belgisi sifatida emas, balki turli maqsadlarda ishora belgisi sifatida ishlataligan. O‘zbek manbalarida tinish belgisi sifatida **XIX** asrning ikkinchi yarmidan qo‘llana boshlangan.

<sup>19</sup> Fitrat. Nahv. – B. 8.

<sup>20</sup> Fitrat. Ko‘rsatilgan asar. – B. 6.

**Vergul**<sup>21</sup> eng ko‘p qo‘llanadigan tinish belgilar jumlasiga kiradi. Qo‘llanish o‘rni, shakli turli davrlarda va turli tillarga oid yozuvlarda har xil bo‘lgan. O‘zbek tilida vergul *teskari pesh, pesh, yarim turish, yarim tinish* kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Vergul dastlab qisqa pauza uchun ishlatilgan, keyinchalik uning qo‘llanish doirasi va vazifasi kengaygan. Vergul XV asrdan boshlab G‘arbiy Yevropada, o‘zbekcha matnlarda esa XX asrdan, xususan, “Turkiston viloyatining gazeti”da 1901-yildan, “Taraqqiy” gazetasida 1906-yildan uchraydi. Vergul eng ko‘p qo‘llanuvchi va eng ko‘p vazifa bajaruvchi tinish belgilaridan hisoblanadi.

**So‘roq** belgisi gap oxirida qo‘llanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Uning kelib chiqishi lotincha “questio” – so‘roq so‘ziga borib taqaladi. Professor A.N. Gvozdyov so‘roq belgisi (?) *questio* so‘zining bosh harfidagi *Q* ning shakliga asoslanganini ko‘rsatadi<sup>22</sup>. Dastlab so‘roq ma’nosida mazkur so‘zning birinchi harfi *Q* ishlatila boshlangan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan.

Bu belgi o‘zbekcha matnlarda 1885-yildan uchrab turgan, 1900-yildan so‘ng muntazam qo‘llana boshlangan.

**Undov** belgisi o‘zbek yozuvlarida XX asrdan ko‘pchilik tinish belgilari kabi o‘sha davrning yagona adabiy til me’yorlariga amal qilingan “Turkiston viloyatining gazeti”da muntazam qo‘llangan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha “lo” undov so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, undagi “l” harfining nuqta bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

**Qavs** o‘zbek yozuvida tinish belgi sifatida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlagan. Dastlab “Turkiston viloyatining gazeti”da 1873-yilda qo‘llangan. Qavs chegaralovchi

<sup>21</sup> Fransuzcha *vergul* demakdir.

<sup>22</sup> Bu haqda qarang: Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 60.

tinish belgilaridan bo'lib, yozma nutqdagi muayyan qismning sintaktik jihatdan boshqa qismlar bilan kuchsiz bog'langanligini, semantik jihatdan u yoki bu darajada aloqadorligini ko'rsatadi. Qavs – ikki tarkibli tinish belgisi. U yakka holda ham, qo'sh holda ham (ochiluvchi va yopiluvchi qavs) ishlatilishi mumkin.

Hozirgi o'zbek tilida qavsning qo'llanish doirasi hamda vazifasi kengaygan. Ilgari faqat asosiy gap bilan ma'nosи yaqin bo'limgan qismlar qavs bilan ajratilgan bo'lsa, hozirgi kunda asosiy matn bilan mazmun jihatdan aloqador matnlar ham qavsga olinadi. Bu o'zbek tili vazifaviy uslublarining rivojlanishi, o'zbek punktuatsiyasining takomillashuvi bilan bog'liqdir.

**Ko'pnuqta** o'zbekcha matnlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran "Turkiston viloyatining gazeti"da muntazam qo'llangan.

Ko'pnuqta ijodkorning turli his-tuyg'ulari, maqsad va istaklarini yozuvda aks ettirishga imkon beradi. Bu jihatdan ko'pnuqtaning yozma nutq uchun ahamiyati kattadir.

**Tire** (fransuzcha *tiret* – chiziqcha, *tirer* – tortish, uzaytirish) uzun chiziq bilan ifodalananadigan tinish belgisidir. Tire o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillariga kelib qo'llana boshlagan. Bu belgi gaplar, qo'shma gap qismlari, gap bo'laklari orasidagi sintaktik munosabatlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Tire 30-yillarda *chiziq* termini bilan, keyinchalik *chiziqcha* (defis)dan farqlash maqsadida *tire* termini bilan atalishga o'tgan.

**Qo'shtirnoqning** o'zbek yozuvida tinish belgisi sifatida ishlatilishi XIX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. U 1886-yildan "Turkiston viloyatining gazeti"da qo'llangan.

**Ikki nuqta** o'zbek yozuvida nisbatan keyin paydo bo'lgan tinish belgi hisoblanadi. Uning ilk qo'llanish davri XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi.

**Nuqtali vergul** o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. Bu tinish belgisi boshqa tinish belgilariga nisbatan kam qo'llanadi.

## O'ZBEK PUNKTUATSIYASI ASOSLARI

Tilshunoslikda punktuatsiya asoslari masalasi muhim muammolardan hisoblanadi. Punktuatsiya asoslari masalasi bilan punktuatsiya tamoyillarini o'zaro farqlash lozim.

Punktuatsiya asoslari deganda, muayyan tildagi tinish belgilarining qanday nazariy tayanch zaminida qo'llanishi tushuniladi<sup>23</sup>.

Punktuatsiya yozma nutqning ifoda maqsadiga asoslanadi: tinish belgilari yozma nutqda ifodalanishi lozim va zarur bo'lган maqsadga bog'liq holda ishlatalib, ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi. Maqsad har bir til grammatik qurilishiga mos ravishda turli xil shakl va usullarda ifodalanadi. Shunga ko'ra, tinish belgilari tillararo har xil qo'llanadi.

Mavjud ilmiy manbalarga ko'ra, punktuatsiya asoslari uch xil yondashuvga tayanib belgilanadi. Mazkur yondashuvlar masalaga har xil yondashish, tinish belgilarining asosiy vazifalarini turlicha aniqlash tufayli kelib chiqqan. Masalan, K.Nazarov bu qarashlarni quyidagicha guruuhlaydi<sup>24</sup>:

1. Punktuatsiyaga ma'noni asos qilib olish. Bu qarash vakillari (S.I.Abakumov, A.B.Shapiro va boshqalar) punktuatsiya qoidalarini belgilashda ko'proq mazmunga e'tibor beradilar. Tinish belgilarining qo'llanishini ma'noga bog'lab izohlaydilar.

2. Punktuatsiyaga grammatik qurilishni asos qilib olish. Ular (S.Bulich, N.Grech, Sh.Abdurahmonov va boshqalar) tinish

<sup>23</sup> Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015.

– B. 9.

<sup>24</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 34.

belgilarining qo'llanishini aniqlashda ko'proq gapning sintaktik qurilishiga diqqat qilib, tinish belgilarining ishlatilishini gap tuzilishiga bog'lab izohlaydilar.

3. Punktuatsiyaga intonatsiyani asos qilib olish. Bu olimlar (L.V.Shcherba, A.M.Peshkovskiy, H.Rustamov va boshqalar) punktuatsiya qoidalarini gapning ohangi, intonatsiyasi bilan bog'lab tushuntiradilar.

K.Nazarov bu qarashlarga quyidagicha munosabat bildiradi: "Punktuatsiya asoslarini bunday belgilash biryoqlama bo'lib, masalaning mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Intonatsiya ham, nutqning sintaktik strukturasi ham, gapning mazmuni ham alohida-alohida olinganda, ya'ni bir-biridan ajratilgan holda, punktuatsiya uchun asos bo'la olmaydi, chunki bular bir narsaning uch tomoni – bir hodisaning uch xislatidir"<sup>25</sup>.

Bizningcha ham, punktuatsiya asoslarini belgilashda nutq mazmuni, tuzilishi va ohang xususiyatlari bir butun holatda olib qaralishi zarur. Umuman, bugun rivojlangan tillarda ham zamonaviy punktuatsiya gap qurilishi, mazmun va ohang butunligiga asoslanadi<sup>26</sup>.

Shulardan kelib chiqib, o'zbek tilida tinish belgilarlarini qo'llashning asoslari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) gapning tuzilishi;
- 2) mazmuni;
- 3) ohangi.

Tinish belgilarining o'rni hamda vazifasini belgilashda mana shu uch xil hodisa alohida-alohida emas, balki yuqorida

<sup>25</sup> Назаров К. Ко'rsatilgan asar. – Б. 34.

<sup>26</sup> Bu haqda qarang: Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С. 33; Абдалиева Г.Р. Основы русской пунктуации. – Нукус, 2006. – С. 10.

ta'kidlaganidek, ularning bir butunligi nazarda tutiladi. Bular o'zaro bog'langan bir hodisaning uch tomoni – uch xususiyatidir. Nutqning tuzilishi, mazmuni, ohangi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har qanday gapda shu uch xususiyat mujassamlashadi. Masalan: *Hurmatli abiturientlar! Imtihonlarda faqat o'z bilimingizga ishoning!* Mazkur gap: 1) tuzilishiga ko'ra sodda; 2) buyruq hamda murojaat mazmuniga asoslangan; 3) ko'tariluvchi ohangga ega.

Ma'lumki, so'zlovchining maqsadi og'zaki nutqda ohang bilan, yozma nutqda gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari bilan ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, so'zlovchi maqsadini yozuvda ko'rsatishda qo'shimcha, ammo zaruriy vosita hisoblanadi. Gapda so'zlovchining maqsadi, kommunikativ niyati ba'zan faqat tinish belgilarida aks etadi: *Buvim keldilar. Buvim keldilar! Buvim keldilar?*

Tinish belgilarining o'zgarishi bilan gap ohangida, mazmunida hamda qurilishida o'zgarish yuz beradi. Masalan: *Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.* Mazkur gap tuzilishiga ko'ra qo'shma gap hisoblanib, *aziz* so'zi birinchi sodda gapning kesimi vazifasini bajarib kelgan. Aynan shu gapda tinish belgi qo'yilmasa, gap tuzilish jihatidan sodda gapga aylanadi. *Aziz* so'zi esa *farzand* so'zining aniqlovchisi vazifasida keladi. Masalan: *Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.*

Quyidagi gaplarda ham tinish belgilarining o'zgarishi nafaqat gap ohangiga, balki sintaktik qurilishi va mazmuniga ham jiddiy ta'sir etadi:

*Baxtli-taxtli bo'lgin, onang kabi baxtsiz bo'lma / Baxtli-taxtli bo'lgin onang kabi, baxtsiz bo'lma.*

*Tashqariga chiqish mumkin emas, sovuq / Tashqariga chiqish mumkin, emas sovuq.*

*To ‘g‘ri, yo ‘llarda ham mashaqqat bor / To ‘g‘ri yo ‘llarda ham mashaqqat bor.*

*Gullar chiroyli, stolni bezab turibdi / Gullar chiroyli stolni bezab turibdi.*

*Ajdodlarimiz ulug‘ temuriylarga borib taqaladi / Ajdodlarimiz ulug‘ temuriylarga borib taqaladi.*

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek punktuatsiyasi nazariy jihatdan uch muhim belgi – mazmun, ohang va gapning grammatik qurilish butunligiga asoslanadi.



## O‘ZBEK PUNKTUATSIYASI TAMOYILLARI

Punktuatsiya tamoyillari tinish belgilarning qanday usul va tartibda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Shuning uchun tinish belgilarining qo‘llanishidagi barcha qonun-qoida va tartiblar punktuatsiya tamoyillari asosida belgilanadi. Punktuatsiya tamoyillari tinish belgilarining tizimliligini ta’minlaydi, og‘zaki nutqning mazmuni, qurilishi va intonatsion xususiyatlarini yozma nutqqa ko‘chirish imkonini beradi.

Ilmiy manbalarda, o‘quv qo‘llanmalarida tinish belgilarining qo‘llanish usuli va tartibi quyidagi tamoyillar asosida belgilanishi ko‘rsatilgan<sup>27</sup>:

**1. Mantiqiy-grammatik tamoyil.** Bu tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to‘g‘ri ifodalashga asoslanadi. Ya’ni tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangiga ko‘ra qo‘llanadi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gap oxirida nuqta, so‘roq mazmunini anglatgan gap oxirida so‘roq belgisi, his-hayajon ifodalagan gap oxirida undov belgisining qo‘yilishi mazmuniga asoslangan. Quyidagi she’riy parchada so‘roq mazmuni yetakchilik qilgan:

*Qon yig ‘latdi qaysi bag ‘ritosh,*

*Jayron, nega ko ‘zing to ‘la yosh?*

*Oyog ‘ingga qo ‘yib yotay bosh,*

*Jayron, nega ko ‘zing to ‘la yosh? (M.Yusuf. Jayron)*

<sup>27</sup> Шоабдурахмонов Ш. Пунктуация асослари. – Тошкент, 1953; Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976; Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015.

Tinish belgilari asoslari nuqtayi nazaridan olib qaralganda, mantiqiy-grammatik tamoyil yetakchi tamoyil sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, qoidalar, birinchi navbatda, nutqning sintaktik tuzilishini hisobga olib tuziladi.

**2. Uslubiy tamoyil.** Bu tamoyilga ko‘ra, tinish belgilari nutq uslubi talabidan kelib chiqib qo‘yiladi. Hozirgi kunda tillar vazifaviy uslublarining rivojlanishi punktuatsiya taraqqiyotiga, qo‘llanish doirasining kengayishiga olib kelmoqda. Uslubiy tamoyil termini keng ma’nodagi termin bo‘lib, punktuatsiya qoidalarining barcha nutq uslublari uchun mushtarak, umumiy qonuniyatlarini bildiradi. Tinish belgilarining individual uslubga ko‘ra qo‘llanishi mazkur uslubiy tamoyilning bir ko‘rinishi hisoblanadi va shunga asoslanadi.

Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo‘llanishidagi nutq uslublariga xos umumiy holatlarni aniqlashda va muayyan uslubga xos jihatlarni belgilashda ham muhimdir. Ma’lumki, ko‘pnuqta, vergul, nuqta, so‘roq va undov belgilarining qo‘llanishi deyarli bir xil. Biroq ba’zi tinish belgilarining ishlatalishida farqlar ham kuzatiladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqda) ixchamlik uchun qahramonlar nutqi qo‘shtirnoq bilan emas, tire bilan ajratiladi. Asosan, nasr uchun xos ushbu holatni she’riy asarlarda ham kuzatish mumkin:

*Bolalik ekan-da,*

*Muallimdan*

*So ‘rabman bir kuni:*

*– Ayting -chi, agar –*

*Yer shunday tezlikda aylansa chindan,*

*Ne uchun to ‘kilib ketmas odamlar? (E.Vohidov. Tasavvur)*

Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilganligi sabab, ularni tire bilan ajratishga ham, shuningdek, qo‘shtirnoqqa ham ehtiyoj bo‘lmaydi:

F a r m o n. *Bolalarim, sizlarga harom tomoq yedirganmanmi?*

O‘g‘ illar (qat’iy). Yo ‘q.

F a r mo n. *Mening bir gapimni ikki qilganmisizlar?*

O‘g‘ illar. Yo ‘q. (S.Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni)

Individual uslubda tinish belgilari, ko‘pincha, turli subyektiv maqsadlar, fikrni emotSIONAL ifodalash, ta’sirchanlikni oshirish uchun qo‘llanadi. Nutqda aynan bir so‘z orqali turli ijodkor turli maqsad va munosabatni ifodalashi mumkin va bunda ayni maqsadlar tinish belgilari orqali yetkaziladi. Albatta, bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o‘z bilganicha, o‘z istagicha foydalanishi mumkin, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har bir tinish belgisi, agar uning asosiy ma’no va ichki imkoniyatlari tushunilib, maqsad bilan ishlatsa, matnga mahkam o‘rnashadi.

“O‘zbek punktuatsiyasi qoidalari”da ko‘pnuqtaning ishlatilish sabablari va o‘rinlari aniq ko‘rsatilgan. Mahoratli ijodkorlar tinish belgini o‘rnida va me’yor doirasida ishlatib, ularni matn qolipiga puxta joylay oladilar. Masalan, quyidagi parchada ko‘pnuqta o‘z vazifasidan kelib chiqib o‘rinli qo‘llangan. Shuningdek, ijodkorning badiiy niyatini yoritishga ham xizmat qilgan:

*Asablar,*

*Asablar,*

*Asablar...*

*Sababsiz sochilgan g‘azablar,*

*Gunohsiz chekilgan azoblar.*

*Ko‘z yoshlar...*

*Bariga sabablar*

*Asablar, asablar, asablar.* (E.Vohidov. Asablar)

Mutaxassislar hozirgi kunda punktuatsiyaning imkoniyatlarini juda yuqori baholaydilar va quyidagi fikrni aytadilar: “Zamonaviy tinish belgilari keng imkoniyatga ega bo‘lib, bular punktuatsiyaning o‘zaro bog‘liq uch tamoyili tufaylidir”<sup>28</sup>.

Demak, tinish belgilarining individual uslub talabiga ko‘ra qo‘llanishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me’origa bo‘ysunadi. Me’yor chegarasini his qilish yozuvchining iste’dodi, uning madaniyati ko‘rsatkichlaridan biridir.

**3. Farqlash tamoyili.** Mazkur tamoyil asosidagi qoidalar tinish belgilarining qo‘s sh holda qo‘llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo‘lganda, ulardan foydalanish yo‘llarini belgilab beradi.


Ilmiy uslubda, jumla ichida so‘zlarni qisqartirishda, iqtiboslarning manbasini ko‘rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko‘rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlataladi. Masalan, manbalarda muallif nomining qisqartirib berilishi, yonma-yon kelgan tinish belgilarning qo‘llanishi (*Yusuf, Muhammad. Saylanma: she’rlar, dostonlar, xotiralar / M. Yusuf. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – 288 b.*) kabi.

Ko‘p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo‘yilib, numerativlik vazifasini bajaradi, me’yoriy-huquqiy hujjat qatorlarini ajratib ko‘rsatadi, bunda ham farqlash tamoyiliga asoslaniladi.

---

<sup>28</sup> Вальгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С. 34.

Umuman, hozirgi kunda zamonaviy punktuatsiyaning imkoniyatlari juda keng bo'lib, u ijodkorning, matn tuzuvchining so'z kabi asosiy quollaridandir. Tinish belgilari nafaqat fikr, balki subyektiv munosabat ifodalash uchun ham zarur. Bularning barchasi bir xil ahamiyatga ega bo'lgan, ammo o'ziga xos qonuniyatlari bilan farq qiladigan yuqorida sanalgan uch tamoyil orqali yuzaga chiqadi. Shu bois zamonaviy punktuatsiyada bir tamoyilga tayanib ish ko'rish ko'p ham o'zini oqlamaydi, chunki ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi o'zbek tili punktuatsiyasida mantiqiy-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyilga asos bo'ladi.



## PUNKTUATSIYANING BOSHQA SOHALAR BILAN MUNOSABATI

XXI asr hech qaysi fanning ixotalangan holda taraqqiy eta olmasligini, integratsiya fanlarning yangicha yashash shakli ekanligini har tomonlama isbotlab berdi. Tadqiqotchilar bu asrni “fanlar integratsiyasi asri” deb ham atamoqdalar, chunki har qanday fandagi obyekt mohiyatini turli fanlar yutuqlaridan foydalanib yoritish yaxshi natija bermoqda. Jumladan, punktuatsiya masalalarini ham tilning boshqa bo‘limlari yoki yondosh lingvistik hodisalar bilan hamkorlikda o‘rganish maqsadga muvofiq.

Punktuatsiya tilshunoslikning quyidagi bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqdir:

**Punktuatsiya va grafika bog‘liqligi.** Ma’lumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini bir butun holda, barcha belgilar yig‘indisini o‘rganuvchi soha. Ta’kidlanganidek, punktuatsiya yozuvning tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘qitish ishlari, savodxonlikni oshirish va nutq madaniyatini egallashda alifboni o‘rganish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, punktuatsiyani bilish ham shunchalik ijtimoiy-amaliy jihatdan muhimdir. Yozuv o‘zgarishi bilan punktuatsiya taraqqiyotida ham yangi davr boshlanadi. Arab yozuvida bosh harflar, tinish belgilarining yo‘qligi, til nuqtayi nazaridan ehtiyoj bo‘lsa-da, shu alifboga asoslangan o‘zbek yozuvida ham tinish belgilarini qo‘llashga monelik qilardi. XIX asr oxirlaridan kirill, lotin yozuvarining ta’sirida o‘zbekcha matnlarda ayrim tinish belgilari ishlatila boshlangan.

Nuqta, so‘roq, undov belgilaridan keyin kelgan gaplarning bosh harf bilan boshlanishi, shuningdek, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyingi gaplarning kichik harf bilan boshlanishi ham punktuatsiya va yozuvning bevosita aloqadorligini ko‘rsatadi.

Tilshunoslikning fonetika, fonologiya, grafika va boshqa sohalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan H.Jamolxonov tinish belgilarni yozuvning asosiy qismi sifatida quyidagicha guruhlashtiradi:

1. Markaziy, asosiy belgilar – harf (fonografema), tinish belgilari (prosodemografema).

2. Qo‘shimcha belgilar – raqamlar, ilm-fanning ma’lum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik simvollar (logografema), chiziqcha, apostrof (tutuq belgisi) kabi orfografik belgilar, signalizatorlar, kompyuter lingvistikasi taraqqiyoti bilan bog‘liq boshqa tillardan o‘zlashayotgan son-sanoqsiz tipografik va turli diakritik belgilar<sup>29</sup>.

Tinish belgilari yozuvning barcha shakllari va uslublarida birdek qo‘llanishi bilan asosiy belgilar tizimiga kiradi. U yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til vositalari (so‘zlar, morfemalar) bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham katta ahamiyatga ega.

**Punktuatsiya va orfografiya aloqadorligi.** Orfografiya so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini (imlo qoidalarini) o‘rganib, morfologiya bilan zinch bog‘lansa, punktuatsiya gaplarning to‘g‘ri tuzilishi, undagi fikrning to‘g‘ri ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan bog‘lanadi. Masalan, gapning so‘roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so‘ng bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin kichik harf bilan yozilish holatlari punktuatsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko‘rsatadi.

**Punktuatsiya va ohang bog‘liqligi.** Punktuatsiya gap ohangi bilan ham uzviy bog‘liq. Ohang ovozning turli darajasi: ko‘tarilishi,

<sup>29</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013. – B. 157–160.

pasayishi, susayishi, tinishi (uzilishi); tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho'ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomliligi, takrorlanishi kabilarda ko'rinadi.

Ohang murakkab prosodik hodisa bo'lib, urg'u, pauza, melodika kabilarni ichiga oladi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqa-arahashuv) vazifasini ohang boshqaradi. Ohangning o'zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi. Quyidagi gaplarning ohangini qiyoslab ko'raylik:

1. *Salim, ukam vrach bo 'ldi.*
2. *Salim – ukam vrach bo 'ldi.*
3. *Salim, ukam vrach bo 'ldi.*

1-gapda *Salim* bilan *ukam* so'zлari sanash ohangi bilan aytildi: uyushiq egalar; 2-gapda *ukam* so'zi gapga nisbatan sal tez va pasayuvchi ohang bilan aytildi: ajratilgan bo'lak; 3-gapda *Salim* so'zi murojaat ohangi bilan gapdan ajratilib, biroz pauza qilinadi: undalma.

Tinish belgilarini gap ohangi belgilaydi. Nuqta, undov, so'roq kabi gap oxirida ishlatiluvchi tinish belgilari ohang tugalligiga ishora qiladi; ajratilgan bo'lak, kiritma, undalma, uyushiq bo'laklar orasida og'zaki nutqda kichik to'xtam bo'ladi ana shu to'xtamni yozma nutqda vergul bildiradi; sanash ohangi ham shu munosabat bilan vergul yordamida namoyon bo'ladi. Ammo bu punktuatsiya va ohang bir hodisa, degani emas. Birinchidan, ular nutqning ikki shakli, ya'ni punktuatsiya yozma nutqqa, ohang og'zaki nutqqa xos. Ikkinchidan, tinish belgilarining qo'yilishi hamma vaqt ham intonatsiyaga qarab belgilanmaydi.

Punktuatsiya tarixida tinish belgilarining ishlatilishini faqat ohangga bog‘lab izohlash hollari ham bo‘lgan. Ammo ko‘pchilik tadqiqotchilar bu holatning biryoqlama qarash ekanligini aytishadi. Orfografiya orfoepiyaga to‘liq mos kelmaganidek, punktuatsiya ham intonatsiya bilan aynan emas. Shuningdek, intonatsiya gapni shakllantiruvchi asosiy grammatik vositalardan biridirki, uni alohida ajratib olib bo‘lmaydi. Gap semantik, grammatik va intonatsion jihatdan bir butun, yaxlit grammatik birlikdir.

Punktuatsiyaning intonatsiyaga to‘liq mos kelmasligini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Gapning ma’noli qismlari – sintagmalar nutq jarayonida, tinish belgisi qo‘llanmasa-da, qisqa to‘xtamlar bilan ajratib talaffuz qilinadi: *Chin do ‘stlik // boshga kulfat tushganda // bilinadi*. Bu gapda qisqa to‘xtalish bilan ajratib talaffuz etiladigan uchta sintagma bor.

Ba’zan vergul qo‘yish lozimdek tuyulgan o‘rinlarda, aslida ohang talabi bilan qisqa to‘xtam bo‘ladi. Masalan, *Siz esa buni unutman* kabi gaplarda *esa* so‘zidan keyin ko‘pincha vergul qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Bu xato. *Bo ‘lsa, esa* so‘zlari bog‘langan qo‘shma gaplardagi sodda gaplarni bog‘lashga xizmat qilganda qiyoslash mazmunini anglatadi hamda bu so‘zlardan keyin vergul qo‘yilmaydi: *Oy tunda kerak, aql esa // kunda kerak; Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to‘g‘rilik bo ‘lsa // uni saodatga boshlaydi*. Demak, *bo ‘lsa, esa* so‘zlari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga, ular o‘rtasidagi qiyoslash va zidlash munosabatini yuzaga chiqaradi, qiyoslanayotgan bo‘laklarni og‘zaki nutqda qisqa to‘xtam ajratadi. Shu o‘rinda eslatish kerakki, *Kim yomon bo ‘lsa, jazo oladi* kabi gaplar *bo ‘lsa, esa* so‘zlari yordamida bog‘langan qo‘shma gap emas, balki shart mayli bilan birikkan ergashgan qo‘shma gapdir.

Bu tip gap tarkibidagi sodda gaplar yozuvda vergul bilan, talaffuzda qisqa to‘xtam bilan ajratiladi.

2. *Albatta, xolos* kabi so‘zlar gap oxirida kelganda, ularni ajratuvchi to‘xtam juda qisqa bo‘ladi. Shunga qaramay, kirish so‘zlarda tinish belgilarining qo‘llanishi qoidasiga muvofiq yozuvda tinish belgilari bilan ajratiladi: *Agar yo ‘lingiz tushib qolsa, shahrimizdagi hayvonot bog ‘iga bir kiring, albatta.* (S.Ahmad)

3. Gap o‘rtasi va oxirida kelgan undalmalarda to‘xtam, ohang uncha sezilmasa-da, ular gapdagi boshqa bo‘laklardan doim vergul bilan ajratiladi:

*Bugun shoh erurman, tilak tilagil,*

*Bugun men gadoman, tingla, malagim.* (R.Parfi)

4. Gap ichida kelgan iqtiboslar, turli xil ko‘chma ma’nodagi so‘zlar so‘zlashuvda alohida ohang, to‘xtamga ega bo‘lmasa ham, qo‘shtirnoq bilan ajratiladi: “*Yordam*” *shu bo ‘ldiki, ikki tomondan begunoh odamlar qirildi.* (O‘.Hoshimov) *Bu kishini biz erkalab “qora buvi” deb ataymiz.* (G‘.G‘ulom)

Xullas, punktuatsiya va ohang ikki xil nutq turiga xos mustaqil kategoriylar bo‘lib, ular bir-biriga teng kelmaydi, binobarin, punktuatsiya intonatsiyaning yozuvdagagi ifodasi emas. Ularning o‘zaro aloqadorligi haqida gapirganda, ohangning gapdagi darajasi hisobga olinadi.

**Punktuatsiya va sintaksis bog‘liqligi.** Punktuatsiya sintaksis bilan ham uzviy aloqada bo‘lib, punktuatsiya tamoyillari, tinish belgilarining qo‘llanish o‘rinlari gapning sintaktik tuzilishi hamda grammatik qurilishiga asoslanadi. Punktuatsiya qoidalari har bir tilning sintaktik qonuniyatları, me’yorları asosida ham ishlab chiqiladi. Punktuatsiya qoidalari sintaktik qurilishga bog‘lab bayon qilishning, shu asosda belgilashning o‘z ilmiy asoslari va tamoyillari

mavjud. Matnning gaplarga bo‘linish, gapning tuzilish jihatdan muayyan sintaktik qismlarga ajratilish qoidalari asosiy punktuatsion qoidalari hisoblanadi. Va, albatta, har bir tinish belgisining qo‘llanish o‘rni va tartibini belgilashda tilning sintaktik xususiyatlari hisobga olinadi.

**Punktuatsiya va lingvopoetika munosabati.** Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida lingvistikaning *lingvopoetika* deb ataluvchi mustaqil sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Lingvopoetik yondashuvning takomillashuvi badiiy matnni tashkil qiluvchi til birliklarini qaytadan ko‘zdan kechirish imkonini o‘rtaga chiqardi. Chunki har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi beba ho vositaga aylanishi hamda tamoman o‘ziga xos poetik qonuniyatlarni namoyon qilishi mumkin. Aslida, muayyan tilning boyligi, badiiy imkoniyatlar doirasining sarhad bilmasligi aynan badiiy matnda voqelanadi.

Til estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy matn ekanligi mutaxassislar tomonidan ko‘p bor aytilgan. Badiiy matnni tugal anglash, uning tarkibidagi murakkab tuzilishga ega bo‘lgan qatlamlarni fahmlash uchun o‘zbek tili grammatikasini yetarli darajada bilish kifoya qilmaydi. Chunki “badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya-fikr-mazmunni tushunish shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goh ochiq, goh yashirin ishoralar, tagma’nolar bilan namoyon bo‘ladigan mazmunni to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi”<sup>30</sup>.

Ma’lumki, badiiy matnda poetik qimmatga ega til birliklari ijodkorning turli badiiy niyatini yoritishga xizmat qiladi. Bu

<sup>30</sup> Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 4.

borada tinish belgilari ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, ko‘pnuqta badiiy matnda eng ko‘p poetik vazifa bajaradigan tinish belgisi hisoblanadi. Ko‘pnuqtaning badiiy matndagi o‘rni, lingvopoetik xususiyatlari haqida M.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Badiiy matndagi grafik obrazlilik, ifodalilikni yuzaga keltirishda ko‘p nuqta eng faol vositalardan hisoblanadi. Me’yordan ortiq qo‘rquv, quvonch, hayajon, turli jismoniy va hissiy og‘riq-iztiroblar va shunga o‘xhash affektiv holatlar natijasida ro‘y beradigan nutqning emfatik bo‘laklanishi, nutqning “hapriqish”i badiiy matnda grafik jihatdan, odatda, ko‘pnuqta orqali ifodalanadi. Masalan, quyidagi parchalarda achchiqlanish natijasida nutqning emfatik bo‘laklanishi ko‘p nuqta vositasida grafik aks etgan: – *Men, albatta, o‘qiyman, – dedi Saidiy va jo ‘rttaga qizning qitig‘iga tegdi, – siz hech bo‘lmasa eshikning tirqishidan dars eshitishga ham rozidirsiz?*

- *Qiz kibr bilan boshini ko‘tardi:*
- *Men... men eng oldingi kursida o‘tirib dars eshitaman* (A.Qahhor. Sarob)”<sup>31</sup>.

M.Yo‘ldoshevning ko‘pnuqtaning badiiy matndagi o‘rni bo‘yicha fikrlariga tayanib, bu tinish belgisining yana quyidagi lingvopoetik vazifalarini keltirish mumkin<sup>32</sup>:

1. Qahramonning turlicha ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Ba’zan asar qahramoni har xil hissiy holatlar ta’sirida aytmoqchi bo‘lgan fikrining aniq va o‘rinli ifodasi uchun zarur so‘zni qidirib qoladi. Ana shu so‘z izlash jarayonida, tabiiyki, nutq oqimida uzilishlar bo‘ladi, bu uzilishlar, pauzalar badiiy matnda ko‘pnuqta vositasida ta’kidlanadi. Shu tarzda ayni uzilishlar poetik jihatdan aktuallashadi, ya’ni tegishli badiiy ma’nolar kasb etadi. Bunday uzilishlar matnning

<sup>31</sup> Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019. – Б. 191.

<sup>32</sup> Bu haqda qarang: Йўлдошев М. Ko‘rsatilgan asar. – Б. 192–195.

butunligini buzganday, parchalaganday ko‘rinadi, ammo aksinchcha, ayni uzilishlar poetik aktuallashuvga ko‘ra matn integratsiyasining kuchayishida ishtirok etadi. Masalan:

– *Sen... nima desam ekan... – sekin, so ‘z tanlashga qiynalib gap boshlaydi Avaz.*

– *Judayam... tuban... maxluqsan. Yomon ko ‘rgansan, lekin yashagansan. Yana tirjayib yashagansan. Endi o ‘lganiga quvonyapsan!.. Bundan ham battarроq... ablahlik bo ‘lmasa kerak.* (M.Boboyev. Kechki trolleybus);

– *Yo ‘q, endi, bu gapingiz to ‘g ‘ri, – dedi Mansur qiynalib va so ‘zlamoqqa so ‘z qidirib. – Lekin, lekin... kakliklar kamayib qolgan-ku.* (Sh.Xolmirzayev. Ozodlik)

2. Ba’zi hollarda qahramonning murakkab hissiy holati unga nafaqat gaplarni, balki so‘zlarni ham to‘liq, oxirigacha talaffuz qilishga imkon bermaydi yoki axloq me’yorlariga ko‘ra so‘zni to‘liq talaffuz qilish ma’qul ko‘rilmaydi. Masalan: *G‘ilayning qornidan oqayotgan qon yerni qip-qizil qilib tashladi. – Men... to ‘ymay qoldim. Ozgina noningdan ber. Ozgina... Non... No-o...* (A.Dilmurodov. Non) *Shunda Sulton Mirzo nari-beri yurgancha ichki bir hadik bilan bot-bot qibлага tikilgan, bot-bot ko ‘kragini changallagan, axiyri, sabri tugab dahshatga tushib zorlangan: – Yo ‘q, yo ‘q!* *Bunday yashab bo ‘lmaydi, chidab bo ‘lmaydi bunga!* *Odamkushlik bu!* *Iste’...* (G‘.Hotam. Azal va abad) *Tushungan odam ekansiz, baraka toping, shuning uchun sizga gapning dangalini aytgan ma’qul, to ‘g ‘rimi?* – *T... to ‘g’...* (X. Do’stmuhammad. Jimxitxonaga yo‘l)

3. Ko‘pnuqta badiiy matnda suhbatdoshning gapirishi lozim bo‘lgan vaziyatda so‘zsiz qolganligini ham bildiradi. Bu grafik obratlilik vositasi badiiy matnda personajning gapirmagan gapini

“gapirtiradi” va yo‘q gapni poetik aktuallashtiradi. Quyidagi misollar bu fikrni dalillaydi:

– *Hozirgina dunyoda e-eng bag‘ri tosh odam bo‘lib tuyulgan edilar-ku?*

– ...

– *Avval achinding, keyinyaxshiko ‘rib ketdingmi?* (X. Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi);

– *Ertadan bel bog‘lab ishga kirishsinmi?*

– ...

*Shotir Bek boshqa ilojingiz yo‘q-ku baribir, degan kabi chap labini qimtib, miyig‘ida kuldi.* (G‘.Hotam. Azal va abad)

Shuni ham aytish lozimki, bugungi davr ijodkorlarining bir guruhi tinish belgilaridan badiiy vosita sifatida foydalanishda o‘z mahoratini namoyon qilayotgan bo‘lsa, yana bir guruhi tinish belgilari xizmatidan ham butunlay voz kechish orqali o‘z uslubini yaratishga urinmoqda:

*tun sochib yuborar odamni  
parchalaydi beshafqat  
zulmat qadar kengayasan tunlari  
yulduzlar  
sening sachrab ketgan xayollaringdir* (Faxriyor)  
*ko‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q  
so‘zdan ichkarida yo‘l yo‘q  
ammo xo‘roz qichqirig‘i ortiga  
shafaqrang qishlog‘im bekinib olgan.* (B.Ro‘zimuhammad)

Umuman, tinish belgilarining poetik imkoniyatlari badiiy matn doirasida tadqiq etilganda yanada oydinlashadi.

**Punktuatsiya va axborot texnologiyalari.** Globallashuv davrida axborot texnologiyalari kun sayin hayotimizdan chuqur o‘rin

egallamoqda. Bugun yozma nutq deyarli axborot texnologiyalari orqali amalga oshmoqda. Biron matn yoki xabarni elektron holatda yozar ekanmiz, bevosita tinish belgilariga ham murojaat qilamiz. Ba’zan elektron matnda so‘zlar bir-biriga qo’shilib qoladi va shunda tinish belgilarning o‘rni qanchalik muhim ekanligi amalda ko‘rinadi. Gapning boshi, oxiri, ega-kesimi qayerdaligini bir-biriga yopishgan so‘zlardan darhol anglash juda qiyinchilik tug‘diradi.


Tadqiqotchi I.Ermatov punktuatsion tizimga *oraliq belgisi* terminini kiritishni taklif qilgan bo‘lib, bu masalaga “O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti” nomli dissertatsiyasida alohida diqqat qilgan. Dissertatsiyasida punktuatsiya bilan bog‘liq terminlar, ularning taraqqiyoti hamda ona tili darsliklaridagi ayrim tinish belgilar haqida ham asosli fikrlar aytilgan. Masalan:

“O‘rni kelganda, tinish belgilari yuzasidan bir mulohazani aytib o‘tish joiz. Ma’lumki, gap tarkibidagi so‘zlar bir-biridan ajratib yoziladi. Masalan, *Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi*. (Maqol) Agar shu gapdagi so‘zlarni *Yaxshotgabirqamchi, yomonotgamingqamchi* tarzida ajratmay yozsak, gapni o‘qish qiyinlashadi. Jumladagi so‘zlarni yozishda ular orasida masofa tashlanadi va bu masofa so‘zlarni oson o‘qishga xizmat qiladi. Boshqa tinish belgilari ham shunday yoki shunga yaqin vazifani bajaradi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda “oraliq belgisi” terminini joriy etish kerak. Shu kungacha ikki so‘z orasidagi masofa (ajratib yozish) haqida tushuncha bor-u, lekin uni atovchi termin yo‘q. To‘g‘ri, bu yerda hech qanday “belgi”, ya’ni tinish belgisi amalda ko‘rsatilmaydi, biroq ikki so‘z orasida saqlanadigan masofa “oraliq belgisi” sifatida talqin etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi”<sup>33</sup>.

<sup>33</sup> Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 40.

Bu o'rinda aytish kerakki, kompyuter lingvistikasi tarmog'ining keskin rivojlanishi tinish belgilari taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tinish belgilarining elektron matnlarda avtomatik qo'llanishi bilan bog'liq masalalarni oydinlashtirishni ham taqozo etmoqda. Ma'lumki, kompyuter tilida mavjud bo'lgan punktuatsion me'yorlar ko'pgina Yevropa tillari uchun umumiyligi bo'lgan qonuniyatlar asosida ishlangan. Mutaxassislar to'g'ri ta'kidlaganidek, bu hodisalar kompyuter lingvistikasi hamda o'zbek tilining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib tekshirilgandagina ilmiy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilinadi<sup>34</sup>.

Tinish belgilarining axborot texnologiyalaridagi o'rni masalasini o'rganish zamонавиу о'zbek punktuatsiyasi oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.



---

<sup>34</sup> Bu haqda qarang: Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 15.

## **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TINISH BELGILARINING TASNIFI**

Punktuatsiyaga oid adabiyotlarda tinish belgilari umumiy xususiyatlari ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Qo'llanish o'rniغا ko'ra.
2. Ishlatilish usuliga ko'ra.
3. Tuzilishiga ko'ra.
4. Vazifasiga ko'ra<sup>35</sup>.

**Tinish belgilari qo'llanish o'rniغا ko'ra ikki xil:**

- a) gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari – nuqta, ko'pnuqta, so'roq va undov belgilari;
- b) gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari – vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo'shtirnoq.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining umumiy xususiyatlari sifatida quyidagi fikrlarni aytish mumkin: 1) gapning tugallanganini ko'rsatadi; 2) gapda qanday mazmun ifodalanganini bildiradi; 3) gapning tugallanish chegarasini, mazkur gapning keyingi gapdan ajralishini ko'rsatadi; 4) ular gap oxiridan boshqa o'rinnalarda ishlatilganda boshqa vazifa bajaradi va ayrim maqsadlar uchun ishlatiladi.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining umumiy va o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, muayyan gapda

<sup>35</sup> Bu haqda qarang: Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 50–54; Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – Б. 16.

qanday ma’no munosabati ifodalanayotganligini bildirishi jihatidan o‘zaro farqlanadi. Masalan, nuqta xabar mazmuni, so‘roq belgisi so‘roq mazmuni, undov belgisi esa gapdan buyruq, tashviq, his-hayajon mazmuni ifodalanishini ko‘rsatadi.

Nuqta, so‘roq va undov belgilari gap o‘rtasida ham qo‘llanishi mumkin, biroq bunda ular yuqoridagi asosiy funksiyasini bajarmaydi, balki boshqa vazifa uchun xizmat qiladi. Masalan, *Z.M.Bobur hayoti va ijodini o‘rgandik* gapida nuqta sintaktik vazifa bajarish uchun emas, so‘zning qisqarganligini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. So‘roq va undov belgilari ham gap o‘rtasida qo‘yilganda, yuqoridagi kabi qo‘shimcha vazifada keladi. Masalan: *Iqtisodiy yuksalish natijasida, turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan – onalar o‘limi 2 barobar, bolalar o‘limi 3 barobar kamaygan, odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 (!) yoshga, jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 (!) yoshga yetgan.* (A.Ibrohimov. Umrimiz boqiydir, boqiy!) Bu haqda so‘roq va undov belgisining qo‘llanish qoidalarida batafsil ma’lumot berilgan.

### **Qo‘llanish usuliga ko‘ra tinish belgilari ikkiga bo‘linadi:**

1. Yakka holda qo‘llanuvchi tinish belgilari. Bunga faqat ikki nuqta kiradi.

2. Yakka va takror (qo‘sha) qo‘llanuvchi tinish belgilari. Qavs, undov, so‘roq yakka holatda ham (alohida-alohida), takror ham qo‘llanadi. Masalan, qavs yopiluvchi qavs shaklida qo‘llanganda yakka ishlatiladi:

*Olmoshlarning grammatik xususiyatlari: 1) olmosh otga xos sintaktik shakl yasovchilarni oladi; 2) olmosh hech vaqt o‘zidan oldin aniqlovchi olmaydi; 3) just holda qo‘llanib, boshqa so‘z turkumi vazifasida keladi.* (“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobidan)

Undov belgisi kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplarda takror qo‘llanadi: *Ey purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!!* (Cho‘lpon)

- *Ana, ko 'ryapsanmi?*

*Mening dadamlar!*

*Dada!!!* (E.Vohidov)

Badiiy adabiyotda turli maqsadlarda so‘roq va undov birga qo‘llanadi:

*Oftob yelib tolsa ko ‘k uzra,*

*Unga osmon sandig ‘i hujra.*

*Haqdan hukm, bandadan ijro,*

*Xudo bilar, kim oldin ketar?!* (M.Yusuf)

**Tinish belgilari tuzilishiga ko‘ra ikki xil:**

Bir tarkibli tinish belgilari: vergul, tire, nuqta.

Ko‘p tarkibli tinish belgilari: ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo‘shtirnoq, ko‘pnuqta, so‘roq va undov belgisi.

Ko‘p tarkibli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq belgidan tashkil topgan bo‘lib, ularga hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta belgisi ikkita nuqtaning vertikal usuldagи birikuvi asosida hosil bo‘lgan, ya’ni (:); ko‘pnuqta nuqtaning gorizontal usuldagи birikuvi asosida paydo bo‘lgan, ya’ni (...); nuqtali vergul nuqta va vergulning qo‘shilushi asosida yuzaga kelgan. Qavs ham ikki tarkibdan iborat bo‘lib, uning birinchisi “ochiluvchi qavs”, ikkinchisi “yopiluvchi qavs”, ba’zan “yarim qavs” ham deyiladi va tartibni bildiruvchi raqam yoki harfdan so‘ng qo‘yiladi.

So‘roq, undov va qo‘shtirnoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. Ular ham ikki tarkibdan iborat bo‘lib, mavjud ilmiy manbalarga ko‘ra, so‘roq belgisining lotincha *quaistio* (so‘roq), undov belgisining *lo* (oh, eh) so‘zlaridagi bosh harflarning nuqta bilan qo‘slishi asosida hosil bo‘lgani aytildi. Umuman, har bir tinish belgisining o‘z tarixi bor. Ular haqida tegishli o‘rinlarda to‘xtalingan.

## Tinish belgilarining vazifasiga ko‘ra tasnifi

Amaldagi o‘zbek punktuatsiyasida tinish belgilarining vazifalari aniq qoidalar asosida tushuntirilgan bo‘lib, ularni o‘zlashtirish tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini egallahsga yordam beradi.

Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo‘linishini ko‘rsatish, shuningdek, gapning sintaktik tuzilishi va ohang jihatini aniqlashga yordam berishdir. Ilmiy manbalarda tinish belgilari vazifasiga ko‘ra uch guruhga bo‘lib o‘rganilgan<sup>36</sup>:

**1. Chegaralovchi tinish belgilari.** Qo‘shtirnoq va qavs shunday vazifadagi tinish belgisi bo‘lib, ular kontekstdagi ayrim qismlarning leksik-semantik farqlanishi va ajralishini, grammatik-uslubiy chegaralanishini, ularning boshlanish va tugallanish nuqtasini ko‘rsatadi.

**2. Ayiruvchi tinish belgilari.** Bu guruhga nuqta, so‘roq, undov, nuqtali vergul mansub bo‘lib, ular matn qismlarini bir-biridan ajratishga xizmat qiladi.

**3. Murakkab vazifali tinish belgilari.** Bular matn qismlarini o‘rni bilan ham ajratish, ham chegaralash, ba’zan esa biriktirish vazifasini bajaradi. Masalan, ikki nuqta ajratish va biriktirishga, vergul va tire ajratish, chegaralash, biriktirishga xizmat qiladi. Ko‘pnuqta esa fikrning bo‘linishi, qisqarishi kabi vazifalarni bajarish uchun qo‘llanadi.

Zamonaviy rus punktuatsiyasi masalalari bilan shug‘ullangan tilshunos N.S.Valgina tinish belgilarining chegaralash va ayirish xususiyatlari orasidagi farq juda muhimligini ta’kidlaydi va punktuatsiya qoidalarini shakllantirishda birinchi navbatda ayni vazifalar hisobga olinishi zarurligini qayd etadi<sup>37</sup>.

<sup>36</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 54.

<sup>37</sup> Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979. – С. 34.

## TINISH BELGILARINING TAKROR VA QATOR ISHLATILISHI

O‘zbek tilida uslubiy ravonlik, fikriy aniqlik hamda turli leksik-grammatik ma’nolarni ifodalash uchun tinish belgilari birgalikda (takror va qator) ham qo‘llanadi. Tinish belgilaridan bu tarzda foydalanish turli uslubiy vazifalarni bajarish, fikriy-grammatik munosabatlarni ko‘rsatish kabilar bilan ham bog‘liqdir. Ayniqsa, badiiy uslubda tinish belgilari birdan ortiq qo‘llanganda, ijodkor badiiy niyatini to‘liqroq yoritishga xizmat qiladi. Publitsistik uslubga xos matnlarda ham tantanavorlik yoki o‘quvchi diqqatini jalb qilish maqsadida bunday qo‘llashlardan faol foydalaniladi.

O‘zbek yozuvida tinish belgilarining turli maqsadlarda qator ishlatilishi ikkitadan boshlab beshtagacha, ba’zan yetti-sakkiztagacha kuzatilishi mumkinligi – faktik materiallar (badiiy asarlar, matbuot materialari) asosida o‘rganilgan.<sup>38</sup> Biroq bu kabi qo‘llashlar ilmiy-nazariy jihatdan asosli bo‘lsa-da, fikriy murakkablik yoki talqindagi chalkashlikni keltirib chiqaradi, shuningdek, yozuv estetikasini ham buzadi. Ushbu holat yuzaga kelmasligi uchun fikrni ixcham bayon etish, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Shu sababli tinish belgilarining qator qo‘llanish xususiyatlarini atroflicha aniqlash, undagi tartib, muntazamlikni, qo‘llash o‘rinlarini belgilash punktuatsiyaning tadqiq doirasiga kiradi.

Tinish belgilarining ketma-ket qo‘llanishidagi qoidalarga amal qilmaslik holatlarini bir necha misollar orqali tahlil qilgan K.Nazarovning quyidagi fikriga diqqat qilsak:

*“Asar ularga manzur bo‘ldimi, yo...? (Gazetadan)*

<sup>38</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 26; Bahiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 31.

Misolda ko‘p nuqta va so‘roq belgisi noto‘g‘ri qo‘llangan. Chunki hech qachon **ko‘pnuqta so‘roq, undov belgilaridan oldin qo‘llanmaydi**<sup>39</sup>.

Ko‘pnuqtaning so‘roq va undov belgilari bilan birga qo‘llanishi quyidagicha bo‘ladi: “so‘roq belgisi+ko‘p nuqta”, “undov belgisi+ko‘p nuqta”, ba’zan “so‘roq belgisi+undov belgisi+ko‘p nuqta”. So‘roq, undov va ko‘p nuqtaning bunday tartibda qo‘llanishi hozirgi o‘zbek punktuatsiyasi uchun me’yor hisoblanadi.

Quyidagi misollarda ham undov va so‘roq belgilarining ko‘pnuqta bilan birga qo‘llanishi me’yordir.

*Muzlatdi!.. Muzlatdi hijronning ro‘zi,*

*Jonimda izg‘irin betinim esdi...*

*Bizni uchrashtirgan tangrining o‘zi —*

*Yuragim sezdi!* (U.Azim. Taqdir)

Yoki:

*Boqma ko‘zlarimga*

*Bemajol, xasta,*

*Mening topganlarim*

*Gulmi bir dasta,*

*Yo‘qotganim senmi*

*Endi, Onajon?..* (M.Yusuf. Onajon)

Shu o‘rinda aytish joizki, ba’zan undov yoki so‘roq belgisidan so‘ng ko‘pnuqta qo‘yish kerak bo‘lgan o‘rinlarda uch nuqta ishlataladi. Bu qoida ayrim adabiyotlarda to‘g‘ri deb baholangan bo‘lsa-da,<sup>40</sup> hozirgi o‘zbek punktuatsiyasida mazmunan tugallanmay qolgan so‘roq yoki buyruq gaplarda ko‘pnuqtaning boshqa tinish

<sup>39</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 108.

<sup>40</sup> Назаров К. Ко‘rsatilgan asar. – Тошкент, 1976. – Б. 114–115.

belgilari bilan birga “?..” hamda “!..” tarzida qo‘llanishi, ya’ni ko‘pnuqtaning ikki nuqta shaklida qisqartirib qo‘llanishi me’yor hisoblanadi<sup>41</sup>.

Tinish belgilarining birgalikda qo‘llanishi turlicha xarakterga ega bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

### **1. Bir xil tinish belgisining birdan ortiq qo‘llanishi.**

Bunda aynan bir tinish belgisi takror holda qo‘llanadi. Masalan, gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko‘rsatish uchun ba’zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo‘yilishi mumkin: *Ha, men o‘g‘riman!!! Shu yo‘l bilan kun ko‘raman! Sen tug‘ilguninggachayam shunaqa edi.* (Sh.Boshbekov) “Hamshiraaa!!!” *baqirib yuborganimni sezmay qoldim. Eshik taraqlab ochilib hamshira kirib keldi.* (M.Yo‘ldoshev. Mamduh)

Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda yoki biror mavzu tarkibida asar nomi qo‘llanganda qo‘shtirnoqdan qanday foydalanish kerak? Adabiyotlarda bu holatga quyidagicha yondashiladi: “Ba’zan bir o‘rinda ikki ochiluvchi yoki ikki yopiluvchi qo‘shtirnoqlarning birgalikda (qo‘sha) qo‘llanishi lozim bo‘ladi. Bunda ularning ikkalasi parallel ishlatilib, bittasi o‘z shaklini o‘zgartirgan holda qo‘yiladi. Masalan: “*Hali ham esimda dadam aytib bergen «Uch og‘ayni botirlar»*”, – *deb maqtandi – Salim*”<sup>42</sup>.

Bizningcha, bu holat to‘g‘ri emas. Hozirda yozuv ishlari, asosan, kompyuterlarda olib borilgani bois qo‘shtirnoq qo‘yilishi ma’lum shriftlarni almashtirish bilan yuzaga keladi, bu esa noqulaylik tug‘diradi. Qolaversa, yozuv estetikasi, ixchamlikka

<sup>41</sup> Buhaqda qarang: Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – Б. 112; Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979. – С. 46; Махмудов Н. ва бошқалар. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий коидалари. – Тошкент, 2015. – Б. 12.

<sup>42</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 62.

intilishni inobatga olib bu holatni quyidagicha qoidalashtirish mumkin: qo'shtirnoq yoki qavs ketma-ket kelganda, ulardan biri yoziladi, bunda bitta qo'shtirnoq yoki qavs har ikki vazifani bajaradi. Masalan, "*O'tgan kunlar*" romanining lingvopoetikasi" mavzusida tadqiqot olib bordim. Yoki: *Oliy o'quv yurtiga kirish imtihonida "Boburnoma"ning bugungi kundagi ahamiyati*" mavzusida insho yozdim; "*Hali ham esimda dadam aytib bergen "Uch og'ayni botirlar"*", – deb maqtandi Salim.

Ba'zan gap qurilishi bir o'rinda ikki ochiluvchi yoki ikki yopiluvchi qavsnинг birga, yonma-yon qo'llanishini talab etadi. Bu holat matematikaga oid matnlarda, ilmiy adabiyotlarda ko'proq uchraydi. Bunda ham yuqoridagi qoidaga asosan qavslarning biri yoziladi.

## **2. Turli vazifadagi ikki xil tinish belgisining birga qo'llanishi.**

Turli vazifadagi ikki xil tinish belgisining birgalikda qo'llanishini quyidagicha guruhab o'rganish mumkin:

### **a) gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining birga qo'llanishi.**

Bu xildagi qo'llanishning asosiyлari quyidagilar:

**1) so'roq+undov.** So'roq gaplarda kuchli his-hayajon mavjud bo'lganda, so'roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo'yiladi. Badiiy matnda so'roq va undov belgilarining birga qo'llanishi juda keng tarqalgan:

*Dunyo ekan...*

*Ishq degan savdo*

*Bormi faqat mening boshimda?!*

*Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,*

*Kim she'r yozmas mening yoshimda?! (E.Vohidov. Kimni etmas bu ko'ngil shaydo) Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyyarat qiladi? Marhum ularni ko'r maydi-ku?! (O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar);*

**2) qo'shtirnoq+nuqta.** *Barcha dedi barobar: "Ona tilim o'lmaydi". (E.Vohidov)*

*"Har gal shunday ahvol. Uyalmaysizmi?*

*Kelasiz o'qishmas, qilish uchun sayr.*

*Bu safar ham ikki qo'y may turaman,*

*Ertaga qolganlar topshirsinlar. Xayr". (M.Abdulhakim);*

**3) so'roq+qo'shtirnoq.** *Mansurning og'zidan nogoh chiqib ketdi: "Jo 'ra, bir o'tirish qilsam, nima deysiz?" (Sh.Xolmirzayev)*

*O'choq boshida tomchidek guvalachalardan yasalgan inida qunishib o'tirgan qaldirg'ochlarni ko'r dim. "Yomg'irda ini ivib ketmadimikan?" deb ko'zimni katta-katta ochib o'sha tomonqa qaradim. (M.Yo'ldoshev. Buvim va qaldirg'ochlari);*

**4) undov+qo'shtirnoq.** *"Ey badbaxtlar! – dedim so'ngra. Bilaman, siz Diloromni deb kelmoqdasiz!" (I.Sulton. Ozod)*

*Qari tolga suyab*

*Irg'ay asoni,*

*Oqsoqol so'riga asta yonboshlar.*

*Xayoldan o'tkazar kori dunyon:*

*"Eh, hozirgi yoshlar;*

*Hozirgi yoshlar!" (E.Vohidov. Hozirgi yoshlar);*

**5) ko'pnuqta+qo'shtirnoq.** *Nihoyat, "Xotiralar" sirtmoqdek bo'ynimdan bo'g'adilar-a..." dedi-yu, o'rnidan hafsalasizgina qalqdi. (U.Hamdam. Isyon va itoat) "Kim biladi deysiz, bo'shtobroqmikin, Erkatoyroqmikin hozirgi yoshlar..." (E.Vohidov. Hozirgi yoshlar);*

**6) so‘roq+ko‘pnuqta.** So‘roq mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgidan so‘ng ko‘pnuqta qo‘yiladi:

*Umr o‘tib ketdi. Yig‘lama.*

*O‘tdi dunyo – besarhad qayg‘u.*

*O‘lim kelsa?..*

*Xo‘sh, kelsa, nima?*

*Ayriliqdan dahshatlimi u? (U.Azim)*

*Do‘xtir o‘zi qarayvuradi, davolaydi-da, ishi shu bo‘lgach?  
Yoki?.. Yoki?.. Boshqa nimani tayinlash mumkin do‘xtirlarga?  
(X. Do‘stmuhammad. So‘roq);*

**7) undov+ko‘pnuqta.** Undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, undov belgisidan keyin ko‘pnuqta qo‘yiladi:

*Pirpiraydi osmon yag‘rinda,*

*Tikaningning uchi ko‘zdadir...*

*Hech og‘rinma, gulim, og‘rinma,*

*Kapalakning umri qisqadir!.. (U.Azim)*

**b) gap ichida qo‘llanuvchi tinish belgilarining birga qo‘llanishi:**

**1) vergul+tire.** – *Mana bu binoni, – dedi professor biz endi qura boshlangan ulkan inshootning oldiga kelgach, – muolajamiz va muvaffaqiyatimiz avlodlarni ham doim hayratga solib, bizning xolis va ulug‘ niyatlarimizni aks ettirib turish uchun bosh miya shaklida qurmoqchimiz.* (N.Eshonqul. Muolaja);

**2) qo‘shtirnoq+vergul.** “*Yo‘qoling*”, *baqirdim o‘zimni tutolmay.* (N.Eshonqul. Qora kitob) *O‘n yoshimda kitob o‘qiy boshladim.* “*O‘qish kitobi*”, *Oybekning “Qutlug‘ qon”*, *G‘afur G‘ulomning benazir she’rlari...* (I. G‘afurov);

**3) tire+ko‘pnuqta.** Bunda matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko‘rsatish uchun yoki suhbatdoshning oldingi suhbatga turli munosabatini ifodalash uchun gap boshiga ko‘p nuqta qo‘yiladi. Bu holat, asosan, dialoglarda kuzatiladi va avval tire, keyin ko‘pnuqta ishlataladi:

– *O‘lim barhaq, hammamizga ham navbat keladi. Yo‘lga chiqishdan oldin ortiqcha yuklarni tashlab yuborgan ma’qul. Ruh uchun eng og‘ir yuk nafrat bo‘ladi. Nafratdan qutilmagan siroti mustaqimdan o‘tolmaydi, bolam. Kechirimli bo‘lki, seni ham yaratgan egam kechirsin...*

– ... *Sizga nimalar deb shikoyat qildi? Nega menga uchramadi? Qachon keldi o‘zi?* (M.Yo‘ldoshev. Mamduh)

**3. Tinish belgilarining murakkab qo‘llanishi.** Bunda ikkitadan ortiq turli tinish belgilari ketma-ket qo‘llanadi hamda murakkab sintaktik-uslubiy munosabatlarni ifodalaydi. Tinish belgilarining bu tarzda qo‘llanishi, asosan, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda uchraydi.

Bir necha tinish belgisining ketma-ket, ya’ni murakkab holda qo‘llanishi ularning tasodifiy jamlanmasi bo‘lmay, muayyan fikrni ifodalovchi qonuniyatga asoslangan yozuv vositasidir. Yozma nutq madaniyati, savodxonligi a’lo bo‘lgan, punktuatsiya me’yorlarini puxta egallagan har kim, xususan, ijodkorlar tinish belgilarining murakkab ko‘rinishdagi ketma-ket qo‘llanishidan to‘g‘ri foydalana oladi.

Ta’kidlash kerakki, muayyan matnga bog‘liq holda qo‘llangan ikkitadan ortiq tinish belgilari yig‘indisi murakkab qo‘sha qo‘llanish hisoblanadi. Ketma-ket qo‘llangan tinish belgilarining barchasi ham doim bir gapga aloqador bo‘lavermaydi.

Birdan ortiq turli tinish belgilari bir gap doirasida birikib kelganda alohida-alohida vazifa bajarish bilan bir qatorda, qo'llanish o'rni, tartibi va mazkur matndagi umumiy vazifasiga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'lanadi. Bu umumiy bog'lanish, o'zaro aloqadorlik ularning mushtarak xarakterga egaligini ko'rsatadi. Tinish belgilarining birligdagi xususiyati kontekst orqali aniqlanadi.

Umuman, tinish belgilari murakkab qo'llanganda, quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

- a) turli mazmuniy munosabatlar umumlashtiriladi;
- b) matn uslub jihatidan ravon bo'ladi, soddalashadi;
- c) matndagi ayrim qismlarning chegarasini ko'rsatib, matnning umumiy sintaktik tuzilishini va uning ayrim bo'linishlarini to'g'ri aniqlashga yordam beradi;
- d) yozuvchi uchun nutqni ixchamlash va o'zining turlicha maqsadlarini ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Tinish belgilari quyidagi holatlarda murakkab qo'llanadi:

**1) so'roq+undov+qo'shtirnoq.** *Ismsiz alamning avj pardasida ko'zlariga yosh ham qalqib chiqdi: "Endi nima bo'ladi?!" degan g'oyat xavotirli savol miyasini ayovsiz cho'qidi...* (U.Hamdam. Qaytish) *Ko'ngliga dahshatli fikr keldi: "Nega bexosdan bunday gaplarni gapirib qoldi?!"* (A.Muxtor) *Ushbu so'zlarga aylandi-ku mening dunyom – "Sen meni aldamaysanmi? Aldamaysanmi?!"* (R.Parfi);

**2) undov+ko'pnuqta+qo'shtirnoq.** Bunda undov belgisi emotisionallikni, ko'pnuqta fikrning bo'linishini yoki turli hayajon, holatni, yopiluvchi qo'shtirnoq shu matndagi ma'lum qismning chegaralanishidagi so'nggi nuqtani – chegarani ko'rsatadi:

*Nosirjon eshikni yopgandan keyin Farida ichi sidirilib Akbarni o'ylay ketdi: "U ham shu Nosirjonning biri, hatto bundan beshbattar*

*xayolparast. Oilali, bola-chaqali odamga pishirib qo ‘yibdimi begona yurtlarda? Insonlikning ma’nosini izlab yurganmish. Axir ikkita bolangni tarbiyalab el qatoriga qo ‘shishda emasmi o ‘sha zormanda ma’no!..”* (U.Hamdam. Isyon va itoat);

**3) ko‘pnuqta+qo‘shtirnoq+tire.** Ko‘chirma gapda fikr tugallanmay qolgan bo‘lsa:

*Qish kuni – bir tutam. Qoraygandi qosh.*

*Ikkilandi. O’tmak kerak, axir, qirdan.*

*Eri ham kelmadi olib ketishga*

*“Ko ‘ngli sovidimi...” – vahm etdi birdan.* (M. Abdulhakim);

**4) qavs+ikki nuqta+qo‘shtirnoq.** *Dadasi yonini oldi (harqalay, erkak-da): “Bolani o ‘z holiga qo ‘y, onasi, rais bir nimani bilmasa gapirmaydi”, – dedi.* (O‘.Hoshimov);

**5) undov+qavs+ko‘pnuqta.** *Odatda, bu tartibdan kam foydalaniladi.*

*Qalbga tomchi yoshday to ‘kildi olam –*

*Ruhning ruhdan quyuq qa’ridadurman.*

*Kuz yo ‘q (yig ‘layapman!)... Kuz yo ‘qdir (alam!).*

*Endi kuzakdan ham naridadurman...* (U.Azim);

**6) vergul+tire+ko‘pnuqta.** *– Xalos, xalos, – dedi mufti, – ... ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bo ‘lur* (A.Qodiriy);

**8) undov+qo‘shtirnoq+tire.** *“O ‘zing panohingda asra, Xudo!” – deydi Muyassar xayolan.* (O‘.Hoshimov);

*Ona: “Qoralangan oq bolam! Agar diydor qiyomatga qolgan bo ‘lsa, mendan rozi bo ‘lgin!!!” – deb faryod urdi.* (T.Malik);

**9) so‘roq+qo‘shtirnoq+tire.** *Bu holat ko‘chirma gapli qo ‘shma gaplarda ko‘p uchraydi. Bunda ko‘chirma gap mualif gapidan*

oldin kelgan bo‘lib, so‘roq belgisi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘llanadi:  
“*Qaranglar, o‘tlarning qovjiraganini ko‘rdinglarmi?*” – deydi  
aravakash qo‘lini qulochkashlab. (Oybek);

**10) ko‘pnuqta+qo‘shtirnoq+tire.** *Ona esa:* “*Bolam, qishlog‘imiz, odamlarimiz yana ham yaxshi bo‘lib ketdi, mana kelsang ko‘rarsan...*” – derdi. (S.Ahmad);

**11) tire+qo‘shtirnoq+ko‘pnuqta.** Bu holat ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarga xos bo‘lib, asosan, gap boshida uchraydi:  
– “*...Shum bolalar ko‘p. Tur, chiq hovliga, bir juft xatcho‘p yasab kel!*” – deb buyuradi yana bir shogirga domlam. (Oybek);

**12) So‘roq+qo‘shtirnoq+vergul+tire.** “*Qo‘yavering, jinni bo‘lgan bitta sizmi?*”, – deb yupatdi. (O‘.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar);

**13) so‘roq+undov+qo‘shtirnoq+tire.** – “*A?!*” – dedi hamma birdan, nafaslar ichga tushib ketdi. (A.Muxtor);

**14) so‘roq+undov+qavs+vergul.** *Undan ko‘nglimni tamom sovitib yuboradigan xususiyatni topguday bo‘lsam, oramizdagi inj munosabatlarga barham berishga bahonai sabab bo‘larmikan degan xayollarda yurgan paytalarim bo‘ldi, biroq izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi iztiroblarimizning ilohiyligi?!), yo‘q, behuda ketdi desam yolg‘on aytgan bo‘laman.* (X.Do‘stmuhammad. Men – sensiz, sen – mensiz)

Shuningdek, yozma nutqda **so‘roq+undov+ko‘pnuqta+qo‘shtirnoq**, **so‘roq+ko‘pnuqta+qo‘shtirnoq** tartibidagi qo‘llanishlar ham uchraydi. Tinish belgilarining bunday yonma-yon qo‘llanishi “**so‘roq+taajjub+fikrni chegaralash**”, “**so‘roq+fikrning bo‘linishi+chegaralash**” kabi sintaktik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

## Tinish belgilarining tushib qolishi

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tinish belgilarining tushishi hodisasi ham uchraydi. Bunda bir turdagи yoki turli tinish belgilari ketma-ket qo‘llanganda, vaziyat talabi bilan bir tinish belgisi qo‘llanmaydi. Mutaxassislar bu hodisani yozma nutqning mantiqiy-grammatik va uslubiy-sintaktik jihatlari hamda tinish belgilarining xarakteri bilan bog‘liq deb hisoblaydilar<sup>43</sup>.

Tinish belgilarining quyidagi hollarda tushib qolishi me’yor hisoblanadi:

1. Agar ko‘pnuqtadan keyin vergul qo‘yilishi talab etiladigan vaziyat bo‘lsa ham vergul ishlatilmaydi. Masalan: “*Men... albatta, sizga qarshi hech gap aytmayman*”.

Ma’lumki, modal so‘zlar, kiritmalar gapning o‘rtasida kelganda, ikki tomondan vergul bilan ajratiladi. Yuqoridagi misolda, odatda, modal so‘z (albatta)dan oldin vergul qo‘yilishi kerak, lekin undan oldin ko‘pnuqta bo‘lgani bois vergul tushib qolgan.

2. Ba’zan mavzu ichida asar nomi qo‘llanganda, ham mavzu, ham asar nomi ochiluvchi qo‘shtirnoqni talab qiladi. Bunda ochiluvchi qo‘shtirnoqlarning faqat bittasi qo‘llanadi va har ikki ochiluvchi qo‘shtirnoq vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Masalan, “*Boburnoma*”ning bugungi kundagi ahamiyati” mavzusida insho yozdim. Bu gapda aslida ochiluvchi qo‘shtirnoq takror holda, ya’ni: ““*Boburnoma*”ning bugungi kundagi ahamiyati” mavzusida insho yozdim shaklida bo‘lishi kerak edi. Biroq ko‘ringanidek, ikki qo‘shtirnoq ketma-ket qo‘llanganda, yozuv estetikasi buziladi. Shu sababli bir qo‘shtirnoq tushib qoladi. Bu haqda yuqorida “Bir xil tinish belgisining birdan ortiq qo‘llanishi” mavzusida ham batafsil to‘xtaldik.

<sup>43</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 118.

3. Tire qo‘yilishi lozim bo‘lgan ajratilgan bo‘laklar gap oxirida kelganda, keyingi tire tushib qoladi: *She’rga solib u bedorligin, So ‘ngra tutar menga – ayolga.* (E.Oxunova)

Demak, hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining tushib qolishi hodisasi ham bo‘lib, bu hol ma’lum shart-sharoit, qoidalar asosida vujudga keladi.

### **Havolada tinish belgilarining qo‘llanishi**

*Havola* arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “fikr, mulohaza va shu kabilar haqida ma’lumot uchun biror manbaga qarashga undash, shu manbani ko‘rsatish” kabi ma’nolarni ham anglatadi<sup>44</sup>.

*Havola* (snoska) ilmiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Ma’lumki, ilmiy adabiyotlar: monografiya, dissertatsiya, avtoreferat yoki maqolani talab darajasida yozishda tadqiqotchidan puxta punktuatsion bilim talab etiladi. Bunda foydalilanilgan ilmiy material yoki manba haqidagi ma’lumotlar aniq va o‘rinli berilishi qanchalik muhim bo‘lsa, tinish belgilarini qo‘llash me’yorlarini to‘g‘ri bilish ham shunchalik zarurdir. Biroq bu borada aniq qoida va me’yorlar ko‘rsatilgan alohida qo‘llanmalarning mavjud emasligi havolada tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog‘liq har xilliklarni yuzaga keltirmoqda.

Havolalarda tinish belgilarining ishlatalishi quyidagicha:

Havolada familiyadan so‘ng ism, zarurat bo‘lsa, otaismning bosh harfi yoziladi va ulardan keyin, shuningdek, havoladan so‘ng nuqta qo‘yiladi: *Salomov G’. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G’.G ‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 67-bet.*

Yoki: *Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, 2013. 261-bet.*

<sup>44</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2020. – Б. 502.

Agar bir muallifga ketma-ket murojaat qilinsa, *Shu muallif* birikmasi qo'llanadi va undan keyin nuqta qo'yiladi: *Odilov Yo. Frazeologik enantiosemianing sinxron tabiati // O'zbek tili va adabiyoti, 2013. 4-son, 12–16-betlar; Shu muallif. Enantiosemiya lisoniy assimetriyaning tipik ko'rinishi sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 2013. 5-son. 82–85-betlar.*

Havolada ilmiy jurnal nomi ko'rsatilsa ikkita tik chiziq, gazeta, ilmiy to'plam yoki konferensiya materiallari nomi ko'rsatilsa, bir tik chiziq qo'yiladi: *Solijonov Y., Mo'minov S. Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1984. 2-son, 44–49-betlar; Qo'chqorova M. Erkin A'zam nasri va kinoyaviy badiiy shartlilik / Erkin A'zam badiiy olami. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – B. 81–97.*

Havola *Bu haqda qarang* yoki *Qarang* kabi ishora qiluvchi so'zlar bilan boshlansa, bu so'zlardan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: *Qarang: Ergashev A., Xalilova D. "Yozi va Zebo" – ishq dostoni. – Qarshi: "Nasaf", 2000.*

Havolada manbaning nashr qilingan joyini ko'rsatuvchi shahar nomidan so'ng nashriyot nomi keltirilsa, joy nomidan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Masalan: *G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 3-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. 58–59-betlar. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. 3-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 336-bet.* Yoki: *Qayumov A. Nazm va tafakkur quyoshi. – Toshkent: Fan, 1992. 46-bet.*

Agar nashriyot nomi ko'rsatilmasa, u holda joy nomidan so'ng vergul qo'yiladi: *Oripov A. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. – Toshkent, 2001. 19-bet.* Yoki: *Normatov U. "O'tgan kunlar" hayrati. – Toshkent, 1996. 60-bet.*

Havola raqami matn ichida tinish belgisidan oldin qo'yiladi. Agar xatboshi iqtibos olingan jumla bilan tugasa, avval havola raqami, kein tinish belgisi qo'yiladi.

### **Manbalarda tinish belgilarining ishlatalishi quyidagicha:**

1. Turli manbalardan olingan iqtiboslar qo'shtirnoq ichida, manba nomi esa qavsda beriladi hamda manba qavsidan keyin nuqta qo'yilmaydi: "*Odami ersang, demagil odami Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami*". (Alisher Navoiy)
2. Mualliflarning ismi, familiyasi yoki taxallusi to'liq holda berilsa, ulardan so'ng nuqta qo'yilmaydi: (*Botu*), (*O'tkir Hoshimov*) kabi.
3. Ism, otaism qisqartirilib, familiya to'liq yozilganda yoki ism, taxallus ba'zan familiya qisqartirilganda, qisqartmalardan keyin nuqta qo'yiladi. Bunda yaxlitlikni buzmaslik uchun ism, otaism va familiya bo'shliq qoldirmasdan yoziladi: E.A.Begmatov, T.Malik, G'.G'. , H.O.
4. Manba nomiga kelishik qo'shimchasi qo'shilganda uning nomi qo'shtirnoq ichida, kelishik qo'shimchasi esa qo'shtirnoqdan so'ng bo'shliq qoldirmasdan yoziladi. Masalan: "*Daftar hoshiyasidagi bitiklar*" dan olindi; "*Qutadg'u bilig*" ga ko'p murojaat qilaman kabi.

**Hozirgi kunda amaliyotda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda manba va adabiyotlar haqidagi ma'lumotlarni quyidagicha yozish barqarorlashmoqda:**

*Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.*  
– Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 168 b.

*Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik.* – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 387 b.

*Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.*

*Xudoyberganova D. Segmentli matnlar haqida // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2004. – №4. – B. 35–39.*

*Песина С.А. Слово в когнитивном аспекте. – М.: ФЛИНТА: Наука, 2011. – 236 с.*

*Yuldashev M. Badiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. diss. – Toshkent, 2009. – 313 b.*

*Hakimova M. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Farg'onha. 2004. – 23 b.*

*Turdaliyeva D. O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. b. f. d-ri. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2019. – 47 b.*

*Qurbanov T. Badiy asarlardagi toponimlarni o'rGANISH masalasi / Badiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. – Samarqand, 2006. – B. 11–16.*



## **PUNKTUATSIYA – FIKRNI YOZMA MUKAMMAL IFODALASH VOSITASI**

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning – tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilar yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so‘zlar, morfemalar) bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravnligini, tez tushunilishini ta’minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o‘quv qo‘llanmalarida tinish belgilarining qo‘llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy-grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi ta’kidlanadi. Bunda mantiqiy-grammatik tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to‘g‘ri ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, differensiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining qo‘sh holda qo‘llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo‘lganda, ulardan foydalanish yo‘llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo‘llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi bo‘lmaydi. Zarurat tug‘ilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin.

Muayyan tildagi punktuatsiya an’analaring mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish

belgilarining qo'llanish qoidalarini umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi Fitrat, S.Ibrohimov, H.G'oziyev, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq.

Punktuatsiya masalalari bilan bevosita shug'ullangan H.G'oziyev ("O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti", 1969, 1979), G'.Abdurahmonov ("Punktuatsiya o'qitish metodikasi", 1968), K.Nazarov ("Tinish belgilari va yozma nutq", 1974; "O'zbek tili punktuatsiyasi", 1976)larning asarlari nashr etilganiga ancha yillar bo'ldi va ulardag'i tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar o'zgardi. Buning ustiga, "muallif punktuatsiyasi", ya'ni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga bo'ysunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qo'llash holatlari uchraydiki, bu ham keng o'quvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi.

Mazkur holatni hisobga olgan holda va tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq ayrim chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining bir guruh yetakchi olimlari: prof. N.Mahmudov, dotsent A.Madvaliyev, dotsent N.Mahkamov tomonidan ushbu "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" ishlab chiqilgan edi. "Qoidalari" Institut ilmiy kengashi tomonidan ma'qullangach, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 2015-yil 1-sonida hamda "Ma'rifat" gazetasining 2015-yil 1, 4, 8, 11-aprel kunlaridagi sonlarida e'lon qilindi, jurnal va gazeta o'quvchilaridan olingan maqbul fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar asosida yanada takomillashtirildi. "O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashi tomonidan ma'qullangan.

# O'ZBEK TILI PUNKTUATSIYASINING ASOSIY QOIDALARI

## Tinish belgilarining gap oxirida qo'llanishi

### 1. Nuqta

1. Tugallangan darak gaplarning oxiriga nuqta qo'yiladi:  
*Qo'qon tomon ketyapmiz. Hozirgina bizni kuzatib qolgan bu ajoyib inson to'g'risida o'ylayapmiz. Uni birinchi marta ko'rishimiz. Faqat bir soatgina u bilan hamsuhbat bo'ldik.* (S.Ahmad)

2. Darak mazmunidagi gaplar tuzilishi jihatidan qanday bo'lishidan (sodda, qo'shma, to'liqsiz, atov, ilova va sh.k.) qat'i nazar, ularning har qanday tipi oxiriga nuqta qo'yiladi: *Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshлади.* (Cho'lpon) *Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi.* (Cho'lpon) (*QO'CHQOR. Bolalaring qani?*) *QUMRI. Maktabda. Undan chiqib, to'g'ri shu yoqqa kelishadi.* (Sh.Boshbekov) *Shavkatning xonasi. Karavotda Binafsha pishillab uxbab yotibdi.* (Sh.Boshbekov) *Jalil aka deraza tagida yotardi. To'shakda. Bolishi baland.* (Sh.Xolmirzayev)

3. Agar alohida emotsionallikka ega bo'lmasa, buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: *Foyda chiqadigan tomonini ko'zlayvering.* (A.Qahhor) *Bolalarga biron narsa olib ber.* (A.Qahhor) *Erkalikni Begimqulga qiling.* (O.Yoqubov) *Eson-omon xizmatni bajarib kel.* (O.Yoqubov)

4. Gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda, darak (va nominativ) mazmunida bo'lishiga qaramasdan, ularning oxiriga nuqta

qo‘yilmaydi: *Mustaqillik o‘zlikni tanimoqdir* (B.Qosimov) *Ular xalqning yuragida yashaydi.* (B.Qosimov) Ammo sarlavha ikki gap (qism)dan iborat bo‘lsa, mazmun shuni talab qilsa, birinchi qismdan keyin nuqta qo‘yiladi: *Hukmlarning son va sifat jihatidan birlashgan klassifikatsiyasi.* *Hukmlarda terminlarning bo‘linishi.* (“Logika” o‘quv qo‘llanmasi)

5. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlardan keyin nuqta qo‘yilgan bo‘lsa, bu raqamlar bilan ko‘rsatilgan gaplardan keyin ham nuqta qo‘yiladi: *Kelishik shaklidagi so‘zlar gapda boshqa so‘zlar bilan quyidagicha munosabatda bo‘ladi:*

1. *Qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi: kitobning varag‘i, odamning gavdasi.*

2. *Tushum, jo ‘nalish, o‘rin, chiqish kelishiklari otni fe’l bilan aloqaga kiritadi: kitobni o‘qidi, bozorga bordim, mакtabda ko‘rdim, institutdan keldim.* (“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi)

Ammo mazkur tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) qavs bilan ajratilgan bo‘lsa, ular bilan ko‘rsatilgan gaplarning so‘nggisidan boshqalari oxiriga nuqta emas, balki nuqtali vergul (ba’zan vergul) qo‘yiladi: *Dialektologiya fanining obyekti mahalliy lahja va shevalar bo‘lib, maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat:*

1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish;

2) milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rnini va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;  
< ... >

5) umumiy o‘xhash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma’lum hududlarda tarqalish xaritalarini tuzish va shevalarni tasnif qilish. (“O‘zbek dialektologiyasi” darsligi)

## 2. So‘roq belgisi

1. So‘roq mazmunidagi gaplar oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi:  
*Hay, nima bu hammayoq jimjit bo‘lib qoldi? Zebinisaxon qanilar? Saltanatxon, aylanay, o‘rtoqjoningizni topmaysizmi?* (Cho‘lpon)  
*Odamlar ko‘ngliga Sen ham bitta nihol ekdingmi? Bahra ololdimi bir zot yuragi? Biror qalb g‘uborin yuva oldingmi? Sen ham o‘z she’rlaring zamiridagi Sho‘r suvlarni quva oldingmi?* (E.Vohidov)

2. So‘roq mazmunidagi gaplar qanday vositalar yordamida shakllangan bo‘lishidan (so‘roq olmoshlari, so‘roq-taajjub yuklamalari, so‘roq intonatsiyasi va sh.k.) qat’i nazar, ularning har qanday ko‘rinishi oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi:  
*Sizlar amal talashgan chog‘da Kim turg‘izar burchakka sizni?* (E.Vohidov)  
*Janob Pakavira, Hindistonga qachon kelgansiz? Uch yil? Uch yildan buyon qayerda istiqomat qilmoqdasiz?* (P.Qodirov)

– Xo‘p, Binafsha. Familiyasi?

– A?.. Kimni?..

– O‘zingizning bolangizmi, axir? (Sh.Boshbekov)

*Yo‘q, familiyangiz? Qurbanov? Aha, yaxshi, yaxshi! Sog‘liq qalay, o‘rtoq Qurbanov? Otday bo‘lib yuribsizmi?* (T.Murod)  
*Ichingda armonlaring bordir, axir?* (S.Ahmad)

3. So‘roq mazmuni ifodalangan sodda gaplarning ham, qo‘shma gaplarning ham oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi:  
*Sen... bu yerda nima*

*qilib yuribsan? (O.Yoqubov) Esingizdam, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik? (O'.Umarbekov) Ammo gapda kuchli emotsionallik, his-hayajon mavjud bo‘lganda, so‘roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo‘yiladi: *Qachon jilovlab qo ‘yiladi bu ig ‘vogar, g ‘alamislar-a?!* *Qachon bartaraf bo ‘ladi bu anonimchilar-a?!* (T.Murod) *O’tgan bozor kuni yegan anoringni o ‘ynashing olib kelganmidi?!* (A.Qahhor) *Asqarali tog‘a, bas endi, shu choyni ichaymi-yo ‘qmi?!* (T.Malik) *O‘g‘lingiz ot olmoqchi edi bu pulga, sizda insof degan narsa bormi?!* (T.Malik)*

4. Qo‘shma gaplar (bog‘lovchisiz bog‘langan, bog‘lovchili bog‘langan, ergashgan) komponentlarining har ikkisida ham so‘roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so‘roq belgisi faqat yaxlit qo‘shma gapning oxiriga qo‘yiladi: *Nega yerda uchrashdilar bu ikki malak, Nega suhbat qurmadilar fazolar aro?* (E.Vohidov) *O‘rniga kim ekan – bilsak bo ‘ladimi?* (E.A’zam) *Biz, rahbarlarga ishonasizmi yo mana shunga o ‘xshagan podachiga ishonasizmi?* (T.Murod) *Bu o ‘zingning fikringmi yo biror ko ‘rsatma bormi?* (T.Malik) *Rang-ro ‘yingga nima bo ‘ldi, tuzukmisan o ‘zi?* (E.A’zam)

5. Qo‘shma gaplar (bog‘lovchisiz bog‘langan, bog‘lovchili bog‘langan, ergashgan) komponentlarining faqat bittasida so‘roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so‘roq mazmunini ifodalagan komponentning oldin yoki keyin turishidan qat‘i nazar, so‘roq belgisi yaxlit qo‘shma gapning oxiriga qo‘yiladi: *Otasi ham hayron: kimga tortgan bu qiz?* (O’.Hoshimov) *Avval menga ayting, shu qishloq qizidan olim chiqadimi?* (S.Ahmad) *Shu ahvolda o ‘lib-netib ketsang, shuncha bola chirqillab qolishini o ‘yladingmi?* (S.Ahmad) *Darhaqiqat, tuyaning ustiga g ‘am yukini ortsa, nega kofirlar ozod*

*bo 'ladi? (S.Ahmad) Esingizdami, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik? (O'.Umarbekov) Jalil ota karaxt tortib qoldi: qayoqdan paydo bo 'ldi bu dard? (Sh.Xolmirzayev) Qanday donishmand odamsizki, qalbimni darhol bildingiz? (Sh.Xolmirzayev)*

6. Ritorik so'roq gaplar oxiriga, asosan, so'roq belgisi qo'yiladi: *Biron orzusi bo 'lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor?* (A.Qahhor) Ammo gapda kuchli emotSIONALLIK, his-hayajon mavjud bo'lganda, so'roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo'yiladi: *Xalqini sevgan qaysi farzand Vatanini ozod ko 'rishni xohlamaydi?!* (E.A'zam)

7. So'roq mazmunidagi gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda, ulardan keyin so'roq belgisi qo'yiladi: *Toshpo 'lat tajang nima deydi?* (A.Qodiriy) *Shamol nimadan paydo bo 'ladir?* (Cho'lpon) *Men nechun sevaman O'zbekistonni?* (A.Oripov) *Vatanni nega sevadilar?* (B.Qosimov) *O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi?* (Sh.Jabborov)

8. O'zganing fikr-mulohazasiga shubha yoki e'tiroz-norozilikni ifodalash uchun ba'zan matnda mazkur fikr-mulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan so'roq belgisi qo'yiladi: *Nasriy ifoda bo 'lsa: "Bu Zarafshon daryosi tepalikda joylashgani uchun (?) "Ko 'hak" deb nom berdilar... Shu tepalikdan pastga qarab quylgani uchun ham (?) Zarafshonni Ko 'hak daryosi deydilar"* (104-bet). *Samarqand Afrikada yoinki Amerika qit'asida emas, shundaygina ikki qadam joyda, ko 'pchiligmiz ko 'rganmiz va Zarafshonning qayerdan, qanday oqishini bilamiz. Hech zamonda daryo tepalikdan pastga qarab oqqanmi?* (N.Komilov. "Tarjimami yo talqin?" maqolasi)

### 3. Undov belgisi

1. Undov gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Buni qarang, unashtrishni to‘y deb yursa-ya! Qo‘ying, domlasi, hozir unashtrishdan ham aynidim! Vaqt-soati yetganda bo‘lar! Vaqt-soati yetganda, kuyovni o‘zingiz topasiz! To‘yga o‘zingiz bosh bo‘lasiz!* (A.Qahhor)

2. Tarkibida emotSIONallikni kuchaytiradigan *qanday, qanchalik, qanchalar, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik* kabi so‘zlar mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Yashash qanday yaxshi, tag‘in shunday katta, go‘zal shaharda!* (O‘.Umarbekov) *Qara, u qanday yaxshi yigit!* (O‘.Umarbekov) *Hayot! U naqadar murakkab va naqadar ulug‘!* (O‘.Umarbekov) *Bu yo‘l naqadar ulug‘, sehrli va muqaddasdir!* (U.Hamdam) *Chand bibi Humoyunga tegmasdan oldin qanchalik sho‘x va quvnoq edi!* (P.Qodirov) *Muloyim qo‘llarda ivib, suvgaga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat!* (Cho‘lpon) *Ohanrabongiz bunchalik zo‘r bo‘lmasa!* (E.A’zam)

3. Emotsionallik darajasi kuchli bo‘lgan ritorik so‘roq gaplar oxiriga ba’zan undov belgisi qo‘yiladi: *Ona o‘z bolasiga yomonlikni ravvo ko‘radimi!* (A.Qahhor)

4. Buyruq, talab, undash mazmuni emotSIONal shaklda buyruq maylidagi fe’l yoki boshqa vositalar orqali ifodalangan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!* (Cho‘lpon) *Baxt xususida uni yanglishtirmang! Yanglishtirmang qiz bechorani!* (A.Qahhor) *Qizingizning baxtini birovlarining ostonasidan qidirmang!* (A.Qahhor) *Oyijon, qani, bu yoqqa!* (S.Ahmad)

5. His-hayajon intonatsiyasi bilan talaffuz qilingan nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Favqulodda manzara!* (Kitlar osmonda uchib ketayotgan turnalar kabi o‘tkir uchburchak hosil qilib suzib borishar edi) (Ch.Aytmatov) *Ana turmush! Ana kuyov-qayliq!* (Poshshaxon bilan Sultonxon qayliq bo‘libdimi?) (Cho‘lpon) *Shunday go ‘zalga musht ko ‘tarish!* (O.Yoqubov) *Ammo bu og‘riq, bu xo ‘rliklarga chidamoq!* (E.A’zam)

6. Murojaat obyektini ko‘rsatuvchi, ya’ni vokativ gaplar odatda emotSIONallikka ega bo‘ladi va ular oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Ona tilm!* *Mehring bu qadar O‘rtaguvchi ekan jonimga!* (E.Vohidov) *Do‘sstar!* *Siz ham Matmusa Hikmatin unutmanglar!* (E.Vohidov) *Enaxon!* *Jonim o‘rtog‘im!* *Bormisiz?* (Cho‘lpon)

7. Emfatik urg‘u olgan so‘zni emotSIONallikni kuchaytirish maqsadida takrorlash holatlari mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Ha, ot surmoq darkor, ot surmoq!* (O.Yoqubov) *Yonib yasha to tanda jon bor, Quyosh bo‘lgin, azizim, quyosh!* (E.Vohidov) *Zebixonni qarang, Zebixonni!* (Cho‘lpon)

8. Emotsionallikni kuchaytirish maqsadida bo‘laklari inversiv holatda (odatdagи tartibdan farqli) qo‘llangan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *O‘lganim yaxshi mening! — dedi u. — Ko ‘ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!* (Cho‘lpon) *Orzusiga endi yetdi u!* (O‘.Umarbekov)

9. Undovlar alohida gap vazifasida kelganda, undan keyin undov belgisi qo‘yiladi: *Oh! U yoqda xo ‘rladilar, bu yoqda kaltakladilar* (R.Haydarova) *Hoy! Ovqatlarindan darak bormi?* (O‘.Umarbekov) *Obbo! Yana kutarkanmiz-da!* (O‘.Umarbekov) *Kisht! Kisht-e, qirilibgina ketgur!..* (Sh.Boshbekov)

10. Tarkibida his-hayajon undovlari mavjud bo‘lgan gaplarda emotsionallik yorqin ifodalanadi va bunday gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *O ayol qalbi! Dunyoda mavjud barcha fojialar sel bo‘lib yopirilsa chidar-u, ammo erining xiyonatiga sira-sira chiday olmas!* (T.Malik) *Ey Odam farzandlari! U o‘limni va hayotni sizlarning qaysi birlaringiz amalda yaxshiroq ekanliklaringizni sinash uchun yaratgandir.* (T.Malik) *Eh, xo‘rlik qursin!* (Oybek) *O’sha lahma ona bilan farzand orasi, Oh, naqadar yaqin edi, naqadar uzoq!* (E.Vohidov)

11. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma’qullah, rag‘batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan gaplarda ham ko‘pincha emotsionallik yorqin ifodalanadi va ularning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Men ketdim! Xayr!* (O‘.Hoshimov) *Xayriyat!* (*Bu kimsasiz orolda bittagina insofti tirik odam bor ekan!*) (T.Malik) *Marhamat!* (*Ulug‘sifat bo‘lib ko‘rinish uchun — o‘ttiz yoshdaman demoqchi edi*) (Ch.Aytmatov) *Ofarin! Haq gapni aytayotir!* (Ch.Aytmatov) (*Bunga chidash mumkinmi?!*) *Yo‘q!* (T.Malik) *Balli! Ot aylanib qozig‘ini topadi!* (A.Qahhor) *Avvalambor, to‘ylaring muborak bo‘lsin!* (Sh.Xolmirzayev)

12. Gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko‘rsatish uchun ba’zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo‘yilishi mumkin: *Voydod! Ayajon!! – qichqirdi kimdir. – Meni tashlab ketmang, ayajon!!!* (O‘.Umarbekov) *Ha, men o‘g‘riman!!! Shu yo‘l bilan kun ko‘raman! Sen tug‘ilguninggachayam shunaqa edi* (Sh.Boshbekov)

13. Undov gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda ham ularning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: *Ko‘klam keladir!* (Cho‘lpon. She‘r sarlavhasi) *Qovun tushiray debman-ku!* (S.Ahmad. Hajviy hikoya sarlavhasi)

14. O‘zganing fikr-mulohazasiga muallifning o‘ta ma’qullash, alohida ta’kidlash, rozilik yoki kino-achchiqlanish, ajablanish munosabatini ifodalash uchun ba’zan matnda mazkur fikr-mulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan undov belgisi qo‘yiladi: *Iqtisodiy yuksalish natijasida, turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan – onalar o‘limi 2 barobar, bolalar o‘limi 3 barobar kamaygan, odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 (!) yoshga, jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 (!) yoshga yetgan.* (A.Ibrohimov. “Umrimiz boqiydir, boqiy!” maqolasi) *Lekin bu fikrlarga kelguncha she‘rning markaziy qismidagi vaqtning yangi tuqli kiyib o‘tishi-yu lirik qahramonning eti (!) eski tuflilardek teshilib ketishi nimani anglatadi, harchand tirishmay, idrok etolmadim.* (B.Nazarov. “Yigirma yoshdagi shoirlarimiz” maqolasi)

#### 4. Ko‘pnuqta

1. Masmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko‘pnuqta qo‘yiladi: *To ‘yni kelasi yil qilsak qilarmiz...* (A.Qahhor) *Poyezdga bilet olib qo‘ygan bo‘lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa...* (A.Qahhor) *Bo ‘lmasa, kunda nima ayb, xudoning hamishagidek karami keng bir kuni...* (A.A’zam)

2. Gapdagagi turli uzilishlarni ko‘rsatish uchun ko‘pnuqta qo‘yiladi: *Hay-hay, ukam, shundoq baobro‘ odam sizni ko‘rgani kelsa-yu, siz xursand bo‘lish o‘rniga...* (A.A’zam)

3. Gap muallifining o‘ylanib qolish, ikkilanish, hayajonlanish kabi holatlarini ko‘rsatish uchun ko‘pnuqta qo‘yiladi: *O‘zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxbab yotganida, sen suv sepib, yo‘lka supurishing...* *Nima desam ekan...* *Sal alam qiladi kishiga.*

(O‘.Hoshimov) *Mayli, chavgonni... ertaga peshindan so ‘ng tamosho qilg‘aymiz.* (P.Qodirov) *Hazratim, ijozat bering, – dedi. – Men qizni... ko ‘rib, rizoligini olmaguncha... kimligini aytmay turay.* (P.Qodirov)

4. Nutqda kutilmaganda bir fikrdan boshqasiga o‘tib ketishni ko‘rsatish uchun gapda ayni o‘tish o‘rniga ko‘pnuqta qo‘yiladi: *Seni siypab, erkalatib, Asta-sekin ko ‘kartirgan Go ‘zal ko ‘klam... o‘tib ketdi.* (Cho‘lpon) *Yarim kechada uyga qaytsam... hammayoq jimjit.* (O‘.Hoshimov)

5. Gapda berilgan sanoqdagi qatorni yana davom ettirish mumkinligini, uning tugamaganligini ko‘rsatish uchun ko‘pnuqta qo‘yiladi: *Gullarning nomini juda topib qo ‘yishadi-da, – dedi, – tugmachagul, gulibeor, qirqog‘ayni, oqqaldirg‘och...* (N.Eshonqul) *Bolaligimda ko ‘p kasal bo ‘lardim: qizamiq, ko ‘kyo ‘tal, bezgak...* (O‘.Hoshimov)

6. Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko‘pnuqta qo‘yiladi va undan keyin shu mazmunni ochadigan gap keltiriladi: *1914-yil... Shu yildan o ‘zbek she’riyati osmonida “Cho‘lpon” degan mitti yulduz charaqlay boshladi.* (N.Karimov)

7. Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko‘rsatish uchun gap boshiga ko‘pnuqta qo‘yiladi: ...*Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko ‘z oldimga keladi.* (O‘.Hoshimov) ...*Bu tushning oxiri emas edi. Bu ibtidosi edi.* (N.Eshonqul)

8. Sarlavha vazifasida qo‘llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko‘pnuqta qo‘yiladi: *Bir yigit kuylar ekan...* (Oybek. She‘r sarlavhasi) *Yoshlikni eslab...* (Oybek. She‘r sarlavhasi) *Iztirob ekan-ku muhabbat!..* (X.Do‘stmuhammad. Hikoyalar turkumining nomi)

## Tinish belgilarining gap ichida qo'llanishi

### 1. Vergul

1. Gapda bog'lovchisiz, tenglanish intonatsiyasi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar bir-biridan vergul bilan ajratiladi: *Kitob, qalam, daftар bo'lsin yo 'ldoshing.* (Habibiy) *Bir kuni avliyoning huzuriga baland bo'yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq bir odam kirib keladi.* (I.Sulton) *Stolga ikkita muzqaymoq, bir shisha limonad, ikkita bo'sh stakan qo'yildi.* (Sh.Boshbekov)

2. Zidlovchi teng bog'lovchilar vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplarda mazkur bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi: *Dadam sekin, ammo tahdidli ohangda dedi.* (O'.Hoshimov) *Oqto'sh Xo'jayinning rahmi kelayotganini, lekin ilojsiz ekanini tushundi.* (B.Murod Ali) *Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so'zga bir oz hayron bo'ldi.* (Cho'lpon)

3. Takror qo'llanuvchi teng bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi birliklar (biriktiruvchi, ayiruvchi, inkor) vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar vergul bilan ajratiladi: *Odam bir yo'la ham muhabbatidan, ham do'stidan ajralib qolsa yomon bo'larkan.* (O'.Hoshimov) *Yo qayg'u, yo sevinch ko'zga berar yosh.* (I.Mirzo) *O'ldiradir bir kun meni yo unisi, yo bunisi.* (A.Obidjon) *Oyim goh menga, goh Hoji buvaga qarar edi.* (O'.Hoshimov) *Yo'lchi ba'zan yolg'iz, ba'zan o'z yoniga birovni hamroh qilib, suv keltirar edi.* (Oybek) *Bunda bor na ofat, na g'urbat, na g'am.* (G'.G'ulom) *Lekin hozir bu haqda o'ylashga uning na imkoni, na xohishi bor edi.* (O'.Umarbekov)

4. Murojaat obyektini ifodalovchi undalmalar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap

oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *O‘g‘lim, gapimga diqqat bilan quloq sol.* (I.Sulton) *Xudoning dargohi keng, o‘g‘lim, tavba qil.* (I.Sulton) *O‘zingiz ayta qoling, Matlubaxon.* (O.Yoqubov)

5. Undovlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *Ajabo, sening qismating biznikidan farqli emasmidi?* (I.Sulton) *Voy, muncha ochilib ketibsan!* (O.Yoqubov) *Kuzatishda foydalaniladigan zamonaviy uskunalarining rivojlanib ketgani esa, eh-he-e, alohida mavzu.* (X.Do‘stmuhammad) *Shu tobda bir g‘aram bedaning ustiga chiqib cho‘zilsang bormi, oh, buning gashtiga nima yetsin!* (M.Mansur) *Vaqt-soati yetganga o‘xshayapti, uf-f.* (X.Do‘stmuhammad)

Ammo gapda undalmalardan oldin kelgan undovlar odatda undash, murojaatni kuchli darajada ifodalash uchun xizmat qiladi, shuning uchun undalmalar oldidan kelgan undovlardan so‘ng odatda vergul qo‘yilmaydi: *Kel, ey Furqat, suxanni muxtasar qil.* (Furqat) *Ey qotil, nega shunday azim terakni nobud qilding?* (“El desa Navoiyni” kitobi). *Kunlar g‘animat, e og‘a, bu davr-u davron qaytmagay.* (A.Obidjon) *Hoy egachi, shu yerlikmisiz?* (O‘.Hoshimov) *Chuh jonivor, chuh* (Ch.Aytmatov)

6. Kirish so‘z va kirish birikmalar (so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *Afsuski, u haqiqatning yuza qatlaminigina ko‘ra oldi.* (I.Sulton) *Nihoyat, mo‘ljallagan joyiga yetib keldi.* (Sh.Boshbekov) *Juvonning toqati*

*toq bo‘ldi, shekilli, dumalayotgan o‘g‘lini yerdan yulqib ko‘tardi.* (O‘.Hoshimov). *Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.* (O‘.Hoshimov) *Hali hech kim bilmaydi, menimcha.* (A.Namozov) *Ularningfikricha, Akbarning shuhrati va obro‘si davlat manfaatlariga xizmat qiladi.* (P.Qodirov) *Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘smirlar olamidagi jinoyatning 70 foizi aynan shu badmastlik oqibati ekan.* (T.Malik) *Mavlono Majdiddinning aytishiga ko‘ra, xazinada atigi ikki tuman ham pul qolmabdur.* (I.Sulton) *Ko‘p emas, bir-ikki kun birga ulfatchilik qilib, o‘z ta‘biri bilan aytganda, “jinnilik” qilib ketadi.* (O.Yoqubov)

7. Kirish gaplar (so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) ham asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *O‘ylab qarasam, pastkashlikning katta-kichigi bo‘lmas ekan.* (S.Ahmad) *O‘zingiz bilasiz, nimaiki yangi gap chiqsa, avval shofyor xalqi biladi.* (S.Ahmad) *Men sizga aytsam, o‘rtoq Eshquvvatov, asrimizning o‘ziga xos kasalliklaridan biri ham shu... asab kasalligi bo‘lyapti.* (Sh.Xolmirzayev) *Bamisoli qalam emas, men sizga aytsam, ovozsiz o‘qday gap bu.* (A.Muxtor) *Chorva ham, o‘zingiz bilasiz, hamingadar.* (S.Ahmad) *Bir parcha qog‘ozga yozilgan jo‘ngina xat har qanday odamning boshiga yetardi, men sizga aytsam.* (A.Muxtor) *Sizni dog‘da qoldirmaydi, ishonavering!* (U.Uteuliyev)

8. Gapda *qani*, *nima*, *xo‘sh* kabi so‘zlar gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan holda turli modal ma’no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilib, asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: *Qani, Yo‘ldoshali, oshga qarang.* (O.Jorqinboyev) *Nima, men go‘dakmidim?* (Sh.Xolmirzayev) *Men*

*qachon non-u tuz ko 'tarib, yovuzlarga peshvoz chiqqan ekanman, qani, ayt! (A.Muxtor) Xo 'sh, nima qilish kerak endi? (Sh.Xolmirzayev) Suvi bir xil, yeri bir xil, lekin ikkita baravarini topib ber, qani? (A.A'zam) Iushundim, xo 'sh? (T.Murod)*

Ba'zan mazkur so'zlar yonma-yon kelsa, ular ham bir-biridan vergul bilan ajratiladi: *Xo 'sh, qani, bizga qanday xabarlar keltirdingiz?* (E.Vohidov) *Qani, xo 'sh, masalan, choynakning qopqog 'ini ruscha nima deydi?* (A.Qahhor)

9. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, u兹rxohlik, ma'qullash, rag'batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan so'z va qoliplashgan birikmalar gap boshida kelsa, undan keyin, o'rtasida kelsa, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: *Salom, Amirqul aka, hormang!* (O'.Umarbekov) *Xayr, siz bilan kechqurun ko 'rishamiz.* (T.Malik) *Uzr, tajribasizlik qilibman.* (A.Meliboyev) *Og'ayni, tegib ketgan bo 'lsa, uzr, kechiring.* (A.Obidjon) *Rahmat, do 'stlar, buning hojati yo 'q.* (P.Qodirov) *Marhamat, keling, o'rtoq Abdurahmonov!* (Sh.Xolmirzayev) *Xudoga shukr, qo 'shnilarim tillo odamlar.* (T.Malik) *Shukur, sog ', ba 'zi ishlar bilan bo 'lib kelolmadi.* (A.Qodiriy) *Men esam, shukur, yuzdan o 'tdim.* (A.Abdullayev)

10. Gapatasdiq (*ha, xo 'p, mayli*) va inkor (*yo 'q*) ni bildiradigan so'zlar alohida gap yoki gap bo'lagi vazifasida qo'llanmagan va boshqa gap bo'lagi bilan grammatik aloqaga kirishmagan hollarda ular vergul bilan ajratiladi: *Ha, balli, buni fahmlab yetibsan.* (T.Malik) *Xo 'p, men shug 'ullanaman bu bilan.* (O'.Umarbekov) *Mayli, yaxshi o 'qish bo 'lsa, bora qolsin.* (O'.Umarbekov) *Yo 'q, u ertaga uchrashuvga bormaydi.* (O.Yoqubov) *Sen-ku, mayli, o 'zimiznikisan.* (U.Hamdam)

Tasdiq bildiruvchi so‘zlar yonma-yon qo‘llanganda, ular vergul bilan ajratiladi: *Ha, mayli, bir piyola choy ichsak ichibmizza.* (U.Hamdam) *Xo ‘p, mayli, agar Otani sizning makoningizga olib borsam, yaxshi kuta olasizmi?* (O.Yoqubov)

11. Gapda takrorlangan so‘zlar orasiga vergul qo‘yiladi: *Qani, qani, mehmonlarning qo‘liga suv quvvoringlar.* (A.Obidjon) *Kelib, mana, Farhodning uyqusini buzishibdi, uzr, uzr.* (E.A’zam) *Rahmat, rahmat, o‘zlari ko‘raversinlar.* (E.A’zam) *Hozir, hozir mo‘yalaman olaman-u... mana bunday qilib...* (O.Jorqinboyev) *Bas, bas! Buyog‘ini eshiting, opa.* (Sh.Xolmirzayev) *Yo‘q, yo‘q, siz meni jentlmenlik yoshidan o‘tgan deb o‘ylamang.* (P.Qodirov)

12. Muayyan ikkinchi darajali bo‘lakni mazmun va mantiq jihatidan odatdagiga qaraganda kuchli, ta’sirli, emotsional qilib berish, uning ma’nosini izohlash, aniqlashtirish maqsadi bilan mazkur bo‘lak gapda ajratiladi va bunday ajratilgan bo‘laklarning har ikki tomoniga odatda vergul qo‘yiladi (ba’zan ifoda maqsadiga muvofiq tire ham qo‘llanadi, bu haqda quyiroqda aytildi): *Enaxonning onasi, o‘zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o‘yin qilgan bo‘lib, hammani kuldirdi.* (Cho‘lpon) *Onam uvushgan oyoqlarini uqalagancha orqaga, bola yig‘layotgan tomonga, qarab ketdi.* (O‘.Hoshimov) *Qayerdadir, yaqin joyda, daryo shovullaydi.* (O‘.Hoshimov) *Haligi yigit, qo‘lida tuguni bor edi-ku, sartarosh, ertaga ta‘tilga chiqar ekan.* (A.G‘ulomov) *Nasihatimni, otangning so‘zini, esingda tut.* (A.G‘ulomov) *Kechqurun, yotar paytda, kampir ikkovini yoniga chaqirib, o‘z fikrini aytdi.* (Cho‘lpon)

13. Gapda -(i)b qo‘srimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o‘ziga tobe boshqa so‘zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin

vergul qo‘yiladi: *Uni kim quchoqlab, kim o‘padi?* (Cho‘lpon) *Binafsha uzoqdan yugurib kelib, dadasining bo‘yniga osilib oldi.* (Sh.Boshbekov) *Ular soy bo‘yiga chodir tikib, bir-ikki hafta turishgan edi.* (O.Yoqubov) *Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o‘gay akasi kelib, uch-to‘rt kun qo‘nib ketgan edi.* (Cho‘lpon) *Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to‘g‘rida nari-beri bo‘lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...* (Cho‘lpon)

Ammo -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o‘ziga tobe boshqa so‘zlar bilan kengaymagan bo‘lsa, ravishdoshlar odatdagি ravishlar bilan bir xil ma’noviy-grammatik maqomda bo‘ladi va shuning uchun ulardan keyin vergul qo‘yilmaydi: *Qo‘shni xonada turadigan bir qiz yugurib kirdi.* (O.Yoqubov) *Divanda g‘ujanak bo‘lib uxlab yotar edi.* (O.Yoqubov) *Kotiba ko‘zlarini pirpiratib chiqib ketdi.* (A.Namozov)

Biroq kengaymagan ravishdosh bilan fe’l kesim orasida to‘ldiruvchi yoki hol vazifasidagi so‘zlar kelganda, shu bo‘limning 13-bandidagi kabi, ravishdoshdan so‘ng vergul qo‘yiladi: *Matluba bir-bir bosib, orqaga qaytdi.* (O.Yoqubov) *Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar.* (Oybek)

Shuningdek, -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshli qurilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo‘lsa, ular dan keyin vergul qo‘yilmaydi: *Bugun... yeng shimarib ishlab o‘tirsam, qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi.* (A.Meliboyev) *Og‘zingga qarab gapir, men Vatan uchun jang qilib edim!* (T.Murod) *Ammo ko‘zingga qarab ishla.* (T.Murod) *Zum o‘tmay qo‘lini yuvib chiqdi.* (O‘.Hoshimov)

14. Gapda -gach qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o'ziga tobe boshqa so'zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo'yiladi: *Bir marta qaysi bir to'y bir haftaga cho'zilib ketgach, oltinchi kuni bizning so'fi eshondan so'ramay qochib kelgan!* (Cho'lpon) *So'fining baqirishidan so'ng bir oz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar.* (Cho'lpon) *Hech natija bo'limgach, uni bo'shatishga qaror qilindi.* (T.Sodiqova) *Maydonga to'rtta nazoratchi kirib kelgach, gazetchilar shaqirlatib suratga tushira boshlashdi.* (N.Eshonqul)

15. Gapda -gan qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigining qo'shimchasini olgan sifatdoshlar o'ziga tobe so'zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo'yiladi: *Otam cho'ponlik qilganda, men qo'zi-uloq boqqanman.* (Sh.Xolmirzayev) *Ular dabdurustdan o'rinlaridan turishganda, tag'in xijolat hissi ezdi meni.* (Sh.Xolmirzayev) *Qosimjon mashinada xotinini bir aylantirmoqchi bo'lib turganda, eshik taqillab qoldi.* (S.Ahmad) *O'yin tamom bo'lib, palov dasturxoni yozilganda, oy ancha balandga ko'tarilgan edi.* (Cho'lpon)

Ammo gapda -gan qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshlar o'ziga tobe so'zlar bilan kengayib kelmagan bo'lsa, ulardan keyin vergul qo'yilmaydi: *Kutilmaganda yaqinginada Eronga otlangan Amir Temur Ko'ragondan chopar yetganini aytdilar.* (M.Ali) *Kulganda ham silkinib-silkinib kuladi.* (S.Ahmad) *O'n so'm qarz berib turing, xotinim kelganda beradi.* (S.Ahmad) *Qariganda gina-kuduratni unutib, bordi-keldi qilaylik.* (T.Malik)

Shuningdek, -gan qo'shimchasi bilan yasalgan va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshli qurilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo'lsa, ulardan keyin vergul

qo‘yilmaydi: *Ko ‘pam hovliqaver manglar, kelinni kelganda ko ‘r, sepini yoyganda ko ‘r.* (S.Ahmad) *U kun bo ‘yi saroydagi do ‘kondan chiqmas, uygaga qosh qorayganda qaytardi.* (T.Malik) *Noinsofning kech kirganda uqlashini qarang!* (Cho‘lpon) *Bir yilgacha marosimlarni o ‘tkazaman deb, qoqqanda qozig ‘im, osganda xurmacham qolmaydi.* (S.Ahmad)

16. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘rtasida alohida mazmuniy munosabatlar mavjud bo‘lmay, bu gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘lgan (bo‘ladigan, bo‘layotgan) voqealari ifodalasa, odatda ular o‘rtasiga vergul qo‘yiladi: *Ko ‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko ‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko ‘m-ko ‘k ko ‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar.* (Oybek) *Botirlari kanal qazadi, shoirlari g‘azal yozadi.* (H.Olimjon) *Sohibqironning bug‘doyrang yuzi xiyol qoraydi, ko ‘zlari katta-katta ochildi.* (M.Ali) *Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birgajo ‘naymiz.* (X.To‘xtaboyev) *Sidiqjon to ‘xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi.* (A.Qahhor)

17. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro *ammo*, *lekin*, *biroq* kabi zidlovchi bog‘lovchilar bilan bog‘langanda, bu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi: *Kunlar ilib qolgan, ammo yerdan hali qishning zahri ketmagan.* (O‘.Hoshimov) *U xuddi shu shaharga kelayotgan yo ‘lovchiday chaqqon tushdi, lekin qayerga kelganini hali bilmasdi.* (A.Muxtor) *Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi.* (T.Malik) *Hammasini tinglardim, ammo O‘xshashini topmasdim aslo.* (H.Olimjon)

18. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro *-u* (*-yu*), *-da* yuklamalari vositasida bog‘langanda, bu yuklamalardan keyin vergul qo‘yiladi: *Mevasini yeng-u, bog‘ini surishtirmang, jonidan!* (O.Yoqubov) *Termometr hamshiraning qo ‘lidan tushib*

*ketdi-yu, bir tomchi simob yaltirab polga dumaladi. (S.Ahmad) Zum o'tmay qo'lini yuvib chiqdi-da, mehmonlarni kutib olish uchun shoshildi. (O'.Hoshimov) Lo 'li yigit Hikmatillonning kaftini chap qo'liga olib, o'ng qo'li bilan sharaqlatib urdi-da, poyezdga qarab yugurib ketdi. (O.Yoqubov). Bu holat mazkur yuklamalardan keyin zidlovchi bog'lovchilar qo'llanganda ham saqlanadi: Bu holat shuv etib o'tib ketdi-yu, lekin kayfiyatimni buzdi. (A.A'zam) Soqchilar yaqinlashayotgan qora sharpani ko'rishdi-yu, ammo uxlاب qolganlarini o'zлari ham sezishmadi. (T.Malik)*

19. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro takrorlangan ayiruvchi bog'lovchilar (*yo..., yo...; goh..., goh...; dam..., dam... kabi*) bilan bog'langanda, takrorlanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o'zini bilmaganlikka soladi.* (N.Jaloliddin) *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.* (Oybek) *Nuri goh sevinib, shirin xayollarga boradi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.* (Oybek) *Goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman.* (O'.Hoshimov)

20. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi gaplar o'zaro takrorlangan inkor bog'lovchisi (*na..., na...*) bilan bog'langanda, takrorlanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi: *Na bironta odamning sharpasi ko'rindi, na bir shitirlagan tovush eshitildi.* (O'.Umarbekov) *Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi.* (Cho'lpon)

21. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gap bilan *chunki, negaki, shuning uchun, go'yo* kabi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vositalar bilan bog'lansa, ulardan oldin vergul qo'yiladi: *Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman.* (E.A'zam) *Hozircha shunday deymiz, negaki uning o'zi*

*shu uchrashuvni uzoq vaqtgacha baxtim deb yurdi.* (O‘.Umarbekov)  
*U Mingbuloqqa kelganidan xursand, shuning uchun xayollari*  
*Mingbuloqdek tiniq edi.* (O‘.Umarbekov) *Tamara sahnada qushday*  
*uchadi, go ‘yo go ‘zal tovus o ‘ynab uchadi.* (G‘.G‘ulom)

22. Ergash gap bosh gapga -ki yordamida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: *Odam bolasi borki, barhayotlikni orzu qiladi.* (I.Sulton) *Bu hol shu qadar tez sodir bo ‘Idiki, Shavkat biron nima tushunishga ham ulgurmadi.* (Sh.Boshbekov) *Shuni mammuniyat bilan ta ‘kidlaymanki, mening kasb tanlashimga otamning do ‘mbirasi sababchi bo ‘lgan.* (M.M.Do‘st)

23. Kesimi shart maylidagi fe‘l (-sa qo‘shimchasini olgan) bilan ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazkur kesimdan keyin vergul qo‘yiladi: *Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi.* (Maqol) *Qayerda ahillik bo ‘lsa, o ‘sha yerda qut-baraka bo ‘ladi.* (“Tafakkur gulshani”) *Kim yalqov bo ‘lsa, uning qo ‘lida obod yer ham xarob bo ‘ladi.* (S.Abdulla) *Ko ‘ziga nima ko ‘rinsa, shu uni qiziqtira hoshladi.* (Oybek) *Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo ‘lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi.* (Cho‘lpon)

24. To‘siksiz ergash gaplarning kesimi (-sa ham shaklida ifodalangan)dan keyin vergul qo‘yiladi: *Shahodat xola ko ‘nglida qarshi bo ‘lsa ham, erining ra ‘yini qaytara olmadi.* (O‘.Umarbekov) *Yarim tunda yotsa ham, ertalab tong otar-otmas uyg‘onar edi* (P.Qodirov). *U o ‘g‘lining tirishib o ‘qiyotganini bilsa ham, talabni yanada qattiqroq qo ‘yaverardi.* (T.Malik)

25. Ergash gap bosh gapga *deb* vositasida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: *Hovlidagi supaga to ‘shalgan bo ‘yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb, qo ‘riqlab o ‘tirdim.* (O‘.Hoshimov) *Vatan uchun jangga bor deb, qurol berdim qo ‘lingga.*

(H.Olimjon) *Yubkaga mos tushsin deb, yo 'g 'on poshnali qora amirkon tuflisini ham berdi.* (O'.Umarbekov)

26. Ba'zan *deb* shakli gap tarkibida *sababli, tufayli, uchun kabi yordamchi so'zlarning sinonimi kabi qo'llanadi, bunday holatlarda deb so'zidan keyin ham, oldin ham vergul qo'yilmaydi: Arzimagan oshiq-ma'shuqning xati deb butun pochta ovora bo'ladi.* (O'.Umarbekov) *Yur, seni deb men ham kechikyapman.* (A.Namozov) *Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.* (Cho'lpon)

– Nega... Nega o'ldiribdi?

– Sizning ishingiz deb.

– Mening ishim? – hayron bo'ldi Rahim Saidov.

– Ha. I-109 S deb. Ular preparingizni yo o'g'irlamoqchi, yo yo 'q qilmoqchi bo'lishgan. Xotiningiz... Munisxon bosh tortgan. (O'.Umarbekov)

27. Ba'zan *deb* shakli gap tarkibida *sifatida yordamchi so'zining sinonimi kabi qo'llanadi, bunday holatlarda ham deb so'zidan keyin ham, oldin ham vergul qo'yilmaydi: Uyga ham, xotiniga ham o'z institutining, o'z hayotining bir qismi deb qarardi.* (O'.Umarbekov) *Said buni sovg'alarning debochasi deb bilardi.* (U.Hamdam) *U senga odam deb qaraydi.* (Cho'lpon) *Albatta, bu unga Mirazim oldida o'zini gunohkor deb his etmasligi uchun yetarli emasdi.* (U.Hamdam)

## 2. Nuqtali vergul

1. Gapda uyushiq bo'laklar meyoridan ortiq ko'p bo'lganda, ularni muayyan bir tarzda guruhaber berish zarurati tug'iladi va ayni shu guruhlarning har biri nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Demak,*

*bu daraxt ro 'dapo boyar chophonlarini-yu xipcha kamzul, yasama sochlarni; qorafrak va silindrlar-u charm kurtka va budyonovkalarni; shalviragan ishtonlar-u torpocha shimplarni ko 'rgan.* (R.Hamzatov)

2. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) yarim qavs bilan ajratilgan bo'lsa, ular bilan ko'rsatilgan so'z, so'z birikmasi va gaplar oxiriga (eng so'nggisidan tashqari) nuqtali vergul (ba'zan vergul) qo'yiladi: *Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og 'zaki nutq; b) yozma nutq.* ("Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi) *To 'liqsiz gaplar bir qancha ko 'rinishda bo 'ladi:*

1) *ega aytilmagan bo 'ladi <...>;*

2) *kesim aytilmagan bo 'ladi <...>;*

3) *ega ham, kesim ham aytilmagan bo 'ladi <...>;*

4) *ikkinchi darajali bo 'laklar aytilmagan bo 'ladi <...>.*

(A.G'ulomov)

3. Bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar mazmunan sezilarli mustaqil bo'lib, bir-biriga mazmunan bevosita yaqin bo'limganda, odatda ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Hamidaning boshi og 'irlashib ketdi; ikki marta sekin, og 'zini ochmasdan esnadi.* (A.Qahhor) *Faqat pashsha g 'ing 'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi.* (A.Qahhor) *U otasi singari baland bo 'yli, keng yag 'rinli; otda ko 'p yurgani uchun oyog 'ini kerib tashlaydi, ovda ko 'p bo 'lganidan fikrini qo 'l harakati bilan ham tushuntirib gapiradi.* (Sh.Xolmirzayev)

4. Bog'lovchisiz yoki murakkab qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir nechta bo'lsa, ularning mazmunan bir-biriga yaqinlari vergul bilan ajratilib, qolgan muayyan bir yoki bir nechtasi nuqtali

vergul bilan ajratiladi: *Xotin uzoq yig‘ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo‘ldi, o‘zini qarg‘adi, o‘lim tiladi; yig‘idan tolib, tashqariga chiqdi.* (A.Qahhor) *Unsin ko‘kragiga nihoyatda og‘ir bir narsa bilan urilganday ko‘ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o‘tganini bilmadi, ko‘zini ochib qarasa, jonvor yelkasidan tushipti, emaklab boyagi sag‘ananing orqasiga o‘tib ketdi.* (A.Qahhor) *Yigit pochasini shimarib olgan, ikkisi ham oftobda pishib, yuzlari bo‘g‘riqib ketgan; buлоqni topib borib, uzala tushgancha rosa suvga to‘yishdi, yuzlarini chayib, bir-birlariga suv sachratib o‘ynashdi, yayrab ketib, xoli joyda ekanliklarini unutishdi, shekilli, xuddi o‘z uylaridagiday qiy-chuv qilishdi.* (A.Muxtor)

5. Bog‘lovchisiz yoki murakkab qo‘shma gap tarkibidagi gaplarda ifodalangan voqeа-hodisalarni solishtirish, qiyoslash mazmuni aniq ifodalanganda, ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi: *Ba‘zilar ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba‘zilar esa aksincha, gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko‘payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko‘rishga ko‘zları, otishga o‘qlari yo‘q.* (Sh.Bo‘tayev) *Hovuzni o‘ragan pastak devor ortidagi tosh ko‘chadan qachon o‘tsangiz, changalzordan qushlar chug‘urini eshitasiz; hovuzning u tarafidagi supada esa oq tug‘i o‘ngib ketgan tanho qabr ko‘rinib turadi.* (Sh.Xolmirzayev)

6. Bir qancha gaplar uyushganday bo‘lib, yaxlit bir bog‘lovchisiz qo‘shma gapni tashkil etganda, ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi: *Razzoq so‘fining sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan yiroqlashgan; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilgan va ta‘kidlangan so‘zlar unutilgan; sovuq so‘filarning “harom” degan da‘volari sinib, parcha-parcha bo‘lgan; “nomahramlik” safsatalari*

*ot oyoqlari ostida yanchilgan; to ‘rt devorning bu tutqun qizi o ‘ziga o ‘xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo ‘lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag ‘rida yillardan beri tugilib kelgan ularlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo ‘shliqlarga yoyib yuborgan edi.* (Cho‘lpon)

### 3. Tire

1. Ot kesim ot, son, olmosh, harakat nomi, taqlidiy so‘zlar yoki ular hokim bo‘lgan so‘z birikmalari bilan ifodalanib, bog‘lamasiz qo‘llanganda, ega va kesim orasiga tire qo‘yiladi: *Ulug‘ ustozlarim so‘zi – qoida.* (I.Mirzo) *O‘g‘ilni uylantirish – otaning vazifasi.* (A.Mamarasulov) *Uyqu – umrning tanobi!* (Cho‘lpon) *Samarqand – olamning sayqali, ko ‘rki.* (I.Mirzo) *Bu – hayvonlarga xos bo ‘lmagan xislat.* (H.Shayxov) *Dunyo go ‘zali – sen, qadoqqa l singlim.* (I.Mirzo) *Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz.* (Maqol) *Lekin hozir bizni qiynayotgan birdan bir masala – siz bilan bevosita fikr almashish metodikasini aniqlash.* (H.Shayxov) *Oyoq osti – “chilip-chilip”, Zirqiraydi eski yaralar...* (A.Muxtor) *Shabnam, bu – tunda oy to ‘kkan achchiq yosh, Hovur, bu – quyoshning ko ‘ksida alam.* (I.Mirzo)

2. Ammo ot kesim inkor shaklida (ya’ni undan keyin inkor ifodalovchi *emas* so‘zi kelgan) bo‘lsa, ega va kesim orasiga tire qo‘yilmaydi: *Harqalay, erxotinningyugurdagi emas.* (A.Mamarasulov) *Salim Karimovich yomon odam emas.* (O.Yoqubov) *Odam bolasi quyon emas-ku! Yiliga o ‘n-o ‘n beshtadan tug ‘sa.* (S.Ahmad)

3. Agar ega bilan ot kesim orasida kirish so‘z, undovlar kelsa, ular orasiga tire qo‘yilmaydi: *Rashk, avvalo, kuchli muhabbat belgisi.* (O‘.Hoshimov) *Tantana qahramoni, albatta, Bahrom Farang.* (M.Xo‘jayev)

4. Ega bilan ot kesim orasida *ham, faqat* kabi yuklamalar kelgan bo'lsa, ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: *Rahmat ham o'qituvchi. Velosiped ham transport vositasi. Mening bilganim faqat Sunnatullayev.* (T.Malik)

5. Ot kesimli gap tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo'lsa, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Insonning qo'li gul.* (Maqol)

6. Ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda, odatda ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: *Sen Lutfyning so'lim g'azali.* (A.Oripov) *Sen urush qatnashchisi.* (T.Murod) Ammo qarshilantirish ma'nosi voqelanganda, tire qo'yiladi: *Men – o'qituvchi, sen – talaba.*

7. Ot kesim (yoki ega) so'roq olmoshlari bilan yoki yuklamali so'zlar bilan ifodalanganda, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Do'sting kim? Do'sting nechta? To'y qachon? Oralaringda chaqqon va bilag'on Botirmi? Suv sening shaxsiy mulkingmi?* (E.A'zam)

8. Ot kesim sifat, ravish, tartib son yoki egalik olmoshi bilan ifodalanganda, ega va kesim orasiga tire qo'yilmaydi: *Dalalar ko'm-ko'k. Havo toza, musaffo, zangor.* (E.Vohidov) *Issig'i baland, alahsiraydi.* (T.Malik) *Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p!* (Cho'lpon) *O'sha amal seniki, xijolat tortma.* (A.Namozov) *Mana shu uy-joy turish-turmishi bilan seniki.* (T.Murod) *Eti sizniki, suyagi meniki, deb uyiga tashlab kelaman.* (S.Ahmad) *Mening o'g'lim hamisha birinchi...* (T.Murod)

9. Makon, zamon va miqdor chegaralari ("...dan ...gacha")ni ko'rsatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: *Andijon – O'sh yo'lini quyuq tuman bosgan.* (S.Ahmad) *XII – XVI asrlarda bu shahar*

*Yassi deb yuritilgan. (N.Karimov) Yosh Mirtemirning eski maktabda o‘qigan davri 1914 – 1915-yillarga to‘g‘ri keladi. (N.Karimov)*

10. Gapda uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin tire qo‘yiladi: *Yozuvchining shaxsiga, qanaqa asarlar yozayotganiga, qanday yozishiga, hatto kechasi yo kunduzi yozishigacha – hamma-hammasiga qiziqadilar.* (S.Ahmad). *Ovozidagi boyagi bolalarcha hayrat, uyqusiz ko‘zlarida porlagan quvonch, batareyalarни silagandagi bo‘lakcha mehr – hammasi birdan so‘nib, ovozida, xatti-harakatlarida kutilmagan bir horg ‘inlik paydo bo‘ldi.* (O.Yoqubov)

11. Gapda umumlashtiruvchi so‘zdan keyin kelgan uyushiq bo‘laklar aniqlashtirish, izohlash, ilova mazmuniga ega bo‘lsa, umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ikki nuqta emas, balki tire qo‘yilishi mumkin: *Olloh taolo bul yulduzlarni uch maqsadda – osmongaziynat, shaytonlarga otiladirgan tosh hamda bandalariga yo‘l ko‘rsatuvchi alomatlar bo‘lmog‘i uchun yaratdi.* (N.Jaloliddin) *Aytib beraversa barchaga barin – Omad-u judolik va yonganini, Rashk, umid, alami va afsuslarin, Aldagani, quvonganini.* (A.Muxtor) *Zotan, ziyolikka bir qarashingizdayoq unda uzoq asrlar mobaynidagi murakkab taraqqiyot jarayonida yuzaga keluvchi fikrlovchi mavjudotga xos hamma sifatlar – aql, farosat, bahodirlilik, ko‘tarinki ruh, olivjanoblik, humor va hokazolarni payqab olish sira qiyin emasdi.* (H.Shayxov)

12. Gapda umumlashtiruvchi so‘zdan keyin kelgan uyushiq bo‘laklarni kuchli ta’kidlash zarurati mavjud bo‘lgan yoki ular ajratilgan izohlovchiday qo‘llangan hollarda uyushiq bo‘laklar ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Sudda juda ko‘p narsalar – tergovchilarning jinoyatkorona xatti-harakatlari-yu dastlabki sudning*

*yuzakiligi, tergov va sudning protokolidagi qalbakiliklar – aniq isbotlar bilan fosh qilindi. (N.Aminov) Ikkala yosh – yuzlari kulgan, ko‘ngillari yozilgan – qo‘ltiqlashib ayvonga bordilar. (Cho‘lpon)*

13. Gapda aniqlashtirish, izohlash mazmunidagi ajratilgan bo‘laklardan oldin tire qo‘yilishi mumkin: *Gangrenaga – qorasonga aylanib ketsa nima bo‘ladi? (S.Ahmad) Bu masalani hal etish, chamasi, hushyor, dovyurak, idrokli, aqli raso, iste’dodli yoshlارimiz – kelajak avlodlar zimmasiga tushadi. (M.Hasaniy) Alibek eng asosiysi – majaqlangan inni yerga tashlagandan keyin darhol tepkilash kerakligini esdan chiqargan ekan. (A.Mamarasulov) Xalqaro savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘li Temur va temuriylar davrida juda serqatnov bo‘lgan. (B.Ahmedov) Tashqarida – gulzor tomonda esa ola qorong‘ilik hukm surardi. (Cho‘lpon)*

14. Ajratilgan bo‘laklarni gapda alohida ta’kidlash zarurati bo‘lganda, ular har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Toy hammadan uzoqdan – Beshqo‘rg‘ondan – o‘ziga o‘xshash yuvosh sigirini oldiga solib kelardi. (O‘.Hoshimov) Oyim ko‘p tayinlagani uchun biz – bolalar – unga tegmasdik. (O‘.Hoshimov) Shuhrat Salimovich – mening sobiq yordamchim, meditsina fanlari kandidati, dotsent – xonamga kirib keldi. (H.Shayxov) Shu topda uning juda ehtiyyot bilan – hech bir sharpa chiqarmay – bosgan qadamlarining bo‘shang shitirlashi ham o‘tirganlarga malol kelgan kabi edi.* (Cho‘lpon)

15. Kirish va kiritma birliklar gapda har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: *Bittasi – ularning kattasi bo‘lsa kerak – yonidagi sheri giga “beshikni yo‘qot” deganday ishora qildi. (Sh.Boshbekov) Chaqaloq – tonggi salqinda sovuq qotganmi yo qorni*

*o‘chganmi – big‘illab yig‘lardi. (Sh.Boshbekov) Gulmiranining onasi – og‘zi to‘la tilla tish, pakana, semiz ayol – barmoqlari bilan stolni usabiy chertib o‘tiribdi. (Sh.Boshbekov) Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li boyagi o‘n to‘qqiz yashar yigit – shunday xatti-harakatga jur’at etgandi. (N.Karimov) Miryoqub – bir joyda bir nafas o‘tirolmaydigan narsa – olti-yetti kundan beri mingboshi yonidan jilmaydi. (Cho‘lpon)*

16. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida o‘xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Hamal keldi – amal keldi.* (Maqol) *Qor yog‘di – don yog‘di.* (Maqol) *Yulduz o‘chadi – Yo‘qlik dunyosiga ko‘chadi.* (A.Muxtor)

17. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida savol-javob munosabati ifodalanganda, shuningdek, faqat birinchi qismi savoldan iborat bo‘lganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Atrofda nima ko‘p – kimyo zavodlari ko‘p.* (H.Shayxov) *Yetimlik nima – mendan so‘rayver.* (Sh.Boshbekov) *Xayolidan ne o‘ylar o‘tdi – yolg‘iz xudoga ayon.* (Sh.Boshbekov)

18. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida zidlash, qarshilantirish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo‘yab ko‘rdi – yulduzlar o‘z rangida xira miltillab turaverdi.* (A.Muxtor) *It huradi – karvon o‘tadi.* (Maqol) *Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz.* (H.Olimjon)

19. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Birovga ayta ko‘rmang – ikkovimiz ham baloga qolamiz.* (S.Ahmad) *To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz.* (Maqol) *Qo‘shning tinch – sen tinch.* (Maqol) *Odamlarni biriktir – har birining yuragida bo‘ron qo‘zg‘aladi.* (Oybek)

20. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida sabab-oqibat, asos-xulosa munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Sen borsan – men uchun bu hayot go‘zal, Sen borsan – men uchun dilbar koinot.* (A.Oripov) *Endi nima bo‘lib shundoq bo‘lganini aytib o‘tirishga fursatim yo‘q – idorada odamlar kutib o‘tiribdi.* (A.Qahhor) *Uyda qadam bosgani joy yo‘q – hamma yoq o‘yinchoq.* (Sh.Boshbekov) *Keyingi kunlarda daryo qirg‘og‘ini chumchuq bosib ketdi – kanal miroblari suvi chekinib, ochilib qolgan orolchalarga sholi ekishgan.* (S.Ahmad) *Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o‘g‘irda tolqon qilyapti.* (O‘.Hoshimov) *Narigi tomonda taraq-turuq boshlandi – quruvchilar ishga tushdilar.* (N.Jaloliddin)

21. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida payt munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Arava notinch bo‘ldi – qo‘shquloqdagi sut chayqaladi, to‘kiladi.* (A.Qahhor) *Yon tarafdagи salobatlι eshik ohista ochildi – yordamchi kerakli qog‘ozlarning barchasini olib kiradi.* (A.Toshmatov) *Chala-chulpa u gapirdi – men angladim, chin ko‘ngildan men gapirdim – u angladi.* (Cho‘lpon)

22. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapning ikkinchi qismi izoh, ilova xarakteriga ega bo‘lsa, ular orasiga tire qo‘yiladi: *Esladi – u sevgilisi Layli haqida gapirgandi.* (N.Jaloliddin) *Uning sarkash fe‘li bor edi – birovning o‘ziga bo‘lgan munosabatining ma’nosini oydinlashtirmaguncha tinchimasdi.* (N.Jaloliddin)

23. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gapning kesimi tushib qolgan hollarda ikki gap vergul bilan ajratilib, ikkinchi gapdagi egadan keyin tire qo‘yiladi: *To‘rg‘ay dashtda kuylar, bulbul –*

*chamanda. (I.Mirzo) Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda. (Maqol)  
Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod. (Maqol)*

24. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda muallif gapidan oldin tire qo‘yiladi (“Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilari” deb nomlangan qismda bu haqda bat afsil aytiladi).

25. Dialoglarning replikalari ketma-ket bir qatorda emas, balki ularning har biri alohida abzas shaklida yangi qatordan berilsa, replikalar oldidan tire qo‘yiladi:

– *Jadiding nimasi? Nima degan gap o‘zi?*

– *Maktabini yoptirgan vaqtningizda aytib bergen edim-ku.*

– *Esda qolgan deysanmi?*

– *Jadid degani “yangi” degani bo‘lsa kerak. Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... Yangi o‘qish, yangi maktab, yangi urf-odat, yangi kiyim – har narsa yangi...*

– *Eskicha bo‘lsa, kimga zarari tegar ekan?*

– *Unisini bilmadim... Ishqilib, jadidlarning qasdi shu emish...*

(Cho‘lpon)

#### 4. Ikki nuqta

1. Muayyan fikr-mulohaza, hukm, ilmiy ta’rif, qoida kabilarni ifodalovchi gaplardan keyin ayni fikr-mulohaza, hukm, ta’rif, qoidalarning to‘g‘riligini asoslash uchun keltirilgan birdan ortiq daliliy faktlarni ta’kidlab ko‘rsatish maqsadida ikki nuqta qo‘yiladi: *U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat bo‘ladi: Saida kuldi. Qalandarovning ko‘zлari olayib ketdi. (A.Qahhor) Tong. Havo salqin. Yumshoq shamol mayingina esib turibdi. (A.G‘ulomov)*

Ba'zan bunday hollarda mazkur gaplardan keyin *masalan*, *misol*, *dalil*, *chunonchi* kabi so'zlar qo'llanishi mumkin, bunda ikki nuqta ayni so'zlardan keyin qo'yiladi: *U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'ladi*. *Masalan: Saida kuldi. Qalandarovning ko'zлari olayib ketdi.* (A.Qahhor) *Tong. Havo salqin. Yumshoq shamol mayingina esib turibdi.* (A.G'ulomov)

2. Tasniflash qoliplari aks etgan gaplarda tasnif asosini ifodalovchi gapdan keyin tasniflangan birliklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo'yiladi: *Bog'lovchi vositalarsiz birikkan qo'shma gap o'z tarkibidagi qismlarning munosabati jihatidan ikki xil bo'ladi*: 1) *teng qisqli qo'shma gap*; 2) *tobe qisqli qo'shma gap*. (M.Asqarova)

3. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z bu bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Bu sirni faqat uch kishi: Abdulla, o'zi va Samad bilardi.* (O'.Umarbekov) *Ichkaridagilar: chaqaloqning ota-onasi, opakalari, Shavkatning ikkita sherigi ham qulab tushgan tom tagida qolib ketdi...* (Sh.Boshbekov) *Qish bo'yi allaqaysi go'r ostlarida junjib chiqg'an qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to'rg'aylar, sa'valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o'z to'plari bilan vijir-vijir, chug'ur-chug'ur sayrab kuladirlar.* (A.Qodiriy)

4. Ba'zan uyushiq bo'laklarni alohida ta'kidlash maqsadi bilan ular gapdan tashqariga chiqariladi, bunday hollarda bevosita umumlashtiruvchi so'zdan keyin emas, balki asosiy gapdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Lekin undan qimmatli narsalar ham bor: obro', vijdon, aql, madaniyat.* (O'.Umarbekov) *Divan oldidagi uch oyoqli stolchada talay qoqmevalar turibdi: chaqilgan yong'oq, bir hovuch turshak, bir hovuch qora kishmish.* (Sh.Xolmirzayev) *Sizlarga faqat*

*shular kerak: yenish, ichish, kiyinish, pul... (Sh.Xolmirzayev) Abdulla ko 'prikka yetganda, Gulchehraning eshididan ikki kishining hovliqib chiqqanini ko 'rdi: bittasi Samad, bittasi esa Gulchehra edi. (O'.Umarbekov). Erkak zotining bari bir xil: Amerikada ham, o 'sha Afg'onida ham! (E.A'zam)*

Gapda umumlashtiruvchi so'z bo'limgan hollarda ham asosiy gapdan keyin uyushiq bo'laklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo'yiladi: *Mana shu qizil "Jiguli"damiz: xotinim, o'g'lim, qizim.* (Sh.Xolmirzayev) *Chiqib keldilar qator: Dante, Shiller va Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor.* (E.Vohidov). *U tanidi: otasi, Hafiz, Ubaydulla aka... yana qandaydir ayollar.* (O'.Umarbekov)

5. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z, *gap, odat, narsa, tomon, fikr* kabi mazmuni tavsiflanishi lozim bo'lgan so'zlar) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan eganing mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Faqat shu esida: ertasi kuni ko'zini ochganda, yonida Sobirjon yo'q edi.* (A.Qahhor) *Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishi kerak...* (Sh.Xolmirzayev) *Uning g'alati odati bor edi: birov bilan suhabatlashganda, ko'zoynagi bor-yo'qligidan qat'i nazar, xuddi ko'zoynak tagidan qaraganday gaplashardi.* (Sh.Boshbekov) *Militsiyaga bir narsa qorong'i edi: utasodifan tushib ketganmi yo o'zini tashlaganmi?!* (O'.Umarbekov) *Pishmagan yong'oqning bitta yaxshi tomoni bor: og'ir bo'ladi.* (O'.Hoshimov) *O'shanda uning xayoliga yomon fikr keldi: mashina xotinini yoki o'zini bosib ketganda nima bo'lardi?* (O'.Umarbekov)

6. Bog'lovchisiz qo'shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so'z) bilan ifodalangan kesimning

mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor.* (A.Qahhor) *Men oldinga surayotgan fikrning qisqacha mazmuni shu: inson tug‘ilishidan qobiliyatsiz bo‘lmaydi.* (E.Vohidov) *Endi gap bunday: bugundan boshlab siz opkegan harom ovqatingizniyam yemayman.* (Sh.Boshbekov) *Ravon yo‘l bitta shu: bu ham yaxmalak.* (A.Oripov) *Erkak kishi o‘zi shunaqa: bir kun uyda bo‘lsa, o‘n kun ko‘chada.* (O‘.Umarbekov) *Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing.* (A.Oripov)

7. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan to‘ldiruvchining mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *So‘ngra men bir narsani ko‘rdim, aniqrog‘i, ishondim: bizning o‘zbek bolalari yaxshi urishar ekan!* (Sh.Xolmirzayev) *Matluba o‘shanda yana bir narsani ko‘ngliga qattiq tugdi: o‘qishi kerak!* (O.Yoqubov) *Muovinimga ayting: o‘rningizga boshqa birovni tayinlasin!* (O.Yoqubov) *Sizni ishontirib aytaman: qayerda bo‘lmay, doim sizni o‘layman.* (O‘.Umarbekov)

8. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism so‘roq shaklidagi gapdan iborat bo‘lib, oldingi qismdagi ifodalangan yoki ifodalanmagan to‘ldiruvchining mazmunini ochishga xizmat qilganda, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Lekin men bir narsani o‘ylab qoldim: bolangni nima qilasan?* (A.Qahhor) *Endi sizdan shuni ham so‘rayin: xo‘jasig‘a sodiq bir qul, sizning ta‘biringizcha, ma’naviy*

*bir padar o‘z o‘g‘lig‘a yomonlik sog‘inarmi? (A.Qodiriy) Xudoyimni o‘rtaga qo‘yib ayting: astoydil do‘stmisiz? (Cho‘lpon) Aytaman-u o‘ylayman: onaning yosh-qarisi bo‘ladimi? (O‘.Hoshimov) Siz ham yotig‘i bilan gapirib bering: nimaga tashqaridan kirar-kirmas, Zebini so‘radingiz? (Cho‘lpon) Endi bir boshdan gapirib ber: kim nima dedi, nima qildi? (Sh.Boshbekov)*

9. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga *chunki* bog‘lovchisini qo‘yish mumkin bo‘lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Soat 12 da institutda bo‘lishim kerak: darsim bor.* (Sh.Xolmirzayev) *O‘zingga qiyin bo‘ladi: uchta bolang bor, qo‘lingda hunaring yo‘q...* (A.Qahhor) *Pakavira quvonib ketdi: ikki man oltin hazilakam boylik emas, bunga yangi bir kema sotib olish mumkin!* (P.Qodirov) *Lekin ancha vaqt shaharda qolib ketdim: Yakkachinorga boradigan biron ta ham mashina yo‘q edi.* (O‘.Umarbekov) *Yanglishasiz: men ko‘klarga berkingan Yer qizidan xayolimni olmaymen.* (Cho‘lpon)

10. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda oldingi qism keyingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga *shuning uchun* bog‘lovchi vositasini qo‘yish mumkin bo‘lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Omon ovchining ov sarguzashtlari ko‘plarni qiziqtirardi: ko‘plari hikoya eshitish uchun kelardi.* (Sh.Xolmirzayev) *U haligi yuksak qahqahani eshitgach, uning ma‘nisini anglatdi: yugurib Zebining yoniga kirdi.* (Cho‘lpon)

11. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning natijasini, oqibatini bildirsa,

oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Keyin u yoqqa chopdim-bu yoqqa chopdim: uch-to ‘rt qop sement topdim.* (Sh.Xolmirzayev) *U chidayolmadi: so ‘richadan turib kelib, uy darpardalaridan birining takkinasiga o ‘tirdi.* (Cho‘lpon) *Istiqlol yillarida bizda Navoiyga munosabat davlat siyosati darajasiga ko ‘tarildi: shoir yangidan qadr topdi, shon-shuhrat shohsupasiga ko ‘tarildi.* (E.Ochilov)

12. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan aniqlovchining mazmunini izohlab, to‘ldirib kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *Ey Salomxon, bu eshon pochchamning o‘g‘illari bir yigit bo‘ldi: o‘ktamlikdayam, suqsurlikdayam tengi yo‘q.* (M.Mansur) *Shoirlardan doimo talab: O‘qimog‘i kerak yangi she‘r Va aytmog‘i kerak yangi gap.* (E.Vohidov) *Sizdan bugun birgina o‘tinch: Yolg‘iz qo‘ying meni, do‘sralrim.* (E.Vohidov) *Adolatxondan xunuk bir xabar keldi: u Samarcanddagi mактабни bitirib, Toshkentga ketibdi.* (A.Qahhor)

13. Qo‘shma gapning oldingi qismida *ko‘rmoq, qaramoq, diqqat qilmoq, eshitmoq, bilmoq, tushunmoq, sezmoq, eslamoq* kabi fe’llar qo‘llanib, keyingi qismda keladigan muayyan fakt bayoni yoki muayyan tavsiqga semantik ishora qilib tursa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo‘yiladi: *Ertasiga ko‘rdim: ishkum boshida yolg‘iz bir tup shaftoli qiyg‘os gullab chiqibdi.* (M.Mansur) *Avval yosh xotinning ko‘zlariga qaradi: horg‘inligi, uyqusiraganligi ochiq ko‘rinib turardi.* (Cho‘lpon) *Diqqat qildim: ko‘nglida ajib bir olov yona boshlaganga o‘xshaydi.* (Cho‘lpon) *Rangidan sezgan edim: maishatining mazasi yo‘q.* (Sh.Xolmirzayev) *O‘zim ham bilgan edim: katta omburga chap berib bo‘lmaydi.* (A.Qahhor) *Muhammad Churog‘a dodxoh esladi:*

*besh yil avval Samarqandda Bog‘i Bihisht mehmonxonasida ham xuddi shunday voqeа yuz bergandi. (M.Ali) Bular darvozadan chiqib, muyulishga yetganda u yoqdan O‘lmasjon ko‘rindi: charchagan otini horg‘in-horg‘in qamchilab, asta-asta sudralmoqda edi. (Cho‘lpon)*

14. Qo‘shma gapning keyingi qismi oldingi qismdagi mazmunni umuman izohlab kelsa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo‘yiladi: *Mana, maqsadiga yetdi: mashhur Otashqalbning sevikli Ma’shuqasi nomini oldi.* (E.A’zam) *Daraning aholisi o‘z ishi bilan mashg‘ul: o‘spirinlar podalarni haydab chiqib ketadi, erkaklar qo‘sh qo‘shib shudgor qilmoqda.* (S.Ayniy) *Musofir muxlis uni darrov tanidi: u tanimay kim tanisin!* (E.A’zam) *Sobiq maktabdoshini tanib-tanimay, noqulayroq biror gapni qo‘zg‘ab qolishidan yuragi takapuka bo‘lib o‘tirgan Oqsoqol shoир, nihoyat, yengil tortdi: shunisiga ham shukr!* (E.A’zam)

## 5. Qavs

1. Gap ichida asosiy fikrga qo‘shimcha sifatida beriladigan izoh, ma’lumotni ifodalaydigan kiritma so‘z yoki birikma qavsga olinadi: *Uni birinchi marta To‘la aka (T.Xo‘jayev)ning repetitsiyasida ko‘rganman.* (A.Meliboyev) *Gulya Lagutina ichkarigi xonada o‘ziga o‘xhashib ketadigan (yo armani, yo ozari) bir ayol bilan achorlashib-cho‘pillashib, pichir-pichir qila boshлади.* (E.A’zam) *Bunga kaminaning qulog‘ida va tevaragida kuchaygan (botiniy va zohiriy) shovqin ham sabab bo‘ldi-yov.* (E.A’zam) *Farhodning taxminicha, kinoga bevosita daxldor bir-ikkitasini aytmasa, davradagilarning aksariyati (kelib-ketuvchilarini ham qo‘shganda) anchayin san’at atrofida o‘ralashib yuradigan, ammo o‘zini uncha-munchadan kam sanamaydigan omadsizroq bir toifa edi.* (E.A’zam) *Bordi-yu, hushyorlik qilinmaganida, qora bozorga kamida 50 ming so‘mlik*

(o 'sha yillarning bahosida) zahri qotil mahsulot chiqib ketgan bo 'lar edi. (A.Meliboyev) Jarohat o 'rniga qov (kuydirilgan paxta) qo 'ydi. (G'.G'ulom)

2. Gap ichida asosiy fikrga qo 'shimcha sifatida beriladigan ma'lumotni ifodalagan kiritma gap qavsga olinadi: *O 'sar Hojarga uylangach* (*uylanganigayam yigirma yildan oshdi*), *ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpana qurib olgan edi.* (Sh.Xolmirzayev) *Ota ishongan odamlar* (*ular orasida Sarkor ham bor*) *quvg 'unga tushmasa hali!* (O.Yoqubov) *Matluba indamay park darvozasiga tomon yo 'naldi.* *Samig 'jon* *parkdan chiqishi bilanoq besh panjasini ko 'rsatib* (*bu uning "besh so 'm beraman" degani edi*), *duch kelgan birinchi mashinani to 'xtatdi.* (O.Yoqubov) *Yana eshitganim* (*buni menga qishlog 'imizdagi bir mayxo 'r shinavanda asta qulog 'imga shipshib qo 'ygan*) *jin, alvasti aroq ichgan odamdan sal nari yurar ekan.* (A.Meliboyev)

3. Boshqa tildagi gapning yoki boshqa tildagi muayyan bo 'lakning tarjimasi qavsga olinadi: *OK. Continue the fly* ("Yaxshi. Uchishda davom eting"). (I.Sulton) *Yes, sir* (*Xo 'p bo 'ladi, ser*). (I.Sulton) *Mening birinchi maqolalarim qirg 'iz tilida chiqadigan "Emgek danqi"* ("Mehnat shuhrati") *nomli tuman gazetasida bosilgan.* (A.Meliboyev)

4. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish so 'z yoki birikma qavsga olinadi: *Muqaddas esa (ajabo!) go 'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular... edi.* (O.Yoqubov) *Birov o 'q borib uning qo 'liga tekkan desa, boshqa birov (Asto 'furulloh!) naqd og 'ziga tekkan deydi.* (E.A'zam) *Menga bitilgan xatni ikki kun (ikki kun-a!) saqlab yuribsiz, o 'sha ikki kun mobaynida xayolan ikki yuz ming ko 'chaga kirib chiqqanimni tasavvur qilasizmi?* (X.Do 'stmuhammad) *Tuyqus yon tomonidan*

*qo'llarida cho'qmor (ha, ha, rostakam cho'qmor!), korjoma kiygan ikki barzangi sahnaga kirib keldi. (E.A'zam)*

5. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish gap qavsga olinadi: *Ko'ngil qo'yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni biz bilamiz* (*Bilmaylar ketaylik, iloyim!*). (E.A'zam) *Sizning xayollariningizni ostin-ustin qilgan o'zimdag'i fazilatlarni* (*Rostdan ham, bormi ular?*) *topib, ardoqlab yashayman.* (X.Do'stmuhammad) *Boylar bo'lsa na fuqaroni bir chaqaga oladi* (*bunisi-ku mayli-ya*), *na mingboshini* (*mana munisiga chidab bo'lmaydi!*). *Ochiqdan ochiq so'kadi, haqorat qiladi...* (Cho'lpon)

6. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi: *SOHIBQIRON. Yo'q! Bari Ollohdan. Yaratgan egamning xohishi shul erkan. O'z jannatidan joy ato qilg'ay!* (*Qalqonbekka*). *Dafn taraddudini ko'ringlar!* (*Yuziga fotiha tortadi. Saragulni o'rnidan turg'izadi*). *Sen qachon kelding bu maskanga?* (O.Yoqubov) *OLIMJON* (*Alomatga qarab turib*). *Iye, bu o'chib qopti-ku...* (*Robotning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi*). (Sh.Boshbekov)

## 6. Qo'shtirnoq

1. Har biri alohida abzas ko'rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan dialog replikalari shaklidagi ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi ("Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilari" deb nomlangan qismda bu haqda batafsil aytiladi).

2. Turli manbalardan olingan iqtiboslar qo'shtirnoq ichida beriladi: *Navoiy umrining oxirlarida yaratgan "Mahbubul-qulub"* asarida yozadi: *"Yaxshi-yamonning fe'lini bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen"*. (N.Komilov) *"Odami ersang, demagil odami Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami"*. (Alisher Navoiy)

*Cho 'lpon shunday deb hayqirgan edi: "...Kishan kiyma, Bo 'yin egma Ki, sen ham hur tug 'ilg 'onson!" Yunonlarning Lukian degan yozuvchisi o 'tgan. Eramizdan avval. Uning "Vatan sha 'niga" degan asari bor. Undagi birinchi jumla shunday ekan: "O 'z ona-otasini sevmagan farzand o 'zga ota-onalarni hurmat qila bilmaydi. Va o 'z vatanini sevmagan kishi o 'zgalar vatanini hurmat qila olmaydi!"* (Sh.Xolmirzayev)

3. Ichki nutq shaklidagi birliklar (o 'y-xayol, mulohaza, tasavvur kabi) qo 'shtirnoqqa olinadi: *Shavkat sekin oynasi darz ketgan suratga termulib qarar ekan, xayolidan ushbu o 'ylar o 'tdi: "Qiynalib ketdim, Surayyo... Sen bo 'lganingda, bu ko 'rguliklar yo 'q edi... O 'zing hammasini eplarding..."* (Sh.Boshbekov)

4. Gapda odatdagi ma'nosidan boshqa ma'noda qo 'llangan, shuningdek, eski, yangi yoki chet so 'zlar qo 'shtirnoqqa olib beriladi: *Borib-borib yirikroq "ish"ga o 'tdi – odamlarning uy-joyi, molholini o 'g 'irlaydigan bo 'ldi.* (Sh.Boshbekov) *Shundagina Shavkat "o 'tlab" ketayotganini anglab qoldi.* (Sh.Boshbekov) *Bu turqi sovuqning sho 'rlik Otaga "mehri" tushgan ekan, uni tinch qo 'ymadi.* (O.Yoqubov) (*Malades, Shayx! Orangutan bo 'p ket-e!*) *Bunday "maqtovlar" Shayxni battar jazavaga soladi.* (O'.Hoshimov) *Ko 'p o 'zingdan ketaverma, adang "shishka" bo 'lsa o 'ziga!* (Sh.Boshbekov) *U kelganimizdan beri allaqanday lug 'atni yonidan qo 'ymaydi, biroq ovqat mahali bor bilimi esidan chiqib ketadimi, nuqul "fish"* (baliq), *"chiken"* (qovurma jo 'ja go 'shti), *"ti"* (choy) yoki *"bia"* (pivo) deydi. (E.A'zam)

5. Turli asarlarning, shuningdek, kitob, gazeta, jurnallarning nomlari, sarlavhalar alohida olinganda emas, balki matnda qo 'llanganda, qo 'shtirnoqqa olinadi: *A.Qodiriyning "O 'tgan kunlar"*

*romanini o‘qidim; O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi; A.Oripovning “O‘zbekiston” she’ri; “Maftuningman” badiiy filmi; “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi; “Mehnat kodeksi” kitobi; “Xalq so‘zi” gazetasi; “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi; “Sharq yulduzi” jurnali; “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali kabi.*

6. Muassasa, tashkilot, korxona va shu kabilarning shartli nomlari qo‘shtirnoqqa olinadi: “*O‘qituvchi*” nashriyoti, “*Fan*” nashriyoti, “*Jahon*” axborot agentligi, “*Oila*” ilmiy-amaliy markazi, “*Tasviriy oyina*” ijodiy uyushmasi, “*Oltin meros*” xalqaro xayriya jamg‘armasi kabi.

7. O‘zbekiston Respublikasi orden va medallarining nomi qo‘shtirnoqqa olinadi: “*Mustaqillik*” ordeni, “*Buyuk xizmatlari uchun*” ordeni, “*El-yurt hurmati*” ordeni, “*Sog‘lom avlod uchun*” ordeni, “*Oltin yulduz*” medali, “*Jasorat*” medali, “*Shuhrat*” medali kabi.

Ammo buyuk shaxslar nomi bilan atalgan orden nomlari qo‘shtirnoqqa olinmaydi: *Amir Temur ordeni, Jaloliddin Manguberdi ordeni* kabi.

8. Turli mahsulotlarning shartli nomlari qo‘shtirnoqqa olinadi: “*Qoraqum*” konfeti, “*Paxta*” torti, “*Samarqand*” muzlatkichi, “*Neksiya*” avtomashinasi kabi.

### **Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilaringning qo‘llanishi**

1. Ko‘chirma gaplar alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinadi: *Muning ustiga yana ta’na ham qilib qo‘ydi: “Kim olardi endi u kampirni?”* (Cho‘lpon). Ammo agar ko‘chirma gap alohida abzas

ko‘rinishida yangi qatordan berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinmaydi va uning boshlanishi oldidan tire qo‘yiladi:

*Shunda keksa olim dedi:*

– *O‘g‘lingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi.* (O‘.Umarbekov)

*Birdan u qaddini rostladi va o‘choq boshiga qarab baqirdi:*

– *Oyi! Otini nima qo‘yamiz?* (O‘.Umarbekov)

*Eshikka yetganda Obid aka:*

– *Teshavoy! – deb chaqirdi.* (O‘.Umarbekov)

2. Agar ko‘chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi va ko‘chirma gap bosh harf bilan boshlanadi; ko‘chirma gap darak mazmunida bo‘lsa, nuqta qo‘shtirnoqdan tashqarida, so‘roq mazmunida yoki emotsionallikka ega bo‘lganda esa so‘roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko‘pnuqta yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘yiladi: *Barcha dedi barobar: “Ona tilim o‘lmaydi”.* (E.Vohidov) *Otasi gapini ma’qulladi:* “Tentirab yurma begona yurtlarda! Kelaver, ochingdan o‘lsang, men kafil”. (O‘.Hoshimov) *Mansurning og‘zidan nogoh chiqib ketdi:* “Jo‘ra, bir o‘tirish qilsam, nima deysiz?” (Sh.Xolmirzayev) *Shahobiddin gap qotdi:* “*Otasi sotarmikan bu hurliqoni yo sandiqqa qamab, narxini oshirib o‘tiraverarmikan?*” (A.Ibodinov) *Salim uning qo‘lidan yulqinib, uyga chopdi, zum o‘tmay otasidan qolgan qo‘shtig‘ni ko‘tarib chiqib, Polvonga o‘qtaldi:* “Ket, bo‘lmasam, otaman!” *Mahfirat miltiqqa ko‘kragini tutdi:* “Avval meni otasan!..” (M.M.Do‘s) *Dam o‘tmay ko‘chada onaning fig‘oni eshitildi:* “Mening bolam o‘g‘ri emas, nega uni qiynaysizlar. Uning jigari kasal...” (T.Malik)

3. Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, muallif gapidan oldin tire qo‘yiladi; ko‘chirma gap darak mazmunida bo‘lsa, qo‘shtirnoqdan keyin vergul qo‘yiladi, so‘roq mazmunida

yoki emotsiyallikka ega bo‘lganda esa so‘roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko‘pnuqta yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘yiladi, muallif gapi esa kichik harf bilan boshlanadi: “*Tushunsangiz-chi, aya, o‘z holimga qo‘ying, yosh bola emasman*”, – *dedi*. (O‘.Hoshimov) “*Sizga bir og‘iz gapim bor edi*”, – *dedim*. (Sh.Xolmirzayev) “*Kimsan o‘zing?*” – *dedim jahlim chiqib*. (E.A’zam) “*Hoy, shu kuningdan o‘lganining yaxshimasmi?*” – *deb baqirdim*. (Sh.Xolmirzayev) “*O‘zing panohingda asra, Xudo!*” – *deydi Muyassar xayolan*. (O‘.Hoshimov)

4. Muallif gapi ko‘chirma gapning ichida kelganda, muallif gapi ikki tomonidan tire bilan ajratiladi; bo‘laklangan ko‘chirma gap qismlarining har biri emas, balki yaxlit ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi, ya’ni ichida muallif gapi mavjud bo‘lgan ko‘chirma gapning boshida qo‘shtirnoq ochilib, uning oxirida yopiladi; bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire kabi tinish belgilarini taqozo etgan yoki hech qanday tinish belgisini taqozo etmagan bo‘lsa, ko‘chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo‘yiladi va muallif gapidan keyin ham vergul qo‘yilib, muallif gapi, shuningdek, ko‘chirma gapning ikkinchi qismi kichik harf bilan boshlanadi: “*Kim astoydil harakat qilsa, – deydi keksalar, – o‘sha har qanday maqsadiga erishadi*”. (Gazeta) “*Shuni ham aytib qo‘yay, – so‘zida davom etdi Ibrohimov, – hozirgi zamonda xotin baxtini erdan kutmaydi*”. (A.Qahhor) “*Lekin qobiliyat keyin ham yuzaga chiqishi mumkin, – deb o‘zicha to‘ng‘illadi Zokir O‘rin nihoyat. – Buyam talantday gap*”. (Sh.Xolmirzayev) “*Talabalar, – deydi ustozlar, – o‘z ustlarida muntazam ishlar oqlari lozim*”. (Gazeta)

5. Agar bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar nuqtani taqozo etgan bo‘lsa, ko‘chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo‘yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo‘yiladi; ko‘chirma gapning ikkinchi

qismi bosh harf bilan boshlanadi: “*Ma, – dedi mashinaning qiya ochiq eshididan uzatib. – Gulandomniyam og‘zi tegsin*”. (O‘.Hoshimov) “*Uch yildan beri shu gapni kutar edim sizdan, – dedi Omon iymanib. – Qiling. Bir yonini o‘zim ko ‘taraman...* ”. “*Yo ‘q, hammasi o‘zimdan, – kesib ta ‘kidladi Mansur. – Armonim shu edi, jo ‘ra*”. (Sh.Xolmirzayev) “*Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko ‘payadi o‘zi, – deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. – Shu kunimdan ko ‘ra urushga borib, o‘lib keta qolganim yaxshiydi*”. (O‘.Hoshimov)

6. Agar bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar so‘roq yoki undov belgisini taqozo etgan bo‘lsa, ko‘chirma gapning ayni uzilgan joyida so‘roq yoki undov belgisi qo‘yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo‘yiladi; ko‘chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi: “*Nahotki, Sultonmurod akam? – deyman. – O‘zi qolib, sherik boshlab keptimi endi?.. Bo‘lakdir-e, o‘libdimi?!*” (M.Mansur) “*Tavba! – deyman. – Bu qanaqasi bo‘ldi!*” (Sh.Xolmirzayev) “*Menga desa, otib yubormaydimi?! – deb o‘yladi u ayvon labiga cho ‘qqayib o‘tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo ‘rni o‘ldirganim*”. (O‘.Hoshimov)

7. Ko‘chirma gap muallif gapining ichida kelganda, u bosh harf bilan boshlanib, qo‘shtirnoqqa olinadi va uning oldidan ikki nuqta qo‘yiladi; ko‘chirma gapdan keyin uning mazmuniga muvofiq vergul (yopiluvchi qo‘shtirnoqdan keyin) yoki so‘roq, yoki undov, yoki ko‘pnuqta (yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin) qo‘yiladi, bu belgilardan keyin esa tire qo‘yiladi: *Kampirni uyg‘otib: “Tur, karomatingni ko ‘rsat”, – dedim.* (Oybek) *Bunga qarshi o‘jar cho ‘loq: “Avval quda qilib, keyincha o‘zim ham shaharga ko ‘chmoqchiman”*,

- *deb javob berdi.* (Cho‘lpon) *Mehmonlarga:* “Zerikmadingizlarmi?”
- *deb, supaning bir chetiga o‘tirdi.* (Oybek) *To‘n kiyib, belbog‘ bog‘lagan bolakaylar ko‘zidan duv-duv yosh oqib:* “*Buvijonim, buvijonim!*” – *deb chirillashar edi.* (O‘.Hoshimov) *Ona esa:* “*Bolam, qishlog‘imiz, odamlarimiz yana ham yaxshi bo‘lib ketdi, mana, kelsang ko‘rarsan...*” – *derdi.* (S.Ahmad) *Qizaloq:* “*Otam sizni yo‘qlayotuvdi. Zerikkanlar...*” – *dedi.* (Sh.Xolmirzayev)

8. Ko‘chirma gap mazmunan muallifning o‘y-xayoli, ichki kechinmasi, ichki fikr-mulohazasi kabilarga daxldor bo‘lib, bevosita talaffuz qilingan nutq maqomida bo‘lmasa, ya’ni muallif gapining sintaktik asosini ...*deb o‘yladi*, ...*deb xayol qildi*, ...*deb fikr-mulohaza qildi*, ...*deya xavotir oldi*, ...*deya qo‘rquvga tushdi* kabi, shuningdek, ...*degan fikrdaman*, ...*degan gap*, ...*deganday bo‘ldi*, ...*deganday ishora qildi* kabi so‘z shakllari tashkil etgan bo‘lsa, ko‘chirma gap kuchsizlangan, undagi voqeani nomlash darajasi esa kuchaygan bo‘ladi, shuning uchun mazkur “ko‘chirma gap” qo‘shtirnoqqa olinadi, undan keyin yoki oldin esa hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi; faqat agar “ko‘chirma gap” emotsionallikka yoki so‘roq mazmuniga ega bo‘lsa, yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin undov yoki so‘roq belgisi qo‘yiladi: “*Nahotki, birga o‘qisak, yaxshi qiz ekan*” *deb o‘ylardi.* (O‘.Umarbekov). “*Yana fe‘li aynibdi cholning!*” *deb o‘yladi kampir.* (Cho‘lpon) *Hozir, birpas nafasni rostlab olay, keyin “Yo pirim!” deb ko‘taramiz-u, ketaveramiz.* (Sh.Boshbekov) “*Yo‘q, gaplashish qiyin bo‘lsa kerak*” *deb o‘layman.* (O‘.Umarbekov) “*Uyda xotinim bor, qizim bor, ular nima yeydi?*” *deb o‘ylamaydi.* (Cho‘lpon) “*Bu joyda o‘zga maqsad bo‘lishi mumkin emas!*” *deb o‘ylardi u.* (Cho‘lpon) “*Bu ketishda, qizim sho‘rlik, to‘yga yetarmikan, yo‘qmikan?*” *degan xayollar onaning bag‘rini tilardilar.* (Cho‘lpon) “*Tashi yaltiroq, ichi*

*qaltiroq” degan gap bor. (Cho’lpon) Zunnun “Yo’q, yo’q” degan ma’noda qo’lini chaypidi. (Cho’lpon) Nizom qayiqni sokin qo’ltiqqa burib kelib to’xtatganda, Hamidaga ma’yus termulib, “Yana qachon ko’rishamiz?” degandek qaradi. (P.Qodirov) “Men qo’yib yubordim, siz ham qo’yib yuboring” degan ishorani bildirdi. (T.Murod) Ulug’bek “Jim!” deganday o’ng qo’lini sal ko’tarib qo’yib, Abdulvahobga tikildi. (T.Malik) Yigitlar “Kim javob beradi?” degandek bir-birlariga qarab olishdi. (T.Malik) “Sendan yozuvchi chiqadi-yov” degan maqtovdan taltayib, oldidagi qog’ozga battar yopishadi. (E.A’zam)*



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абдалиева Г.Р. Основы русской пунктуации. – Нукус, 2006.
2. Абдураҳмонов Ғ. Пунктуация ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
3. Алимуҳаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида // Хорижий филология. 1-сон. Тошкент, 2016. – Б. 49–53.
4. Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 65 b.
5. Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979.
6. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013.
8. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019.
9. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
10. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент: Фан, 1974.
11. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари (Пунктуация). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
12. Содиқов Қ. Уйғур ёзуви тарихи (Манбашунослик ва китобат тарихи масалалари) – Тошкент: Маънавият, 1997.


13. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba. 1-kitob: Sarf. 2-kitob: Nahf // Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. – Toshkent, 2009. – 336 b.
14. Содиқов Қ. Эски туркий битиклар. – Тошкент, 2009.
15. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019.
16. Шоабдураҳмонов Ш. Пунктуация асослари. – Тошкент, 1953.
17. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. – Тошкент, 1955.
18. Фозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1979.



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНинг  
ДАВЛАТ ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ**  
**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ**  
**ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОРИ ИНСТИТУТИ**

---

# **ЎЗБЕК ТИЛИ МЕЪЁРЛАРИ (ПУНКТУАЦИЯ)**



**Тошкент  
“Zamin nashr”  
2021**

**УЎК 811.512.133:003.086**

**КБК 81.2-2(5Ўзб)**

Ўзбек тили меъёрлари (пунктуация). – Тошкент: Zamin nashr, 2021. – 232 б.

**Тузувчилар:**

**Низомиддин Маҳмудов**, филология фанлари доктори, профессор

**Абдуваҳоб Мадвалиев**, филология фанлари номзоди, доцент

**Неъмат Маҳкамов**, филология фанлари номзоди, доцент

**Дилрабо Анданиёзова**, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

**Масъул мухаррир:**

**Ёркинжон Одилов,**

филология фанлари доктори, профессор

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти илмий кенгашининг 2020 йил 2 декабрдаги 8-ийғилиш қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тасарруфидаги Республика таълим маркази илмий-методик кенгашининг 2015 йил 15 июндаги қарори билан маъқулланган ва нашрга тавсия этилган.

## МЕЬЁР ТИЛНИНГ ЯШАШ ШАКЛИДИР

Адабий тил умумхалқ тилининг сайқалланган шакли сифатида аниқ меъёр ҳамда қоидалар асосида иш кўради. Миллий адабий тилни, унинг оғзаки ва ёзма шаклларини пухта эгаллашда меъёрларнинг ўрни мухимдир. Тилшуносликда меъёр тушунчаси мутахассислар томонидан қабул қилинган, маъқулланган ва тил эгаларига тушунарли бўлган тил бирликларининг нутқ жараёнида қўлланиш ҳолати ва имкониятини англатади. Ҳар қандай тилнинг муайян қолипга солинган, белгиланган меъёрларининг борлиги ўша тил қоидаларининг қатъийлиги, ўрганилиши кулагилгини таъминловчи мухим омиллардандир. Тил ҳодисаларини, унинг меъёрий жиҳатларини тадқиқ этишда тилнинг миллий хусусиятларини ҳам ҳисобга олиш зарур.

Маълумки, ўзбек тилшунослигига адабий тил меъёрлари юзасидан кўплаб тадқиқотлар олиб борилган, китоблар нашр этилган. Масалан, “Адабий норма ва нутқ маданияти” китобида ўзбек адабий тили қуйидаги меъёрлар асосида иш кўриши қайд этилган:

1. Фонетик меъёрлар.
2. Лексик-семантический меъёрлар (сўз қўллаш).
3. Талаффуз (орфоэпик) меъёрлари.
4. Акцентологик (урғунинг тўғрилиги) меъёрлар.
5. Грамматик меъёрлар.
6. Сўз ясалиш меъёрлари.
7. Имловий меъёрлар.
8. График (ёзув) меъёрлар.

## 9. Пунктуацион меъёрлар. 10. Услубий меъёрлар<sup>1</sup>.

Бу ўринда биз дикқат қиласиган жиҳат ўзбек тили пунктуацияси меъёрларидир. Саводхонликни оширишда орфография – тўғри ёзишнинг ўрни қанчалик аҳамиятга эга бўлса, тиниш белгиларини тўғри қўллаш ҳам шунчалик муҳимдир. Зеро, ёзувда тиниш белгиларининг ўринли ишлатилиши нафақат ёзув эгасининг, балки миллатнинг савиясини, ёзув маданиятини кўрсатиб туради.

Ҳозирги ўзбек адабий тилининг пунктуацион меъёрлари анча аввал ўрганилган ва мавжуд қоидалар анча барқарорлашган бўлса ҳам, такомиллаштирилиши зарур жиҳатлар бор эди. Тиниш белгиларининг қўлланиши билан боғлиқ асосий қоидалар 2015 йилда Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти олимлари томонидан ишлаб чиқилган ва чоп этилган эди<sup>2</sup>.

Мазкур китобда замонавий ўзбек пунктуацияси меъёрлари, тиниш белгиларининг қўлланиши каби турли масалалар ҳақида фикр юритилади.

Ушбу китобнинг биринчи қисмини ёзишда пунктуация бўйича изланиш олиб борган К.Назаров, Ш.Шоабдураҳмонов, Ҳ.Фозиев, Ҳ.Жамолхонов, Б.Бахриддинова каби тилшуносларнинг ишларига лозим ўринларда мурожаат қилинди.

---

<sup>1</sup>Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент, 1983. – Б. 75.

<sup>2</sup>Махмудов Н., Мадвалиев А., Махкамов Н. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент, 2015.

## ПУНКТУАЦИЯНИНГ МАҚСАДИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Ёзув тарихига назар солинса, инсоният ҳозирги тиниш белгиларини кўлламасдан аввал ҳам ўз фикрини ёзувда турли воситалар орқали тўғри англатишга интилгани аёнлашади. Шундай интилиш ёки изланишлар натижасида ёзувлар ўтмишида ҳар хил белгилар пайдо бўлган. Бу белгилар турли халқлар ёзувларида кўп ҳолларда шаклан бир хил ёки қисман ўзгача бўлган ва, асосан, бир хил вазифани ифодалаган.

Ҳозирги давр ёзувини тиниш белгиларисиз тасаввур қилиш мумкин эмас, чунки ёзма нутқнинг ҳар томонлама ривожланиши, матбуот ва нашриёт ишларининг кенг тараққий этиши, фан ва техниканинг турли тармоқларига оид кўплаб китобларнинг нашр этилиши ёзувнинг ажралмас қисми бўлган пунктуацияга бўлган ҳаётий талаб ва эҳтиёжни кучайтирди. Ўзбек тилшунослигига ҳам пунктуациянинг вазифалари ва қўлланиш доираси кенгайди, бу борада муайян изланишлар олиб борилди, ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари ишлаб чиқилди.

Тилшуносликда *пунктуация* термини тиниш белгиларининг ишлатилиши ҳақидаги қонун-қоидалар мажмуи ва тиниш белгиларининг ўзига нисбатан ишлатилади. Пунктуация (лотинча *punktum* – нуқта) – тилшуносликнинг мустақил бўлими сифатида тиниш белгилари тизими ва уларнинг қўлланиш қонун-қоидаларини ўрганади. Пунктуация қоидалари ва меъёрларини билиш эса ёзма фикрни аниқ ва тўғри, мантиқли ва ифодали, равон ва тушунарли ҳамда мақсадга мувофиқ баён қилишда муҳимdir.

Тиниш белгиларининг асосий вазифаси ёзувда ифодаланадиган нутқнинг фикрий бўлинишини, гапнинг қандай қисмларга ажралишини ва у бўлакларнинг ўзаро муносабатларини кўрсатишдан иборатdir. Бундан ташқари, тиниш белгилари қўшимча маъно кўринишларини ифодалаш учун ҳам хизмат қиласи. Бунда улар нутқнинг бирор бўлаги ёки гап қандай мазмун англатганини ифодалаш учун ишлатилади.

Шундай ҳолатлар бўладики, тиниш белгилари ўрнининг ўзгариши ёки ўз ўрнида ишлатилмаслиги гап мазмунини бутунлай ўзгартиради. Масалан:

*Афанди подшога қараб: “Сиз аҳмоқ одам эмассиз”, – деди.* (Латифадан) Мазкур гапда аҳмоқ сўзидан кейин вергул қўйилса ҳамда оғзаки нутқда қисқа тўхтам билан айтилса, гапдан подшонинг ақллилиги эмас, балки аҳмоқ ва ёмон одамлиги англашилади. Аксинча, ёзувда вергул қўйилмаса, оғзаки нутқда қисқа тўхтам бўлмаса, подшонинг аҳмоқ эмаслиги тушунилади.

Замонавий рус пунктуацияси билан шуғулланган Н.С. Валгинанинг шундай гапи бор: “Тиниш белгиларни ўрганиш мумкин эмас, балки уларни қўллашни ўрганиш керак”.<sup>3</sup> Оима бу фикри замирида тиниш белгиларнинг кенг вазифаларга, имкониятларга эгалигини ҳам назарда тутган бўлса, ажаб эмас. Чунки тиниш белгилари дастлаб фақат график белги вазифасини ўтаган бўлса, ҳозир уларнинг вазифалари бир қадар кенгайган. Оима фикрида давом этиб ёзади: “Ҳозирги тиниш белгилари ўзида улкан имкониятларни мужассам этади, улар ёзувчига нафақат фикрларини, балки ҳис-туйғуларини ҳам етказишда ёрдам беради”.

<sup>3</sup> Бу ҳақда қаранг: Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С.12.

Дархақиқат, пунктуация, бир томондан, ижодкорга ўз ёзма шутқини аниқ, тўғри ва ифодали баён этиш имкониятини берса, иккинчи томондан, ўқувчига муайян матндаги фикрни муаллиф баён этганидек, у кўзда тутгандек тушунишини таъминлайди.

Умуман, саводхонликни оширишда орфография (имло) қоидаларини эгаллаш қанчалик зарур бўлса, тиниш белгиларини ўринли қўллай билиш малакасини ҳосил қилиш ҳам шунчалик аҳамиятлидир.

Пунктуация ижтимоий ҳодиса сифатида давр ўтиши, ёзувнинг тарақкий этиши билан ўзгариб, такомиллашиб келган. Табиийки, ёзувда дастлаб қўлланилган тиниш белгиларининг қўйилиш ўрни ҳозирги ҳолатидан бошқача бўлган, қолаверса, вазифалари ҳозиргидек аниқ ва мураккаб ҳам бўлмаган. Масалан, ўзбек пунктуацияси масалалари билан шуғулланган тилшунос К.Назаров дастлаб юлдузча ва ромб қўринишидаги ўндан ортиқ ишораларнинг нуқта вазифасида ишлатилгани ҳакида маълумот берган<sup>4</sup>.

Тиниш белгилари ичида энг қадимиysi нуқта бўлиб, бу белги номи кейинроқ тиниш белгиларини ўрганадиган соҳа номининг келиб чиқишига асос бўлган. Дастлаб нуқта вазифасида турли шаклдаги ишоралар (ромб, айлана, юлдузча, тўртбурчак ва б.) қўлланган. Жумладан, қадимги лотин, юнон, хот ёзувларида сўзлар баъзан бўш жой (интервал), баъзан нуқта ёрдамида бир-биридан ажратилган. Ёзувда сўзларни нуқта билан ажратиш Ўрта Осиё халқларининг оромий, руник ёзув намуналарида ҳам қисман учрайди.

XIX асрнинг охирига келиб нуқтанинг ҳозирги қўлланиш ўрни қатъийлашган. Бундан кўринадики, давр талабига боғлиқ

<sup>4</sup> Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б.7.

ҳолда пунктуацион тизим ҳам ўзгариб боради, мукаммаллашади, қатъийлашади. Шунингдек, тиниш белгилари сони, уларни қўллаш меъёрлари тиллараро ҳар хилдир. Пунктуация айрим халқлар ёзуvida олдин, айримларида эса нисбатан кейин пайдо бўлган.

Бугунги кунда тиниш белгилари нафақат гапнинг синтактик қурилиши, интонациясига, балки семантик структурасига, ифода мақсадига ҳам таъсир этадиган муҳим воситага айланган.

Пунктуация ёзув сингари миллатнинг маданий бойлиги ҳисобланади. Ундан фан, таълим, матбуот, нашриёт, маориф ва маданият ходимлари, умуман жамият ҳаётининг барча жабҳаларида кенг фойдаланилади.

Замонавий ўзбек адабий тили ва унинг вазифавий услублари таракқиёти, ёзув маданиятининг ўсиши, матбуот ва нашриёт ишларининг кенг ривожланиши пунктуациянинг ижтимоий-амалий аҳамиятини оширмоқда. Шулардан келиб чиқиб, тиниш белгиларининг асосий вазифалари сифатида куйидагиларни кўрсатиш мумкин:

1. Ёзув орқали ижодкор (муаллиф) ва ўқувчи ўртасида амалга ошадиган ижтимоий алоқа-аралашувнинг тўғри боришига ёрдам бериш. Агар муайян гап якунида ижодкор ундов ёки сўрок белгисини қўйса, ўқувчи шу белгилар ёрдамида гапда сўроқ ёки ундов, ҳис-ҳаяжон мазмуни борлигини англайди ва муаллиф мақсадини аниқ тушунади.

2. Ёзма нутқдаги мақсад, мазмун ва сўзларнинг маъно қирраларини аниқлаштиришда иштирок этади. Масалан, гап охирига қўйилган нуқта, сўроқ ва ундов белгилари ёки қўпнуқта шу гапда қандай мазмун, сўзловчининг нутқий мақсади

ифодаланганлигини билдиради, айни пайтда, уларни бир-биридан фарқлади.

3. Гап қурилишини аниқ белгилашга ёрдам беради. Бунда гап бўлаклари, гапнинг тузилишига кўра турлари (сада ёки қўшма), уюшиқ ва ажратилган бўлаклар, ундалма, киритмалар орасидаги чегарани, боғловчисиз қўшма гап қисмлари ҳамда муаллиф ва кўчирма гап ўргасидаги муносабатни кўрсатади.

4. Ёзма нутқнинг ихчам ва равон ифодаланишини таъминлайди. Қиёсланг: *Тошкентдан Бухорога қатнайдиган поезд / “Тошкент – Бухоро”* поезди. Кейинги мисолда тиренинг қўлланиши гапни анча ихчамлаштирган.

5. Ёзма нутқда мураккаб фикрий муносабатларни ифодалашда қўлланади. Масалан, бадиий асарларда қаҳрамон руҳияти ва ҳис-туйғуларини беришда ижодкорлар тиниш белгилардан унумли фойдаланадилар:

– Умид... борми, табиб?.. – *Турсунбой жонталашнинг овози титраб чиқди.* (У.Ҳамдам. Исён ва итоат)

– Ёмонлик қилмаган бўлсангиз мунча қўрқасиз, Раҳимбой ака?! Ўгри эмассиз, бузуқи эмассиз – тўгерими?! – *Раҳимқул Бозорнинг ўзига тикилиб турган кўзларига тик боқолмай тарракдек қотди.* (Х.Дўстмуҳаммад. Сўроқ)

Гапларнинг биринчисида кўпнуқта орқали қаҳрамоннинг ички қўркуви, гапиришга ботина олмаётгани ифодаланган бўлса, сўроқ белгиси ва кўпнуқтанинг бирга қўлланиши савол берувчининг кучли ҳаяжонини ёритишга хизмат қилган. Иккинчи гапда сўроқ ва таажжуб муносабатлари ифодаланган.

Маълумки, қадимги ёзувлар, пиктографик (расмга асосланган ёзув) ёки логографик (алоҳида белги, шакллар орқали

фикр ифодалаш) шаклда бўлганлиги сабабли тиниш белгиларига эҳтиёж сезилмаган. Ижтимоий онгнинг ўсиши ва шунга боғлиқ ҳолда ёзувнинг тараккий этиши билан тиниш белгилари вазифасини бажарувчи турли ишоралар, кейинчалик тиниш белгилари ишлатила бошланган.

Пунктуациянинг пайдо бўлиш даври турли тилларда ҳар хил бўлиб, уларнинг хусусиятлари ҳам бир-биридан фарқли бўлган. Масалан, анъанавий пунктуацион тизимнинг шаклланиши Европа ёзувида XV асрдан, рус ёзувида XVIII асрдан, ўзбек ёзувида XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошланган. Шу сабабли пунктуация тарихи ҳар бир халқнинг ёзув тарихи, маданияти асосида ўрганилади.

Илмий манбаларда пунктуациянинг пайдо бўлиш асослари сифатида қўйидагилар кўрсатилади:<sup>5</sup>

1. Ёзув тизимишинг мураккаблашуви – синтетик усулдан аналитик усулга ўтилиши.
2. Ёзувнинг такомиллашуви натижасида тиниш белгиларини қўллашга бўлган эҳтиёж, заруратнинг туғилиши.
3. Тил ва тафаккурнинг диалектик тараққиёти туфайли турли ҳолат ва эмоционал-экспрессив муносабатларни ифодалаш заруриятининг пайдо бўлиши, шунингдек, тилнинг нафақат алоқа воситаси, балки эстетик ҳодиса сифатидаги моҳиятининг такомиллашуви натижасида пунктуация ва бошқа ёндош ҳодисалар интеграциясининг юзага келиши.

4. Турли ёзувларнинг ўзаро таъсирлашуви. Масалан, Фарбий Европа ёзувининг рус пунктуацияси тараққиётiga, кирилл алифбосига ўтилиши билан рус ёзуви ва пунктуациясининг ўзбек пунктуацияси тараққиётiga таъсир этиши ва ҳоказо.

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 28–29; Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 7.

## Тиниш белгиларининг ўзига хос хусусиятлари

Тиниш белгисига қўйиладиган асосий талаблардан бири – уларнинг маҳсус шаклга эга бўлишидир. Шу жиҳати билан тиниш белгилари ёзувдаги бошқа воситалар (белги)дан фарқланади. Ва, албатта, ёзувда ишлатилган ҳар қандай ишора (белгилар)ни тиниш белгилари сирасига киритиб бўлмайди. Масалан, ёзувдаги айрим сўзлар ёки жумлаларни ажратиб кўрсатиш жиҳатидан курсив (қиялама, сўзларни бир томонга эгиб ёзиш)нинг вазифаси қўштирноқнинг баъзи вазифасига ўхшайди, лекин курсив тиниш белгиси эмас.

Рус тилшунослигига абзацни пунктуацион воситалар тизими ичida қарашиб анъанаси мавжуд. Масалан, А.Н.Гвоздев тиниш белгиларини шарҳлар экан, шундай ёзади: “Вазифасига кўра абзац тиниш белгилари сирасига киради... Абзац янги фикрлар қаторининг кўрсаткичи сифатида хизмат қиласди; абзац ичida мустақил гаплар билан ифодаланган фикрлар, барибир, мазмунан бирлашган бўлади ва муайян кичик мавзуни ривожлантиради... Бир неча гап ёки ҳатто битта гапни алоҳида абзац сифатида ажратиши бу гапларга муайян салмоқ бахш этади, бундай ажратиши муаллиф томонидан ўз мақсадига боғлиқ тарзда амалга оширилади”<sup>6</sup>.

Таъкидлаш лозимки, абзацни тиниш белгилари қаторига киритиш учун грамматик асос йўқ ва у ўз график шаклига ҳам эга эмас. Шу сабабли абзац ҳам тиниш белгиси ҳисобланмайди.

Биз тиниш белгиларининг ўзига хос хусусиятларини куйидагича кўрсатамиз:

<sup>6</sup> Бу ҳақда қаранг: Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019. – Б. 70.

1. Тиниш белгиларининг ҳар бири ўз график шакли ва қўлланиш тизимиға эга. Тиниш белгиларининг айни жиҳатини баъзи белгиларга қиёслаш орқали аниқ тасаввурга келиш мумкин. Масалан, оралиқ белгиси (пробел) ёзувда сўзни бошқа сўздан ажратади, лекин тиниш белгиси бўлиш учун ажратиш хусусиятининг ўзи етарли эмас. Айтилганидек, умуммеъёр асосидаги ўз график шаклига эга бўлиши керак.

2. Тиниш белгиларининг қўлланиши нутқнинг ифода мақсади, семантик-грамматик тузилиши билан боғлик. Масалан, дарак гап охирида қўйиладиган нуқта шу гапдан дарак, хабар мазмуни ифодаланаётганини билдиради ва гапнинг тугалланганлигини кўрсатади.

3. Ҳар бир тиниш белгиси муайян ижтимоий вазифани бажаради. Тиниш белгилари миллий ёзувнинг таркибий қисми бўлиб, умумий меъёрлар асосида қўлланади. Нутқнинг шаклидан қатъи назар, аниқ бир маънони ифодалайди, бирдек тушунилади ва тасаввур қилинади. Демак, тиниш белгилари кишилар ўртасида ёзув орқали амалга ошириладиган ижтимоий муносабат – фикрлашувни таъминлаш учун хизмат қиласди.



## ЎЗБЕК ПУНКТУАЦИЯСИ ТАРИХИ

Илмий манбаларда ўзбек ёзувида тиниш белгиларининг қўлланиш даври сифатида XIX асрнинг иккинчи ярми кўрсатилади<sup>7</sup>.

Тарихда ўзбекча матнларда ҳозиргидек шакл ва мазмундаги тиниш белгилари қўлланмаган, аммо қадимги қўлёзмаларда тугал фикрни ёки унинг айрим қисмларини бўлакларга ажратувчи маҳсус ишоралар ишлатилган.<sup>8</sup> Жумладан, Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит-турк” асари қўлёзмасида (Истанбулдаги Миллат кутубхонаси, арабча асарлар бўлими, инв. №4189) туркий сўз ва унга берилган туркий мисолларни матнда ажратиш учун тепасига қизил чизик тортилган. Боб номлари, мисоллар, изоҳ учун келтирилган ҳарфлар қизил сиёҳда берилган. Асадаги ҳар бир сўз-мақола баргсимон белги билан ажратилган<sup>9</sup>.

Шунингдек, профессор Қ.Содиков ҳам тиниш белгиларининг қўлланиш тарихига диққат қаратиб, қуйидагиларни келтиради: “Юсуф Хос Ҳожибининг “Қутадғу билиг” асари Наманган (ТошДШИ қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази, инв. №1809) ҳамда Қоҳира (Миср миллий кутубхонаси, инв. №168) нусхаларида боб номлари алоҳида қатордан берилган. Наманган нусхасида боб номлари алмаштирилиб, қора ва қизил сиёҳда битилган. Қоҳира нусхасида асар ичидаги боб номлари асосий

<sup>7</sup> Назаров К. Ўзбек пунктуацияси тарихи. – Тошкент, 1976. – Б. 31.

<sup>8</sup> Гозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент, 1979. – Б. 5.

<sup>9</sup> Бу ҳақда қаранг: Алимухаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида // Хорижий филология. 1-сон. – Тошкент, 2016. – Б. 49.

матндан катта ҳарфлар ва калинроқ сиёҳ билан ажратилган. Асарнинг Ҳирот нусхасида (Вена миллий кутубхонаси) матндаги сўзлар ва баъзи ҳарфларни тўғри тушуниш учун ўрни билан араб ёзувидағи ҳарфлардан фойдаланилган”<sup>10</sup>.

Умуман, ўзбек пунктуацияси тарихи, тараққиёт йўллари хамда илмий назарий асослари масаласи анча мураккаб. Мутахассислар бу мураккабликнинг сабабларини қуидаги омиллар билан боғлиқ деб хисоблайди:

1) ўзбек пунктуацияси тарихининг кенг ва чукур текширилмаганлиги ва илмий асосда етарлича ўрганилмаганлиги;

2) қадимги ўзбек тили ёдгорликларининг араб алифбосида бўлганлиги, улардан маълум қисмининг умумтуркий тилларга мансублиги;

3) ўзбек тили ёдгорликларининг якка шахслар – хаттотлар томонидан кўчирилганлиги;

4) Ўзбекистонда матбаачиликнинг пайдо бўлиши, матбуот ва нашриёт ишларининг ривожланиши<sup>11</sup>.

Пунктуация тарихини белгилашда ҳалқнинг ёзув тарихи мухим ўрин тутади. Чунки ёзув тарихи билан боғлиқ маълумотлар пунктуация тарихини даврлаштиришда асосли маълумотлар беради.

Маълумки, ўзбек ҳалқи ўз тарихий тараққиёти давомида сўғд, ўрхун-энасой, уйғур, араб, лотин ва кирилл ёзувларидан фойдаланган ва уларда ҳам муайян белгилар, ишоралар қўлланганки, буларнинг барини ҳозирги ўзбек тили пунктуациясининг асослари дейиш мумкин. Масалан,

<sup>10</sup> Содиков К. “Қутадғу билиг”нинг уйғур ёзувли Ҳирот нусхаси. – Тошкент, 2010. – Б. 16–18

<sup>11</sup> Назаров К. Кўрсатилган асар. – Б. 30.

V–VIII асрларда Ўрта Осиёда кенг ишлатилган руник ёзувларда “ажратувчи белгилар”дан фойдаланилган.

Қадимги манбалар тадқиқи бўйича изланиш олиб борган олимларнинг маълумот беришича, Ўрхун-Энасой ёдгорликлари орасида “Ирқ битиги” турли ишоратларга бойлиги билан ажралиб турган. Ундаги ишоралар ҳақида куйидаги фикр айтилади: “Асардаги бўлимлар бир-биридан қора сиёҳли қўшалоқ келган бир, икки, уч ҳамда тўртта кичик думалоқлар тизими билан ажратилган. Думалоқларнинг ичи қизил сиёҳ билан бўялган. Бу тартибга асарнинг бошидан охиригача амал қилинган. Асарнинг ҳар бир бўлими янги қатордан бошланган”<sup>12</sup>.

Шунингдек, бу давр ёдгорликларида икки нукта (:) билан бир қаторда, бир нукта (•) ҳам қўлланган бўлиб, ушбу белгилар (қизил сиёҳда) сўз ва жумлаларни бир-биридан ҳамда қўшимчаларни сўзлардан ажратишга хизмат қилган.

VIII асрга келиб араб ёзуви қўллана бошлангач, “ажратувчи белгилар” билан боғлиқ анъана бузилган ва уларнинг ўрнига араб ёзувига хос бошқа ишоралардан фойдаланилган.

Манбаларда араб ёзувида “ёрдамчи воситалар” сифатида куйидаги ишоралар қўллангани ҳақида маълумотлар учрайди:

- а) “таъкид белгилари” – тик тўғри чизик, қизил ва қуюқ қора ранглар;
- б) “маъно белгилари” – Куръондаги туруш ва детерминативлар;
- в) “безак белгилари” – булар XIV–XIX асрларда ёзувда кенг қўлланган бўлиб, бу даврда араб ёзувини ислоҳ қилиш, шунингдек, сўзларни ажратиб ёзиш анъанаси юзага келган;

<sup>12</sup> Алимухаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида // Хорижий филология. 1-сон. – Тошкент, 2016. – Б. 51.

г) тиниш белгилари. XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, араб графикаси асосидаги ўзбек ёзувида маҳсус тиниш белгилари кўллана бошлаган<sup>13</sup>.

Ўзбек тили пунктуацияга доир тадқиқотлардаги фикрларга таяниб, ўзбек пунктуацияси тарихини қуидагича даврлаштириш мумкин<sup>14</sup>:

1. I – VIII асрлар. Бу даврга оид оромий ва туркий руник ёзувдаги манбаларда ишлатилган тиниш белгиси характеридаги воситаларнинг дастлабки вазифаси ажратиш бўлган, яъни гап қисмлари маълум оралиқ масофа – интерваллар воситасида ажратилган. Бу белгилар ҳеч қандай маъно ифодаламаган, шунчаки сўзларнинг ўзаро қўшилиб қолмаслигига хизмат қилган.

2. IX – XIX асрлар. Пунктуация тараққиётининг бу даврида араб графикасига асосланган эски ўзбек ёзуви амалда бўлган ва ажратувчи белгилар тугалланганлик, хабар, сўроқ, буйруқ каби қўшимча вазифаларни бажара бошлаган. Маъноларни ёки гап мазмунини фарқлаш учун нуқтанинг турли кўринишларидан фойдаланилган.

3. XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX асрнинг охирларигача бўлган давр. Бу вақтга келиб тиниш белгилари тизими ва уларнинг вазифалари аниқлаштирилган ва тил эгаларида тиниш белгиларини қўллаш малакаси шаклланган. Босмахоналар, нашриётлар пайдо бўлиб, китоб, газета ва журналлар нашр этилган. Табиийки, бунда нашр этилган ишлардаги ҳар бир фикрни ўқувчига аниқ ва тўғри етказиш зарурияти туғилган.

<sup>13</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 31; Фозиев Х. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент. 1979.

<sup>14</sup> Бу ҳақда қаранг: Назаров К. Кўрсатилган асар. – Б. 30 – 33; Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 8–9.

Ўзбек пунктуациясининг шаклланиши ва ривожида, айниқса, 1871 йилнинг 28 апрелидан бошлаб, 1917 йилнинг бошларигача (деярли 50 йил мобайнида) мунтазам равишда нашр этилган “Туркистон вилоятининг газети” муҳим ўрин тутган. Бу даврда таржимачилик ҳам жуда ривожланган ва айни жараёнда аслиятдаги тиниш белгилари ҳам ўзбекча нусхага ўтган.

4. XX асрнинг охиридан ҳозиргача бўлган давр. Соҳада изланишлар олиб борган тилшунослар томонидан пунктуациянинг назарий ва амалий масалалари ўрганилган, тиниш белгиларини кўллаш бўйича қоидалар такомиллаштирилган.

Ўзбек пунктуацияси тарихи ҳақида сўз борар экан, бевосита Алишер Навоийнинг тиниш белгилари вазифасида кўллаган турли ишоралари қизиктириши табиий. Илмий манбаларда шоир асарларида турли мақсадларда бир неча ишоралар кўллангани ҳақида маълумотлар бор. Масалан, Р.Алимухаммедов куйидагиларни ёзди: “Туркиядаги Сулаймония кутубхонасининг Фотиҳ бўлимида (инв. №4056) сақланаётган Алишер Навоийнинг кулиётида жамланган барча асарларида қора ва қизил сиёҳдан кенг фойдаланилган. Жумладан, қўлёзмадаги “Мажолис-уннафоис”даги ҳар бир мажлис ва унда келтирилган шоирлар номи қизил сиёҳда битилган. Мисол тариқасида келтирилган шеърий парчалар олдидан ёзилган *шеър* сўзи қизилда берилган. Навоийнинг насрий асарлари, жумладан, “Муншаот” ичида берилган назмий парчалар асосий матндан жой ташлаб битилган. Матнга кўз ташлаган ўқувчининг диққатини матннинг мана шу еридаги бўш жой ўзига торгади. Бу, ўз навбатида, ўқувчига матнни тушунишга ёрдам беради”<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> Алимухаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳақида. Хорижий филология. 1-сон. – Тошкент, 2016. – Б. 50.

Умуман, қадимги туркий матнларда ҳозирги даврдагидек пунктуацион белгилар қўлланмаган бўлса-да, уларда ўқувчи учун матнни англаш ва фикрни тушунишни енгиллаштириш мақсадида турли ишоратлардан фойдаланилган. Буларга матннинг турли рангларда берилиши, матн ости ва матн усти белгилари, матн орасида жой қолдириш, сўзлар орасида турли белгиларнинг ишлатилиши ва бошқаларни келтириш мумкин.

Юкорида айтиб ўтилганидек, ўзбек пунктуацияси тараккиётида ўзбек вақтли матбуотининг биринчи калдирғочи бўлган “Туркистон вилоятининг газети” салмоқли ўрин тутади. Бу газета ўша давр ўзбек маданияти, ўзбек адабий тили ва ўзбек графикасининг намунаси сифатида ҳам муҳим тарихий ҳужжат ҳисобланади. Таъкидлаш керакки, газета ўзбек ёзув маданиятининг янада ривожланиши ва такомиллашувида, ўзбек адабий тили меъёрларининг шаклланиши ва такомилида муҳим ўрин тутган. Шу сабабли ўзбек пунктуацияси тарихи, унинг шаклланиши ва ривожланиши, тараккиёт қонунларини ўрганишда тадқиқотчилар мазкур манбага асосланадилар. Жумладан, К.Назаров ўз тадқиқотида “Туркистон вилоятининг газети”га кўп мурожаат қилган<sup>16</sup>.

Олимнинг ёзишича, “ўша давр ёзувида қўлланувчи барча ёзув белгилари “Туркистон вилоятининг газети”да ҳам ишлатилганини кўрамиз. Буларни шундай гурухлаб ўрганиш мумкин:

- а) ҳарфлар;
- б) рақамлар;
- в) турли фанларга оид илмий белгилар;
- г) тиниш белгилари (пунктуация);

<sup>16</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 17–22.

- д) транскрипцион ва диакритик белгилар;
- е) турли шаклдаги “безак” белгилар”<sup>17</sup>.

Тиниш белгиларининг айни газетада қўлланиш ҳолатларига таяниб, ўзбек пунктуацияси тарихи, тиниш белгиларининг ўзбек матбуотида ишлатилиш даври юзасидан қўйидагиларни айтиш мумкин: Тиниш белгилари “Туркистон вилоятининг газети”да 1870 йилдан, яъни газета нашр этилган йилданоқ қўллана бошланган ва бунда рус тили пунктуациясининг тажрибаларидан ижодий фойдаланилган. Бироқ ҳозирги кунда амалдаги ёзувилизда қўлланаётган тиниш белгиларининг ҳаммаси ҳам газета саҳифаларида бир вақтдан бошлаб ишлатилган эмас, яъни улар қўйидагича бирин-кетин қўллана бошланган:

1. “Туркистон вилоятининг газети”да нисбатан олдин ишлатилган тиниш белгиси тире бўлган. У газетанинг 1871 йилдаги 20-сонидан қўлланган бўлиб, ундан дастлаб иш қоғозлари ва эълонларда фойдаланилган.
2. Кўпнукта “Туркистон вилоятининг газети”да 1872 йилги 18-сонидан бошлаб қўлланган. Дастлаб расмий қоғозларда (турли ҳужжатлар, ҳисоб-китоб, почта қоғозлари ва эълонларда) ишлатилган. Кўпнукта 1901 йилдан сўроқ ва ундов белгилари билан биргаликда қўлланган.

3. Қавс “Туркистон вилоятининг газети”да энг кўп фойдаланилган тиниш белгиси бўлиб, у 1873 йилнинг 6-сонидан бошлаб қўлланган. Шунингдек, қавснинг ўша даврдаги шакли, вазифаси, қўлланиш ўрни ҳозиргидан фарқланган. Манбаларда қавснинг беш хил шаклда ишлатилгани ҳақида маълумот берилган, яъни одатдаги қавс, катта қавс, ўрга қавс, гулли қавс, “безак” қавс (бунда “безак” белгиси қавс вазифасида ишлатилган).

<sup>17</sup> Назаров К. Кўрсатилган асар. – Б. 17–22.

4. Нуқта вазифасини дастлаб, бўш жой – жумлалар орасидаги пробел бажарган. 1875 йилдан бошлаб, турли хил “безак” белгилардан нуқта вазифасида фойдаланилган. Нуктанинг ҳозирги шакли газетада 1881 йилдан қўлланган.

5. Тиниш белгиларининг ўзбек вақтли матбуотида дастлабки қўлланиш усули ва шакли ҳозиргидан фарқланган. Масалан, сўрок, вергул, нуқтали вергул каби тиниш белгилари араб ёзувига мос равища үнгдан чапга томон йўналтирилган. Қўштириноқнинг уч хил шаклда бўлгани ҳақида маълумотлар келтирилган: одатдаги қўштириноқ (“ ”); бурчак шаклидаги қўштириноқ (« »); “яrim ой” ёки қўшқавс шаклидаги қўштириноқ.

6. Ўзбек тилидаги ёзувларда амалда қўлланаётган тиниш белгиларининг ҳаммаси “Туркистон вилоятининг газети”да 1901 йилдан қўллана бошлангач, уларнинг вазифалари, қўлланиш ўрни қатъийлашган. Уларни ёзувда ишлатиш одат тусига кирган<sup>18</sup>.

Таъкидлаш керакки, ўзбек тилидаги аксар тиниш белгиларининг ишлатилиши “Туркистон вилоятининг газети” билан боғлиқ бўлсада, айрим тиниш белгиларининг ўзбекча матнларда қўлланиши бу газетадан анча аввалроқ бошланган.

Тиниш белгилари ҳақидаги дастлабки илмий маълумотлар Ашурали Зохирий ва Абдурауф Фитрат асарларида учрайди. Жумладан, Фитрат тиниш белгиларини туруш **белгилари** номи остида ўрганиб, “Наҳв” асарида 12 та тиниш белгисини келтиради ҳамда қуидагича номлайди: “Нуқта (.), бир тиниш (;), яrim тиниш (,), сўраш белгиси (?), ундаш белгиси (!), қўш нуқта (:), тирноқлар (“ ”), ёйлар (), тўрткўл ёйлари [ ], улкан ёйлар { }, чизик (–), нуқталар (...)"<sup>19</sup>.

<sup>18</sup> Бу ҳақда қаранг: Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 20–22.

<sup>19</sup> Fitrat. Nahv. – B. 8.

Фитрат “Наҳв” асарида тиниш белгилари ҳақида шундай дейди: “Туруш белгилари – сўзларни тўплаб, бир-бирига бойлаб гап тузишида ўй қулай англансин деб турли белгилар ишлаймиз. Буларнинг ҳаммаси бирдан туруш белгилари ёки соддача турушлар дейилади”<sup>20</sup>.

Демак, ҳар бир тиниш белгиси ўзининг ҳозирги аниқ шакли ва вазифасига эга бўлгунча маълум муддат ва тажриба жараёнидан ўтган.

Ҳозирги ўзбек тилида 10 та тиниш белгиси мавжуд бўлиб, уларнинг ўз тарихи, график шакли ва қўлланишининг илмий асослари мавжуд.

|    |                      |     |                           |
|----|----------------------|-----|---------------------------|
| 1. | Нуқта ( . )          | 6.  | Сўроқ белгиси ( ? )       |
| 2. | Вергул ( , )         | 7.  | Ундов белгиси ( ! )       |
| 3. | Нуқтали вергул ( ; ) | 8.  | Кўпнуқта ( ... )          |
| 4. | Икки нуқта ( : )     | 9.  | Қавс ( ), [ ]             |
| 5. | Тире ( – )           | 10. | Қўштирноқ – ( “ ” , « » ) |

Мавжуд илмий манбаларда тиниш белгиларининг ўзбек ёзувида қўлланиш тарихи қуйидагича кўрсатилган:

**Нуқта** энг қадимий тиниш белгиларидан бири бўлиб, у ёзув белгиси сифатида қадимги араб манбаларида Абдул

<sup>20</sup> Fitrat. Кўрсатилган асар. – Б. 6.

Малик халифалиги (хижрий I аср) давридан қўллана бошлаган. Аммо қадимги матнларда нуқта том маънодаги тиниш белгиси сифатида эмас, балки турли мақсадларда ишора белгиси сифатида ишлатилган. Ўзбек манбаларида тиниш белгиси сифатида XIX асрнинг иккинчи ярмидан қўллана бошланган.

Вергул<sup>21</sup> энг кўп қўлланадиган тиниш белгилар жумласига киради. Унинг қўлланиш ўрни, шакли турли даврларда ва турли тилларга оид ёзувларда ҳар хил бўлган. Ўзбек тилида вергул *тескари пеш, пеш, ярим туриши, ярим тиниши* каби номлар билан ҳам юритилган. Вергул дастлаб қисқа пауза учун ишлатилган, кейинчалик унинг қўлланиш доираси ва вазифаси кенгайган. Вергул XV асрдан бошлаб Фарбий Европада, ўзбекча матнларда эса XX асрдан, хусусан, “Туркистон вилоятининг газети”да 1901 йилдан, “Тараққий” газетасида 1906 йилдан учрайди. Вергул энг кўп қўлланувчи ва энг кўп вазифа бажарувчи тиниш белгиларидан хисобланади.

Сўроқ белгиси гап охирида қўлланувчи асосий белгилардан хисобланади. Унинг келиб чиқиши лотинча “questio” – сўроқ сўзига бориб тақалади. Профессор А.Н. Гвоздёв сўроқ белгиси (?) *questio* сўзининг бош ҳарфидаги *Q* нинг шаклига асосланганини кўрсатади.<sup>22</sup> Дастлаб сўроқ маъносида мазкур сўзниң биринчи ҳарфи *Q* ишлатила бошланган, кейинчалик унинг шакли хозирги ҳолатга (?) келиб қолган.

Бу белги ўзбекча матнларда 1885 йилдан учраб турган, 1900 йилдан сўнг муентазам қўллана бошланган.

Ундов белгиси ўзбек ёзувларида XX асрдан кўпчилик тиниш белгилари каби ўша даврнинг ягона адабий тил меъёрларига амал

<sup>21</sup> Французчада *вергул* демакдир.

<sup>22</sup> Бу ҳақда қаранг: Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 60.

қилинган “Туркистон вилоятининг газети”да мунтазам қўлланган. Мутахассисларнинг фикрича, у лотинча “Io” ундов сўзидан келиб чиқкан бўлиб, ундаги “I” ҳарфининг нуқта билан қўшилишидан хосил бўлган.

Қавс ўзбек ёзуvida тиниш белги сифатида XIX асрнинг охирги чорагидан бошлаб ишлатила бошланган. Дастрлаб “Туркистон вилоятининг газети”да 1873 йилда қўлланган. Қавс чегараловчи тиниш белгиларидан бўлиб, ёзма нутқдаги муайян қисмнинг синтактик жиҳатдан бошқа қисмлар билан кучсиз боғланганлигини, семантик жиҳатдан у ёки бу даражада алоқадорлигини кўрсатади. Қавс – икки таркибли тиниш белгиси. У якка ҳолда ҳам, қўш ҳолда ҳам (очилувчи ва ёпилувчи қавс) ишлатилиши мумкин.

Ҳозирги ўзбек тилида қавснинг қўлланилиш доираси ҳамда вазифаси кенгайган. Илгари фақат асосий гап билан маъноси яқин бўлмаган қисмлар қавс билан ажратилган бўлса, ҳозирги кунда асосий матн билан мазмун жиҳатдан алоқадор матнлар ҳам қавсга олинади. Бу ўзбек тили вазифавий услубларининг ривожланиши, ўзбек пунктуациясининг такомиллашуви билан боғлиқдир.

Кўпнуқта ўзбекча матнларда XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ишлатила бошлаган. 1876 йилдан эътиборан “Туркистон вилоятининг газети”да мунтазам қўлланган.

Кўпнуқта ижодкорнинг турли ҳис-туйғулари, мақсад ва истакларини ёзувда акс эттиришга имкон беради. Бу жиҳатдан кўпнуқтанинг ёзма нутқ учун аҳамияти каттадир.

Тире (французча *tîret* – чизиқча, *tirer* – тортиш, узайтириш) узун чизиқ билан ифодаланадиган тиниш белгисидир. Тире ўзбек ёзуvida XIX асрнинг 70-йилларига келиб қўллана бошлаган. Бу белги гаплар, қўшма гап қисмлари, гап бўлаклари орасидаги

синтактик муносабатларни кўрсатиш учун ишлатилади. Тире 30-йилларда чизиқ термини билан, кейинчалик чизиқча (дефис) дан фарқлаш мақсадида *tire* термини билан аталишга ўтган.

Қўштириқнинг ўзбек ёзувида тиниш белгиси сифатида ишлатилиши XIX асрнинг 80-йиллариға тўғри келади. У 1886 йилдан “Туркистон вилоятининг газети”да қўлланган.

Икки нуқта ўзбек ёзувида нисбатан кейин пайдо бўлган тиниш белги хисобланади. Унинг илк қўлланиш даври XIX аср охири XX аср бошлариға тўғри келади.

Нуқтали вергул ўзбек ёзувида 1885 йилдан бошлаб учрайди. Бу тиниш белгиси бошқа тиниш белгилариға нисбатан кам қўлланади.



## ЎЗБЕК ПУНКТУАЦИЯСИ АСОСЛАРИ

Тилшуносликда пунктуация асослари масаласи муҳим муаммолардан ҳисобланади. Пунктуация асослари масаласи билан пунктуация тамойилларини ўзаро фарқлаш лозим.

Пунктуация асослари деганда, муайян тилдаги тиниш белгиларининг қандай назарий таянч заминида қўлланиши тушунилади<sup>23</sup>.

Пунктуация ёзма нутқнинг ифода мақсадига асосланади: тиниш белгилари ёзма нутқда ифодаланиши лозим ва зарур бўлган мақсадга боғлиқ ҳолда ишлатилиб, маълум коммуникатив вазифани бажаради. Мақсад ҳар бир тил грамматик қурилишига мос равишда турли хил шакл ва усулларда ифодаланади. Шунга кўра, тиниш белгилари тиллараро ҳар хил қўлланади.

Мавжуд илмий манбаларга кўра, пунктуация асослари асосан уч хил ёндашув асосида белгиланади. Мазкур ёндашувлар масалага турлича ёндашиш, тиниш белгиларининг асосий вазифаларини турлича аниқлаш туфайли келиб чиқсан. Масалан, К.Назаров бу қарашларни куйидагича гурухлайди<sup>24</sup>:

1. Пунктуацияга маънони асос қилиб олиш. Бу қараш вакиллари (С.И.Абакумов, А.Б.Шапиро ва бошқалар) пунктуация қоидаларини белгилашда кўпроқ мазмунга эътибор берадилар. Тиниш белгиларининг қўлланишини маънога боғлаб изоҳлайдилар.

2. Пунктуацияга грамматик қурилишни асос қилиб олиш. Улар (С.Булич, Н.Греч, Ш.Абдураҳмонов ва бошқалар) тиниш

<sup>23</sup> Bahriddinova B. Zamoniaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 9.

<sup>24</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 34.

белгиларининг қўлланишини аниқлашда кўпроқ гапнинг синтактик қурилишига диққат қилиб, тиниш белгиларининг ишлатилишини гап тузилишига боғлаб изоҳлайдилар.

3. Пунктуацияга интонацияни асос қилиб олиш. Бу олимлар (Л.В.Шчерба, А.М.Пешковский, Ҳ.Рустамов ва бошқалар) пунктуация қоидаларини гапнинг оҳанги, интонацияси билан боғлаб тушунтирадилар.

К.Назаров бу қарашларга қўйидагича муносабат билдиради: “Пунктуация асосларини бундай белгилаш бир ёқлама бўлиб, масаланинг моҳиятини тўлиқ акс эттира олмайди. Чунки интонация ҳам, нутқнинг синтактик структураси ҳам, гапнинг мазмуни ҳам алоҳида-алоҳида олинганда, яъни бир-биридан ажратилган ҳолда, пунктуация учун асос бўла олмайди, чунки булар бир нарсанинг уч томони – бир ҳодисанинг уч хислатидир”<sup>25</sup>.

Бизнингча ҳам, пунктуация асосларини белгилашда нутқ мазмуни, тузилиши ва оҳанг хусусиятлари бир бутун ҳолатда олиб қаралиши зарур. Умуман, бугун ривожланган тилларда ҳам замонавий пунктуация гап қурилиши, мазмун ва оҳанг бутунлигига асосланади<sup>26</sup>.

Шулардан келиб чиқиб, ўзбек тилида тиниш белгиларларини қўллашнинг асослари сифатида қўйидагилар кўрсатилади:

- 1) гапнинг тузилиши;
- 2) мазмуни;
- 3) оҳангни.

Тиниш белгиларининг ўрни ҳамда вазифасини белгилашда мана шу уч хил ҳодиса алоҳида-алоҳида эмас, балки, юқорида

<sup>25</sup> Назаров К. Кўрсатилган асар. – Б. 34.

<sup>26</sup> Бу ҳақда қаранг: Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С. 33; Абдалиева Г.Р. Основы русской пунктуации. – Нукус, 2006. – С. 10.

таъкидлаганидек, уларнинг бир бутунлиги назарда тутилади. Чунки булар ўзаро боғланган бир ҳодисанинг уч томони – уч хусусиятидир. Нутқнинг тузилиши, мазмуни, оҳанги ўзаро узвий боғлиқ бўлиб, ҳар қандай гапда шу уч хусусият мужассамлашади. Масалан: *Хурматлиabituriентлар! Имтиҳонларда фақат ўз билимингизга ишонинг!* Мазкур гап: 1) тузилишига кўра содда; 2) буйруқ ҳамда мурожаат мазмунига асосланган; 3) кўтариувчи оҳангга эга.

Маълумки, сўзловчининг мақсади оғзаки нутқда оҳанг билан, ёзма нутқда гапнинг грамматик қурилиши ва тиниш белгилари билан ифодаланади. Тиниш белгилари фикрни, сўзловчи мақсадини ёзувда кўрсатишида қўшимча, аммо зарурий восита ҳисобланади. Гапда сўзловчининг мақсади, коммуникатив нияти баъзан фақат тиниш белгиларида акс этади: *Бувим келдилар.* *Бувим келдилар! Бувим келдилар?*

Тиниш белгиларининг ўзгариши билан гап оҳангиди, мазмунида ҳамда қурилишида ўзгариш юз бериши мумкин. Масалан: *Она азиз, фарзандига елни ҳам раво кўрмайди.* Мазкур гап тузилишига кўра қўшма гап ҳисобланиб, *азиз* сўзи биринчи содда гапнинг кесими вазифасини бажариб келган. Айнан шу гапда тиниш белги қўйилмаса, гап тузилиш жиҳатидан содда гапга айланади. *Азиз* сўзи эса *фарзанд* сўзининг аниқловчиси вазифасида келади. Масалан: *Она азиз фарзандига елни ҳам раво кўрмайди.*

Қўйидаги гапларда ҳам тиниш белгиларининг ўзгариши нафақат гап оҳангига, балки синтактик қурилиши ва мазмунига ҳам жиддий таъсир этади:

*Бахтли-тахтли бўлгин, онанг каби баҳтсиз бўлма / Бахтли-  
тахтли бўлгин онанг каби, баҳтсиз бўлма.*

*Ташқарига чиқши мумкин эмас, совуқ / Ташқарига чиқши  
мумкин, эмас совуқ.*

*Тўғри, йўлларда ҳам машаққат бор / Тўғри йўлларда ҳам  
машаққат бор.*

*Гуллар чиройли, столни безаб турибди / Гуллар чиройли  
столни безаб турибди.*

*Аждодларимиз улуғ темурийларга бориб тақалади /  
Аждодларимиз улуғ, темурийларга бориб тақалади.*

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, ўзбек пунктуацияси назарий жиҳатдан уч муҳим белги – мазмун, оҳанг ва гапнинг грамматик қурилиш бутунлигига асосланади.



## ЎЗБЕК ПУНКТУАЦИЯСИ ТАМОЙИЛЛАРИ

Пунктуация тамойиллари тиниш белгиларнинг қандай усул ва тартибда қўлланишини кўрсатади. Шунинг учун тиниш белгиларининг қўлланишидаги барча қонун-коида ва тартиблар пунктуация тамойиллари асосида белгиланади. Пунктуация тамойиллари тиниш белгиларининг тизимлилигини таъминлайди, оғзаки нутқнинг мазмуни, қурилиши ва интонацион хусусиятларини ёзма нутқа кўчириш имконини беради.

Илмий манбаларда, ўкув қўлланмаларида тиниш белгиларининг қўлланиш усули ва тартиби қуйидаги тамойиллар асосида белгиланиши кўрсатилган<sup>27</sup>:

**1. Мантиқий-грамматик тамойил.** Бу тамойил нутқнинг семантик-грамматик томонини ёзувда тўғри ифодалашга асосланади. Яъни тиниш белгилари гап мазмуни, тузилиши ва оҳангига кўра қўлланади. Масалан, хабар мазмунини англатган гап охирида нуқта, сўроқ мазмунини англатган гап охирида сўроқ белгиси, ҳис-ҳаяжон ифодалаган гап охирида ундов белгисининг қўйилиши мазмунига асосланган. Қуйидаги шеърий парчада сўроқ мазмуни етакчилик қилган:

Қон йиғлатди қайси бағритош,  
Жайрон, нега кўзинг тўла ёш?  
Оёгингга қўйиб ётай бош,  
Жайрон, нега кўзинг тўла ёш? (М.Юсуф. Жайрон)

<sup>27</sup> Шоабдураҳмонов Ш. Пунктуация асослари. – Тошкент, 1953; Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976; Bahriiddinova B. Zamoniyy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015.

Тиниш белгилари асослари нұқтаи назаридан олиб қаралғанда, мантиқий-грамматик тамойил етакчи тамойил сифатида эътироф этилади. Шунингдек, қоидалар, биринчى навбатда, нутқнинг синтактик тузилишини ҳисобга олиб тузилади.

**2. Услубий тамойил.** Бу тамойилга күра, тиниш белгилари нутқ услуби талабидан келиб чикиб қўйилади. Ҳозирги кунда тиллар вазифавий услубларининг ривожланиши пунктуация тараққиётига, қўлланиш доирасининг кенгайишига олиб келмоқда. Услубий тамойил термини кенг маънодаги термин бўлиб, пунктуация қоидаларининг барча нутқ услублари учун муштарак, умумий қонуниятларини билдиради. Тиниш белгиларининг индивидуал услугга кўра қўлланиши мазкур услубий тамойилнинг бир кўриниши хисобланади ва шунга асосланади.

Услубий тамойил тиниш белгиларининг қўлланишидаги нутқ услубларига хос умумий ҳолатларни аниқлашда ва муайян услугба хос жиҳатларни белгилашда ҳам муҳимдир. Маълумки, кўпнуқта, вергул, нуқта, сўроқ ва ундов белгиларининг қўлланилиши деярли бир хил. Бироқ баъзи тиниш белгиларининг ишлатилишида фарқлар ҳам кузатилади. Масалан, бадиий асарларда (диалогик нутқда) ихчамлик учун қаҳрамонлар нутқи қўштириноқ билан эмас, тире билан ажратилади. Асосан, наср учун хос ушбу ҳолатни шеърий асарларда ҳам кузатиш мумкин:

*Болалик экан-да,*

*Муаллимдан*

*Сўрабман бир куни:*

*– Айтинг -чи, агар –*

*Ер шундай тезликда айланса чиндан,*

*Не учун тўкилиб кетмас одамлар? (Э.Вохидов. Тасаввур)*

Драматик асарларда эса нутқ әгаларининг номи келтирилганлиги сабаб, уларни тире билан ажратишга ҳам, шунингдек қўштироққа ҳам эҳтиёж бўлмайди:

*Фармон. Болаларим, сизларга ҳаром томоқ едирганманми?*

*Ўғиллар (қатъий). Йўқ.*

*Фармон. Менинг бир гапимни икки қилганмисизлар?*

*Ўғиллар. Йўқ. (С.Аҳмад. Келинлар қўзғолони)*

Индивидуал услубда тиниш белгилари, кўпинча, турли субъектив мақсадлар, фикрни эмоционал ифодалаш, таъсиранликни ошириш учун қўлланади. Нутқда айнан бир сўз орқали турли ижодкор турли мақсад ва муносабатни ифодалаши мумкин ва бунда айни мақсадлар тиниш белгилари орқали етказилади. Албатта, бундан ҳар бир ёзувчи тиниш белгиларидан ўз билганича, ўз истагича фойдаланиши мумкин, деган хуоса келиб чиқмаслиги керак. Ҳар бир тиниш белгиси, агар унинг асосий маъно ва ички имкониятлари тушунилиб, мақсад билан ишлатилса, матнга маҳкам ўрнашади.

“Ўзбек пунктуацияси қоидалари”да кўпнуқтанинг ишлатилиш сабаблари ва ўринлари аниқ кўрсатилган. Маҳоратли ижодкорлар тиниш белгини ўрнида ва меъёр доирасида ишлатиб, уларни матн қолипига пухта жойлай оладилар. Масалан, қуйидаги парчада кўпнуқта ўз вазифасидан келиб чиқиб ўринли қўлланган. Шунингдек, ижодкорнинг бадиий ниятини ёритишга ҳам хизмат қилган:

*Асаблар,*

*Асаблар,*

*Асаблар...*

*Сабабсиз сочилган газаблар,*

*Гуноҳсиз чекилган азоблар.*

*Кўз ёшлар...*

*Барига сабаблар*

*Асаблар, асаблар, асаблар.* (Э.Воҳидов. Асаблар)

Мутахассислар ҳозирги кунда пунктуациянинг имкониятларини жуда юкори баҳолайдилар ва қўйидаги фикни айтадилар: “Замонавий тиниш белгилари кенг имкониятга эга бўлиб, булар пунктуациянинг ўзаро боғлиқ уч тамойили туфайлидир”<sup>28</sup>.

Демак, тиниш белгиларининг индивидуал услуб талабига кўра қўлланиши ҳам услубий тамойилнинг умумий меъёрига бўйсунади. Меъёр чегарасини ҳис қилиш ёзувчининг истеъоди, унинг маданияти кўрсаткичларидан биридир.


**3. Фарқлаш тамойили.** Мазкур тамойил асосидаги қоидалар тиниш белгиларининг кўш ҳолда қўлланишидаги тартибни, гапдаги мураккаб мазмунни аниклаштириш керак бўлганда, улардан фойдаланиш йўлларини белгилаб беради.

Илмий услубда, жумла ичида сўзларни қисқартиришда, иқтибосларнинг манбасини кўрсатишда, ҳаволаларда, китоб муқоваларида нашриёт номи ва нашр вақтини кўрсатишда тиниш белгилари мазкур тамойилга асосан ишлатилади. Масалан, манбаларда муаллиф номининг қисқартириб берилиши, ёнма-ён келган тиниш белгиларнинг қўлланиши (*Юсуф, Мухаммад. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар / М.Юсуф. – Тошкент: “Шарқ”, 2014. – 288 б.*) каби.

<sup>28</sup> Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004. – С. 34.

Кўп холларда фармон ва қарорларда тире ҳар бир гап олдидан қўйилиб, нумеративлик вазифасини бажаради, меъёрий-хукуқий ҳужжат қаторларини ажратиб кўрсатади, бунда ҳам фарқлаш тамойилига асосланилади.

Умуман, ҳозирги кунда замонавий пунктуациянинг имкониятлари жуда кенг бўлиб, у ижодкорнинг, матн тузувчининг сўз каби асосий қуролларидандир. Тиниш белгилари нафақат фикр, балки субъектив муносабат ифодалаш учун ҳам зарур. Буларнинг барчаси бир хил аҳамиятга эга бўлган, аммо ўзига хос қонуниятлари билан фарқланувчи юқорида саналган уч тамойил орқали юзага чиқади. Шу боис замонавий пунктуацияда бир тамойилга таяниб иш кўриш кўп ҳам ўзини оқламайди, чунки улар ўзаро боғлиқдир. Ҳозирги ўзбек тили пунктуациясида мантиқий-грамматик тамойил етакчи бўлиб, кейинги икки тамойилга асос бўлади.



## ПУНКТУАЦИЯНИНГ БОШҚА СОҲАЛАР БИЛАН МУНОСАБАТИ

XXI аср ҳеч қайси фаннинг ихоталанган ҳолда тарақкий эта олмаслигини, интеграция фанларнинг янгича яшаш шакли эканлигини ҳар томонлама исботлаб берди. Тадқиқотчилар бу асрни “фанлар интеграцияси асри” деб ҳам атамоқдалар, чунки ҳар қандай фандаги объект моҳиятини турли фанлар ютуқларидан фойдаланиб ёритиш яхши натижа бермоқда. Жумладан, пунктуация масалаларини ҳам тилнинг бошқа бўлимлари ёки ёндош лингвистик ҳодисалар билан ҳамкорликда ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Пунктуация тилшуносликнинг қўйидаги бўлимлари билан узвий боғлиқдир:

**Пунктуация ва графика боғлиқлиги.** Маълумки, графика муайян тилнинг ёзув тизимини бир бутун ҳолда, барча белгилар йиғиндисини ўрганувчи соҳа. Таъкидланганидек, пунктуация ёзувнинг таркибий қисми ҳисобланади. Ўқитиш ишлари, саводхонликни ошириш ва нутқ маданиятини эгаллашда алифбони ўрганиш қанчалик аҳамиятли бўлса, пунктуацияни билиш ҳам шунчалик ижтимоий-амалий жиҳатдан муҳимдир. Ёзув ўзгариши билан пунктуация тараққиётида ҳам янги давр бошланади. Араб ёзуvida бош ҳарфлар, тиниш белгиларининг йўклиги, тил нуқтаи назаридан эҳтиёж бўлса-да, шу алифбога асосланган ўзбек ёзуvida тиниш белгиларини қўллашга монелик қиласарди. XIX аср охирларидан кирилл, лотин ёзувларининг таъсирида ўзбекча матнларда айрим тиниш белгилари ишлатила бошланган.

Нуқта, сўроқ, ундов белгиларидан кейин келган гапларнинг бош ҳарф билан бошланиши, шунингдек, вергул, икки нукта, нуқтали вергуллардан кейинги гапларнинг кичик ҳарф билан бошланиши ҳам пунктуация ва ёзувнинг бевосита алоқадорлигини кўрсатади.

Тилшуносликнинг фонетика, фонология, графика ва бошқа соҳалари бўйича тадқиқотлар олиб борган Ҳ.Жамолхонов тиниш белгиларини ёзувнинг асосий қисми сифатида қуидагича туроҳлаштиради:

1. Марказий, асосий белгилар – ҳарф (фонографема), тиниш белгилари (просодемографема).

2. Кўшимча белгилар – рақамлар, илм-фаннинг маълум соҳаларида қабул қилинган махсус идеографик символлар (логографема), чизикча, апостроф (тутук белгиси) каби орфографик белгилар, сигнализаторлар, компьютер лингвистикаси тараққиёти билан боғлиқ бошқа тиллардан ўзлашаётган сон-саноқсиз типографик ва турли диакритик белгилар<sup>29</sup>.

Тиниш белгилари ёзувнинг барча шакллари ва услубларида бирдек қўлланиши билан асосий белгилар тизимига киради. У ёзувнинг бошқа воситалари (ҳарфлар, рақамлар, диакритик белгилар) ҳамда тил воситалари (сўзлар, морфемалар) билан кўрсатиш мумкин бўлмаган турлича фикрий муносабатлар ва психологик ҳолатларни ифодалашда ҳам катта аҳамиятга эга

**Пунктуация ва орфография алоқадорлиги.** Орфография сўзларнинг тўғри ёзилишини (имло қоидаларини) ўрганиб,

<sup>29</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013. – B. 157–160.

морфология билан зич боғланса, пунктуация гапларнинг тўғри тузилиши, ундаги фикрнинг тўғри ифодаланиши учун хизмат килиб, синтаксис билан боғланади. Масалан, гапнинг сўроқ, ундов, нуқта каби тиниш белгиларидан сўнг бош ҳарф билан, икки нуқта, нуқтали вергуллардан кейин кичик ҳарф билан ёзилиш ҳолатлари пунктуация билан орфографиянинг алоқадорлигини кўрсатади.

**Пунктуация ва оҳанг боғлиқлиги.** Пунктуация гап оҳанги билан ҳам узвий боғлиқ. Оҳанг овознинг турли даражаси: кўтарилиши, пасайиши, сусайиши, тиниши (узилиши); суръати: тез ва секинлиги, осойишталиги; сифати: чўзиқ, қисқалиги, кучли ва кучсизлиги; даврий ва давомлилиги, тақрорланиши кабиларда кўринади.

Оҳанг мураккаб просодик ҳодиса бўлиб, урғу, пауза, мусиқийлик кабиларни ичига олади. Оҳанг гап мазмун-мундарижасининг ажралмас қисми: усиз гап шаклланмайди, гапнинг коммуникатив (алоқа-аралашув) вазифасини оҳанг бошқаради. Оҳангнинг ўзгариши гапнинг мазмун ва тузилиш жиҳатидан ўзгариб кетишига сабаб бўлади: мазмун фарқлайди, гап қайта шаклланади. Қуйидаги гапларнинг оҳангини қиёслаб кўрайлик:

1. Салим, укам врач бўлди.
2. Салим – укам врач бўлди.
3. Салим, укам врач бўлди.

1-гапда *Салим* билан *укам* сўzlари санаш оҳанги билан айтилади: уюшиқ эгалар; 2-гапда *укам* сўзи гапга нисбатан сал тез ва пасаювчи оҳанг билан айтилади: ажратилган бўлақ; 3-гапда

*Салим* сўзи мурожаат оҳанги билан гапдан ажратилиб, бироз пауза қилинади: ундалма.

Тиниш белгиларини гап оҳанги белгилайди. Нуқта, ундов, сўроқ каби гап охирида ишлатилувчи тиниш белгилари оҳанг тугаллигига ишора килади; ажратилган бўлак, киритма, ундалма, уюшиқ бўлаклар орасида оғзаки нутқда кичик тўхтам бўлади, ана шу тўхтамни ёзма нутқда вергул билдиради; санаш оҳанги ҳам шу муносабат билан вергул ёрдамида намоён бўлади. Аммо бу пунктуация ва оҳанг бир ҳодиса, дегани эмас. Биринчидан, улар нутқнинг икки шакли, яъни пунктуация ёзма нутққа, оҳанг оғзаки нутққа хос. Иккинчидан, тиниш белгиларининг қўйилиши ҳамма вақт ҳам интонацияга қараб белгиланмайди.

Пунктуация тарихида тиниш белгиларининг ишлатилишини фақат оҳангга боғлаб изоҳлаш ҳоллари ҳам бўлган. Аммо кўпчилик тадқиқотчилар бу ҳолатнинг бир ёқлама қараш эканлигини айтишади. Орфография орфоэпияга тўлиқ мос келмаганидек, пунктуация ҳам интонация билан айнан эмас. Шунингдек, интонация гапни шакллантирувчи асосий воситалардан биридир ва уни гапдан алоҳида ажратиб олиб бўлмайди. Зеро, гап семантик, грамматик ва интонацион жиҳатдан бир бутун, яхлит тил бирлигидир.

Пунктуациянинг интонацияга тўлиқ мос келмаслигини куйидагича кўрсатиш мумкин:

1. Гапнинг маъноли қисмлари – синтагмалар нутқ жараёнида, тиниш белгиси қўлланмаса-да, қисқа тўхтамлар билан ажратиб талаффуз қилинади: *Чин дўстлик // бошга кулфат тушганда // билинади*. Бу гапда қисқа тўхталиш билан ажратиб талаффуз этиладиган учта синтагма бор.

Баъзан вергул күйиш лозимдек туюлган ўринларда, аслида оҳанг талаби билан қисқа тўхтам бўлади. Масалан, *Сиз эса буни унумтманг* каби гапларда эса сўзидан кейин кўпинча амалда вергул қўлланганини кўриш мумкин. Бу хато. *Бўлса, эса сўzlари боғланган* қўшма гаплардаги содда гапларни боғлашга хизмат қилганда қиёслаш мазмунини англатади ҳамда бу сўзлардан кейин вергул қўйилмайди: *Ой тунда керак, ақл эса // кунда керак; Эгрилик инсонни қабоҳатга етаклайди, тўғрилик бўлса // уни саодатга бошлайди.* Демак, бўлса, эса сўзлари боғланган қўшма гап қисмларини боғлаш билан бирга, улар ўртасидаги қиёслаш ва зидлаш муносабатини юзага чиқаради, қиёсланаётган бўлакларни оғзаки нутқда қисқа тўхтам ажратади. Шу ўринда эслатиш керакки, *Ким ёмон бўлса, жазо олади* каби гаплар бўлса, эса сўзлари ёрдамида боғланган қўшма гап эмас, балки шарт майли билан бириккан эргашган қўшма гапдир. Бу тип гап таркибидаги содда гаплар ёзувда вергул билан, талаффузда қисқа тўхтам билан ажратилади.

2. *Албатта, холос* каби сўзлар гап охирида келганда, уларни ажратувчи тўхтам жуда қисқа бўлади. Шунга қарамай, кириш сўзларда тиниш белгиларининг қўлланиши қоидасига мувофиқ ёзувда тиниш белгилари билан ажратилади: *Агар йўлингиз тушиб қолса, шаҳримиздаги ҳайвонот боғига бир киринг, албатта.* (С.Аҳмад)

3. Гап ўртаси ва охирида келган ундалмаларда тўхтам, оҳанг унча сезилмаса-да, улар гапдаги бошқа бўлаклардан доим вергул билан ажратилади:

*Бугун шоҳ эрурман, тилак тилагил,*

*Бугун мен гадоман, тингла, малагим.* (Р.Парфи)

4. Гап ичидә келган иқтибослар, турли хил күчма маънодаги сўзлар сўзлашувда алоҳида оҳанг, тўхтамга эга бўлмаса ҳам, қўштирнок билан ажратилади: “Ёрдам” шу бўлдики, икки томондан бегуноҳ одамлар қирилди. (Ў.Хошимов) *Бу кишини биз эркалаб “қора буви” деб атаймиз.* (F.Фулом)

Хуллас, пунктуация ва оҳанг икки хил нутқ турига хос мустақил категориялар бўлиб, улар бир-бирига тенг келмайди, бинобарин, пунктуация интонациянинг ёзувдаги ифодаси эмас. Уларнинг ўзаро алоқадорлиги ҳақида гапирганда, оҳангнинг гапдаги даражаси ҳисобга олинади.

**Пунктуация ва синтаксис боғлиқлиги.** Пунктуация синтаксис билан ҳам узвий алоқада бўлиб, пунктуация тамойиллари, тиниш белгиларининг қўлланиш ўринлари гапнинг синтактик тузилиши ҳамда грамматик қурилишига асосланади. Пунктуация қоидалари ҳар бир тилнинг синтактик қонуниятлари, меъёрлари асосида ҳам ишлаб чиқилади. Пунктуация қоидарини синтактик қурилишга боғлаб баён қилишнинг, шу асосда белгилашнинг ўз илмий асослари ва тамойиллари мавжуд. Матннинг гапларга бўлиниш, гапнинг тузилиш жиҳатдан муайян синтактик қисмларга ажратилиш қоидалари асосий пунктуацион қоидалар ҳисобланади. Ва, албатта, ҳар бир тиниш белгисининг қўлланиш ўрни ва тартибини белгилашда тилнинг синтактик хусусиятлари ҳисобга олинади.

**Пунктуация ва лингвопоэтика муносабати.** Бугунги кунда ўзбек тилшунослигига лингвистиканинг лингвопоэтика деб аталувчи мустақил соҳаси жадал суръатлар билан ривожланмоқда. Лингвопоэтик ёндашувнинг такомиллашуви бадиий матнни ташкил қилувчи тил бирликларини қайтадан

кўздан кечириш имконини ўртага чиқарди. Чунки ҳар қандай тил бирлиги бадиий матнда муаллифнинг бадиий ниятига хизмат қилувчи бебаҳо воситага айланиши ҳамда тамоман ўзига хос поэтик қонуниятларни намоён килиши мумкин. Аслида, муайян тилнинг бойлиги, бадиий имкониятлар доирасининг сарҳад билмаслиги айнан бадиий матнда воқеланади.

Тил эстетик вазифасининг асосий намоён бўлиш ўрни бадиий матн эканлиги мутахассислар томонидан кўп бор айтилган. Бадиий матнни тугал англаш, унинг таркибидаги мураккаб тузилишга эга бўлган қатламларни фаҳмлаш учун ўзбек тили грамматикасини етарли даражада билиш кифоя қилмайди. Чунки “бадиий матнда ифодаланган асосий ғоя-фикр-мазмунни тушуниш шунчаки иш эмас, балки анча кийин ва мураккаб ижодий жараёндир. Бадиий асарда мутлақо ўзига хос, гоҳ очик, гоҳ яширин ишоралар, тагмаънолар билан намоён бўладиган мазмунни тўғри англаш маънавий-маданий, ақлий-ҳиссий ва лисоний-эстетик фаолият натижасида мумкин бўлади”<sup>30</sup>.

Маълумки, бадиий матнда поэтик қимматга эга тил бирликлари ижодкорнинг турли бадиий ниятини ёритишга хизмат қилади. Бу борада тиниш белгилари ҳам муҳим ўрин тутади. Масалан, кўпнуқта бадиий матнда энг кўп поэтик вазифа бажарадиган тиниш белгиси ҳисобланади. Кўпнуктанинг бадиий матндаги ўрни, лингвопоэтик хусусиятлари ҳақида М.Йўлдошев шундай ёзади: “Бадиий матндаги график образлилик, ифодалиликни юзага келтиришда кўп нуқта энг фаол воситалардан ҳисобланади. Меъеридан ортиқ кўркув,

<sup>30</sup> Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқики: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 4.

кувонч, ҳаяжон, турли жисмоний ва ҳиссий оғрик-изтироблар ва шунга ўхшаш аффектив ҳолатлар натижасида рўй берадиган нутқнинг эмфатик бўлакланиши, нутқнинг “ҳаприқиш” и бадиий матнда график жиҳатдан, одатда, кўп нуқта орқали ифодаланади. Масалан, қўйидаги парчаларда аччиқланиш натижасида нутқнинг эмфатик бўлакланиши кўп нуқта воситасида график акс этган: – *Мен, албатта, ўқийман, – деди Саидий ва жўрттага қизнинг қитигига тегди, – сиз ҳеч бўлмаса эшикнинг тирқишидан дарс эшишишга ҳам розидирсиз?*

- *Қиз кибр билан бошини қўтарди:*
- *Мен... мен энг олдинги курсида ўтириб дарс эшиштаман.*  
(А.Қаҳҳор. Сароб)”<sup>31</sup>.

М.Йўлдошевнинг кўпнуқтанинг бадиий матндаги ўрни бўйича фикрларига таяниб, бу тиниш белгисининг яна қўйидаги лингвопоэтик вазифаларини келтириш мумкин<sup>32</sup>:

1. Кўпнуқта қаҳрамоннинг турлича руҳий ҳолатини ифодалашга хизмат қиласди. Баъзан асар қаҳрамони ҳар хил ҳиссий ҳолатлар таъсирида айтмоқчи бўлган фикрининг аниқ ва ўринли ифодаси учун зарур сўзни қидириб қолади. Ана шу сўз излаш жараёнида, табиийки, нутқ оқимида узилишлар бўлади, бу узилишлар, паузалар бадиий матнда кўп нуқта воситасида таъкидланади. Шу тарзда айни узилишлар поэтик жиҳатдан актуаллашади, яъни тегишли бадиий маънолар касб этади. Бундай узилишлар матннинг бутунлигини бузгандай, парчалагандай кўринади, аммо аксинча, айни узилишлар поэтик актуаллашувга кўра матн интеграциясининг кучайишида иштирок этади.

<sup>31</sup> Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019. – Б. 191.

<sup>32</sup> Бу ҳақда қаранг: Йўлдошев М. Кўрсатилган асар. – Б. 192–195.

Масалан:

– Сен... нима десам экан... – секин, сўз танлашга қийналиб гап бошлийди Аваз.

– Жудаям... тубан... махлуқсан. Ёмон кўргансан, лекин яшагансан. Яна тиржайиб яшагансан. Энди ўлганига қувоняпсан!.. Бундан ҳам баттарроқ... абраҳлик бўлмаса керак. (М.Бобоев. Кечки троллейбус);

– Йўқ, энди, бу гапингиз тўғри, – деди Мансур қийналиб ва сўзламоқча сўз қидириб. – Лекин, лекин... какликлар камайиб қолган-ку. (Ш.Холмирзаев. Озодлик)

2. Баъзи ҳолларда қаҳрамоннинг мураккаб ҳиссий ҳолати унга нафақат гапларни, балки сўзларни ҳам тўлиқ, охиригача талаффуз қилишга имкон бермайди ёки ахлоқ меъёrlарига кўра сўзни тўлиқ талаффуз қилиш маъқул қўрилмайди. Масалан: *Филайнинг қорнидан оқаётган қон ерни қип-қизил қилиб ташлади.* – Мен... тўймай қолдим. Озгина нонингдан бер. Озгина... Нон... Но-о... (А.Дилмуродов. Нон) Шунда Султон Мирзо нари-бери юрганча ички бир ҳадик билан бот-бот қиблага тикилган, бот-бот кўкрагини чангллаган, ахийри, сабри тугаб даҳшатга тушиб зорланган: – Йўқ, йўқ! Бундай яшаб бўлмайди, чидаб бўлмайди бунга! Одамкушилик бу! Истөъ... (F.Хотам. Азал ва абад) Тушунган одам экансиз, барака топинг, шунинг учун сизга гапнинг дангалини айтган маъқул, тўғрими? – Т... тўғ... (Х. Дўстмуҳаммад. Жимжитхонага йўл)

3. Кўпнукта бадиий матнда суҳбатдошнинг гапириши лозим бўлган вазиятда сўзсиз қолганлигини ҳам билдиради. Бу график образлилик воситаси бадиий матнда персонажнинг гапирмаган

гапини “тапиртиради” ва йўқ гапни поэтик актуаллаштиради. Қуйидаги мисоллар бу фикрни далиллайди:

– Ҳозиргина дунёда э-энг бағри тош одам бўлиб туюлган ёдилар-ку?

– ...

– Аввал ачиндинг, кейин яхши қўриб кетдингми? (Хуршид Дўстмуҳаммад. Беозор қушнинг қарғиши);

– Эртадан бел боғлаб ишга киришсинми?

– ...

Шотир Бек бошқа иложингиз йўқ-ку барибир, деган каби чап лабини қимтиб, мийигида кулди. (Ф.Хотам. Азал ва абад)

Шуни ҳам айтиш лозимки, бугунги давр ижодкорларининг бир гурӯҳи тиниш белгиларидан бадиий восита сифатида фойдаланишда ўз маҳоратини намоён қилаётган бўлса, яна бир гурӯҳи тиниш белгилари хизматидан ҳам бутунлай воз кечиши орқали ўз услубини яратишга уринмоқда:

*тун сочиб юборар одамни*

*парчалайди бешафқат*

*зулмат қадар кенгаясан тунлари*

*юлдузлар*

*сенинг сачраб кетган хаёлларингдир* (Фахриёр)

Ёки:

*кўздан ичкарида йўл йўқ*

*сўздан ичкарида йўл йўқ*

*аммо хўроz қичқириги ортига*

*шафақранг қишилогим бекиниб олган* (Б.Рўзимуҳаммад)

Умуман, тиниш белгиларининг поэтик имкониятлари бадиий матн доирасида тадқиқ этилганда янада ойдинлашади.

**Пунктуация ва ахборот технологиялари.** Глобаллашув даврида ахборот технологиялари кун сайин ҳаётимиздан чуқур ўрин эгалламоқда. Бугун ёзма нутқ деярли ахборот технологиялари орқали амалга ошмоқда. Бирон матн ёки хабарни электрон ҳолатда ёзар эканмиз, бевосита тиниш белгиларига ҳам мурожаат қиласиз. Баъзан электрон матнда сўзлар бир-бирига қўшилиб қолади ва шунда тиниш белгиларининг ўрни қанчалик муҳим эканлиги амалда кўринади. Гапнинг боши, охири, эга-кесими каердалигини бир-бирига ёпишган сўзлардан дарҳол англаш жуда қийинчилик туғдиради.

Тадқиқотчи И.Эрматов пунктуацион тизимга *оралиқ белгиси* терминини киритишини таклиф қилган бўлиб, бу масалага “Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти” номли диссертациясида алоҳида дикқат қилган. Диссертациясида пунктуация билан боғлик терминлар, уларнинг тараққиёти ҳамда она тили дарсликларидағи айрим тиниш белгилар ҳақида ҳам асосли фикрлар айтилган. Масалан:

“Ўрни келганда тиниш белгилари юзасидан бир мулоҳазани айтиб ўтиш жоиз. Мълумки, гап таркибидаги сўзлар бир-биридан ажратиб ёзилади. Масалан, *Яхши отга бир қамчи*, ёмон отга минг қамчи. (Мақол) Агар шу гапдаги сўзларни *Яхшиотгабирқамчи*, ёмонотгамингқамчи тарзида ажратмай ёзсак, гапни ўқиш қийинлашади. Жумладаги сўзларни ёзишда улар орасида масофа ташланади ва бу масофа сўзларни осон ўқишига хизмат қиласи. Бошқа тиниш белгилари ҳам шундай ёки шунга яқин вазифани бажаради. Ушбу жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда “оралиқ белгиси” терминини жорий этиш керак. Шу кунгача икки сўз

орасидаги масофа (ажратиб ёзиш) ҳақида тушунча бор-у, лекин уни атовчи термин йўқ. Тўғри, бу ерда ҳеч қандай “белги”, яъни тиниш белгиси амалда кўрсатилмайди, бироқ икки сўз орасида сақланадиган масофа “оралиқ белгиси” сифатида талқин этилса, мақсадга мувофик бўлади”<sup>33</sup>.

Бу ўринда айтиш керакки, компьютер лингвистикаси тармоғининг кескин ривожланиши тиниш белгилари тараққиётида янги босқични бошлаб берди. Бу тиниш белгиларининг электрон матнларда автоматик қўлланиши билан боғлиқ масалаларни ойдинлаштиришни ҳам такозо этмоқда. Маълумки, компьютер тилида мавжуд бўлган пунктуацион меъёрлар кўпгина Европа тиллари учун умумий бўлган қонуниятлар асосида ишланган. Мутахассислар тўғри таъкидлаганидек, бу ходисалар компьютер лингвистикаси ҳамда ўзбек тилининг миллий хусусиятларидан келиб чиқиб текширилгандагина илмий ва амалий жиҳатдан тўғри ҳал қилинади<sup>34</sup>.

Тиниш белгиларининг ахборот технологияларидағи ўрни масаласини ўрганиш замонавий ўзбек пунктуацияси олдидаги долзарб муаммолардан ҳисобланади.



<sup>33</sup> Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 40.

<sup>34</sup> Бу ҳақда қаранг: Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 15.

## ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ТИНИШ БЕЛГИЛАРИНИНГ ТАСНИФИ

Пунктуацияга оид адабиётларда тиниш белгилари умумий хусусиятларига кўра қўйидагича тасниф қилинади:

1. Қўлланиш ўрнига кўра.
2. Ишлатилиш усулига кўра.
3. Тузилишига кўра.
4. Вазифасига кўра<sup>35</sup>.

**Тиниш белгилари қўлланиш ўрнига кўра икки хил:**

- а) гап охирида қўлланувчи тиниш белгилари – нуқта, кўпнуқта, сўроқ ва ундов белгилари;
- б) гап ичida қўлланувчи тиниш белгилари – вергул, нуқтали вергул, тире, икки нуқта, қавс, қўштириноқ.

Гап охирида қўлланувчи тиниш белгиларининг умумий хусусиятлари сифатида қўйидаги фикрларни айтиш мумкин: 1) гапнинг тугалланганини кўрсатади; 2) гапда қандай мазмун ифодаланганини билдиради; 3) гапнинг тугалланиш чегарасини, мазкур гапнинг кейинги гапдан ажралишини кўрсатади; 4) улар гап охиридан бошқа ўринларда ишлатилганда бошқа вазифа бажаради ва айрим мақсадлар учун ишлатилади.

Гап охирида қўлланувчи тиниш белгилари умумий ва ўхшаш хусусиятларга эга бўлишига қарамай, муайян гапда қандай мазмуний муносабат ифодаланаётганлигини билдириши жиҳатидан ўзаро фарқланади. Масалан, нуқта хабар мазмуни,

<sup>35</sup> Бу ҳақда қаранг: Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б.50–54; Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – В. 16.

сўроқ белгиси сўроқ мазмуни, ундов белгиси эса гапдан буйруқ, ташвиқ, ҳис-ҳаяжон мазмуни ифодаланишини кўрсатади.

Нуқта, сўроқ ва ундов белгилари гап ўртасида ҳам қўлланиши мумкин, бироқ бунда улар юқоридаги асосий функциясини бажармайди, балки бошқа вазифа учун хизматқилади. Масалан, З.М. Бобур ҳаёти ва ижодини ўргандик гапида нуқта синтактик вазифа бажариш учун эмас, сўзнинг қисқарганлигини кўрсатиш учун қўлланган. Сўроқ ва ундов белгилари ҳам гап ўртасида қўйилганда, юқоридаги каби қўшимча вазифада келади. Масалан: *Иқтисодий юксалиши натижасида, турмуши дарајаси сезиларли равишда яхшиланган – оналар ўлими 2 баробар, болалар ўлими 3 баробар камайган, одамларнинг ўртача умр кўриши 67 ёшдан 73 (!) ёшга, жумладан, аёлларнинг ўртача умр кўриши 75 (!) ёшга етган.* (А.Иброҳимов. Умримиз боқийдир, боқий!) Бу ҳақда сўроқ ва ундов белгисининг қўлланиш қоидаларида батафсил маълумот берилган.

**Кўлланиш усулига кўра тиниш белгилари иккига бўлинади:**

1. Якка ҳолда қўлланувчи тиниш белгилари. Бунга фақат икки нуқта киради.

2. Якка ва такрор қўлланувчи тиниш белгилари. Қавс, ундов, сўроқ якка ҳолатда ҳам, такрор ҳам қўлланади. Масалан, қавс ёпилувчи қавс шаклида қўлланганда якка ишлатилади:

*Олмошларнинг грамматик хусусиятлари:* 1) олмош отга хос синтактик шакл ясовчиларни олади; 2) олмош ҳеч вақт ўзидан олдин аниқловчи олмайди; 3) жуфт ҳолда қўлланиб, бошқа сўз туркуми вазифасида келади. (“Хозирги ўзбек адабий тили” китобидан)

Ундов белгиси кучли ҳис-ҳаяжон билан айтилган гапларда қўша қўлланади: *Эй пурвиқор төглар! Нега жимсизлар, нега!!!* (Чўлпон)

- *Ана, кўряпсанми?*

*Менинг дадамлар!*

*Дада!!!* (Э.Воҳидов)

Бадиий адабиётда турли мақсадларда сўроқ ва ундов бирга қўлланади:

*Офтоб елиб толса кўк узра,*

*Унга осмон сандиги ҳуҗра.*

*Хақдан ҳукм, бандадан ижро,*

*Худо билар, ким олдин кетар?!* (М.Юсуф)

**Тиниш белгилари тузилишига қўра икки хил:**

1. Бир таркибли тиниш белгилари: вергул, тире, нуқта.
2. Кўп таркибли тиниш белгилари: икки нуқта, нуқтали вергул, қавс, қўштириноқ, қўпнуқта, сўроқ ва ундов белгиси.

Кўп таркибли тиниш белгилари тарихан икки ва ундан ортиқ белгидан ташкил топган бўлиб, уларга ҳозирги қунда бир график белги сифатида қаралади. Масалан: икки нуқта белгиси иккита нуқтанинг вертикал усулдаги бирикуви асосида ҳосил бўлган, яъни (:); қўпнуқта нуқтанинг горизонтал усулдаги бирикуви асосида пайдо бўлган, яъни (...); нуқтали вергул нуқта ва вергулнинг қўшилуви асосида юзага келган. Қавс ҳам икки элементдан иборат бўлиб, унинг биринчиси “очилувчи қавс”, иккинчиси “ёпилувчи қавс”, баъзан “яrim қавс” ҳам дейилади ва тартибни билдирувчи ракам ёки ҳарфдан сўнг қўйилади.

Сўроқ, ундов ва қўштириноқларнинг таркиби янада мураккаброқ. Улар ҳам икки элементдан иборат бўлиб, мавжуд

манбаларга кўра, сўроқ белгисининг лотинча *quaistio* (сўроқ), ундов белгисининг *lo* (оҳ, эҳ) сўзларидағи бош ҳарфларнинг нуқта билан қўшилиши асосида ҳосил бўлгани айтилади. Умуман, ҳар бир тиниш белгисининг ўз тарихи бор. Улар ҳақида тегишли ўринларда тўхталинган.

## Тиниш белгиларининг вазифасига кўра таснифи

Амалдаги ўзбек пунктуациясида тиниш белгиларининг вазифалари аниқ қоидалар асосида тушунтирилган бўлиб, уларни ўзлаштириш тиниш белгиларидан ўринли фойдаланиш кўнимкамарини эгаллашга ёрдам беради.

Тиниш белгиларининг асосий вазифаси нутқнинг мазмуний бўлинишини кўрсатиш, шунингдек, гапнинг синтактик тузилиши ва оҳанг жиҳатини аниқлашга ёрдам беришдир. Илмий манбаларда тиниш белгилари вазифасига кўра уч гурухга бўлиб ўрганилган<sup>36</sup>:

**1. Чегараловчи тиниш белгилари.** Кўштирноқ ва қавс шундай вазифадаги тиниш белгиси бўлиб, улар контекстдаги айрим қисмларнинг лексик-семантик фарқланиши ва ажратилишини, грамматик-услубий чегараланишини, уларнинг бошланиш ва тугалланиш нуқтасини кўрсатади.


**2. Айиравччи тиниш белгилари.** Бу гурухга нуқта, сўроқ, ундов, нуқтали вергул мансуб бўлиб, улар матн қисмларини бир-биридан ажратишга хизмат қиласади.

**3. Мураккаб вазифали тиниш белгилари.** Булар матн қисмларини ўрни билан ҳам ажратиш, ҳам чегаралаш, баъзан эса бириктириш вазифасини ҳам бажаради. Масалан, икки нуқта ажратиш ва бириктиришга, вергул ва тире ажратиш, чегаралаш,

<sup>36</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 54.

бириктиришга хизмат қиласы. Күпнұкта эса фикрнің бўлиниши, қисқариши каби вазифаларни бажариш учун қўлланади.

Замонавий рус пунктуацияси масалалари билан шуғулланган тилшунос Н.С.Валгина тиниш белгиларининг чегаралаш ва айриш хусусиятлари орасидаги фарқ жуда мухимлигини таъкидлайди ва пунктуация қоидаларини шакллантиришда биринчи навбатда айни вазифалар ҳисобга олиниши зарурлигини қайд этади<sup>37</sup>.



<sup>37</sup> Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979. – С. 34.

## ТИНИШ БЕЛГИЛАРИНИНГ ТАКРОР ВА ҚАТОР ИШЛАТИЛИШИ

Ўзбек тилида услугий равонлик, фикрий аниқлик ҳамда турли лексик-грамматик маъноларни ифодалаш учун тиниш белгилари биргаликда (такрор ва қатор) ҳам қўлланади. Тиниш белгиларидан бу тарзда фойдаланиш турли услугий вазифаларни бажариш, фикрий-грамматик муносабатларни кўрсатиш кабилар билан ҳам боғлиқдир. Айниқса, бадиий услубда тиниш белгилари бирдан ортиқ қўлланганда, ижодкор бадиий ниятини тўлиқроқ ёритишга хизмат қиласди. Публицистик услубга хос матнларда ҳам тантанаворлик ёки ўқувчи диққатини жалб қилиш мақсадида бундай қўллашлардан фаол фойдаланилади.

Ўзбек ёзувида тиниш белгиларининг турли мақсадларда қатор ишлатилиши иккитадан бошлаб бештагача, баъзан етти-саккизтагача кузатилиши мумкинлиги – фактик материаллар (бадиий асарлар, матбуот материаллари) асосида ўрганилган<sup>38</sup>. Бироқ бу каби қўллашлар илмий-назарий жиҳатдан асосли бўлса-да, фикрий мураккаблик ёки талқиндаги чалкашлини келтириб чиқаради, шунингдек, ёзув эстетикасини ҳам бузади. Ушбу ҳолат юзага келмаслиги учун фикрни ихчам баён этиш, тиниш белгиларидан ўринли фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шу сабабли тиниш белгиларининг қатор қўлланиш хусусиятларини атрофлича аниқлаш, ундаги тартиб, мунтазамликни, қўллаш ўринларини белгилаш пунктуациянинг тадқиқ доирасига киради.

<sup>38</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 26; Bahriiddinova B. Zamonaliviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 31.

Тиниш белгиларининг кетма-кет қўлланишидаги қоидаларга амал қиласлик ҳолатларини бир неча мисоллар орқали таҳлил қилган К.Назаровнинг қуидаги фикрига диққат қилсак:

*“Асар уларга манзур бўлдими, ё...? (Газетадан)*

Мисолда кўп нуқта ва сўроқ белгиси нотўғри қўлланган. Чунки ҳеч қачон **кўп нуқта сўроқ, ундов белгиларидан олдин қўлланмайди**<sup>39</sup>.

Кўпнуқтанинг сўроқ ва ундов белгилари билан бирга қўлланиши қуидагича бўлади: “**сўроқ белгиси+кўп нуқта**”, “**ундов белгиси+кўп нуқта**”, баъзан “**сўроқ белгиси+ундов белгиси+кўп нуқта**”. Сўроқ, ундов ва кўп нуқтанинг бундай тартибда қўлланиши ҳозирги ўзбек пунктуацияси учун меъёр ҳисобланади.

Қуидаги мисолларда ҳам ундов ва сўроқ белгиларининг кўп нуқта билан бирга қўлланиши меъёрдир.

*Музлатди!.. Музлатди ҳижроннинг рўзи,*

*Жонимда изгирин бетиним эсди...*

*Бизни учраштирган тангрининг ўзи —*

*Юрагим сезди! (У.Азим. Тақдир)*

Ёки:

*Боқма қўзларимга*

*Бемажол, хаста,*

*Менинг топганларим*

*Гулми бир даста,*

*Йўқотганим сенми*

*Энди, Онажон?.. (М.Юсуф. Онажон)*

Шу ўринда айтиш жоизки, баъзан ундов ёки сўроқ

<sup>39</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 108.

белгисидан сўнг кўпнуқта қўйиш керак бўлган ўринларда уч нуқта ишлатилади. Бу қоида айрим адабиётларда тўғри деб баҳоланган бўлса-да<sup>40</sup>, ҳозирги ўзбек пунктуациясида мазмунан тугалланмай қолган сўроқ ёки буйруқ гапларда кўпнуқтанинг бошқа тиниш белгилари билан бирга “?..” ҳамда “!..” тарзида қўлланиши, яъни кўпнуқтанинг икки нуқта шаклида қисқартириб қўлланиши меъёр ҳисобланади<sup>41</sup>.

Тиниш белгиларининг биргаликда қўлланиши турлича характерга эга бўлиб, уларни қўйидагича гурухлаш мумкин:

**1. Бир хил тиниш белгисининг бирдан ортиқ қўлланиши.** Бунда айнан бир тиниш белгиси такрор ҳолда қўлланади. Масалан, гапда эмоционаллик даражасининг беҳад ортиқ эканлигини кўрсатиш учун баъзан гап охирига бирдан ортиқ (учтагача) ундов белгиси қўйилиши мумкин: *Ҳа, мен ўзриман!!! Шу йўл билан кун кўраман! Сен тугилгунинггачаям ўнақа эди.* (Ш.Бошибеков). “*Ҳамиширааа!!!*” баҳириб юборганимни сезмай қолдим. Эшик тарақлаб очилиб ҳамишира кириб келди. (М.Йўлдошев. Мамдуҳ)

Кўчирма гапли қўшма гапларда ёки бирор мавзу таркибида асар номи қўлланганда қўштирноқдан қандай фойдаланиш керак? Адабиётларда бу ҳолатга қўйидагича ёндашилади: “Баъзан бир ўринда икки очилувчи ёки икки ёпилувчи қўштирноқларнинг биргаликда (қўша) қўлланиши лозим бўлади. Бунда уларнинг иккаласи параллел ишлатилиб, биттаси ўз шаклини ўзгартирган

<sup>40</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 114–115.

<sup>41</sup> Бу ҳақда қаранг: Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – В. 112; Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 2006. – С. 46; Маҳмудов Н. ва бошқалар. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент, 2015. – Б. 12.

холда кўйилади. Масалан: “Ҳали ҳам эсимда дадам айтиб берган «Уч огайни ботирлар», – деб мақтанди – Салим”<sup>42</sup>.

Бизнингча, бу ҳолат тўғри эмас. Ҳозирда ёзув ишлари, асосан, компьютерларда олиб борилгани боис қўштироқ қўйилиши маълум шрифтларни алмаштириш билан юзага келади, бу эса ноқулайлик туғдиради, қолаверса, ёзув эстетикаси, ихчамликка интилишни инобатга олиб бу ҳолатни қўйидагича қоидалаштириш мумкин: қўштироқ ёки қавс кетма-кет келганда, улардан бири ёзилади, бунда битта қўштироқ ёки қавс ҳар икки вазифани бажаради. Масалан, “Ўтган кунлар” романининг лингвопоэтикаси мавзусида тадқиқот олиб бордим. Ёки: Олий ўқув юртига кириш имтиҳонида “Бобурнома”нинг бугунги кундаги аҳамияти мавзусида иниш ёздим; “Ҳали ҳам эсимда дадам айтиб берган “Уч огайни ботирлар”, – деб мақтанди Салим.

Баъзан гап қурилиши бир ўринда икки очилувчи ёки икки ёпилувчи қавснинг бирга, ёнма-ён қўлланишини талаб этади. Бу ҳолат математикага оид матнларда, илмий адабиётларда кўпроқ учрайди. Бунда ҳам юқоридаги қоидага асосан қавсларнинг бири ёзилади.

## **2. Турли вазифадаги икки хил тиниш белгисининг бирга қўлланиши.**

Турли вазифадаги икки хил тиниш белгисининг биргаликда қўлланишини қўйидагича гурухлаб ўрганиш мумкин:

### **a) гап охирида қўлланувчи тиниш белгиларининг бирга қўлланиши.**

<sup>42</sup> Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент, 1974. – Б. 62.

Бу хилдаги қўлланишнинг асосийлари қўйидагилар:

**1) сўрок+ундов.** Сўроқ гапларда кучли ҳис-ҳаяжон мавжуд бўлганда, сўроқ белгисидан кейин ундов белгиси ҳам қўйилади. Бадиий матнда сўроқ ва ундов белгиларининг бирга қўлланиши жуда кенг тарқалган:

*Дунё экан...*

*Ишқ деган савдо*

*Борми фақат менинг бошимда?!*

*Кимни этмас бу кўнгил шайдо,*

*Ким шеър ёзмас менинг ёшиимда?!* (Э.Воҳидов. Кимни этмас бу кўнгил шайдо)

*Одамзод нима учун неварасини етаклаб неча замон аввал ўтиб кетган бобосининг қабрини зиёрат қиласди? Марҳум уларни кўрмайди-ку?!* (Ў.Хошимов. Дафтар ҳошиясидаги битиклар);

**2) қўштириноқ+нуқта.** Барча деди баробар: “*Она тилим ўлмайди*”. (Э.Воҳидов)

*“Ҳар гал шундай аҳвол. Уялмайсизми?*

*Келасиз ўқишимас, қилиши учун сайдир.*

*Бу сафар ҳам икки қўймай тураман,*

*Эртага қолганлар топширсинглар. Хайр”.* (М.Абдулҳаким);

**3) сўроқ+қўштириноқ.** Мансурнинг оғзидан ногоҳ чиқиб кетди: “*Жўра, бир ўтириши қилсан, нима дейсиз?*” (Ш.Холмирзаев) Ўчоқ бошида томчилик гувалачалардан ясалган инида қунишиб ўтирган қалдиргочларни кўрдим. “*Ёмғирда ини ивиб кетмадимикан?*” деб кўзимни катта-катта очиб ўша томонга қарадим. (М.Йўлдошев. Бувим ва қалдиргочлари);

**4) ундов+қўштириноқ.** “*Эй бадбахтлар! – дедим сўнгра. Биламан, сиз Дилоромни деб келмоқдасиз!*” (И.Султон. Озод)

*Қари толға суяб  
Иргай асони,  
Оқсоқол сүрига аста ёнбошлар.*

*Хаёлдан үтказар кори дунёни:  
“Эх, ҳозирги ёшлар,  
Ҳозирги ёшлар!”* (Э.Воҳидов. Ҳозирги ёшлар);

**5) кўпнуқта+кўштироқ.** *Ниҳоят, “Хотиралар”* сиртмоқдек бўйнимдан бўғадилар-а...” деди-ю, ўрнидан ҳафсаласизгина қалқди. (У.Ҳамдам. Исён ва итоат) “Ким билади дейсиз, бўштоброқмикин, Эркатойроқмикин ҳозирги ёшлар...” (Э.Воҳидов. Ҳозирги ёшлар);

**6) сўроқ+кўпнуқта.** Сўроқ мазмунини билдирган гапларда фикр тугалланмай қолса, мазкур белгидан сўнг кўпнуқта қўйилади:

*Умр ўтиб кетди. Йиғлама.  
Ўтди дунё – бесарҳад қайгу.  
Ўлим келса?..  
Ҳўши, келса, нима?*

*Айрилиқдан даҳшатлими у?* (У.Азим)  
Дўхтири ӯзи қарайвуради, даволайди-да, иши шу бўлгач?  
Ёки?.. Ёки?.. Бошқа нимани тайинлаш мумкин дўхтирларга?  
(Х.Дўстмуҳаммад. Сўроқ);

**7) ундов+кўпнуқта.** Ундов мазмунини билдирган гапларда фикр тугалланмай қолса, ундов белгисидан кейин кўпнуқта қўйилади:

*Пирпираиди осмон яғринда,  
Тиканингнинг учи кўзدادир...  
Ҳеч оғринма, гулим, оғринма,  
Капалакнинг умри қисқадир!..* (У.Азим)

**б) гап ичида қўлланувчи тиниш белгиларининг қўшалок қўлланиши:**

**1) вергул+тире.** – *Мана бубинони, – деди профессор биз энди қура бошланган улкан инишоотнинг олдига келгач, – муолажсамиз ва муваффақиятимиз авлодларни ҳам доим ҳайратга солиб, бизнинг холис ва улуг ниятларимизни акс эттириб туриш учун бош мия шаклида қурмоқчимиз.* (Н.Эшонқул. Муолажа);

**2) кўштирнок+вергул.** “*Йўқолинг*”, бақирдим ўзимни тутолмай. (Назар Эшонқул. Қора китоб) Ўн ёшиимда китоб ўқий бошладим. “*Ўқии китоби*”, Ойбекнинг “*Кутлуғ қон*”, Гафур Гуломнинг беназир шеърлари... (И. Фауров);

**3) тире+кўпнуқта.** Бунда матнда муайян сабаб билан узилиб қолган фикр баёнининг давом эттирилганини қўрсатиш учун ёки сухбатдошнинг олдинги сухбатга турли муносабатини ифодалаш учун гап бошига қўп нуқта қўйилади. Бу ҳолат, асосан, диалогларда кузатилади ва аввал тире, кейин кўпнуқта ишлатилади:

– *Ўлим барҳақ, ҳаммамизга ҳам навбат келади. Йўлга чиқишидан олдин ортиқча юкларни ташлаб юборган маъқул. Руҳ учун энг оғир юк нафрат бўлади. Нафратдан қутимаган сироти мустақимдан ўтолмайди, болам. Кечиримли бўлки, сени ҳам яратган эгам кечирсин...*

– ... Сизга нималар деб шикоят қилди? Нега менга учрамади?  
Қачон келди ўзи? (М.Йўлдошев. Мамdux)

**3. Тиниш белгиларининг мураккаб қўшалок қўлланиши.** Бунда иккитадан ортиқ турли тиниш белгилари кетма-кет қўлланади ҳамда мураккаб синтактик-услубий муносабатларни ифодалайди. Тиниш белгиларининг бу тарзда қўлланиши, асосан, кўчирма гапли қўшма гапларда учрайди.

Бир неча тиниш белгисининг кетма-кет, яъни мураккаб ҳолда қўлланиши уларнинг тасодифий жамланмаси бўлмай, муайян фикрни ифодаловчи қонуниятга асосланган ёзув воситасидир. Ёзма нутқ маданияти, саводхонлиги аъло бўлган, пунктуация меъёрларини пухта эгаллаган ҳар ким, хусусан, ижодкорлар тиниш белгиларининг мураккаб қўринишдаги кетма-кет қўлланишидан тўғри фойдалана олади.

Таъкидлаш керакки, муайян матнга боғлиқ ҳолда қўлланган иккитадан ортиқ тиниш белгилари йифиндиси мураккаб қўша қўлланиш ҳисобланади. Кетма-кет қўлланган тиниш белгиларининг барчаси ҳам доим бир гапга алоқадор бўлавермайди.

Бирдан ортиқ тиниш белгилари бир гап доирасида бирикиб келганда алоҳида-алоҳида вазифа бажариш билан бир қаторда, қўлланиш ўрни, тартиби ва мазкур матндаги умумий вазифасига кўра бир-бири билан узвий боғланади. Бу умумий боғланиш, ўзаро алоқадорлик уларнинг муштарак характерга эгалигини кўрсатади. Тиниш белгиларининг биргаликдаги хусусияти контекст орқали аниқланади.

Умуман, тиниш белгилари мураккаб қўшалоқ қўлланганда, куйидаги вазифаларни бажариб келади:

- а) турли мазмуний муносабатлар умумлаштирилади;
- б) матн услугуб жиҳатидан равон бўлади, соддалашади;
- в) матндаги айрим қисмларнинг чегарасини кўрсатиб, матннинг умумий синтактик тузилишини ва унинг айрим бўлинешларини тўғри аниқлашга ёрдам беради;
- г) ёзувчи учун нутқни ихчамлаш ва ўзининг турлича мақсадларини ифодалаш имкониятини яратади<sup>43</sup>.

<sup>43</sup> Бу ҳакда қаранг: Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б. 113

**Тиниши белгилари қуидаги ҳолатларда мураккаб қўлланади:**

**1) сўроқ+ундов+қўштирноқ.** Исмиз аламнинг авж пардасида кўзларига ёш ҳам қалқиб чиқди: “Энди нима бўлади?!” деган гоят хавотирили савол миясини аёвсиз чўқиди... (У.Ҳамдам. Қайтиш) Кўнглига даҳшатли фикр келди: “Нега бехосдан бундай гапларни гапириб қолди?!” (А.Мухтор) Ушибу сўзларга айланди-ку менинг дунём – “Сен мени алдамайсанми? Алдамайсанми?!”(Р.Парфи);

**2) ундов+кўпнуқта+қўштирноқ.** Бунда ундов белгиси эмоционалликни, кўпнуқта фикрнинг бўлинишини ёки турли ҳаяжон, ҳолатни, ёпилувчи қўштирноқ шу матндан маълум қисмнинг чегараланишидаги сўнгги нуктани – чегарани кўрсатади:

*Носиржон эшикни ёпгандан кейин Фарида ичи сидирилиб Ақбарни ўйлай кетди: “У ҳам шу Носиржоннинг бири, ҳатто бундан бешбаттар хаёлпараст. Оиласи, бола-чақали одамга пишириб қўйибдими бегона юртларда? Инсонликнинг маъносини излаб юрганмииш. Ахир иккита болангни тарбиялаб эл қаторига қўшишида эмасми ўша зорманда маъно!..”* (У.Ҳамдам. Исён ва итоат);

**3) кўпнуқта+қўштирноқ+тире.** Кўчирма гапда фикр тугалланмай

қолган бўлса:

*Киши куни — бир тутам. Қорайғанди қоши.*

*Иккиланди. Ўтмак керак, ахир, қирдан.*

*Эри ҳам келмади олиб кетишга*

*“Кўнгли совидими...” – ваҳм этди бирдан.* (М.Абдулҳаким);

**4) қавс+икки ңүқта+күштириноқ.** Дааси ёнини олди (харқалай, эркак-да): “Болани ўз ҳолига қўй, онаси, раис бир нимани билмаса гапирмайди”, – деди. (Ў.Хошимов);

**5) ундов+қавс+кўпнуқта.** Одатда, бу тартибдан кам фойдаланилади.

*Қалбга томчи ёшдай тўқилди олам –*

*Руҳнинг руҳдан қуюқ қаъридадурман.*

*Куз йўқ (йиғлаятман!)... Куз йўқдир (алам!).*

*Энди кузакдан ҳам наридадурман... (У.Азим);*

**6) вергул+тире+кўпнуқта.** – *Халос, халос, – деди муфти, – ... аммо мулла Абдураҳмон мулоҳазасининг қиймати шундаким, Султонали муаммосини тез ҳал қиласа бўлур.* (А.Қодирий);

**7) ундов+кўштириноқ+тире.** “*Ўзинг паноҳингда асра, Худо!*” – дейди Муяссар хаёлан. (Ў.Хошимов) *Она: “Қораланган оқ болам! Агар дийдор қиёматга қолган бўлса, мендан рози бўлгин!!!”* – деб фарёд урди. (Т.Малик);

**8) сўроқ+кўштириноқ+тире.** Бу ҳолат кўчирма гапли қўшма гапларда кўп учрайди. Бунда кўчирма гап муаллиф гапидан олдин келган бўлиб, сўроқ белгиси кўштириноқдан олдин қўлланади: “*Қаранглар, ўтларнинг қовжирағанини кўрдингларми?*” – дейди аравакаши қўлини қуличкашлаб. (Ойбек);

**9) кўпнуқта+кўштириноқ+тире.** *Она эса: “Болам, қишилогимиз, одамларимиз яна ҳам яхши бўлиб кетди, мана келсанг кўрарсан...”* – дерди. (С.Ахмад);

**10) тире+кўштириноқ+кўпнуқта.** Бу ҳолат кўчирма гапли қўшма гапларга хос бўлиб, асосан, гап бошида учрайди:

– “*...Шум болалар кўп. Тур, чиқ ҳовлига, бир жуфт ҳатчўп ясад кел!*” – деб буюради яна бир шогирга домлам. (Ойбек);

**11) сўроқ+қўштирноқ+вергул+тире.** “Кўяверинг, жинни бўлган битта сизми?”, – деб юнатди (Ў.Хошимов. Дафтар ҳошиясидаги битиклар);

**12) сўроқ+ундов+қўштирноқ+тире.** – “А?!?” – деди ҳамма бирдан, нафаслар ичга тушиб кетди. (А.Мухтор);

**13) сўроқ+ундов+қавс+вергул.** Ундан кўнглимни тамом совитиб юборадиган хусусиятни топгудай бўлсан, орамиздаги инжса муносабатларга барҳам беришига баҳонаи сабаб бўлармикан деган хаёлларда юрган пайтларим бўлди, бироқ излашлар-изланишларнинг бари беҳуда кетди (Шу эмасми изтиробларимизнинг илоҳийлиги?!), йўқ, беҳуда кетди десам ёлғон айтган бўламан. (Х.Дўстмуҳаммад. Мен – сенсиз, сен – менсиз)

Шунингдек, ёзманутқда сўроқ+ундов+кўпнуқта+қўштирноқ, сўроқ+кўпнуқта+қўштирноқ тартибидаги қўлланишлар ҳам учрайди. Тиниш белгиларининг бундай ёнма-ён қўлланиши “сўроқ+таажжуб+фикрни чегаралаш”, “сўроқ+фикрнинг бўлиниши+чегаралаш” каби синтактик муносабатларни ифодалашга хизмат қиласи.

### Тиниш белгиларининг тушиб қолиши

Ҳозирги ўзбек адабий тилида тиниш белгиларининг тушиши ҳодисаси ҳам учрайди. Бунда бир турдаги ёки турли тиниш белгилари кетма-кет қўлланганда, вазият талаби билан бир тиниш белгиси қўлланмайди. Мутахассислар бу ҳодисани ёзма нутқнинг мантиқий-грамматик ва услубий-синтактик жиҳатлари ҳамда тиниш белгиларининг характеристери билан боғлик деб хисоблайдилар<sup>44</sup>.

<sup>44</sup> Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент, 1976. – Б.118.

Тиниш белгиларининг қўйидаги ҳолларда тушиб қолиши меъёр ҳисобланади:

1. Агар қўпнуқтадан кейин вергул қўйилиши талаб этиладиган вазият бўлса ҳам вергул ишлатилмайди. Масалан: “Мен... албатта, сизга қарши ҳеч гап айтмайман”.

Маълумки, модал сўзлар, киритмалар гапнинг ўртасида келганда, икки томондан вергул билан ажратилади. Юкоридаги мисолда, одатда, модал сўз (албатта)дан олдин вергул қўйилиши керак, лекин ундан олдин қўпнуқта бўлгани боис вергул тушиб қолган.

2. Баъзан мавзу ичидаги асар номи қўлланганда, ҳам мавзу, ҳам асар номи очилувчи қўштироқни талаб қиласди. Бунда очилувчи қўштироқларнинг фақат биттаси қўлланади ва ҳар икки очилувчи қўштироқ вазифасини бажаришга хизмат қиласди. Масалан, “Бобурнома”нинг бугунги кундаги аҳамияти” мавзусида иниш ёздим. Бу гапда аслида очилувчи қўштироқ такрор ҳолда, яъни: ““Бобурнома”нинг бугунги кундаги аҳамияти” мавзусида иниш ёздим шаклида бўлиши керак эди. Бироқ кўринганидек, икки қўштироқ кетма-кет қўлланганда, ёзув эстетикаси бузилади. Шу сабабли бир қўштироқ тушиб қолади. Бу ҳақда юқорида “Бир хил тиниш белгисининг бирдан ортиқ қўлланиши” мавзусида ҳам батафсил тўхталдик.

3. Тире қўйилиши лозим бўлган ажратилган бўлаклар гап охирида келганда, кейинги тире тушиб қолади: *Шеърга солиб у бедорлигин, Сўнгра тутар менга – аёлга.* (Э.Охунова)

Демак, ҳозирги ўзбек тилида тиниш белгиларининг тушиб қолиши ҳодисаси ҳам бўлиб, бу ҳол маълум шарт-шароит, қоидалар асосида вужудга келади.

## Ҳаволада тиниш белгиларининг қўлланиши

Ҳавола *арабча* сўз бўлиб, ўзбек тилида “фикр, мулоҳаза ва шу кабилар ҳақида маълумот учун бирор манбага қарашга ундаш, шу манбани кўрсатиш” каби маъноларни ҳам англатади<sup>45</sup>.

Ҳавола (сноска) илмий адабиётларда кўп учрайди. Маълумки, илмий адабиётлар: монография, диссертация, автореферат ёки мақолани талаб даражасида ёзишда тадқиқотчидан пухта пунктуацион билим талаб этилади. Бунда фойдаланилган илмий материал ёки манба ҳақидаги маълумотлар аниқ ва ўринли берилиши қанчалик муҳим бўлса, тиниш белгиларини қўллаш меъёрларини тўғри билиш ҳам шунчалик зарурдир. Бироқ бу борада аниқ қоида ва меъёрлар кўрсатилган алоҳида қўлланмаларнинг мавжуд эмаслиги ҳаволада тиниш белгиларининг қўлланиши билан боғлиқ ҳар хилликларни юзага келтирмоқда.

Ҳаволаларда тиниш белгиларининг ишлатилиши қўйидагича:

Ҳаволада фамилиядан сўнг исм, зарурат бўлса, ота исмнинг бош ҳарфи ёзилади ва улардан кейин, шунингдек, ҳаволадан сўнг нуқта қўйилади: Саломов F. Таржима ташвишлари. – Тошкент: F.Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1983. 67-бет.

Ёки: Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013. 261-бет.

Агар бир муаллифга кетма-кет мурожаат қилинса, Шу муаллиф бирикмаси қўлланади ва ундан кейин нуқта қўйилади: Одилов Ё. Фразеологик энантиосемиянинг синхрон табиати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. 4-сон, 12–16-бетлар; Шу муаллиф.

<sup>45</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2020. – Б. 502.

Энантиосемия лисоний ассиметрияning типик кўриниши сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. 5-сон. 82–85-бетлар.

Ҳаволада илмий журнал номи кўрсатилса иккита тик чизиқ, газета, илмий тўплам ёки конференция материаллари номи кўрсатилса, бир тик чизиқ қўйилади: Солижонов Й., Мўминов С. Бадиий асарларда исмнинг айрим функциялари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. 2-сон, 44–49-бетлар; Кўчкорова М. Эркин Аъзам насли ва киноявий бадиий шартлилик / Эркин Аъзам бадиий олами. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 81–97.

Ҳавола Бу ҳақда қаранг ёки Қаранг каби ишора қилувчи сўзлар билан бошланса, бу сўзлардан сўнг икки нуқта қўйилади: Қаранг: Эргашев А., Халирова Д. “Ёзи ва Зебо” – ишқ достони. – Қарши: “Насаф”, 2000.

Ҳаволада манбанинг нашр қилинган жойини кўрсатувчи шаҳар номидан сўнг нашриёт номи келтирилса, жой номидан кейин икки нуқта қўйилади. Масалан: Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 3-нашр. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. 58–59-бетлар; Нурмонов А. Танланган асарлар. Уч жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. 336-бет. Ёки: Қаюмов А. Назм ва тафаккур қуёши. – Тошкент: Фан, 1992. 46-бет.

Агар нашриёт номи кўрсатилмаса, у ҳолда жой номидан сўнг вергул қўйилади: Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, 2001. 19-бет. Ёки: Норматов У. “Ўтган кунлар” ҳайрати. – Тошкент, 1996. 60-бет.

Ҳавола рақами матн ичида тиниш белгисидан олдин қўйилади. Агар хатбоши иқтибос олинган жумла билан тугаса, аввал ҳавола рақами, кейин тиниш белгиси қўйилади.

**Манбаларда тиниш белгиларининг ишлатилиши  
қўйидагича:**

1. Турли манбалардан олинган иқтибослар кўштириноқ ичида, манба номи эса қавсда берилади ҳамда манба қавсидан кейин нуқта қўйилмайди: “*Одами эрсанг, демагил одами Ониким, йўқ халқ гамидин гами*”. (Алишер Навоий)

2. Муаллифларнинг исми, фамилияси ёки тахаллуси тўлик холда берилса, улардан сўнг нуқта қўйилмайди: (*Боту*), (*Ўткир Хошимов*).

3. Исм, отаисм қисқартирилиб, фамилия тўлиқ ёзилганда ёки исм, тахаллус баъзан фамилия ҳам қисқартирилганда, қисқартмалардан кейин нуқта қўйилади. Бунда яхлитликни бузмаслик учун исм, отаисм ва фамилия бўшлиқ қолдирмасдан ёзилади: Э.А.Бегматов, Т.Малик, F.F., X.O.

4. Манба номига келишик қўшимчasi қўшилганда, унинг номи кўштириноқ ичида, келишик қўшимчasi эса қўштириноқдан сўнг бўшлиқ қолдирмасдан ёзилади. Масалан: “*Дафтар ҳошиясидаги битиклар*”дан олинди; “*Қутадгу билиг*”га кўп мурожсаат қиласман каби.

Ҳозирги кунда амалиётда фойдаланилган адабиётлар рўйхатини шакллантиришда манба ва адабиётлар ҳақидаги маълумотларни қўйидагича ёзиш барқарорлашмоқда:

*Хожиев А. Тилиунослик терминларининг изоҳли лугати.* – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашириёти, 2002. – 168 б.

*Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Олий ўқув юртларининг филология факультетлари талабалари учун дарслик.* – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 387 б.

*Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.* – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.

*Худойберганова Д. Сегментли матнлар ҳақида // Филология  
масалалари. – Тошкент, 2004. №4. – Б. 35–39.*

*Песина С.А. Слово в когнитивном аспекте. – М.: ФЛИНТА:  
Наука, 2011. – 236 с.*

*Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи:  
Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2009. – 313 б.*

*Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли лугавий бирликлар  
ва уларнинг матн шакллантириши имкониятлари: Филол. фан.  
номз. дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 23 б.*

*Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик  
хусусиятлари: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. автореф.  
– Қарши, 2019. – 47 б.*

*Курбонов Т.Бадий асарлардаги топонимларни ўрганиши  
масаласи / Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик  
таҳлили ва изоҳи масалалари. – Самарқанд, 2006. – Б. 11–16.*



## ПУНКТУАЦИЯ – ФИКРНИ ЁЗМА МУКАММАЛ ИФОДАЛАШ ВОСИТАСИ

Ёзув маданиятини шакллантириш ва такомиллаштиришда пунктуация – тиниш белгиларининг алоҳида аҳамияти бор. Тиниш белгилари ёзувнинг бошқа воситалари (харфлар, ракамлар, диакритик белгилар) ҳамда тил бирликлари (сўзлар, морфемалар) билан кўрсатиш мумкин бўлмаган турлича фикрий муносабатларни, психологик ва интонацион ҳолатларни ифодалашда ҳам фавқулодда муҳим аҳамиятга эга.


Пунктуация тилнинг синтактик қурилиши билан узвий боғлиқ бўлиб, ёзма нутқни тўғри, ифодали, аниқ баён қилишда, унинг услубий равонлигини, тез тушунилишини таъминлашда бениҳоя зарурий воситадир. Илмий манбаларда, ўкув қўлланмаларида тиниш белгиларининг қўлланиш усули ва тартиби пунктуациянинг мантиқий-грамматик, услубий ва дифференциация (фарқлаш) тамойиллари асосида белгиланиши таъкидланади. Бунда *мантиқий-грамматик тамойил* нутқнинг семантик-грамматик томонини ёзувда тўғри ифодалашга қаратилган бўлса, *дифференциация тамойили* асосидаги қоидалар тиниш белгиларининг қўш ҳолда қўлланишидаги тартибни, гапдаги мураккаб мазмунни аниқлаштириш керак бўлганда, улардан фойдаланиш йўлларини белгилаб беради. Услубий *тамойил* тиниш белгиларининг қўлланишини нутқ услублари асосида белгилашни назарда тутади, лекин бу унчалик тўғри эмас, чунки муайян бир услубгагина хосланган тиниш белгиси бўлмайди. Зарурат туғилганда, ҳар қандай услубда ҳам хоҳлаган тиниш белгисидан фойдаланиш мумкин.

Муайян тилдаги пунктуация анъаналарининг мустаҳкамланиши ва такомиллашувида таниқли ёзувчиларнинг ижоди ҳамда тиниш белгиларининг қўлланиш қоидаларини умумлаштирувчи ва тартибга солувчи тилшунос lar фаолияти катта аҳамиятга эга. Ҳозирги ўзбек пунктуациясининг шаклланиши, ривожи, унинг ўрганилиши Фитрат, С.Иброҳимов, Ҳ.Фозиев, О.Усмонов, F.Абдураҳмонов, К.Назаров ва бошқа тилшунос larнинг номи билан боғлик.

Пунктуация масалалари билан бевосита шуғулланган Ҳ.Фозиев (“Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти”, 1969, 1979), F.Абдураҳмонов (“Пунктуация ўқитиш методикаси”, 1968), К.Назаров (“Тиниш белгилари ва ёзма нутқ”, 1974; “Ўзбек тили пунктуацияси”, 1976)ларнинг асарлари нашр этилганига анча йиллар бўлди ва улардаги тиниш белгиларининг ишлатилиши ҳақидаги фикр-мулоҳазалар ҳам бир кадар ўзгарди. Бунинг устига, “муаллиф пунктуацияси”, яъни муайян муаллиф томонидан тиниш белгиларининг амалдаги қоидаларга бўйсунмаган, унга риоя қилмаган ҳолда индивидуал қўллаш ҳолатлари учрайдики, бу ҳам кенг ўкувчilar оммасини чалкаштиради, шубҳалантиради.

Мазкур ҳолатни ҳисобга олган ҳолда ва тиниш белгиларининг ишлатилиши билан боғлик айrim чалкашликларни бартараф этиш мақсадида ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг бир гурӯҳ етакчи олимлари: проф. Н.Маҳмудов, доцент А.Мадвалиев, доцент Н.Маҳкамов томонидан ушбу “Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари” ишлаб чиқилган эди. “Қоидалар” Институт илмий кенгаши томонидан маъқуллангач, “Ўзбек тили ва адабиёти” журналининг 2015 йил 1-сонида ҳамда “Маърифат”

газетасининг 2015 йил 1, 4, 8, 11 апрель кунларида сонларида эълон қилинди, журнал ва газета ўқувчиларидан олинган мақбул фикр-мулоҳазалар, таклиф ва тавсиялар асосида янада тақомиллаштирилди. “Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари” Ўзбекистон Республикаси Халқ таълимни вазирлиги Республика таълим маркази илмий-методик кенгаши томонидан маъқулланган.



# ЎЗБЕК ТИЛИ ПУНКТУАЦИЯСИННИГ АСОСИЙ ҚОИДАЛАРИ

## Тиниш белгиларининг гап охирида қўлланиши

### 1. Нуқта

1. Тугалланган дарак гапларнинг охирига нуқта қўйилади:  
*Қўқон томон кетяпмиз. Ҳозиргина бизни кузатиб қолган бу ажойиб инсон тўғрисида ўйлаяпмиз. Уни биринчи марта кўришимиз. Фақат бир соатгина у билан ҳамсуҳбат бўлдик.* (С.Аҳмад)

2. Дарак мазмунидаги гаплар тузилиши жиҳатидан қандай бўлишидан (садда, қўшма, тўлиқсиз, атов, илова ва ш.к.) қатъи назар, уларнинг ҳар қандай типи охирига нуқта қўйилади:  
*Ҳар йил бир келадиган баҳор севинчи яна кўнгилларни қитиқлай бошлиди. (Чўлпон) Дунёда қандай яхшилик ва хайриятлик бўлса, ҳаммасини шу биргина қизи учун истар ва орзу қиласарди. (Чўлпон) (ҚЎЧҚОР. Болаларинг қани?) ҚУМРИ. Мактабда. Ундан чиқиб, тўғри шу ёққа келишиади. (Ш.Бошибеков) Шавкатнинг хонаси. Каравотда Бинафша пишиллаб ухлаб ётибди. (Ш.Бошибеков) Жалил ака дераза тагида ётарди. Тўшакда. Болиии баланд. (Ш.Холмирзаев)*

3. Агар алоҳида эмоционалликка эга бўлмаса, буйруқ гаплар охирига нуқта қўйилади: *Фойда чиқадиган томонини кўзлайверинг. (А.Қаҳҳор) Болаларга бирон нарса олиб бер. (А.Қаҳҳор) Эркаликни Бегимқулга қилинг. (О.Ёқубов) Эсон-омон хизматни бажариб кел. (О.Ёқубов)*

4. Гаплар сарлавҳа вазифасида қўлланганда, дарак (ва номинатив) мазмунида бўлишига қарамасдан, уларнинг охирига нукта қўйилмайди: *Мустақиллик ўзликни танимоқдир* (Б.Қосимов); *Улар халқнинг юрагида яшайди* (Б.Қосимов). Аммо сарлавҳа икки гап (қисм)дан иборат бўлса, мазмун шуни талаб қилса, биринчи қисмдан кейин нукта қўйилади: *Ҳукмларнинг сон ва сифат жиҳатидан бирлашган классификацияси. Ҳукмларда терминларнинг бўлининиши*. (“Логика” ўқув қўлланмаси)

5. Муайян тасниф таркибидаги тартибни билдирувчи рақамлардан кейин нукта қўйилган бўлса, бу рақамлар билан кўрсатилган гаплардан кейин ҳам нукта қўйилади: *Келишик шаклидаги сўзлар гапда бошқа сўзлар билан қўйидагича муносабатда бўлади*:

1. *Қаратқич келишиги от билан отни грамматик алоқага киритади: китобнинг вараги, одамнинг гавдаси.*

2. *Тушум, жўналиш, ўрин, чиқиши келишиклари отни феъл билан алоқага киритади: китобни ўқиди, бозорга бордим, мактабда кўрдим, институтдан келдим.* (“Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслиги)

Аммо мазкур тартибни билдирувчи рақамлар (ёки ҳарфлар) қавс билан ажратилган бўлса, улар билан кўрсатилган гапларнинг сўнгтисидан бошқалари охирига нукта эмас, балки нуктали вергул (баъзан вергул) қўйилади: *Диалектология фанининг объекти маҳаллий лаҳжса ва шевалар бўлиб, мақсади ва вазифаси қўйидагилардан иборат*:

1) айрим шева ва диалектларнинг фонетик, морфологик, синтактик ва лексик хусусиятларини ҳар томонлама тавсиф қилиши;

2) миллий тилнинг пайдо бўлиши ва тараққиётида шеваларнинг тутган ўрнини ва шу миллий тилга асос бўлган шеваларни аниқлаш; < ...>

5) умумий ўхшаши лингвистик хусусиятларини белгилаш асосида шеваларнинг маълум ҳудудларда тарқалиш хариталарини тузиши ва шеваларни тасниф қилиши. (“Ўзбек диалектологияси” дарслиги)

## 2. Сўроқ белгиси

1. Сўроқ мазмунидаги гаплар охирига сўроқ белгиси қўйилади: *Ҳай, нима бу ҳаммаёқ жимжит бўлиб қолди?* Зебинисахон қанилар? Салтанатхон, айланай, ўртоқжонингизни топмайсизми? (Чўлпон) Одамлар кўнглига Сен ҳам битта ниҳол экдингми? Баҳра олодими бир зот юраги? Бирор қалб губорин юва олдингми? Сен ҳам ўз шеърларинг замиридаги Шўр сувларни құва олдингми? (Э.Воҳидов)

2. Сўроқ мазмунидаги гаплар қандай воситалар ёрдамида шаклланган бўлишидан (сўроқ олмошлари, сўроқ-таажжуб юкламалари, сўроқ интонацияси ва ш.к.) қатъи назар, уларнинг ҳар қандай кўриниши охирига сўроқ белгиси қўйилади: *Сизлар амал талашган чоғда Ким тургизар бурчакка сизни?* (Э.Воҳидов) Жаноб Пакавира, Ҳиндистонга қачон келгансиз? Уч йил? Уч йилдан буён қаерда истиқомат қилмоқдасиз? (П.Кодиров)

– *Хўп, Бинафша. Фамилияси?*

– *А?.. Кимни?..*

– Ўзингизнинг болангизми, ахир? (Ш.Бошбеков)

*Йўқ, фамилиянгиз? Курбонов? Аҳа, яшии, яшии! Соғлиқ қалай, ўртоқ Курбонов? Отдай бўлиб юрибсизми? (Т.Мурод) Ичингда армонларинг бордир, ахир? (С.Аҳмад)*

3. Сўроқ мазмуни ифодаланган содда гапларнинг ҳам, қўшма гапларнинг ҳам охирига сўроқ белгиси қўйилади: *Сен... бу ерда нима қилиб юрибсан?* (О.Ёқубов) *Эсингиздами, бир марта иккаламиз ялпиз терган эдик?* (Ў.Умарбеков) Аммо гапда кучли эмоционаллик, ҳис-ҳаяжон мавжуд бўлганда, сўроқ белгисидан кейин ундов белгиси ҳам қўйилади: *Қачон жиловлаб қўйилади бу извогар, ғаламислар-а?!* *Қачон бартараф бўлади бу анонимчилар-а?!* (Т.Мурод) *Ўтган бозор куни еган анорингни ўйнашинг олиб келганмиди?!* (А.Қаҳҳор) *Асқарали тоза, бас энди, шу чойни ичайми-йўқми?!* (Т.Малик) *Ўзлингиз от олмоқчи эди бу пулга, сизда инсоф деган нарса борми?!* (Т.Малик)

4. Қўшма гаплар (боғловчисиз боғланган, боғловчили боғланган, эргашган) компонентларининг ҳар иккисида ҳам сўроқ мазмуни ифодаланиши мумкин, аммо сўроқ белгиси фақат яхлит қўшма гапнинг охирига қўйилади: *Нега ерда учрашидилар бу икки малак, Нега сухбат қурмадилар фазолар аро?* (Э.Воҳидов) *Ўрнига ким экан – билсак бўладими?* (Э.Аъзам) *Биз, раҳбарларга ишонасизми ё мана шунга ўхшаган подачига ишонасизми?* (Т.Мурод) *Бу ўзингинг фикрингми ё бирор кўрсатма борми?* (Т.Малик) *Ранг-рўйингга нима бўлди, тузукмисан ўзи?* (Э.Аъзам)

5. Қўшма гаплар (боғловчисиз боғланган, боғловчили боғланган, эргашган) компонентларининг фақат биттасида

сўроқ мазмуни ифодаланиши мумкин, аммо сўроқ мазмунини ифодалаган компонентнинг олдин ёки кейин туришидан қатъи назар, сўроқ белгиси яхлит қўшма гапнинг охирига қўйилади: *Отаси ҳам ҳайрон: кимга тортган бу қиз? (Ў.Хошимов)* *Аввал менга айтинг, шу қишлоқ қизидан олим чиқадими? (С.Аҳмад)* *Шу аҳволда ўлиб-нетиб кетсанг, шунча бола чирқиллаб қолишини ўйладингми? (С.Аҳмад)* *Дарҳақиқат, туяning устига зам юкини ортса, нега коғирлар озод бўлади? (С.Аҳмад)* *Эсингиздами, бир марта иккаламиз ялпиз терган эдик? (Ў.Умарбеков)* *Жалил ота карахт тортуб қолди: қаёқдан пайдо бўлди бу дард? (Ш.Холмирзаев)* *Қандай донишманд одамсизки, қалбимни дарҳол билдингиз? (Ш.Холмирзаев)*

6. Риторик сўроқ гаплар охирига, асосан, сўроқ белгиси қўйилади: *Бирон орзуси бўлмаган, бирон нарсага интилмаган одамнинг мушуқдан нима фарқи бор? (А.Қаҳҳор)* Аммо гапда кучли эмоционаллик, ҳис-ҳаяжон мавжуд бўлганда, сўроқ белгисидан кейин ундов белгиси ҳам қўйилади: *Ҳалқини севган қайси фарзанд Ватанини озод кўришини хоҳламайди?! (Э.Аъзам)*

7. Сўроқ мазмунидаги гаплар сарлавҳа вазифасида қўлланганда, улардан кейин сўроқ белгиси қўйилади: *Toшпўлат тажсанг нима дейди? (А.Қодирий)* *Шамол нимадан пайдо бўладир? (Чўлпон)* *Мен нечун севаман Ўзбекистонни? (А.Орипов)* *Ватанини нега севадилар? (Б.Қосимов)* *Ўзбекистонда ким яхии яшайди? (Ш.Жабборов)*

8. Ўзганинг фикр-мулоҳазасига шубҳа ёки эътироз-норозиликни ифодалаш учун баъзан матнда мазкур фикр-мулоҳаза баён қилинган иқтибосдан кейин қавсга олинган сўроқ

белгиси қўйилади: *Насрий ифода бўлса: “Бу Зарафшон дарёси тепаликда жойлашгани учун (?) “Кўҳак” деб ном бердилар... Шу тепаликдан пастга қараб қўйилгани учун ҳам (?) Зарафшонни Кўҳак дарёси дейдилар”*(104-бет). Самарқанд Африкада ёинки Америка қитъасида эмас, шундайгина икки қадам жойда, кўпчилигимиз кўрганмиз ва Зарафшоннинг қаердан, қандай оқишини биламиз. Ҳеч замонда дарё тепаликдан пастга қараб оқканми? (Н.Комилов. “Таржимами ё талқин?” маколаси)

### 3. Ундов белгиси

1. Ундов гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *Буни қаранг, унаштиришини тўй деб юрса-я! Кўйинг, домласи, ҳозир унаштиришдан ҳам айнидим! Вақт-соати етганда бўлар! Вақт-соати етганда, куёвни ўзингиз топасиз! Тўйга ўзингиз бош бўласиз!* (А.Қаҳҳор)

2. Таркибида эмоционалликни қучайтирадиган қандай, қанчалик, қанақа, нақадар, мунча, бунчалик каби сўзлар мавжуд бўлган гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *Яшаш қандай яхши, тагин шундай катта, гўзал шаҳарда!* (Ў.Умарбеков) *Қара, у қандай яхши йигит!* (Ў.Умарбеков) *Хаёт!* У нақадар мураккаб ва нақадар улуғ! (Ў.Умарбеков) *Бу йўл нақадар улуғ, сеҳрли ва муқаддасодир!* (У.Хамдам) *Чанд биби Ҳумоюнга тегмасдан олдин қанчалик шўх ва қувноқ эди!* (П.Кодиров) *Мулойим қўлларда ивиб, сувга айлангандан кейин гўзал кўзларнинг супасида ёнбошлишини мунча яхши кўрар экан бу кўкат!* (Чўлпон) *Оҳанрабонгиз бунчалик зўр бўлмаса!* (Э.Аъзам)

3. Эмоционаллик даражаси кучли бўлган риторик сўроқ гаплар охирига баъзан ундов белгиси қўйилади: *Она ўз боласига ёмонликни раво кўрадими!* (А.Қаҳҳор)

4. Буйрук, талаб, ундаш мазмуни эмоционал шаклда буйруқ майлидаги феъл ёки бошқа воситалар орқали ифодаланган буйруқ гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *Шукур қилинг! Севининг! Мундоқ бир кулинг! Кулимсиранг! Илжайинг!* (Чўлпон) *Бахт хусусида уни янгишиштирманг! Янгишиштирманг қиз бечорани!* (А.Қаҳҳор) *Қизингизнинг баҳтини бировларнинг остонасидан қидирманг!* (А.Қаҳҳор) *Ойижен, қани, бу ёққа!* (С.Аҳмад)

5. Ҳис-ҳаяжон интонацияси билан талаффуз қилинган номинатив гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *Фавқулодда манзара!* (*Китлар осмонда учиб кетаётган турналар каби ўткир учбурчак ҳосил қилиб сузиб боришар эди*) (Ч.Айтматов) *Ана турмуши! Ана куёв-қайлиқ!* (*Пошишон билан Султонхон қайлиқ бўлибдими?*) (Чўлпон) *Шундай гўзалга мушит кўтариши!* (О.Ёқубов) *Аммо бу оғриқ, бу хўрликларга чидамоқ!* (Э.Аъзам)

6. Мурожаат объектини кўрсатувчи, яъни вокатив гаплар одатда эмоционалликка эга бўлади ва улар охирига ундов белгиси қўйилади: *Она тилим! Мехринг бу қадар Ўртагувчи экан жсонимга.* (Э.Воҳидов) *Дўстлар! Сиз ҳам Матмуса Ҳикматин унумтманглар.* (Э.Воҳидов) *Энахон! Жоним ўртогим! Бормисиз?* (Чўлпон)

7. Эмфатик ургу олган сўзни эмоционалликни қучайтириш мақсадида такрорлаш ҳолатлари мавжуд бўлган гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *Ҳа, от сурмоқ даркор, от сурмоқ!* (О.Ёқубов) *Ёниб яша то танды жон бор, Қуёши бўлгин, азизим, қуёши!* (Э.Воҳидов) *Зебихонни қаранг, Зебихонни!* (Чўлпон)

8. Эмоционалликни қучайтириш мақсадида бўлаклари инверсив ҳолатда (одатдаги тартибдан фарқли) кўлланган гаплар

охирига ундов белгиси қўйилади: *Ўлганим яхши менинг! – деди у. – Кўнгилдагидек бир сийлай олмасам меҳмонларимни!* (Чўлпон ) *Орзусига энди етди у!* (Ў.Умарбеков)

9. Ундовлар алохида гап вазифасида келганда, ундан кейин ундов белгиси қўйилади: *Оҳ! У ёқда хўрладилар, бу ёқда қалтакладилар* (Р.Ҳайдарова) *Хой! Овқатларингдан дарак борми?* (Ў.Умарбеков) *Оббо! Яна кутарканмиз-да!* (Ў.Умарбеков) *Киши!* *Киши-е, қирилибгина кетгур!..* (Ш.Бошбеков)

10. Таркибида ҳис-ҳаяжон ундовлари мавжуд бўлган гапларда эмоционаллик ёрқин ифодаланади ва бундай гаплар охирига ундов белгиси қўйилади: *О аёл қалби! Дунёда мавжуд барча фожиалар сел бўлиб ётирилса чидар-у, аммо эрининг хиёнатига сира-сира чидай олмас!* (Т.Малик) *Эй Одам фарзандлари!* У ўлимни ва ҳаётни сизларнинг қайси бирларингиз амалда яхшироқ эканликларингизни синаш учун яратгандир. (Т.Малик) *Эҳ, хўрлик қурсин!* (Ойбек) *Ўша лаҳза она билан фарзанд ораси, Оҳ, нақадар яқин эди, нақадар узоқ!* (Э.Воҳидов)

11. Саломлашиш-хайрлашиш, табриқ, миннатдорлик, ташаккур, узрхоҳлик, маъқуллаш, рағбатлантириш каби муомала одатларини билдирадиган гапларда ҳам кўпинча эмоционаллик ёрқин ифодаланади ва уларнинг охирига ундов белгиси қўйилади: *Мен кетдим! Хайр!* (Ў.Хошимов) *Хайрият!* (Бу кимсасиз оролда биттагина инсофли тирик одам бор экан!) (Т.Малик) *Марҳамат!* (Улугсифат бўлиб кўриниш учун – ўттиз ёшдаман демоқчи эди) (Ч.Айтматов) *Офарин! Ҳақ гапни айтиётир!* (Ч.Айтматов) (Бунга чидаш мумкинми?!) *Йўқ!* (Т.Малик) *Балли!* *От айлануб қозигини*

*топади! (А.Қаххор) Авваламбор, түйларинг муборак бўлсин!*  
(Ш.Холмирзаев)

12. Гапда эмоционаллик даражасининг беҳад ортиқ эканлигини кўрсатиш учун баъзан гап охирига бирдан ортиқ (учтагача) ундов белгиси қўйилиши мумкин: *Войдод! Аяжон!! – қичқирди кимдир. – Мени ташлаб кетманг, аяжон!!!* (Ў.Умарбеков) *Ҳа, мен ўгриман!!! Шу йўл билан кун кўраман! Сен тугилгунинггачаям шунаقا эди.* (Ш.Бошбеков)

13. Ундов гаплар сарлавҳа вазифасида қўлланганда ҳам уларнинг охирига ундов белгиси қўйилади: *Кўклам келадир!* (Чўлпон. Шеър сарлавҳаси) *Қовун туширай дебман-ку!* (С.Аҳмад. Ҳажвий ҳикоя сарлавҳаси)

14. Ўзганинг фикр-мулоҳазасига муаллифнинг ўта маъқуллаш, алоҳида таъкидлаш, розилик ёки киноя-аччиқланиш, ажабланиш муносабатини ифодалаш учун баъзан матнда мазкур фикр-мулоҳаза баён қилинган иқтибосдан кейин қавсга олинган ундов белгиси қўйилади: *Иқтисодий юксалиши натижасида, турмуши даражаси сезиларли равиида яхшиланган – оналар ўлими 2 баробар, болалар ўлими 3 баробар камайган, одамларнинг ўртacha умр кўриши 67 ёшдан 73 (!) ёшга, жумладан, аёлларнинг ўртacha умр кўриши 75 (!) ёшга етган.* (А.Иброҳимов. “Умримиз боқийдир, боқий!” мақоласи) Лекин бу фикрларга келгунча шеърнинг марказий қисмидаги вақтнинг янги туфли кийиб ўтиши-ю лирик қаҳрамоннинг эти (!) эски туфлилардек тешилиб кетиши нимани англатади, ҳарчанд тиришимай, идрокэтолмадим. (Б.Назаров. “Йигирма ёшдаги шоирларимиз” мақоласи)

#### 4. Кўпнукта

1. Мазмунан тугалланмаган дарак гаплар охирига кўпнукта қўйилади: *Тўйни келаси йил қилсак қиласмиз...* (А.Қахҳор) *Поездга билет олиб қўйган бўлсак, поезд уч соатдан кейин кетса...* (А.Қахҳор) *Бўлмаса, кунда нима айб, худонинг ҳамишиагидек карами кенг бир куни...* (А.Аъзам)

2. Гапдаги турли узилишларни кўрсатиш учун кўпнукта қўйилади: *Ҳай-ҳай, укам, шундоқ баобру одам сизни кўргани келса-ю, сиз хурсанд бўлиш ўрнига...* (А.Аъзам)

3. Гап муаллифининг ўйланиб қолиш, иккиланиш, ҳаяжонланиш каби ҳолатларини кўрсатиш учун кўпнукта қўйилади: *Ўзинг тенги болалар лагерь палаткаларида маза қилиб ухлаб ётганида, сен сув сениб, йўлка супуришинг...* Нима десам экан... *Сал алам қиласди кишига.* (Ў.Хошимов) *Майли, чавгонни... эртага пешиндан сўнг тамошо қилгаймиз.* (П.Қодиров) *Ҳазратим, ижозат беринг, – деди. – Мен қизни... кўриб, ризолигини олмагунча... кимлигини айтмай турай.* (П.Қодиров)

4. Нутқда қутилмагандан бир фикрдан бошқасига ўтиб кетишини кўрсатиш учун гапда айни ўтиш ўрнига кўпнукта қўйилади: *Сени сийпаб, эркалатиб, Аста-секин кўкартирган Гўзал кўклам... ўтиб кетди.* (Чўлпон) *Яrim кечада уйга қайтсам... ҳаммаёқ жимжит.* (Ў.Хошимов)

5. Гапда берилган саноқдаги қаторни яна давом эттириш мумкинлигини, унинг тугамаганлигини кўрсатиш учун кўпнукта қўйилади: *Гулларнинг номини жуда топиб қўйишади-да, – деди,*

– тұгмачагул, гулибеор, қирқогайни, оққалдирғоч... (Н.Эшонқұл)  
Болалигимда күп касал бўлардим: қизамиқ, кўкйўтал, безгак...  
(Ў.Хошимов)

6. Мазмуни аник очилмаган гаплардан кейин кўпнукта  
кўйилади ва ундан кейин шу мазмунни очадиган гап келтирилади:  
*1914 йил... Шу йилдан ўзбек шеърияти осмонида “Чўлпон” деган  
митти юлдуз чарақлай бошлиди.* (Н.Каримов)

7. Матнда муайян сабаб билан узилиб қолган фикр  
баёнининг давом эттирилганини кўрсатиш учун гап бошига  
кўпнукта кўйилади: ...*Болалигимни эсласам, илиқ ёз кечалари кўз  
олдимга келади.* (Ў.Хошимов) ...*Бу тушнинг охри эмас эди. Бу  
ибтидоси эди.* (Н.Эшонқұл)

8. Сарлавҳа вазифасида қўлланган гаплардан кейин  
мазмун тақозосига мувофиқ кўпнукта кўйилади: *Бир йигит куйлар  
экан...* (Ойбек. Шеър сарлавҳаси) *Ёшликни эслаб...* (Ойбек. Шеър  
сарлавҳаси) *Изтироб экан-ку муҳаббат!..* (Х.Дўстмуҳаммад.  
Ҳикоялар туркумининг номи)

### Тиниш белгиларининг гап ичидагулланиши

#### 1. Вергул

1. Гапда боғловчисиз, тенгланиш интонацияси билан  
боғланган уюшиқ бўлаклар бир-биридан вергул билан ажратилади:  
*Китоб, қалам, дафтар бўлсин йўлдошинг.* (Ҳабибий) *Бир куни  
авлиёнинг ҳузурига баланд бўйли, узун соchlари елкасига тушган,  
ялангоёқ бир одам кириб келади.* (И.Султон) *Столга иккита  
музқаймоқ, бир шиша лимонад, иккита бўш стакан кўйилди.*  
(Ш.Бошибеков)

2. Зидловчи тенг боғловчилар воситасида боғланган уюшиқ бўлаклар иштирок этган гапларда мазкур боғловчилардан олдин вергул қўйилади: *Дадам секин, аммо таҳдидли оҳангда деди.* (Ў.Хошимов) *Оқтўши Хўжайиннинг раҳми келаётганини, лекин иложссиз эканини тушунди.* (Б.Мурод Али) *Мингбоши бу биргина, лекин кутмалмаган сўзга бир оз ҳайрон бўлди.* (Чўлпон)

3. Такрор қўлланувчи тенг боғловчи ёки боғловчи вазифасидаги бирликлар (бириктирувчи, айиравчичи, инкор) воситасида боғланган уюшиқ бўлаклар вергул билан ажратилади: *Одам бир йўла ҳам муҳаббатидан, ҳам дўстидан ажралиб қолса ёмон бўларкан.* (Ў.Хошимов) *Ё қайгу, ё севинч кўзга берар ёши.* (И.Мирзо) *Ўлдирадир бир кун мени ёуниси, ё буниси.* (А.Обиджон) *Ойим гоҳ менга, гоҳ Ҳожи бувага қарап эди.* (Ў.Хошимов) *Йўлчи баъзан ёлғиз, баъзан ўз ёнига бирорни ҳамроҳ қилиб, сув келтирасди.* (Ойбек) *Бунда бор на оғат, на гурбат, на гам.* (Ғ.Ғулом) *Лекин ҳозир бу ҳақда ўйлашга унинг на имкони, на хоҳиши бор эди.* (Ў.Умарбеков)

4. Мурожаат объектини ифодаловчи ундалмалар гапнинг бошида келганда, ундан кейин, гап ўртасида келганда, ҳар икки томонидан, гап охирда келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Ўғлим, гапимга диққат билан қулоқ сол.* (И.Султон) *Худонинг даргоҳи кенг, ўғлим, тавба қил.* (И.Султон) *Ўзингиз айта қолинг, Матлубахон.* (О.Ёқубов)

5. Ундовлар гапнинг бошида келганда, ундан кейин, гап ўртасида келганда, ҳар икки томонидан, гап охирда келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Ажабо, сенинг қисматинг*

бизникидан фарқли эмасмиди? (И.Султон) *Вой, мунча очилиб кетибсан!* (О.Ёқубов) *Кузатишда фойдаланиладиган замонавий ускуналарнинг ривожланиб кетгани эса, эҳ-ҳе-е, алоҳида мавзу.* (Х.Дўстмуҳаммад) *Шу тобда бир ғарам беданинг устига чиқиб чўзилсанг борми, оҳ, бунинг гаштига нима етсин!* (М.Мансур) *Вақт-соати етганга ўхшаяпти, уф-ф.* (Х.Дўстмуҳаммад)

Аммо гапда ундалмалардан олдин келган ундовлар одатда ундаш, мурожаатни кучли даражада ифодалаш учун хизмат қиласди, шунинг учун ундалмалар олдидан келган ундовлардан сўнг одатда вергул қўйилмайди: *Кел, эй Фурқат, сухани мухтасар қил.* (Фурқат) *Эй қотил, нега шундай азим теракни нобуд қилдинг?* (“Эл деса Навоийни” китоби). *Кунлар ганимат, э ога, бу давру даврон қайтмагай.* (А.Обиджон). *Ҳой эгачи, шу ерликомисиз?* (Ў.Хошимов) *Чуҳ жонивор, чуҳ* (Ч.Айтматов)

6. Кириш сўз ва кириш бирикмалар (сўзловчининг баён қилинаётган фикрга муносабатини ифодалайди) гапнинг бошида келганда, ундан кейин, гап ўртасида келганда, ҳар икки томонидан, гап охирида келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Афсуски, у ҳақиқатнинг юза қатламинигина кўра олди.* (И.Султон) *Ниҳоят, мўлжаллаган жойига етиб келди.* (Ш.Бошибеков) *Жувоннинг тоқати тоқ бўлди, шекилли, думалаётган ўглини ердан юлқиб кўтарди.* (Ў.Хошимов). *Офтобни она дейшилари, эҳтимол, шундандир.* (Ў.Хошимов) *Ҳали ҳеч ким билмайди, менимча.* (А.Намозов) *Уларнинг фикрича, Акбарнинг шухрати ва обруси давлат манбаатларига хизмат қиласди.* (П.Қодиров) *Маълумотларга кўра, ўсмирлар оламидаги жиноятнинг 70 фоизи айнан шу бадмаслик оқибати экан.* (Т.Малик) *Мавлоно*

*Маждиiddиннинг айтишига кўра, хазинада атиги икки туман ҳам пул қолмабдур. (И.Султон) Кўп эмас, бир-икки кун бирга улфатчилик қилиб, ўз таъбири билан айтганда, “жиннилик” қилиб кетади. (О.Ёқубов)*

7. Кириш гаплар (сўзловчининг баён қилинаётган фикрга муносабатини ифодалайди) ҳам асосий гапнинг бошида келганда, ундан кейин, ўртасида келганда, ҳар икки томонидан, охирида келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Ўйлаб қарасам, пасткашиликнинг катта-кичиги бўлмас экан.* (С.Аҳмад) *Ўзингиз биласиз, нимаики янги гап чиқса, аввал шофёр ҳалқи билади.* (С.Аҳмад) *Мен сизга айтсан, ўртоқ Эшикувватов, асримизнинг ўзига хос касалликларидан бири ҳам шу... асаб касаллиги бўляпти.* (Ш.Холмирзаев). *Бамисоли қалам эмас, мен сизга айтсан, овозсиз ўқдай гап бу.* (А.Мухтор) *Чорва ҳам, ўзингиз биласиз, ҳаминқадар.* (С.Аҳмад) *Бир парча қогозга ёзилган жўнгина хат ҳар қандай одамнинг бошига етарди, мен сизга айтсан.* (А.Мухтор) *Сизни додга қолдирмайди, ишонаверинг!* (У.Утеулиев)

8. Гапда қани, нима, хўши каби сўзлар гап бўлаклари билан грамматик алоқага киришмаган ҳолда турли модал маъно нозикликларини ифодалашга хизмат қилиб, асосий гапнинг бошида келганда, ундан кейин, ўртасида келганда, ҳар икки томонидан, охирида келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Қани, Йўлдошли, ошга қаранг.* (О.Жорқинбоев) *Нима, мен гўдакмидим?* (Ш.Холмирзаев) *Мен қачон нону туз кўтариб, ёвузларга пешваз чиққан эканман, қани, айт!* (А.Мухтор) *Хўши, нима қилиши керак энди?* (Ш.Холмирзаев) *Суви бир хил, ери бир хил, лекин иккита бараварини топиб бер, қани?* (А.Аъзам) *Тушундим, хўши?* (Т.Мурод)

Баъзан мазкур сўзлар ёнма-ён келса, улар ҳам бир-биридан вергул билан ажратилади: *Хўш, қани, бизга қандай хабарлар келтирдингиз?* (Э.Воҳидов) *Қани, хўши, масалан, чойнакнинг қопқоғини русча нима дейди?* (А.Қаххор)

9. Саломлашиш-хайрлашиш, табрик, миннатдорлик, ташаккур, узроҳлик, маъқуллаш, рағбатлантириш каби муомала одатларини билдирадиган сўз ва қолиплашган бирикмалар гап бошида келса, ундан кейин, ўртасида келса, ҳар икки томонидан, охирида келганда эса ундан олдин вергул қўйилади: *Салом, Амирқул ака, ҳорманг!* (Ў.Умарбеков) *Хайр, сиз билан кечқурун кўришамиз.* (Т.Малик) *Узр, тажрибасизлик қилибман.* (А.Мелибоев) *Оғайни, тегиб кетган бўлса, узр, кечиринг.* (А.Обиджон) *Раҳмат, дўстлар, бунинг ҳожати йўқ.* (П.Кодиров) *Марҳамат, келинг, ўртоқ Абдураҳмонов!* (Ш.Холмирзаев) *Худога шукр, қўшиниларим тилло одамлар.* (Т.Малик) *Шукур, соғ, баъзи ишлар билан бўлиб келолмади.* (А.Қодирий) *Мен эсам, шукур, юздан ўтдим.* (А.Абдуллаев)

10. Гапда тасдиқ (*ҳа, хўп, майли*) ва инкор (*йўқ*) ни билдирадиган сўзлар алоҳида гап ёки гап бўлаги вазифасида қўлланмаган ва бошқа гап бўлаги билан грамматик алоқага киришмаган ҳолларда улар вергул билан ажратилади: *Ҳа, балли, буни фаҳмлаб етибсан.* (Т.Малик) *Хўп, мен шугулланаман бу билан.* (Ў.Умарбеков) *Майли, яхши ўқии бўлса бора қолсин.* (Ў.Умарбеков) *Йўқ, у эртага учрашувга бормайди.* (О.Ёкубов) *Сен-ку, майли, ўзимизникисан.* (У.Ҳамдам)

Тасдиқ билдирувчи сўзлар ёнма-ён қўлланганда, улар вергул билан ажратилади: *Ҳа, майли, бир пиёла чой ичсак ичибмиз-*

*да. (У.Хамдам) Хўп, майли, агар Отани сизнинг маконингизга олиб борсам, яхши кута оласизми? (О.Ёқубов)*

*11. Гапда такрорланган сўзлар орасига вергул қўйилади: Қани, қани, меҳмонларнинг қўлига сув қуйворинглар. (А.Обиджон) Келиб, мана, Фарҳоднинг уйқусини бузиишибди, узр, узр. (Э.Аъзам) Раҳмат, раҳмат, ўзлари кўраверсинлар. (Э.Аъзам) Ҳозир, ҳозир мўйқаламни оламану... мана бундай қилиб... (О.Жорқинбоев) Бас, бас! Буёгини эшигининг, опа. (Ш.Холмирзаев) Йўқ, йўқ, сиз мени жентльменлик ёшидан ўтган деб ўйламанг. (П.Қодиров)*

*12. Муайян иккинчи даражали бўлакни мазмун ва мантиқ жиҳатидан одатдагига қараганда кучли, таъсирли, эмоционал қилиб бериш, унинг маъносини изоҳлаш, аниқлаштириш мақсади билан мазкур бўлак гапда ажратилади ва бундай ажратилган бўлакларнинг ҳар икки томонига одатда вергул қўйилади (баъзан ифода мақсадига мувофиқ тире ҳам қўлланади, бу ҳақда қуйироқда айтилади): Энахоннинг онаси, ўзи пакана ва унинг устига буқчайган камтири, ўйин қилган бўлиб, ҳаммани кулдирди. (Чўлпон) Онам увушган оёқларини уқалаганча орқага, бола ииелаётган томонга, қараб кетди. (Ў.Хошимов) Қаердадир, яқин жойда, дарё шовуллайди. (Ў.Хошимов) Ҳалиги йигит, қўлида тугуни бор эди-ку, сартарош, эртага таътилга чиқар экан. (А.Ғуломов) Насиҳатимни, отангнинг сўзини, эсингда тут. (А.Ғуломов) Кечқурун, ётар пайтда, камтири икковини ёнига чақириб, ўз фикрини айтди. (Чўлпон)*

*13. Гапда -(и)б қўшимчаси билан ясалган равишдошлар ўзига тобе бошқа сўзлар билан кенгайиб келганда, улардан кейин вергул қўйилади: Уни ким кучоқлаб, ким ўпади? (Чўлпон) Бинафша узоқдан югуриб келиб, дадасининг бўйнига осилиб олди.*

(Ш.Бошбеков) Улар сой бүйига чодир тикиб, бир-икки ҳафта туришиган эди. (О.Ёкубов) Қайси бир йил олис бир қишилоқдан ўгай акаси келиб, уч-түрт күн қўниб кетган эди. (Чўлпон) Сиз, ахир, мен билан бир шапалоқ ерни талашиб, шу тўғрида нари-бери бўлишиб, шу туфайли шаҳарга келиб қолган эдингиз... (Чўлпон)

Аммо -(и)б қўшимчаси билан ясалган равишдошлар ўзига тобе бошқа сўзлар билан кенгаймаган бўлса, равишдошлар одатдаги равишлиар билан бир хил маъновий-грамматик мақомда бўлади ва шунинг учун улардан кейин вергул қўйилмайди: *Қўшини хонада турадиган бир қиз югуриб кирди.* (О.Ёкубов) Диванда гужсанак бўлиб ухлаб ётар эди. (О.Ёкубов) *Котиба кўзларини тирпиратиб чиқиб кетди.* (А.Намозов)

Бироқ кенгаймаган равишдош билан феъл кесим орасида тўлдирувчи ёки ҳол вазифасидаги сўзлар келганда, шу бўлимнинг 13-бандидаги каби, равишдошдан сўнг вергул қўйилади: *Матлуба бир-бир босиб, орқага қайтди.* (О.Ёкубов) *Кўкламнинг сайроқи қушлари табиат кўринишларини куйламоқдалар, кўм-кўк кўкатлар силкиниб, қушларни олқишиламоқдалар.* (Ойбек)

Шунингдек, -(и)б қўшимчаси билан ясалган равишдошли қурилмалар тилда идиоматик, фразеологик ибораларга айланиб қолган бўлса, улардан кейин вергул қўйилмайди: *Бугун... енг шимарив ишилаб ўтирам, қўнгироқ бўлиб қолди.* (А.Мелибоев) *Оғзингга қараб ғапир, мен Ватан учун жсанг қилиб эдим!* (Т.Мурод) Аммо кўзингга қараб ишила. (Т.Мурод) Зум ўтмай қўлини ювиб чиқди. (Ў.Хошимов)

14. Гапда -гач қўшимчаси билан ясалган равишдошлар ўзига тобе бошқа сўзлар билан кенгайиб келганда, улардан кейин

вергул күйилади: *Бир марта қайси бир түй бир ҳафтага چўзилиб кетгач, олтинчи куни бизнинг сўфи эшондан сўрамай қочиб келган!* (Чўлпон) Сўфининг бақиришидан сўнг бир оз шошиб тургач, улар югурганча уйга кирдилар. (Чўлпон) Ҳеч натижса бўлмагач, уни бўшатишга қарор қилинди. (Т.Содикова) *Майдонга тўртта назоратчи кириб келгач, газетчилар шақирлатиб суратга тушира бошлиши*. (Н.Эшонқул)

15. Гапда -ган қўшимчаси билан ясалган ва ўринпайт келишигининг қўшимчасини олган сифатдошлар ўзига тобе сўзлар билан кенгайиб келганда, улардан кейин вергул кўйилади: *Отам чўпонлик қилганда, мен қўзи-улоқ бокқанман.* (Ш.Холмирзаев) Улар дабдурустдан ўринларидан туришганда, тагин хижсолат ҳисси эзди мени. (Ш.Холмирзаев) *Қосимжон машинада хотинини бир айлантирмоқчи бўлиб турганда, эшик тақиллаб қолди.* (С.Аҳмад) *Ўйин тамом бўлиб, палов дастурхони ёзилганда, ой анча баландга кўтарилган* эди. (Чўлпон)

Аммо гапда -ган қўшимчаси билан ясалган ва ўринпайт келишиги қўшимчасини олган сифатдошлар ўзига тобе сўзлар билан кенгайиб келмаган бўлса, улардан кейин вергул кўйилмайди: *Кутимагандек яқингинада Эронга отланган Амир Темур Кўрагондан чопар етганини айтдилар.* (М.Али) *Кулганда ҳам силкиниб-силкиниб кулади.* (С.Аҳмад) *Ўн сўм қарз бериб туринг, хотиним келганда беради.* (С.Аҳмад) *Қариганда гина-кудуратни унумиб, борди-келди қиласлилар.* (Т.Малик)

Шунингдек, -ган қўшимчаси билан ясалган ва ўринпайт келишиги қўшимchasини олган сифатдошли курилмалар

тилда идиоматик, фразеологик ибораларга айланиб қолган бўлса, улардан кейин вергул қўйилмайди: *Кўпам ҳовлиқаверманглар, келинни келганда кўр, сепини ёйганда кўр.* (С.Аҳмад) У кун бўйи саройдаги дўкондан чиқмас, уйга қош қорайганда қайтарди. (Т.Малик) *Ноинсофнинг кеч кирганда ухлашини қаранг!* (Чўлпон) Бир йилгача маросимларни ўтказаман деб, қоққандা қозигим, осганда хурмачам қолмайди. (С.Аҳмад)

16. Боғловчисиз боғланган қўшма гап таркибидаги гаплар ўртасида алоҳида мазмуний муносабатлар мавжуд бўлмай, бу гаплар бир пайтда ёки кетма-кет содир бўлган (бўладиган, бўлаётган) воқеа-ҳодисаларни ифодаласа, одатда улар ўртасига вергул қўйилади: *Кўкламнинг сайроқи қушилари табиат кўринишларини куйламоқдалар, кўм-кўк кўкатлар силкиниб, қушиларни олқишиламоқдалар.* (Ойбек) *Ботирлари канал қазади, шоирлари газал ёзади.* (Ҳ.Олимжон) *Соҳибқироннинг бугдоирранг юзи хиёл қорайди, кўзлари катта-катта очилди.* (М.Али) *Аввал улар бизга етиб олишисин, кейин бирга жўнаймиз.* (Ҳ.Тўхтабоев) *Сидиқжон тўхтади, орқасидан кимдир келаётган эди.* (А.Қахҳор)

17. Боғланган қўшма гап таркибидаги гаплар ўзаро аммо, лекин, бироқ каби зидловчи боғловчилар билан боғланганда, бу боғловчилардан олдин вергул қўйилади: *Кунлар илиб қолган, аммо ердан ҳали қишининг заҳри кетмаган.* (Ў.Хошимов) У худди шу шаҳарга келаётган йўловчидай чаққон тушибди, лекин қаерга келганини ҳали билмасди. (А.Мухтор) *Ҳаво айтарли совуқ эмас, бироқ кучсиз изгирин баданни жунжиктиради.* (Т.Малик) *Ҳаммасини тинглардим, аммо Ўхшишини топмасдим асло.* (Ҳ.Олимжон)

18. Боғланган қўшма гап таркибидаги гаплар ўзаро -у (-ю), -да юкламалари воситасида боғланганда, бу юкламалардан кейин вергул қўйилади: *Мевасини енг-у, богини суриштирманг, жонидан!* (О.Ёқубов) *Термометр ҳамиширанинг қўлидан тушиб кетди-ю, бир томчи симоб ялтираб полга думалади.* (С.Аҳмад) Зум ўтмай қўлини ювиб чиқди-да, меҳмонларни кутиб олиш учун шошилди. (Ў.Хошимов) *Лўли йигит Ҳикматиллонинг кафтини чап қўлига олиб, ўнг қўли билан шарақлатиб урди-да, поездга қараб югуриб кетди.* (О.Ёқубов) Бу ҳолат мазкур юкламалардан кейин зидловчи боғловчилар қўлланганда ҳам сақланади: *Бу ҳолат шув этиб ўтиб кетди-ю, лекин кайфиятимни бузди.* (А.Аъзам) *Соқчилар яқинлашаётган қора шарпани кўришиди-ю, аммо ухлаб қолганларини ўзлари ҳам сезишмади.* (Т.Малик)

19. Боғланган қўшма гап таркибидаги гаплар ўзаро такрорланган айирувчи боғловчилар (ё..., ё...; гоҳ..., гоҳ...; дам..., дам... каби) билан боғланганда, такрорланаётган боғловчиidan олдин вергул қўйилади: *Ё меҳмон келганини билмайди, ё ўзини билмаганликка солади.* (Н.Жалолиддин) *Дам жаҳлим чиқади, дам кулгим қистайди.* (Ойбек) *Нури гоҳ севиниб, ширин хаёлларга боради, гоҳ бутун вужудини қўрқув босади.* (Ойбек) *Гоҳ катта шаҳарларга бориб қоламан, гоҳ дарёларда сузаман.* (Ў.Хошимов)

20. Боғланган қўшма гап таркибидаги гаплар ўзаро такрорланган инкор боғловчиси (*на...*, *на...*) билан боғланганда, такрорланаётган боғловчиidan олдин вергул қўйилади: *На биронта одамнинг шарпаси кўринди, на бир шитирлаган товуш эшишилди.* (Ў.Умарбеков) *На савдо-сотик қиласди, на дехёнчиликка уринади, на косиб-хунармандлик пешасини тутади.* (Чўлпон)

21. Эргашган күшма гапларда эргаш гап бош гап билан чунки, негаки, шунинг учун, гүё каби боғловчилар ёки боғловчи воситалар билан боғланса, улардан олдин вергул қўйилади: Улар менинг айтганимни қилишиади, чунки мен оиласизнинг кенжатойиман. (Э.Аъзам) Ҳозирча шундай деймиз, негаки унинг ўзи шу учрашивни узоқ вақтгача баҳтим деб юрди. (Ў.Умарбеков) У Мингбулоқقا келганидан хурсанд, шунинг учун хаёллари Мингбулоқдек тиник эди. (Ў.Умарбеков) Тамара саҳнада қушибай учади, гүё гўзал товус ўйнаб учади. (Ғ.Ғулом)

22. Эргаш гап бош гапга -ки ёрдамида боғланса, ундан кейин вергул қўйилади: Одам боласи борки, барҳаётликни орзу қиласи. (И.Султон) Бу ҳол шу қадар тез содир бўлдики, Шавкат бирон нима тушунишига ҳам улгурмади. (Ш.Бошбеков) Шуни мамнуният билан таъкидлайманки, менинг касб танлашимга отамнинг дўмбираси сабабчи бўлган. (М.М.Дўст)

23. Кесими шарт майлидаги феъл (-са қўшимчасини олган) билан ифодаланган эргаш гапли күшма гапларда мазкур кесимдан кейин вергул қўйилади: Касални яширсанг, иситмаси ошкор қиласи. (Мақол) Қаерда аҳиллик бўлса, ўша ерда қутбарака бўлади. (“Тафаккур гулшани”) Ким ялқов бўлса, унинг қўлида обод ер ҳам хароб бўлади. (С.Абдулла) Кўзига нима кўринса, шу уни қизиқтира бошлади. (Ойбек) Дунёда қандай яхшилик ва хайриятилик бўлса, ҳаммасини шу биргина қизи учун истар ва орзу қиласи. (Чўлпон)

24. Тўсиқсиз эргаш гапларнинг кесими (-са ҳам шаклида ифодаланган)дан кейин вергул қўйилади: Шаҳодат хола

күнглида қарши бўлса ҳам, эрининг раъйини қайтара олмади.  
(Ў.Умарбеков) Ярим тунда ётса ҳам, эрталаб тонг отар-отмас  
уйгонар эди (П.Қодиров) У ўғлининг тиришиб ўқиётганини билса  
ҳам, талабни янада қаттиқроқ қўяверарди. (Т.Малик)

25. Эргаш гап бош гапга деб воситасида боғланса, ундан  
кейин вергул қўйилади: *Ҳовлидаги супага тўшалган бўйра устига*  
*ёйилган туршакларни қуши таламасин деб, қўриқлаб ўтиредим.*  
(Ў.Хошимов) *Ватан учун жсангга бор деб, қурол бердим қўлингга.*  
(Ҳ.Олимжон) *Юбкага мос тушсин деб, йўғон поинали қора*  
*амиркон туфлисини ҳам берди.* (Ў.Умарбеков)

26. Баъзан деб шакли гап таркибида *сабабли, туфайли,*  
учун каби ёрдамчи сўзларнинг синоними каби қўлланади, бундай  
ҳолатларда деб сўзидан кейин ҳам, олдин ҳам вергул қўйилмайди:  
*Арзимаган ошиқ-маъшуқнинг хати деб бутун почта овора бўлади.*  
(Ў.Умарбеков). *Юр, сени деб мен ҳам кечикяпман.* (А.Намозов)  
Бу дунё деб у дунёни баҳосиз пулга сотдим-ку. (Чўлпон)

– Нега... Нега ўлдирибди?

– Сизнинг ишингиз деб.

– Менинг ишим? – ҳайрон бўлди Раҳим Саидов.

– Ҳа. И-109 С деб. Улар препаратингизни ё ўғирламоқчи,  
ё йўқ қилмоқчи бўлишган. Хотинингиз... Мунисхон бош тортган.  
(Ў.Умарбеков)

27. Баъзан деб шакли гап таркибида *сифатида ёрдамчи*  
сўзининг синоними каби қўлланади, бундай ҳолатларда ҳам деб

сўзидан кейин ҳам, олдин ҳам вергул қўйилмайди: Уйга ҳам, хотинига ҳам ўз институтининг, ўз ҳаётининг бир қисми деб қарапди. (Ў.Умарбеков) Саид буни совгалиарнинг дебочаси деб биларди. (У.Ҳамдам) Усенга одам деб қарайди. (Чўлпон) Албатта, бу унга Миразим олдида ўзини гуноҳкор деб ҳис этмаслиги учун етарли эмасди. (У.Ҳамдам)

## 2. Нуқтали вергул

1. Гапда уюшиқ бўлаклар меъёридан ортиқ кўп бўлганда, уларни муайян бир тарзда гурухлаб бериш зарурати туғилади ва айни шу гурухларнинг ҳар бири нуктали вергул билан ажратилади: *Демак, бу дараҳт рўдано бояр чопонларини ѧипча камзул, ясама соchlарни; қора фрак ва џилиндрлару чарм куртка ва будёновкаларни; шалвираган иштонлару торпоча шимларни кўрган.* (Р.Ҳамзатов)

2. Муайян тасниф таркибидаги тартибни билдирувчи рақамлар (ёки ҳарфлар) ярим қавс билан ажратилган бўлса, улар билан кўрсатилган сўз, сўз бирикмаси ва гаплар охирига (энг сўнгисидан ташқари) нуктали вергул (баъзан вергул) қўйилади: *Нутқ ҳам тил ва ёзув каби икки хил шаклга эга: а) оғзаки нутқ; б) ёзма нутқ.* (“Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслиги) *Тўлиқизз гаплар бир қанча кўринишда бўлади:*

- 1) эга айтилмаган бўлади <...>;
- 2) кесим айтилмаган бўлади <...>;
- 3) эга ҳам, кесим ҳам айтилмаган бўлади <...>;
- 4) иккинчи даражали бўлаклар айтилмаган бўлади <...>.

(А.Ғуломов)

3. Боғловчисиз ёки мураккаб қўшма гап таркибидаги гаплар мазмунан сезиларли мустақил бўлиб, бир-бирига мазмунан бевосита яқин бўлмагандан, одатда улар орасига нуқтали вергул қўйилади: *Ҳамиданинг боши оғирлашиб кетди; икки марта секин, оғзини очмасдан эснади.* (А.Қаҳҳор) *Фақат пашиша гингиллайди, бемор инқиллайди; ҳар замон яқин-йироқдан гадой товуши эшишилади.* (А.Қаҳҳор) *У отаси сингари баланд бўйли, кенг ягринли; отда кўп юргани учун оёғини кериб ташлайди, овда кўп бўлганидан фикрини қўл ҳаракати билан ҳам тушунтириб гапиради.* (Ш.Холмирзаев)

4. Боғловчисиз ёки мураккаб қўшма гап таркибидаги гаплар бир нечта бўлса, уларнинг мазмунан бир-бирига яқинлари вергул билан ажратилиб, қолган муайян бир ёки бир нечтаси нуқтали вергул билан ажратилади: *Хотин узоқ йиғлади, эрига қаттиқ гапирганига пушаймон бўлди, ўзини қаргади, ўлим тилади; йигидан толиб, ташқарига чиқди.* (А.Қаҳҳор) *Унсин кўкрагига ниҳоятда оғир бир нарса билан урилгандай кўнгли озиб тентираб кетди-ю, йиқилмади, лекин оёқ узра туриб ҳушидан кетди; орадан қанча вақт ўтганини билмади, кўзини очиб қараса, жонвор елкасидан тушшити, эмаклаб бояги сагананинг орқасига ўтиб кетди.* (А.Қаҳҳор) *Йигит почасини шимариб олган, иккиси ҳам офтобда пишиб, юзлари бўғриқиб кетган; булоқни топиб бориб, узала тушганча роса сувга тўйишиди, юзларини чайиб, бир-бирларига сув сачратиб ўйнашиди, яйраб кетиб, холи жойда эканликларини унутшиди, шекилли, худди ўз уйларидағидай қийчув қилишиди.* (А.Мухтор)

5. Боғловчисиз ёки мураккаб қўшма гап таркибидаги гапларда ифодаланган воқеа-ҳодисаларни солиштириш, киёслаш

мазмуни аник ифодаланганда, улар орасига нуктали вергул қўйилади: *Баъзилар уларнинг жуда-жуда иноқ яшашиларини айтишармиш; баъзилар эса аксинча, гап тарқатишарканки, осмондан тушиб, ердан чиққандек кўпайишиб кетган одамларнинг бир-бирларини кўришига кўзлари, отишга ўқлари йўқ.* (Ш.Бўтаев) *Ховузни ўраган пастак девор ортидаги тош кўчадан қачон ўтсангиз, чангалзордан қушлар чуғурини эшиласиз; ҳовузнинг у тарафидаги супада эса оқ туғи ўнгиб кетган танҳо қабр кўриниб туради.* (Ш.Холмирзаев)

6. Бир қанча гаплар уюшгандай бўлиб, яхлит бир боғловчисиз қўшма гапни ташкил этганда, улар орасига нуктали вергул қўйилади: *Раззоқ сўфининг совуқ юзлари унинг кўзларидан йироқлашган; насиҳат йўли билан мингларча марта айтилган ва таъкидланган сўзлар унумилган; совуқ сўфиларнинг “ҳаром” деган даъволари синиб, парча-парча бўлган; “номаҳрамлик” сафсаталари от оёқлари остида янчилган; тўрт деворнинг бу тутқун қизи ўзига ўхшаган тутқунлардан бошқа ҳеч бир гувоҳ ва тилчи бўлмаган шу кенг даланинг қулоч етмас бағрида йиллардан бери туғилиб келган аламларини куйга айлантириб, чексиз бўшлиқларга ёйиб юборган эди.* (Чўлпон)

### 3. Тире

1. От кесим от, сон, олмош, ҳаракат номи, тақлидий сўзлар ёки улар ҳоким бўлган сўз бирикмалари билан ифодаланиб, боғламасиз қўлланганда, эга ва кесим орасига тире қўйилади: *Улуғ устозларим сўзи – қоида.* (И.Мирзо) *Ўғилни уйлантириши – отанинг вазифаси.*(А.Мамарасулов) *Үйқу – умрнинг таноби!* (Чўлпон) *Самарқанд – оламнинг сайқали, кўрки.* (И.Мирзо) *Бу*

– ҳайвонларга хос бўлмаган хислат. (Ҳ.Шайхов) Дунё гўзали – сен, қадоққўл синглим. (И.Мирзо) Икки ўн беш – бир ўттиз. (Мақол) Лекин ҳозир бизни қийнаётган бирдан-бир масала – сиз билан бевосита фикр алмашиш методикасини аниқлаши. (Ҳ.Шайхов) Оёқ ости – “чилип-чилип”, Зирқираиди эски яралар... (А.Мухтор) Шабнам, бу – тунда ой тўккан аччиқ ёш, Ҳовур, бу – қуёшнинг кўксига алам. (И.Мирзо)

2. Аммо от кесим инкор шаклида (яъни ундан кейин инкор ифодаловчи эмас сўзи келган) бўлса, эга ва кесим орасига тире қўйилмайди: Ҳар қалай, эр хотиннинг югурдаги эмас. (А.Мамарасулов) Салим Каримович ёмон одам эмас. (О.Ёқубов) Одам боласи қуён эмас-ку! Йилига ўн-ўн бештадан туғса. (С.Аҳмад)

3. Агар эга билан от кесим орасида кириш сўз, ундовлар келса, улар орасига тире қўйилмайди: Рашик, аввало, кучли муҳаббат белгиси. (Ў.Хошимов) Тантана қаҳрамони, албатта, Баҳром Фаранг. (М.Хўжаев)

4. Эга билан от кесим орасида ҳам, фақат каби юкламалар келган бўлса, от кесимдан олдин тире қўйилмайди: Раҳмат ҳам ўқитувчи. Велосипед ҳам транспорт воситаси. Менинг билганим фақат Суннатуллаев. (Т.Малик)

5. От кесимли гап тилда идиоматик, фразеологик ибораларга айланиб қолган бўлса, эга ва от кесим орасига тире қўйилмайди: Инсоннинг қўли гул. (Мақол)

6. Эга кишилик олмошлари билан ифодаланганда, одатда от кесимдан олдин тире қўйилмайди: Сен Лутфийнинг сўлим газали. (А.Орипов) Сен уруши қатнашичиси. (Т.Мурод) Аммо

қаршилантириш маъноси воқеланганда, тире қўйилади: *Мен – ўқитувчи, сен – талаба.*

7. От кесим (ёки эга) сўрок олмошлари билан ёки юкламали сўзлар билан ифодаланганда, эга ва от кесим орасига тире қўйилмайди: *Дўстинг ким? Дўстинг нечта? Тўй қачон? Ораларингда чакқон ва билагон Ботирми? Сув сенинг шахсий мулкингми?* (Э.Аъзам)

8. От кесим сифат, равиш, тартиб сон ёки эгалик олмоши билан ифодаланганда, эга ва кесим орасига тире қўйилмайди: *Далалар кўм-кўк. Ҳаво тоза, мусаффо, зангор.* (Э.Воҳидов) *Иссиги баланд, алаҳсирайди.* (Т.Малик) *Аммо Мирёқуб аканинг юриши кўп!* (Чўлпон) *Ўша амал сеники, хижолат тортма.* (А.Намозов) *Мана шу уй-жой туриши-турмиши билан сеники.* (Т.Мурод) *Эти сизники, суяги меники, деб уйига ташлаб келаман.* (С.Аҳмад) *Менинг ўғлим ҳамиша биринчи...* (Т.Мурод)

9. Макон, замон ва миқдор чегаралари (“...дан ...гача”)ни кўрсатувчи сўзлар орасига тире қўйилади: *Андижон – Ўши йўлини қуюқ туман босган.* (С.Аҳмад) *XII – XVI асрларда бу шаҳар Ясси деб юритилган.* (Н.Каримов) *Ёши Миртемирнинг эски мактабда ўқиган даври 1914 – 1915 йилларга тўгри келади.* (Н.Каримов)

10. Гапда уюшиқ бўлаклардан кейин келган умумлаштирувчи сўздан олдин тире қўйилади: *Ёзувчининг шахсига, қанақа асарлар ёзаётганига, қандай ёзишига, ҳатто кечаси ё кундузи ёзишигача – ҳамма-ҳаммасига қизиқадилар.* (С.Аҳмад) *Овозидаги бояги болаларча ҳайрат, уйқусиз кўзларида порлаган қувонч, батареяларни силагандаги бўлакча*

*мөхр – ҳаммаси бирдан сўниб, овозида, хатти-ҳаракатларида кутмалмаган бир ҳоргинлик пайдо бўлди. (О.Ёқубов)*

11. Гапда умумлаштирувчи сўздан кейин келган уюшиқ бўлаклар аниқлаштириш, изоҳлаш, илова мазмунига эга бўлса, умумлаштирувчи сўздан кейин икки нукта эмас, балки тире қўйилиши мумкин: *Оллоҳ таоло бул юлдузларни уч мақсадда – осмонга зийнат, шайтонларга отиладирган тош ҳамда бандаларига йўл қўрсатувчи аломатлар бўлмоғи учун яратди.* (Н.Жалолиддин) *Айтиб бераверса барчага барин – Омаду жудолик ва ёнганини, Раиш, умид, алами ва афсусларин, Алдагани, қувонганини.* (А.Мухтор) *Зотан, зиёликка бир қараганингиздаёт унда узок асрлар мобайнидаги мураккаб тараққиёт жараёнида юзага келувчи фикрловчи мавжудотга хос ҳамма сифатлар – ақл, фаросат, баҳодирлик, кўтариинки руҳ, олийжсаноблик, юмор ва ҳоказоларни пайқаб олиши сира қийин эмасди.* (Ҳ.Шайхов)

12. Гапда умумлаштирувчи сўздан кейин келган уюшиқ бўлакларни кучли таъкидлаш зарурати мавжуд бўлган ёки улар ажратилган изоҳловчидай қўлланган ҳолларда уюшиқ бўлаклар икки томонидан тире билан ажратилиши мумкин: *Судда жуда кўп нарсалар – терговчиларнинг жинояткорона хатти-ҳаракатларию дастлабки суднинг юзакилиги, тергов ва суднинг протоколидаги қалбакиликлар – аниқ исботлар билан фош қилинди.* (Н.Аминов) *Иккала ёш – юзлари кулган, кўнгиллари ёзилган – қўлтиқлашиб айвонга бордилар.* (Чўлпон)

13. Гапда аниқлаштириш, изоҳлаш мазмунидаги ажратилган бўлаклардан олдин тире қўйилиши мумкин:

*Гангренага – қорасонга айланиб кетса нима бўлади? (С.Аҳмад)  
Бу масалани ҳал этиши, чамаси, ҳушёр, довюрак, идрокли, ақли  
расо, истеъдоодли ёшларимиз – келажак авлодлар зиммасига  
тушади. (М.Ҳасаний) Алибек энг асосийси – мажсақланган инни  
ерга ташлагандан кейин дарҳол тепкилаш кераклигини эсдан  
чиқарган экан. (А.Мамарасулов) Ҳалқаро савдо йўли – Буюк ипак  
йўли Темур ва темурийлар даврида жуда серқатнов бўлган.  
(Б.Аҳмедов) Ташқарида – гулзор томонда эса ола қоронгилик  
ҳукм сурарди. (Чўлпон)*

14. Ажратилган бўлакларни гапда алоҳида таъкидлаш зарурати бўлганда, улар ҳар икки томонидан тире билан ажратилиши мумкин: *Той ҳаммадан узоқдан – Бешқўргондан –* ўзига ўхшаш ювоши сигирини олдига солиб келарди. (Ў.Ҳошимов)  
*Ойим кўп тайинлагани учун биз – болалар – унга тегмасдик.* (Ў.Ҳошимов) *Шуҳрат Салимович – менинг собиқ ёрдамчим,* медицина фанлари кандидати, доцент – хонамга кириб келди. (Х.Шайхов) *Шу топда унинг жуда эҳтиёт билан – ҳеч бир шарпа чиқармай – босган қадамларининг бўшанг шитирлаши ҳам ўтирганларга малол келган каби эди.* (Чўлпон)

15. Кириш ва киритма бирликлар гапда ҳар икки томонидан тире билан ажратилиши мумкин: *Биттаси – уларнинг каттаси* бўлса керак – ёнидаги шеригига “бешикни йўқот” дегандай ишора қилди. (Ш.Бошбеков) *Чақалоқ – тонгги салқинда совуқ қотганми* ё қорни очганми – бигиллаб ииғларди. (Ш.Бошбеков) *Гулмиранинг онаси – оғзи тўла тилла тиши, пакана, семиз аёл – бармоқлари* билан столни асабий чертиб ўтирибди. (Ш.Бошбеков) *Абдулҳамид Сулаймон ўғли – бояги ўн тўққиз яшар йигит – шундай хатти-ҳаракатга журъат этганди.* (Н.Каримов) *Мирёқуб – бир жойда*

*бир нафас ўтиrolмайдиган нарса – олти-етти кундан бери мингбоши ёнидан жилмайди. (Чўлпон)*

16. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида ўхшатиш муносабати ифодаланганда, улар орасига тире қўйилади: *Ҳамал келди – амал келди.* (Мақол) *Қор ёғди – дон ёғди.* (Мақол) *Юлдуз ўчади – Йўқлик дунёсига кўчади.* (А.Мухтор)

17. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида саволжавоб муносабати ифодаланганда, шунингдек, фақат биринчи қисми саволдан иборат бўлганда, улар орасига тире қўйилади: *Атрофда нима кўп – кимё заводлари кўп.* (Ҳ.Шайхов) *Етимлик нима – мендан сўрайвер.* (Ш.Бошбеков) *Хаёлидан не ўйлар ўтди – ёлғиз худога аён.* (Ш.Бошбеков)

18. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида зидлаш, каршилантириш муносабати ифодаланганда, улар орасига тире қўйилади: *Юлдузларни хаёлида ҳар хил рангга бўяб кўрди – юлдузлар ўз рангига хира милтиллаб тураверди.* (А.Мухтор) *Ит ҳуради – карвон ўтади.* (Мақол) *Жисмимиз йўқолур – ўчмас номимиз.* (Ҳ.Олимжон)

19. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида шарт муносабати ифодаланганда, улар орасига тире қўйилади: *Бировга айта кўрманг – икковимиз ҳам балога қоламиз.* (С.Аҳмад) *Тўғри бўлинг – бехавотир бўласиз.* (Мақол) *Қўшининг тинч – сен тинч.* (Мақол) *Одамларни бириктириш – ҳар бирининг юрагида бўрон қўзгалади.* (Ойбек)

20. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида сабабоқибат, асос-хулоса муносабати ифодаланганда, улар орасига тире қўйилади: *Сен борсан – мен учун бу ҳаёт гўзал, Сен борсан – мен учун дилбар коинот.* (А.Орипов) Энди нима бўлиб шундоқ

бўлганини айтиб ўтиришига фурсатим йўқ – идорада одамлар кутиб ўтирибди. (А.Қаххор) Уйда қадам босгани жойи йўқ – ҳамма ёқ ўйинчоқ. (Ш.Бошибеков) Кейинги кунларда дарё қиргогини чумчук босиб кетди – канал мираблари суви чекиниб, очилиб қолган оролчаларга шоли экишган. (С.Ахмад) Қарасам, оишона томондан гуп-гуп этган товуши келяпти – ойим ўғирда толқон қиляпти. (Ў.Хошимов) Нариги томонда тарақ-туруқ бошланди – қурувчилар ишга тушибилар. (Н.Жалолиддин)

21. Боғловчисиз қўшма гап қисмлари орасида пайт муносабати ифодаланганда, улар орасига тире қўйилади: *Арава нотинчбўлди–қўшиқулоқдагисутчайқалади, тўқилади.* (А.Қаххор) Ён тарафдаги салобатли эшик оҳиста очилди – ёрдамчи керакли қозозларнинг барчасини олиб киради. (А.Тошматов) Чала-чулпа у гапирди – мен англашим, чин кўнгилдан мен гапирдим – у англади. (Чўлпон)

22. Боғловчисиз қўшма гапнинг иккинчи қисми изоҳ, илова характеристига эга бўлса, улар орасига тире қўйилади: *Эслади – у севгилиси Лайли ҳақида гапирганди.* (Н.Жалолиддин) Унинг саркаши феъли бор эди – бироннинг ўзига бўлган муносабатининг маъносини ойдинлаштирмагунча тинчимасди. (Н.Жалолиддин)

23. Боғловчисиз қўшма гап таркибидаги иккинчи гапнинг кесими тушиб қолган ҳолларда икки гап вергул билан ажратилиб, иккинчи гапдаги эгадан кейин тире қўйилади: *Тўргай даштда куйлар, булбул – чаманда.* (И.Мирзо) *Олтин ўтда билинади, одам – меҳнатда.* (Мақол) Яхшидан от қолади, ёмондан – дод. (Мақол)

24. Кўчирма гапли қўшма гапларда муаллиф гапидан олдин тире қўйилади. (“Кўчирма гапли қўшма гапларда тиниш белгилари” деб номланган қисмда бу ҳақда батафсил айтилади.)

25. Диалогларнинг репликалари кетма-кет бир қаторда эмас, балки уларнинг ҳар бири алоҳида абзац шаклида янги қатордан берилса, репликалар олдидан тире қўйилади:

- Жадидинг нимаси? Нима деган гап ўзи?
- Мактабини ёптирган вақтингизда айтиб берган эдим-ку.
- Эсда қолган дейсанми?
- Жадид дегани “янги” дегани бўлса керак. Юрт орасида янгиликни расм қиласмишлар... Янги ўқиши, янги мактаб, янги урф-одат, янги кийим – ҳар нарса янги...
- Эскича бўлса, кимга зарари тегар экан?
- Унисини билмадим... Ишқилиб, жадидларнинг қасди шу эмиш... (Чўлпон)

#### 4. Икки нуқта

1. Муайян фикр-мулоҳаза, хукм, илмий таъриф, қоида кабиларни ифодаловчи гаплардан кейин айни фикр-мулоҳаза, хукм, таъриф, қоидаларнинг тўғрилигини асослаш учун келтирилган бирдан ортиқ далилий фактларни таъкидлаб кўрсатиш максадида икки нуқта қўйилади: *У(гап) эга ва кесимдан ёки эга-кесим ва иккинчи даражали бўлаклардан иборат бўлади: Саида кулди. Қаландаровнинг кўзлари олайиб кетди.* (А.Қаҳҳор)  
*Тонг. Ҳаво салқин. Юмшоқ шамол майингина эсиб турибди.* (А.Фуломов)

Баъзан бундай ҳолларда мазкур гаплардан кейин *масалан, мисол, далил, чунончи* каби сўзлар қўлланиши мумкин, бунда икки

нуқта айни сўзлардан кейин қўйилади: *У (гап) эга ва кесимдан ёки эга-кесим ва иккинчи даражали бўлаклардан иборат бўлади.* Масалан: *Саида кулди. Қаландаровнинг кўзлари олайиб кетди.* (А.Қаҳҳор) *Тонг. Ҳаво салқин. Юмшоқ шамол майингина эсиб турибди.* (А.Ғуломов)

2. Таснифлаш қолиплари акс этган гапларда тасниф асосини ифодаловчи гапдан кейин таснифланган бирликларни таъкидлаш учун икки нуқта қўйилади: *Боғловчи воситаларсиз бириккан қўшима гап ўз таркибидаги қисмларнинг муносабати жиҳатидан икки хил бўлади:* 1) тенг қисмли қўшима гап; 2) тобе қисмли қўшима гап. (М.Аскарова)

3. Уюшиқ бўлакли гапларда умумлаштирувчи сўз бу бўлаклардан олдин келса, умумлаштирувчи сўздан кейин икки нуқта қўйилади: *Бу сирни фақат уч киши: Абдулла, ўзи ва Самад биларди.* (Ў.Умарбеков) *Ичкаридагилар: чақалоқнинг ота-онаси, ота-акалари, Шавкатнинг иккита шериги ҳам қулаб тушган том тагида қолиб кетди...* (Ш.Бошибеков) *Киши бўйи аллақайси гўр осталарида жунжисб чиқсан қуши зотлари: чумчуқлар, читтаклар, тўргайлар, саъвалар ва бошқа аллақанча қуши туркумлари ўз тўплари билан вижир-вижир, чугур-чугур сайраб куладирлар.* (А.Қодирий)

4. Баъзан уюшиқ бўлакларни алоҳида таъкидлаш мақсади билан улар гапдан ташқарига чиқарилади, бундай ҳолларда бевосита умумлаштирувчи сўздан кейин эмас, балки асосий гапдан кейин икки нуқта қўйилади: *Лекин ундан қимматли нарсалар ҳам бор: обрў, вижсон, ақл, маданият.* (Ў.Умарбеков) *Диван олдидағи уч оёқли столчада талай қоқмевалар турибди:*

чақилган ёнгоқ, бир ҳовуч түршак, бир ҳовуч қора кишиши.  
(Ш.Холмирзаев) Сизларга фақат шулар керак: ейши, ичиши,  
кийиниши, пул... (Ш.Холмирзаев) Абдулла күпrikка етганды,  
Гулчехранинг эшигидан икки кишининг ҳовлиқиб чиққанини күрди:  
биттаси Самад, биттаси эса Гулчехра эди. (Ү.Умарбеков) Эркак  
зотининг бари бир хил: Америкада ҳам, ўша Афғонида ҳам!  
(Э.Аъзам)

Гапда умумлаштирувчи сўз бўлмаган ҳолларда ҳам  
асосий гапдан кейин уюшиқ бўлакларни таъкидлаш учун икки  
нуқта қўйилади: *Мана шу қизил “Жигули”дамиз: хотиним,*  
*ўглим, қизим.* (Ш.Холмирзаев) Чиқиб келдилар қатор: *Данте,*  
*Шиллер ва Байрон, Фирдавсий, Бальзак, Тагор.* (Э.Вохидов) У  
таниди: *отаси, Ҳафиз, Убайдулла ака...* яна қандайдир аёллар.  
(Ү.Умарбеков)

5. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги  
қисмдаги олмош (ёки олмошга вазифадош *сўз, гап, одат, нарса,*  
*томон, фикр* каби мазмуни тавсифланиши лозим бўлган сўзлар)  
билин ифодаланган ёки ифодаланмаган эганинг мазмунини  
изоҳлаб, аниқлаб келса, олдинги қисмдан кейин икки нуқта  
қўйилади: *Фақат шу эсида: эртаси куни кўзини очганда, ёнида*  
*Собиржон* йўқ эди. (А.Қаххор) *Масалан, қадимдан қолган гап*  
*бор: овчи кийикдан битта отиши керак...* (Ш.Холмирзаев) Унинг  
галати одати бор эди: бирор билан суҳбатлашганда, кўзойнаги  
бор-йўқлигидан қатъи назар, худди кўзойнак тагидан қарагандай  
гаплашарди. (Ш.Бошбеков) *Милицияга бир нарса қоронги* эди: *у*  
*тасодифан тушиб кетганми ё ўзини ташлаганми?!* (Ү.Умарбеков)  
*Пишимаган ёнгоқнинг битта яхши томони бор:* оғир бўлади.

(Ў.Хошимов) Ўшанда унинг хаёлига ёмон фикр келди: машина хотинини ёки ўзини босиб кетганда нима бўларди? (Ў.Умарбеков)

6. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги қисмдаги олмош (ёки олмошга вазифадош сўз) билан ифодаланган кесимнинг мазмунини изоҳлаб, аниқлаб келса, олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Бу докторхона тўғрисида Сотиболдининг билгани шу: салқин, тинч паркда, дараҳтлар ичига қўмилган баланд ва чиройли оқ иморат; шиша қабзали кулранг эшигига қўнгироқ тугмаси бор.* (А.Қаҳҳор) Мен олдинга сурاء́тган фикрнинг қисқача мазмуни шу: инсон тугилишидан қобилиятсиз бўлмайди. (Э.Воҳидов) Энди гап бундай: бугундан бошлаб сиз олкеган ҳаромов қатингизни ямемайман. (Ш.Бошбеков) Равон йўл битта шу: бу ҳам яхмалак. (А.Орипов) Эркак киши ўзи шунаقا: бир кун уйда бўлса, ўн кун кўчада. (Ў.Умарбеков) Орзум шул: ўчмасин ёнган чирогинг. (А.Орипов)

7. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги қисмдаги олмош (ёки олмошга вазифадош сўз) билан ифодаланган ёки ифодаланмаган тўлдирувчининг мазмунини изоҳлаб, аниқлаб келса, олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Сўнгра мен бир нарсани кўрдим, аниқроғи, ишондим: бизнинг ўзбек болалари яхши уришар экан!* (Ш.Холмирзаев) Матлуба ўшанда яна бир нарсани кўнглига қаттиқ тугди: ўқиши керак! (О.Ёқубов) Муовинимга айтинг: ўрнингизга бошқа бирорни тайинласин! (О.Ёқубов) Сизни ишонтириб айтаман: қаерда бўлмай, доим сизни ўйлайман. (Ў.Умарбеков)

8. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм сўроқ шаклидаги гапдан иборат бўлиб, олдинги қисмдаги ифодаланган

ёки ифодаланмаган тўлдирувчининг мазмунини очишга хизмат қилганда, олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Лекин мен бир нарсани ўйлаб қолдим: болангни нима қиласан?* (А.Қаҳҳор) Энди сиздан шуни ҳам сўрайин: *хўжасига содик бир қул, сизнинг таъбирингизча, маънавий бир падар ўз ўғлига ёмонлик согинарми?* (А.Қодирий) *Худойимни ўртага қўйиб айтинг: астойдил дўстмисиз?* (Чўлпон) *Айтаман-у ўйлайман: онанинг ёши-қариси бўладими?* (Ў.Хошимов) *Сиз ҳам ётиги билан гапириб беринг: нимага ташқаридан кирап-кирмас, Зебини сўрадингиз?* (Чўлпон) Энди бир бошдан гапириб бер: *ким нима деди, нима қилди?* (Ш.Бошбеков)

9. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги қисмда ифодаланган воқеа-ҳодисанинг сабабини билдирса (икки гап орасига чунки боғловчисини қўйиш мумкин бўлса), олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Соат 12 да институтда бўлишим керак: дарсим бор.* (Ш.Холмирзаев) *Ўзингга қийин бўлади: учта боланг бор, қўлингда ҳунаринг йўқ...* (А.Қаҳҳор) *Пакавира қувониб кетди: икки ман олтин ҳазилакам бойлик эмас, бунга янги бир кема сотиб олиши мумкин!* (П.Қодиров) *Лекин анча вақт шаҳарда қолиб кетдим: Яккачинорга борадиган биронта ҳам машина йўқ эди.* (Ў.Умарбеков) *Янглишасиз: мен кўкларга беркинган Ер қизидан хаёлимни олмаймен.* (Чўлпон)

10. Боғловчисиз қўшма гапда олдинги қисм кейинги қисмда ифодаланган воқеа-ҳодисанинг сабабини билдирса (икки гап орасига шунинг учун боғловчи воситасини қўйиш мумкин бўлса), олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Омон овчининг ов саргузаштлари кўпларни қизиқтираарди: кўплари*

ҳикоя эшиитиши учун келарди. (Ш.Холмирзаев) У ҳалиги юксак қаҳқаҳани эшиитгач, унинг маънисини англади: югуриб Зебининг ёнига кирди. (Чўлпон)

11. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги қисмда ифодаланган воқеа-ҳодисанинг натижасини, оқибатини билдирса, олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Кейин у ёқقا чопдим-бу ёқقا чопдим: уч-тўрт қоп цемент топдим.* (Ш.Холмирзаев) У чидаёлмади: *сўричадан туриб келиб, уй дарпардаларидан бирининг тақкинасига ўтиради.* (Чўлпон) *Истиқлол йилларида бизда Навоийга муносабат давлат сиёсати даражасига кўтарилди: шоур янгидан қадр топди, шон-шуҳрат шоҳсупасига кўтарилди.* (Э.Очилов)

12. Боғловчисиз қўшма гапда кейинги қисм олдинги қисмдаги олмош (ёки олмошга вазифадош сўз) билан ифодаланган ёки ифодаланмаган аниқловчининг мазмунини изоҳлаб, тўлдириб келса, олдинги қисмдан кейин икки нуқта қўйилади: *Эй Саломхон, бу эишон поччамнинг ўғиллари бир йигит бўлди: ўқтамликдаям, суқсурлиқдаям тенги йўқ.* (М.Мансур) *Шоурлардан доимо талаб: Ўқимоги керак янги шеър Ва айтмоги керак янги гап.* (Э.Воҳидов) *Сиздан бугун биргина ўтинч: Ёлгиз қўйинг мени, дўстларим.* (Э.Воҳидов) *Адолатхондан хунук бир хабар келди: у Самарқанддаги мактабни битириб, Тошкентга кетибди.* (А.Қаҳҳор)

13. Қўшма гапнинг олдинги қисмида *кўрмоқ, қарамоқ, дикқат қилмоқ, эшиитмоқ, билмоқ, тушунмоқ, сезмоқ, эсламоқ* каби феъллар қўлланиб, кейинги қисмда келадиган муайян

факт баёни ёки муайян тавсифга семантик ишора қилиб турса, ҳар икки қисм орасига икки нүкта қўйилади: Эртасига кўрдим: ишком бошида ёлгиз бир туп шафтоли қийгос гуллаб чиқибди. (М.Мансур) Аввал ёши хотиннинг кўзларига қаради: ҳоргинлиги, уйқусираганлиги очиқ кўриниб турарди. (Чўлпон) Диққат қилдим: кўнглида ажисб бир олов ёна бошлаганга ўхшайди. (Чўлпон) Рангидан сезган эдим: машшатининг мазаси йўқ. (Ш.Холмирзаев) Ўзим ҳам билган эдим: катта омбурга чап бериб бўлмайди. (А.Қаххор) Муҳаммад Чурога доддоҳ эслади: беш йил аввал Самарқандда Боги Биҳишт меҳмонхонасида ҳам худди шундай воқеа юз берганди. (М.Али) Булар дарвозадан чиқиб, муюлишга етганда у ёқдан Ўлмасжон кўринди: чарчаган отини ҳоргин-ҳоргин қамчилаб, аста-аста судралмоқда эди. (Чўлпон)

14. Қўшма гапнинг кейинги қисми олдинги қисмдаги мазмунни умуман изоҳлаб келса, икки қисм орасига икки нүкта қўйилади: *Мана, мақсадига етди: машҳур Оташқалбнинг севикли Маъшуқаси номини олди.* (Э.Аъзам) Даранинг аҳолиси ўз иши билан машғул: ўспиринлар подаларни ҳайдаб чиқиб кетади, эркаклар қўшиб шудгор қилмоқда. (С.Айний) Мусофир мухлис уни дарров таниди: *у танимай ким танисин!* (Э.Аъзам) Собиқ мактабдошини таниб-танимай, ноқулайроқ бирор гапни қўзгаб қолишидан юраги така-пука бўлиб ўтирган Оқсоқол шоир, нихоят, енгил тортди: *шунисига ҳам шукур!* (Э.Аъзам)

## 5. Қавс

1. Гап ичида асосий фикрга қўшимча сифатида бериладиган изоҳ, маълумотни ифодалайдиган киритма сўз ёки бирикма

қавсга олинади: Уни биринчи марта Тұла ақа (Т.Хұжсаев)нинг репетициясида күрганман. (А.Мелибоев) Гуля Лагутина ичкариги хонада үзига үхшишиб кетадиган (ё армани, ё озары) бир аёл билан ачомлашиб-чүлпиллашиб, тичир-тичир қила бошлади. (Э.Аъзам) Бунга каминанинг қулогида ва теварагида кучайган (ботиний ва зоҳирий) шовқин ҳам сабаб бўлди-ёв. (Э.Аъзам) Фарҳоднинг тахминича, кинога бевосита дахлор бир-иккитасини айтмаса, даврадагиларнинг аксарияти (келиб-кетувчиларини ҳам қўшганда) анчайин санъат атрофида ўралашиб юрадиган, аммо үзини унча-мунчадан кам санамайдиган омадсизроқ бир тоифа эди. (Э.Аъзам) Борди-ю, ҳуишерлик қилинмаганида, қора бозорга камида 50 минг сўмлик (ўша йилларнинг баҳосида) заҳри қотил маҳсулот чиқиб кетган бўлар эди. (А.Мелибоев) Жароҳат ўрнига қов (куйдирилган пахта) қўйди. (Ғ.Ғулом)

2. Гапичида асосий фикрга қўшимча сифатида бериладиган маълумотни ифодалаган киритма гап қавсга олинади: Ўсар Ҳожарга уйлангач (уйланганигаям йигирма йилдан ошиди), ана шу эски уйчага тақаб бир даҳлиз ва бир меҳмонхона-ётоқдан иборат бошпани қуриб олган эди. (Ш.Холмирзаев) Ота ишонган одамлар (улар орасида Саркор ҳам бор) қувгунга тушмаса ҳали! (О.Ёқубов) Матлуба индамай парк дарвозасига томон йўналди. Самигжон паркдан чиқиши биланоқ беш панжасини кўрсатиб (бу унинг “беш сўм бераман” дегани эди), дуч келган биринчи машинани тўхтатди. (О.Ёқубов) Яна эшиятганим (буни менга қишилогимиздаги бир майхўр шинавандада аста қулогимга шитшиб қўйган) жин, алвасти ароқ ичган одамдан сал нари юрар экан. (А.Мелибоев)

3. Бошқа тилдаги гапнинг ёки бошқа тилдаги муайян бўлакнинг таржимаси қавсга олинади: *Ok. Continue the fly* (“Яхши. Учишда давом этинг”). (И.Султон) *Yes, sir (Хўп бўлади, сэр)*. (И.Султон) Менинг биринчи мақолаларим қирғиз тилида чиқадиган “Эмгек данқи” (“Меҳнат шуҳрати”) номли туман газетасида босилган. (А.Мелибоев)

4. Гап ичидаги асосий фикрга муаллифнинг субъектив муносабатини ифодалайдиган кириш сўз ёки бирикма қавсга олинади: *Муқаддас эса (ажабо!)* гўё ҳеч нарсани сезмас, у нимагадир севиниб, ҳадеб кулар... эди. (О.Ёқубов) Бирор ўқ бориб унинг қўлига теккан деса, бошқа бирор (*Астарьфуруллоҳ!*) нақд оғзига теккан дейди. (Э.Аъзам) Менга битилган хатни икки кун (икки кун-а!) сақлаб юрибсиз, ўша икки кун мобайнида хаёлан икки юз минг кўчага кириб чиққанимни тасаввур қиласизми? (Х.Дўстмуҳаммад) Туйқус ён томондан қўлларида чўқмор (ҳа, ҳа, ростакам чўқмор!), коржома кийган икки барзанги саҳнага кириб келди. (Э.Аъзам)

5. Гап ичидаги асосий фикрга муаллифнинг субъектив муносабатини ифодалайдиган кириш гап қавсга олинади: *Кўнгил қўйганлари бошқа эди, бошқалар эди. Уни биз биламиз* (*Билмайлар кетайлик, илойим!*). (Э.Аъзам) *Сизнинг хаёлларингизни остин-устин қилган ўзимдаги фазилатларни* (*Ростдан ҳам, борми улар?*) топиб, ардоқлаб яшайман. (Х.Дўстмуҳаммад) *Бойлар бўлса на фуқарони бир чақага олади* (*буниси-ку майли-я*), на мингбошини (мана мунисига чида бўлмайди!). *Очиқдан-очиқ сўқади, ҳақорат қиласиди...* (*Чўлпон*)

6. Сахна асарлари матнидаги турли изоҳ, ремаркалар қавс ичида берилади: *СОҲИБҚИРОН*. Йўқ! Бари Оллоҳдан. Яратган эгамнинг хоҳии шул эркан. Ўз жаннатидан жой ато қилгай!

(Қалқонбекка). Дафн тараддудини кўринглар! (Юзига фотиҳа тортади. Сарагулни ўрнидан турғизади). Сен қачон келдинг бу масканга? (О.Ёқубов) *ОЛИМЖОН* (Аломатга қараб туриб). Ие, бу ўчиб қопти-ку... (Роботнинг елкасидаги блокни кавлаштира бошлийди.) (Ш.Бошибеков)

## 6. Қўштириноқ

1. Ҳар бири алоҳида абзац кўринишида янги қатордан эмас, балки кетма-кет бир қаторда берилган диалог репликалари шаклидаги кўчирма гап қўштириноққа олинади. (“Кўчирма гапли кўшма гапларда тиниш белгилари” деб номланган қисмда бу ҳақда батафсил айтилади.)

2. Турли манбалардан олинган иқтибослар қўштириноқ ичида берилади: Навоий умрининг охирларида яратган “Маҳбубул-қулуб” асарида ёзади: “Яхши-ямоннинг феълини билибмен ва ямону яхши хислатларин тажриба қилибмен”. (Н.Комилов) “Одами эрсанг, демагил одами Оникум, йўқ ҳалқ ғамидин ғами”. (Алишер Навоий) Ҷўлтон шундай деб ҳайқирган эди: “...Кишиан кийма, Бўйин эгма Ки, сен ҳам ҳур тугилгонсен!” Юнонларнинг Лукиан деган ёзувчиси ўтган. Эрамиздан аввал. Унинг “Ватан шаънига” деган асари бор. Ундаги биринчи жумла шундай экан: “Ўз она-отасини севмаган фарзанд ўзга ота-оналарни ҳурмат қила билмайди. Ва ўз ватанини севмаган киши ўзгалар ватанини ҳурмат қила олмайди!” (Ш.Холмирзаев)

3. Ички нутқ шаклидаги бирликлар (ўй-хаёл, мулоҳаза, тасаввур каби) қўштириноққа олинади: *Шавкат секин ойнаси дарз кетган суратга термулиб қарап экан, хаёлидан ушибу ўйлар ўтди: “Қийналиб кетдим, Сурайё... Сен бўлганингда, бу кўргуликлар йўқ эди... Ўзинг ҳаммасини эплардинг...”* (Ш.Бошбеков)

4. Гапда одатдаги маъносидан бошқа маънода қўлланган, шунингдек, эски, янги ёки чет сўзлар қўштириноққа олиб берилади: *Бориб-бориб йирикроқ “иши”га ўтди – одамларниг уйжойи, мол-ҳолини ўғирлайдиган бўлди.* (Ш.Бошбеков) *Шундагина Шавкат “ўтлаб” кетаётганини англаб қолди.* (Ш.Бошбеков) *Бу турқи совуқнинг шўрлик Отага “мехри” тушган экан, уни тинч қўймади.* (О.Ёқубов) (*Маладес, Шайх! Орангутан бўп кет-e!*) Бундай “мақтovлар” Шайхни баттар жазавага солади. (Ў.Хошимов) *Кўп ўзингдан кетаверма, аданг “шишика” бўлса ўзига!* (Ш.Бошбеков). У келганимиздан бери аллақандай лугатни ёнидан қўймайди, бироқ овқат маҳали бор билими эсидан чиқиб кетадими, нуқул “фиши” (балиқ), “чикен” (қовурма жўёжа гўйити), “ти” (чой) ёки “бия” (пиво) дейди. (Э.Аъзам)

5. Турли асарларнинг, шунингдек, китоб, газета, журналларнинг номлари, сарлавҳалар алоҳида олинганда эмас, балки матнда қўлланганда, қўштириноққа олинади: *A. Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романини ўқидим; Ў.Хошимовнинг “Дунёнинг ишлари” қиссаси; A. Ориповнинг “Ўзбекистон” шеъри; “Мафтунингман” бадиий фильмни; “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслиги; “Меҳнат кодекси” китоби; “Ҳалқ сўзи” газетаси; “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси; “Шарқ юлдузи” журнали; “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали каби.*

6. Муассаса, ташкилот, корхона ва шу кабиларнинг шартли номлари қўштириноққа олинади: “Ўқитувчи” нашириёти, “Фан” нашириёти, “Жаҳон” ахборот агентлиги, “Оила” илмий-амалий маркази, “Тасвирий ойина” ижодий уюшмаси, “Олтин мерос” халқаро ҳайрия жамғармаси каби.

7. Ўзбекистон Республикаси орден ва медалларининг номи қўштириноққа олинади: “Мустақиллик” ордени, “Буюк хизматлари учун” ордени, “Эл-юрт ҳурмати” ордени, “Соғлом авлод учун” ордени, “Олтин юлдуз” медали, “Жасорат” медали, “Шуҳрат” медали каби.

Аммо буюк шахслар номи билан аталган орден номлари қўштириноққа олинмайди: Амир Темур ордени, Жалолиддин Мангуберди ордени каби.

8. Турли маҳсулотларнинг шартли номлари қўштириноққа олинади: “Қорақум” конфети, “Пахта” торти, “Самарқанд” музлаткичи, “Нексия” автомашинаси каби.

### **Кўчирма гапли қўшма гапларда тиниш белгиларининг қўлланиши**

1. Кўчирма гаплар алоҳида абзац кўринишида янги қатордан эмас, балки кетма-кет бир қаторда берилган бўлса, қўштириноққа олинади: Мунинг устига яна таъна ҳам қилиб қўйди: “Ким оларди энди у камтирни?” (Чўлпон) Аммо агар кўчирма гап алоҳида абзац кўринишида янги қатордан берилган бўлса, қўштириноққа олинмайди ва унинг бошланиши олдидан тире қўйилади:

*Шунда кекса олим деди:*

– Ўзбекистондаги дунёда менги бўлмайди. (Ў. Умарбеков)

*Бирдан у қаддини ростлади ва ўчоқ бошига қараб бақирди:*

– *Ойи! Отини нима қўямиз?* (Ў.Умарбеков)

*Эшикка етганда Обид ака:*

– *Тешавой!* – деб чақирди. (Ў.Умарбеков)

2. Агар кўчирма гап муаллиф гапидан кейин келса, муаллиф гапидан сўнг икки нуқта кўйилади ва кўчирма гап бош ҳарф билан бошланади; кўчирма гап дарак мазмунида бўлса, нуқта қўштироқдан ташқарида, сўроқ мазмунида ёки эмоционалликка эга бўлганда эса сўроқ ёки ундов белгиси, шунингдек, кўпнуқта ёпилувчи қўштироқдан олдин қўйилади: *Барча деди баробар: “Она тилим ўлмайди”.* (Э.Воҳидов) *Отаси гапини маъқуллади:* “Тентираб юрма бегона юртларда! Келавер, очингдан ўлсанг, мен кафил”. (Ў.Хошимов) *Мансурнинг оғзидан* ногоҳ чиқиб кетди: “Жўра, бир ўтириши қилсам, нима дейсиз?” (Ш.Холмирзаев) *Шаҳобиддин гап қотди:* “*Отаси сотармикан бу ҳурлиқони ё сандиққа қамаб, нархини ошириб ўтираверармикан?*” (А.Ибодинов) *Салимунинг қўлидан юлқиниб, уйга чопди, зум ўтмай отасидан қолган қўштиғни кўтариб чиқиб, Полвонга ўқталди:* “Кет, бўлмасам, отаман!” *Маҳфират милтиққа қўкрагини тутди:* “*Аввал мени отасан!..*” (М.М.Дўст) *Дам ўтмай кўчада онанинг фигони эшитилди:* “*Менинг болам ўгри эмас, нега уни қийнайсизлар. Унинг жигари касал...*” (Т.Малик)

3. Кўчирма гап муаллиф гапидан олдин келса, муаллиф гапидан олдин тире қўйилади; кўчирма гап дарак мазмунида бўлса, қўштироқдан кейин вергул қўйилади, сўроқ мазмунида ёки эмоционалликка эга бўлганда эса сўроқ ёки ундов белгиси, шунингдек, кўпнуқта ёпилувчи қўштироқдан олдин қўйилади, муаллиф гапи эса кичик ҳарф билан бошланади: “*Тушунсангизчи, ая, ўз ҳолимга қўйинг, ёш бола эмасман*”, – деди. (Ў.Хошимов)

“Сизгабир оғиз гапим бор эди”, – дедим. (Ш.Холмирзаев) “Кимсан ўзинг?” – дедим жаҳлим чиқиб. (Э.Аъзам) “Ҳой, шу қунингдан ўлганинг яхши масми?” – деб бақирдим. (Ш.Холмирзаев) “Ўзинг паноҳингда асра, Худо!” – дейди Муяссар хаёлан. (Ў.Ҳошимов)

4. Муаллиф гапи кўчирма гапнинг ичида келганда, муаллиф гапи икки томонидан тире билан ажратилади; бўлакланган кўчирма гап қисмларининг ҳар бири эмас, балки яхлит кўчирма гап қўштирнокка олинади, яъни ичида муаллиф гапи мавжуд бўлган кўчирма гапнинг бошида қўштирнок очилиб, унинг охирида ёпилади; бўлакланган кўчирма гапнинг биринчи қисми бўлаклангунга қадар вергул, нуктали вергул, икки нукта, тире каби тиниш белгиларини тақозо этган ёки ҳеч қандай тиниш белгисини тақозо этмаган бўлса, кўчирма гапнинг айни узилган жойида вергул қўйилади ва муаллиф гапидан кейин ҳам вергул қўйилиб, муаллиф гапи, шунингдек, кўчирма гапнинг иккинчи қисми кичик ҳарф билан бошланади: “*Ким астойдил ҳаракат қилса, – дейди кексалар, – ўша ҳар қандай мақсадига эришади*”. (Газета) “*Шуни ҳам айтиб қўяй, – сўзида давом этди Иброҳимов, – ҳозирги замонда хотин баҳтини эрдан куттмайди*”. (А.Қаҳхор) “*Лекин қобилият кейин ҳам юзага чиқиши мумкин, – деб ўзича тўнгиллади Зокир Ўрин ниҳоят. – Буям талантдай гап*”. (Ш.Холмирзаев) “*Талабалар, – дейди устозлар, – ўз устларида мунтазам ишламоқлари лозим*”. (Газета)

5. Агар бўлакланган кўчирма гапнинг биринчи қисми бўлаклангунга қадар нуктани тақозо этган бўлса, кўчирма гапнинг айни узилган жойида вергул қўйилади ва муаллиф гапи кичик ҳарф билан бошланиб, ундан кейин нукта қўйилади; кўчирма гапнинг иккинчи қисми бош ҳарф билан бошланади: “*Ма, – деди машинанинг қия очиқ эшигидан узатиб. – Гуландомниям оғзи тегсин*”. (Ў.Ҳошимов) “*Уч йилдан бери*

*шу гапни кутар эдим сиздан, – деди Омон ийманиб. – Қилинг. Бир ёнини ўзим кўтараман... ”. “Йўқ, ҳаммаси ўзимдан, – кесиб таъкидлади Мансур. – Армоним шу эди, жўра”. (Ш.Холмирзаев) “Камбагалнинг эккани унмайди, боласи кўпаяди ўзи, – деб ўйлади Шоикром ижирганиб. – Шу кунимдан кўра урушга бориб, ўлиб кета қолганим яхшийди”. (Ў.Хошимов)*


6. Агар бўлакланган кўчирма гапнинг биринчи қисми бўлаклангунга қадар сўроқ ёки ундов белгисини тақозо этган бўлса, кўчирма гапнинг айни узилган жойида сўроқ ёки ундов белгиси қўйилади ва муаллиф гапи кичик ҳарф билан бошланиб, ундан кейин нуқта қўйилади; кўчирма гапнинг иккинчи қисми бош ҳарф билан бошланади: “*Наҳотки, Султонмурод акам? – дейман. – Ўзи қолиб, шерик бошлаб кептими энди?.. Бўлакдир-э, ўлибдими?!*” (М.Мансур) “*Тавба! – дейман. – Бу қанақаси бўлди!*” (Ш.Холмирзаев) “*Менга деса, отиб юбормайдими?! – деб ўйлади у айвон лабига чўққайиб ўтирганича усти ёпиқ симни очиқ симга илдам уларкан. – Ҳарна битта ҳаромхўрни ўлдирганим*”. (Ў.Хошимов)

7. Кўчирма гап муаллиф гапининг ичида келганда, у бош ҳарф билан бошланиб, қўштириноққа олинади ва унинг олдидан икки нуқта қўйилади; кўчирма гапдан кейин унинг мазмунига мувофиқ вергул (ёпилувчи қўштириноқдан кейин) ёки сўроқ, ёки ундов, ёки кўпнуқта (ёпилувчи қўштириноқдан олдин) қўйилади, бу белгилардан кейин эса тире қўйилади: *Кампирни уйготиб: “Тур, кароматингни кўрсат”, – дедим.* (Ойбек) *Бунга қарши ўжар чўлоқ: “Аввал қуда қилиб, кейинча ўзим ҳам шаҳарга кўчмоқчиман”, – деб жавоб берди.* (Чўлпон) *Меҳмонларга: “Зерикмадингизларми?” – деб, супанинг бир четига ўтирди.* (Ойбек) *Тўн кийиб, белбоз боғлаган болакайлар кўзидан дув-дув*

ёш оқиб: “Бувижоним, бувижоним!” – деб чирплашар эди. (Ү.Хошимов) Она эса: “Болам, қишилогимиз, одамларимиз яна ҳам яхши бўлиб кетди, мана, келсанг кўрарсан...” – дерди. (С.Аҳмад) Қизалоқ: “Отам сизни йўқлаётувди. Зерикканлар...” – деди. (Ш.Холмирзаев)

8. Кўчирма гап мазмунан муаллифнинг ўй-хаёли, ички кечинмаси, ички фикр-мулоҳазаси кабиларга дахлдор бўлиб, бевосита талаффуз қилинган нутқ мақомида бўлмаса, яъни муаллиф гапининг синтактик асосини ...деб ўйлади, ...деб хаёл қилди, ...деб фикр-мулоҳаза қилди, ...дея хавотир олди, ...дея қўрқувга тушибди каби, шунингдек, ...деган фикрдаман, ...деган гап, ...дегандай бўлди, ...дегандай ишора қилди каби сўз шакллари ташкил этган бўлса, кўчирма гап кучсизланган, ундаги воқеани номлаш даражаси эса кучайган бўлади, шунинг учун мазкур “кўчирма гап” қўштириноққа олинади, ундан кейин ёки олдин эса ҳеч қандай тиниш белгиси ишлатилмайди; фақат агар “кўчирма гап” эмоционалликка ёки сўроқ мазмунига эга бўлса, ёпилувчи қўштириноқдан олдин ундов ёки сўроқ белгиси қўйилади: “Наҳотки, бирга ўқисак, яхши қиз экан” деб ўйларди. (Ў.Умарбеков) “Яна феъли айнибди чолнинг!” деб ўйлади кампир. (Чўлпон) Ҳозир, бирпас нафасни ростраб олай, кейин “Ё пирим!” деб кўтарамиз-у, кетаверамиз. (Ш.Бошбеков) “Йўқ, гаплашиши қийин бўлса керак” деб ўйлайман. (Ў.Умарбеков) “Уйда хотиним бор, қизим бор, улар нима ейди?” деб ўйламайди. (Чўлпон) “Бу жойда ўзга мақсад бўлиши мумкин эмас!” деб ўйларди у. (Чўлпон) “Бу кетишида, қизим шўрлик, тўйга етармикан, йўқмикан?” деган хаёллар онанинг бағрини тилардилар. (Чўлпон) “Таши ялтироқ, ичи қалтироқ” деган гап бор. (Чўлпон) Зуннун “Йўқ, йўқ” деган маънода қўлини чайтиди. (Чўлпон) Низом қайиқни сокин


құлтиққа буриб келиб тұхтатганды, Ҳамидага маңыс термулиб, “Яна қачон күришамиз?” дегандек қаради. (П.Қодиров) “Мен қүйиб юбордим, сиз ҳам қүйиб юборинг” деган ишорани билдириди. (Т.Мурод) Улугбек “Жим!” дегандай үнг құлини сал құтариб қүйиб, Абдулваҳобға тикилди. (Т.Малик) Йигитлар “Кім жавоб беради?” дегандек бир-бирларига қараб олишиди. (Т.Малик) “Сендан ёзувчи чиқади-ёв” деган мақтөвдан талтайиб, олдидағи қогоззға баттар ётишиади. (Ә.Аъзам)



## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Абдалиева Г.Р. Основы русской пунктуации. – Нукус, 2006.
2. Абдураҳмонов F. Пунктуация ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
3. Алимухаммедов Р. Қадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни англаш учун ишлатилган ишоралар ҳакида // Хорижий филология. 1-сон. Тошкент, 2016. – Б. 49–53.
4. Bahriiddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 65 b.
5. Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979.
6. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М., 2004.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zME, 2013.
8. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2019.
9. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
10. Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. – Тошкент: Фан, 1974.
11. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари (Пунктуация). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

12. Содиқов Қ. Уйғур ёзуви тарихи (Манбашунослик ва китобат тарихи масалалари) – Тошкент: Маънавият, 1997.
13. Fitrat A. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba. 1-kitob: Sarf. 2-kitob: Nahf // Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. – Toshkent, 2009. – 336 b.
14. Содиқов Қ. Эски туркий битиклар. – Тошкент, 2009.
15. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. б. ф. д-ри. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019.
16. Шоабдураҳмонов Ш. Пунктуация асослари. – Тошкент, 1953.
17. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. – Тошкент, 1955.
18. Фозиев Ҳ. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1979.




## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| Me'yor tilning yashash shaklidir.....                        | 3   |
| Punktuatsyaning maqsadi va nazariy asoslari.....             | 5   |
| O'zbek punktuatsiyasi tarixi.....                            | 13  |
| O'zbek punktuatsiyasi asoslari.....                          | 23  |
| O'zbek punktuatsiyasi tamoyillari.....                       | 27  |
| Punktuatsyaning boshqa sohalar bilan munosabati.....         | 32  |
| O'zbek tilida tinish belgilarining tasnifi.....              | 43  |
| Tinish belgilarining takror va qator ishlatilishi.....       | 47  |
| Punktuatsiya – fikrni yozma mukammal ifodalash vositasi..... | 62  |
| O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari.....         | 64  |
| Foydalanilgan adabiyotlar.....                               | 109 |



## **МУНДАРИЖА**

|   |     |
|---|-----|
| Меъёр тилнинг яшаш шаклидир.....                        | 113 |
| Пунктуациянинг мақсади ва назарий асослари.....         | 115 |
| Ўзбек пунктуацияси тарихи.....                          | 123 |
| Ўзбек пунктуацияси асослари.....                        | 135 |
| Ўзбек пунктуацияси тамойиллари.....                     | 139 |
| Пунктуациянинг бошқа соҳалар билан муносабати.....      | 144 |
| Ўзбек тилида тиниш белгиларининг таснифи.....           | 156 |
| Тиниш белгиларининг такрор ва қатор ишлатилиши.....     | 161 |
| Пунктуация – фикрни ёзма мукаммал ифодалаш воситаси.... | 177 |
| Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари.....       | 180 |
| Фойдаланилган адабиётлар.....                           | 228 |



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲҚАМАСИННИГ  
ДАВЛАТ ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ  
ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОРИ ИНСТИТУТИ**

**O‘ZBEK TILI ME’YORLARI  
(PUNKTUATSIYA)**

**ЎЗБЕК ТИЛИ МЕЬЁРЛАРИ  
(ПУНКТУАЦИЯ)**

Тошкент – “Zamin Nashr” – 2021  
Нашриёт лицензияси АИ № 015 20.07.2018 й.

Мухаррир – Ё. Иноғомов  
Саҳифаловчи – Р. Худайберганов


Босишига 27.01.2021. да руҳсат этилди.  
Бичими 70x100 1/16. Times New Roman гарнитураси.  
Офсет босма усулида босилди.

Босма т. 14,5.

Адади 3000 нусха. Буюртма №0351  
“Credo Print” китоб фабрикасида чоп етилди.  
Тошкент шаҳри, Боғишамол кўчаси, 160-үй.



DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH  
DEPARTAMENTI



9 789943 688841